

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

TILSHUNOSLIK FANINING O‘QUV-USLUBIY
MAJMUASI

SAMARQAND – 2016

X. Xayrullayev. Tilshunoslik. O‘quv-uslubiy majmua. Samarqand:
SamDCHTI, 2015, 210 bet.

Mas’ul muharrir: f.f.n., dots. **B.N.Turniyozov**
Taqrizchilar: f.f.n. **A. Turobov**, f.f.n. **G. Karimova**

KIRISH

Respublikamizda ta'lim tizimi va usulining yangilanishida Oliy Majlisning IX sessiyasi katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» ning qabul qilinishi bu sohada tub burilish yasadi.

An'anaviy o'qitish uslubiga xos talaba o'quv jarayonining oddiy tinglovchi sub'yekti, o'qituvchi esa axborotni yetkazuvchi faol sub'yekt sifatida tashkil etilish tamoyilidan «talaba va o'qituvchi o'quv jarayonining faol ishtirokchisi» tamoyiliga o'tildi. Mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek: «... fanning vazifasi kelajagimizning shakl-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat». Shunday ekan, har bir o'qituvchi o'z oldiga qo'yilgan vazifaga katta mas'uliyat bilan yondashmog'i darkor, albatta. Ushbu vazifalar esa to'g'ri tuzilgan reja asosida amalga oshiriladi. Ana shularni hisobga olagn holda, Tilshunoslik fanidan dars o'tilishi jarayonini to'liq yoritib beruvchi o'quv-uslubiy m a j m u a yaratildi. Ushbu majmua quyidagilarni o'z ichiga oladi: namunaviy o'quv dasturi, ishchi o'quv dasturi, reyting nazoratlari grafigi, baholash mezonlari, kalendar ish rejasi, ma'ruzalar matni va ularning ishlanmasi (80 minutlik darsni tashkil qilish taqsimoti bilan), seminar mashg'ulotlari ishlanmasi (80 minutlik darsni tashkil qilish taqsimoti bilan), mustaqil ta'lim ishlanmasi, test savollari, yakuniy nazorat yozma ish variantlari, o'quv adabiyotlari ro'yxati, uslubiy qo'llanma.

O'quv-uslubiy majmua chet tillar institutlari talabalari hamda tilshunoslik masalalari bilan qiziquvchi kishilarga mo'ljallangan.


O'quv-uslubiy majmuada tilshunoslik fani shug'ullanadigan masalalar xususida ma'lumotlar keltiriladi. Bunda tilshunoslikning fonetika, leksikologiya, morfologiya va sintaksis bo'limlari o'rganadigan masalalar haqida qisqacha so'z yuritilishidan tashqari umumiy tilshunoslikka tegishli bo'lgan tilning paydo bo'lishi, antik davrlar tilshunosligi, til va tafakkur, yozuv va harf, shuningdek, sotsiolingvistika masalalari xususida ham ilmiy tushunchalar berishga harakat qilindi.

Ushbu majmuani tuzishda Mahmud Koshg'ariy, F. de Sossyur, A. Martine, L. Tenyer, A. Reformatskiy, V. Koduxov, N. Turniyozov, M. Irisqulov, V. Gak, R. Budagov, YU. Stepanov, F. Berezin, N. Trubeskoy, V. Matezius, A. Smirniskiy kabi olimlarning asarlaridan foydalanildi.

Namunaviy o'quv dasturi

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА-МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Ўзбекистон
Республикаси
Олий ва ўрта-
махсус таълим
вазирлиги нинг
2015 йил 14-
мартдаги 107-
буйруғи билан
тасдиқланган



"Рўйхатга
олинди"
№БД-51201-
3.02 2015. 14-
март

ТИЛШУНОСЛИККА

КИРИШ

фанининг ўқув дастури

Билим соҳаси: 10000 – гуманитар соҳа

Таълим соҳаси: 120000- гуманитар фанлар

Таълим йўналишлари: 5120100-филология ва
тиللарни ўқитиш (инглиз, немис, француз,
испан тиллари)

5120200-таржима назарияси ва амалиёти
(тиллار бўйича)

ТОШКЕНТ - 2015

Фаннинг ўқув дастури Олий ва ўрта-махсус, касб-хунар таълими ўқув-методик бирлашмалари фаолиятини мувофиқлаштирувчи кенгашнинг 2015 йил 6-мартдаги 1-мажлисида муҳокама етилди ва маъқулланди.

Фаннинг ўқув дастури Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университетида ишлаб чиқилди.

Тузувчилар:
Содиқов А.С. Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети умумий тилшунослик кафедраси мудири, ф.ф.н., доц.
Султонова Ш.М. Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети умумий тилшунослик кафедраси ўқитувчиси.

Фаннинг ўқув дастури Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университетининг илмий кенгашида муҳокама қилинган ва тасдиқлашга тавсия қилинган.

28.12. 2014 йил. 5-баённома.

Кириш

Ушбу дастур чет тиллар институти иккинчи курс шарқ тиллари филологияси талабаларига дарс бериш жараёнини ҳисобга олинган ҳолда тузилди. Дастурда тилшунослик фани шуғулланадиган соҳалар мавзуларда қамраб олинди. Бу мавзулар жумласига фонетика, лексикология, морфология ва синтаксис бўлимлари ўрганадиган масалалар киритилди. Бундан ташари, умумий тилшуносликка тегишли бўлган тилнинг пайдо бўлиши, антик давр тилшунослиги, тил ва тафаккур, ёзув ва ҳарф, шунингдек, социолингвистика масалалари ҳам еътиборга олинди.

Ўқув фанининг масад ва вазифалари

Фанни ўқитишдан масад — талабаларда тилшуносликка кириш, дунё тилларининг умумий ва хусусий қонуниятлари ҳаида тасаввур ҳосил қилиш, тиллар тарихи, тил алоқалари, тил билан халқ ўртасидаги муносабатлар тушунчаларини англатиш ва уларни тилга ва унинг егаларига ҳурмат руҳида тарбиялаш, мутахассислигига мос билим, кўникма ва малакаларни шакллантиришдир.

Фаннинг вазифаси — талабаларга ўрганилаётган тиллар, шунингдек, дунё тиллари ўртасидаги фарқларни кўрсатиш, тилшуносликка оид атама ва тушунчалар тўрисида маълумот бериш, филология соҳасини ўрганишга тайёрлаш.

Фан дастури бўйича билим, малака ва кўникмаларга қўйиладиган талаблар

Тилшуносликка кириш курсини ўзлаштириш жараёнида амалга ошириладиган масалалар доирасида бакалавр:

- тил — ижтимоий ҳодиса;

- тил сатҳлари;
- тилшунослик ва бошқа фанлар ўртасидаги алоқалар;
- тилларнинг типологик ва генеологик таснифи;
- тилшунослик тарихи ва тилшунос олимлар;
- замонавий дунё тиллари тўрисида етарли даражада билимга ега бўлиш;
- тил тарихи ва назарияси тўрисида кенг билимни егаллай олиш;
- Ўзбекистонда ва хорижий давлатларда нашр қилинган илмий адабиётлар билан ишлаш;
- ўрганилаётган чет тилидан она тили хусусиятларини ажрата олиш;
- турли тилларни оила ва гуруҳларга таснифлай олиш;
- замонавий тилшунослик масалаларини тушуна олиш малакасига ега бўлиши ва улардан фойдалана олиши;
- чет тили ўрганиш амалиётида назарий билимларни қўллаш;
- тилшунослик бўйича илмий изланишларга касбий нуқтаи назардан қараш;
- дунё тилшунослигида рўй бераётган жараёнларни ўзаро боғлиқлик нуқтаи назаридан таҳлил қилиш;
- тилларнинг умумий ва хусусий белгилари ҳақидаги тушунчаларни амалиётда қўллаш кўникмасига ега бўлиши зарур.

Фаннинг ўқув режадаги бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлиги ва услубий

жиҳатдан кетма-кетлиги

Тилшуносликка кириш фани талабаларга 3-семестрда ўйилади. Дастур бўйича ўтилган дарсларда талабалар бўлажак филолог сифатида ўз мутахассислиги бўйича бошланғич билим олиш билан бирга келгусида ўтиладиган назарий ва амалий фанлар билан боғлиқ тушунча ва терминлар билан танишадилар. Ушбу фанни ўзлаштириш ўқув режасидаги фонетика, грамматика, лексикология, стилистика ва типология фанларига талабани бевосита тайёрлайди.

Фаннинг ишлаб чиаришдаги ўрни

Хорижий филология таълим йўналиши бўйича бакалавр тайёрлаш босқичининг ажралмас бўғини сифатида тилшуносликка кириш умумкасбий блокидаги фан ҳисобланиб, талаба-бакалаврларнинг умумий ўрта таълим мактаблари, академик лицейлар ва касб-унар коллежларида фаолият кўрсатишига ёрдам беради.

Фанни ўқитишда замонавий ахборот ва педагогик технологияларни қўллаш

Тилшуносликка кириш фанини ўйтишда қуйидаги педагогик технологиялардан фойдаланилади:

- таълим жараёни олдиндан лойиҳаланади ва аудиторияда талабалар билан қайта ишлаб чиқилади;
- тизимли ёндашув асосида талабаларнинг ўқиш ва билиш фаолиятини тасвирлайдиган таълим жараёнининг лойиҳаси тузиб чиқилади;
- таълим масади реал, аниқ диагностик бўлишига еришилади ва талабанинг билим, ўзлаштириш сифати объектив баҳоланади;
- таълим жараёнининг тузилиши ва мазмуни яхлитлиги, ўзаро боғлиқ ва ўзаро муносабатда бўлишига еришилади;
- тилшунослик асослари фанининг барча исмлари, тушунчалари базавий тамойилларини ўқитишда таълим шакллари оптималлаштиришга еришилади;
- таълим жараёнида техник воситалар (компютер, интернет) ва инсон салоҳиятининг ўзаро таъсири ҳисобга олинади;
- маърузавий ва семинар машулотлар талабанинг фаоллигига таяниб “ақлий ҳужум”, “чархпалак”, “зигзаг” каби интерфаол методлар ёрдамида олиб борилади;
- оралиқ ва якуний назорат, баоҳлашнинг керакли ўринлари белгиланган меъзонларга биноан талабаларнинг ёзма иш (ёки тест) вазифаларини бажариши орқали амалга ошириладиги, бунда талабалар билим даражаси шакллантирувчи ва жамловчи баҳолар ёрдамида аниқланади;

Фанни ўзлаштириш учун омил бўладиган замонавий ахборот ва педагогик технологияларнинг аҳамияти каттадир. Педагогик технологияларни ўқиш жараёнига қўллаш механизмлари профессор – ўқитувчилар томонидан ишлаб чиқилади. Ушбу соҳада еришилган ютулар таълим жараёнида қўлланади.

Тилшуносликка кириш фанини ўқитишда замонавий педагогик технологиялардан (компютер, интернет ва б.) фойдаланишнинг пировард мақсади таълимнинг режалаштирилган натижасига еришишнинг кафолатланганлиги ва таълим самарадорлигининг юқори бўлишига еришишдир.

Ўқув жараёни билан боғлиқ таълим сифатини белгиловчи ҳолатлар қуйидагилар: юқори илмий-педагогик даражада дарс бериш, муаммоли маърузалар ўқиш, дарсларни савол-жавоб тарзида қизиарли ташкил қилиш, илғор педагогик технологиялардан ва мултимедиа воситаларидан

фойдаланиш, тингловчиларни ундайдиган, ўйлантирадиган муаммоларни улар олдида ўйиш, талабчанлик, тингловчилар билан индивидуалишлаш, еркин мулоқот юритишга, илмий изланишга жалб қилиш.

Тилшуносликка кириш курсини лойиалаштиришда қуйидаги асосий концептуал ёндошувлардан фойдаланилади:

Шахсга йўналтирилган таълим. Бу таълим ўз моҳиятига кўра таълим жараёнининг барча иштирокчиларини тўлақонли ривожланишларини кўзда тутди. Бу еса таълимни лойиалаштириладиганда, албатта, маълум бир таълим олувчининг шахсини емас, аввало, келгусидаги мутахассислик фаолияти билан боғлиқ ўқиш масадларидан келиб чиққан ҳолда ёндошилишни назарда тутди.

Тизимли ёндошув. Таълим технологияси тизимнинг барча белгиларини ўзида мужассам етмоғи лозим: жараённинг мантиқийлиги, унинг барча бўғинларини ўзаро боғланганлиги, яхлитлиги.

Фаолиятга йўналтирилган ёндошув. Шахснинг жараёнли сифатларини шакллантиришга, таълим олувчининг фаолиятни активлаштириш ва интенсивлаштириш, ўқув жараёнида унинг барча қобилияти ва имкониятлари, ташаббускорлигини очишга йўналтирилган таълимни ифодалайди.

Диалогик ёндошув. Бу ёндошув ўқув муносабатларини яратиш заруриятини билдиради. Унинг натижасида шахснинг ўз-ўзини фаоллаштириши ва ўз-ўзини кўрсата олиши каби ижодий фаолияти кучаяди.

Ҳамкорликдаги таълимни ташкил етиш. Демократик, тенглик, таълим берувчи ва таълим олувчи фаолият мазмунини шакллантиришда ва еришилган натижаларни баҳолашда биргаликда ишлашни жорий етишга еътиборни аратиш зарурлигини билдиради.

Муаммоли таълим. Таълим мазмунини муаммоли тарзда тақдим қилиш орқали таълим олувчи фаолиятини активлаштириш усулларида бири. Бунда илмий билимни объектив карама-қаршилиги ва уни ҳал етиш усуллари, диалектик мушоҳадани шакллантириш ва ривожлантириш, амалий фаолиятга уларни ижодий тарзда қўллаш мустақил ижодий фаолиятни таъминлайди.

Ахборотни тақдим қилишнинг замонавий воситалари ва усулларини қўллаш – янги компютер ва ахборот технологияларини ўқув жараёнига қўллаш.

Ўқитишнинг усуллари ва техникаси. Маъруза (кириш, мавзуга оид, визуаллаш), муаммоли таълим, кейс-стади, пинборд, парадокс ва лойиалаш усуллари, амалий ишлар.

Ўйтишни ташкил етиш шакллари: диалог, полилог, мулоот ҳамкорлик ва ўзаро ўрганишга асосланган фронтал, коллектив ва гуруҳ.

Ўқитиш воситалари: ўқитишнинг анъанавий шакллари (дарслик, маъруза матни) билан бир қаторда – компютер ва ахборот технологиялари.

Коммуникация усуллари: тингловчилар билан оператив тескари алоқага асосланган бевосита ўзаро муносабатлар.

Тескари алоқа усуллари ва воситалари: кузатиш, блиц-сўров, орқали ва жорий ва якунловчи назорат натижаларини таҳлили асосида ўқитиш диагностикаси.

Бошқариш усуллари ва воситалари: ўқув машғулоти босқичларини белгилаб берувчи технологик карта кўринишидаги ўқув машғулотларини режалаштириш, қўйилган мақсадга еришишда ўқитувчи ва тингловчининг

биргаликдаги ҳаракати, нафақат аудитория машғулоти, балки аудиториядан ташқари мустақил ишларнинг назорати.

Мониторинг ва баҳолаш: ўқув машғулотида ҳам бутун курс давомида ҳам ўқитишнинг натижаларини режали тарзда кузатиб бориш. Курс охирида тест топшириқлари ёки ёзма иш вариантлари ёрдамида тингловчиларнинг билимлари баҳоланади.

Тилшунослик фанини ўқитиш жараёнида компьютер технологиясидан, “Ексел” электрон жадваллар дастурларидан фойдаланилади. Айрим мавзулар бўйича талабалар билимини баҳолаш тест асосида ва компьютер ёрдамида бажарилади. “Интернет” тармоғидаги расмий иктисодий кўрсаткичларидан фойдаланилади, тарқатма материаллар тайёрланади, тест тизими ҳамда таянч сўз ва иборалар асосида оралиқ ва якуний назоратлар ўтказилади.

Foydalaniladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.- T., 2010.
2. Irisqulov M. Tilshunoslik. – T.,2008.
3. Головин Б.Н. Введение в языкознание. –М., 1977.
3. Кодухов В.И. Введение в языкознание. -М., 1979.
4. Yo‘ldoshev I., Sharipova O‘. Tilshunoslik asoslari.-T., 2007.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. R. Rasulov. Umumiy tilshunoslik. – T., 2006.
2. Реформатский А.А. Введение в языковедение. -М., 1967.
3. История письма.-М., 1979.
4. R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik (Tilshunoslik tarixi). I qism.-T., 2005.
5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli luati. –T., 2002.
6. Ne‘matov H., Bozorov O. Til va nutq.-T., 1993.
7. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik ildizlari va yo‘nalishlari.-Andijon, 2006.
8. Звегинцев В.А. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях.- М., 1964.

Internet saytlari

1. http://tjor.ucoz.ru/62513_golovin_b_n_vvedenie_v_yazykoznanie.pdf
2. http://books.google.co.uz/books/about/Tilshunoslikka_kirish.html?id=QLTIAAAAMAAJ&redir_esc=y
3. <http://lb3.textedu.ru/docs/647/index-7882.html>
4. www.susuv.ru
5. www.ziyo.net
6. www.google.uz

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

Ro`yxatga olindi:

№ _____
2016 yil " __ " _____

"TASDIQLAYMAN"

O`quv ishlari bo`yicha prorektor
_____ dots. F.SH. Ro`ziqulov
2016 yil " __ " _____

ARAB TILI NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI
TILSHUNOSLIK
fani bo`yicha tayyorlangan
SILLABUS

Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 120 000 – Gumanitar fanlar

**Ta'lim yo`nalishlari:** 5120100 – Filologiya va tillarni o`qitish (koreys, yapon, xitoy, arab tillari);

Samarqand – 2016

Ushbu sillabus O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2012 yil 14 martdagi 107-raqamli buyrug'i bilan tasdiqlangan Tilshunoslik fanining namunaviy dasturi, o'quv va ishchi o'quv rejaga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

X.Xayrullaev SamDCHTI "Arab tili nazariyasi va amaliyoti" kafedrası
filol.f.n., dotsent.

Taqrizchi:

N.Q.Turniyozov filol.f.d., professor

Fanning sillabusi Samarqand davlat chet tillar instituti "Arab tili nazariyasi va amaliyoti" kafedrası yig'ilishining 2016 yil "26" avgustdagi 1 - son majlisida muhokamadan o'tgan.

Kafedra mudiri:

dots. Turobov A.M.

Kelishildi:

O'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i

M.B.Xoliqov

O'quv fani dasturining qisqacha tavsifi "Tilshunoslik" fanining 2016/2017 o'quv yili uchun mo'ljallangan sillabusi

Fanning qisqacha tavsifi			
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti	Bo'stonsaroy shoh ko'chasi, 93-uy	
Kafedra:	"Arab tili nazariyasi va amaliyoti"	Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti	
Ta'lim sohasi va yo'nalishi:	5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (tillar bo'yicha)	Bakalavriat bosqichining barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan	
O'qituvchi to'g'risida ma'lumot:	O'qituvchi: f.f.n., dots.Xayrullaev Xurshid Zaynievich	e-mail:	mukhammad-kh @ mail.uz
Dars mashg'ulotini	Ma'ruza – dars jadvaliga	Kursni	Ta'lim yo'nalishlari o'quv

o`tkazishning vaqti va joyi:	asosan Amaliyot – dars jadvaliga asosan	o`qitish muddati:	rejasiga muvofiq birinchi kursining birinchi semestrda	
Individual grafik asosida professor-o`qituvchining talabalar bilan ishlash vaqti:	Haftaning Dushanba va Payshanba kunlari tushdan so`ng soat 14.30-16.00 gacha “Arab tili nazariyasi va amaliyoti” kafedrasida			
Fanning boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi (prerekvizitlari):	“Tilshunoslik” fani gumanitar fanlar turkumiga kirib, bu fan talabalarga 3-semestrda o`qitiladi. Tilshunoslik fani o`quv rejadagi inson va jamiyat hayoti hamda faoliyatini o`rganuvchi - tarix, psixologiya soʻsiologiya, pedagogika kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqador.</p> <p>Tilshunoslik fani Dastur bo`yicha o`tilgan darslarda talabalar bo`lajak filolog sifatida o`z mutaxassisligi bo`yicha boshlang`ich bilim olish bilan birga kelgusida o`tiladigan nazariy va amaliy fanlar bilan bog`liq tushuncha va terminlar bilan tanishadilar. Ushbu fanni o`zlashtirish o`quv rejasidagi fonetika, grammatika, leksikologiya, stilistika va tipologiya fanlariga talabani bevosita tayyorlaydi.</p> <p>Xorijiy filologiya ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr tayyorlash bosqichining ajralmas bo`g`ini sifatida Tilshunoslik umumkasbiy blokidagi fan hisoblanib, talaba-bakalavrlarning umumiy o`rta ta`lim maktablari, akademik listeylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko`rsatishiga yordam beradi.			
O`qituvchining talabaga qo`yadigan asosiy talablari:	- o`qituvchiga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo`lish; -institut ichki tartib - intizom qoidalariga rioya qilish; - uyali telefonni dars davomida o`chirish;</li><li>- berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o`z vaqtida va sifatli bajarish; - ko`chirmachilik (plagiat) qat`iyan man etiladi; - darslarga qatnashish majburiy hisoblanadi, dars qoldirilgan holatda qoldirilgan darslar qayta o`zlashtirilishi shart;</li><li>- darslarga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirok etish;</li><li>-talaba o`qituvchidan so`ng, dars xonasiga - mashg`ulotga kiritilmaydi; - talaba reyting balidan norozi bo`lsa e`lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun mobaynida apellyatsiya komissiyasiga murojat qilishi mumkin			
Fanga ajratilgan o`quv soatlarining o`quv turlari bo`yicha taqsimoti	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta`lim:
	Ma`ruza:	18	Seminar	20

Fanning qisqacha mazmuni:	Fanni o`qitishdan maqsad – talabalarda Tilshunoslik, dunyo tillarining umumiy va xususiy qonuniyatlari haqida tasavvur hosil qilish, tillar tarixi, til aloqalari, til bilan xalq o`rtasidagi munosabatlar tushunchalarini anglatish va ularni tilga va uning egalariga hurmat ruhida tarbiyalash, mutaxassisligiga mos bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarga o`rganilayotgan tillar, shuningdek, dunyo tillari o`rtasidagi farqlarni ko`rsatish, tilshunoslikka oid atama va tushunchalar to`g`risida ma'lumot berish, filologiya sohasini o`rganishga tayyorlash.
Fanini o`rgatish natijasida hosil bo`ladigan bilim, malaka va ko`nikmalar:	tilshunoslik kursini o`zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:</p> <p>til – ijtimoiy hodisa;</p> <p>til sathlari;</p> <p>tilshunoslik va boshqa fanlar o`rtasidagi aloqalar; tillarning tipologik va geneologik tasnifi; tilshunoslik tarixi va tilshunos olimlar; zamonaviy dunyo tillari to`g`risida etarlicha darajadagi bilimga ega bo`lish;</p> <p>til tarixi va nazariyasi to`g`risida keng bilimni egallay olish;</p> <p>O`zbekistonda va xorijiy davlatlarda nashr qilingan ilmiy adabiyotlar bilan ishlash; o`rganilayotgan chet tilidan ona tili xususiyatlarini ajrata olish;</p> <p>turli tillarni oila va guruhlariga tasniflay olish;</p> <p>zamonaviy tilshunoslik masalalarini tushuna olish malakasiga ega bo`lishi va ulardan foydalana olishi; chet tili o`rganish amaliyotida nazariy bilimlarni qo`llash; tilshunoslik bo`yicha ilmiy izlanishlarga kasbiy nuqtai nazardan qarash;</p> <p>dunyo tilshunosligida ro`y berayotgan jarayonlarni o`zaro bog`liqlik nuqtai nazaridan tahlil qilish; tillarning umumiy va xususiy belgilari haqidagi tushunchalarni amaliyotda qo`llash ko`nikmasiga ega bo`lishi zarur.
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o`qituvchi va talaba o`rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, lekin oraliq, joriy va yakuniy baholash faqatgina

	institut hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtani ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha.
--	--

Fan mavzulari va unga ajratilgan saotlar taqsimoti:

T/r	Mavzular nomi	Jami soat	Ma'-ruza	Seminari	Mustakillik ta'lim
1	"Tilshunoslik" fani, uning mundariyasi, maqsadi, vazifasi va ahamiyati. Til ijtimoiy hodisa. Tilning paydo bo'lishi.	6	2	2	2
2	Tillarning shakllanishi va rivojlanishi (tilshunoslik tarixi haqida qisqacha ma'lumot).	6	2	2	2
3	Fonetika va fonologiya.	6	2	2	2
4	Grammatika. Morfologiya.	8	2	2	4
5	Leksikologiya.	8	2	2	4
6	Sintaksis.	6	2	2	2
7	Kommunikativ tilshunoslik. Matn tilshunosligi.	6	2	2	2
8	Sotsiolingvistik. Genetik tipologiya.	4	-	2	2
9	Yozuvning paydo bo'lishi. Yozuv turlari.	6	2	2	2
10	Til va tafakkur. Psixolingvistik.	6	2	2	2
	JAMI	62	18	20	24

Talabalar bilimni baholash tizimi:

t/r	Nazorat turidagi topshiriqlarning nomlanishi	Maksimal yig'ish mumkin bo'lgan ball	JN va ON ballar taqsimoti		
I. Joriy nazoratdagi ballar taqsimoti		40 ball	1-JN (12 b)	2-JN (12 b)	
Ma'ruza mashg'ulotlarda					
1.	Talabaning ma'ruza mashg'ulotlarda faolligi, muntazam ravishda konspekt yozishi uchun	3	2	1	
2.	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi (keys-stadilar, esse, referat, taqdimot va boshqa turdagi mustaqil ta'lim topshiriqlari)	7	4	3	
Seminar mashg'ulotlarda					
1	Talabaning mashg'ulotlarda faolligi, savollarga to'g'ri javob berganligi, amaliy topshiriqlarni bajarganligi uchun	30	Semestr davomida		
II. Oraliq nazorat		30 ball			
1.	Birinchi oraliq nazorat (ma'ruzachi tomonidan qabul qilinadi)	30	Semestrning -haftasi		
III. YAkuniy nazorat		30 ball	Semestrning oxirgi ikki haftasida		
Jami:		100 ball	Semestrning oxirgi ikki haftasida		

Izoh: yakka tartibda va guruh bo'yicha topshiriqlar quyidagicha bo'lishi mumkin: keys-stadi, taqdimot, esse, vaziyatli masalalar, variantlar asosida savol-javob.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichining namunaviy mezonlari:

Ball	Baho	Talabaning bilim darajasini ifodalovchi holatlar	
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yuritish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.	
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.	
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.	
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmalik. Bilmaslik.	
Axborot resurs bazasi:			
Asosiy adabiyotlar:	1. 1. 1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.- T., 2010. 2. Irisqulov M. Tilshunoslik. – T.,2008. 3. Головин Б.Н. Введение в языкознание. –М., 1977. 3. Кодухов В.И. Введение в языкознание. -М., 1979. 4. Yo'ldoshev I., Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari.-T., 2007.		
Qo'shimcha adabiyotlar	1. R. Rasulov. Umumiy tilshunoslik. – T., 2006. 2. Реформатский А.А. Введение в языковедение. -М., 1967. 3. Turniyozov N. Tilshunoslik.-Samarqand, 2006. 4. Turniyozov N. Xorijiy mamlakatlar lingvistik nazariyalari.- Samarqand, 2007. 5. История письма.-М., 1979. 6. R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik (Tilshunoslik tarixi). I qism.-T., 2005. 7. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T., 2002. 8. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq.-T., 1993. 9. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik ildizlari va yo'nalishlari.-Andijon, 2006. 10. Звегинцев В.А. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях.-М., 1964. Internet saytlari http://tjor.ucoz.ru/62513_golovin_b_n_vvedenie_v_yazykoznanie.pdf http://books.google.co.uz/books/about/Tilshunoslikka_kirish.html?id=QLTIAAAAMAAJ&redir_esc=y http://lb3.textedu.ru/docs/647/index-7882.html www.susuv.ru www.ziyo.net www.google.uz		

MA'RUZALAR MATNI VA ISHLANMASI

1-MAVZU	“Tilshunoslik” fani, uning mundarijasi, maqsadi, vazifasi va ahamiyati. Til ijtimoiy hodisa. Tilning paydo bo‘lishi.
----------------	--

1. Ma’ruza mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi. (1 - mashg‘ulot)

<i>O‘quv soati: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 75 ta</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli:</i>	1-kirish ma’ruza.
<i>Ma’ruza rejasi:</i>	1. Tilning jamiyatdagi o‘rni va uning material asosi. 2. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi. 3. Mikro- va makrolingvistika. 4. F. de. Sossyurning «til va nutq» dixotomiyasi. 5. Til sistemasining asosiy unsurlari. 6. Inson tilining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq biologik va ijtimoiy farazlar. 7. Tilning paydo bo‘lishida muhim o‘rin egallagan asosiy omillar.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: tilshunoslik fanining o‘rganish sohasi, tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, tilning sistema ekanligi, til belgilari, til va nutq dixotomiyasi, tilning paydo bo‘lishi haqida keng ma’lumot berish hamda talabalarda bilim ko‘nikmalarini shakllantirish.</i>	
<i>Ta’lim metodlari:</i>	Ma’ruza, namoyish etish, integrasiyalashgan o‘qitish, tezkor savol-javob, aqliy hujum.
<i>Ta’lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
<i>O‘qitish shart-sharoitlari:</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Og‘zaki nazorat, savol-javob, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

1.2. Ma'ruzaning xronologik xaritasi (1 – mashg'ulot)

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
I. Kirish (5 minut)	1.1. Mavzu nomi, maqscadi, o'quv mashg'ulotining natijalari e'lon qilinadi. O'tilayotgan mavzu ko'rgazmali ma'ruza tarzida tashkil etilishi haqida e'lon qiladi.	Eshitadilar.
II. Asosiy bosqich (65 minut)	2.1. Kursning maqsadi va jamiyat va insoniyat hayotidagi o'rni. 1. Kursning predmeti, vazifasi va tuzilishi. 2. Kursda o'rganiladigan asosiy tushunchalar va atamalar. 3. Tilshunoslik kursining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.	Savol - javobda faol qatnashadilar.
	2.2. Talabalarni faollashtirish maqsadida «Aqliy xujum» metodini qo'llab, umumiy savol beriladi. «Aqliy xujum» metodidan foydalanishda rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar bilan tanishtiriladi (1-ilova). Savollar 2-ilovada ko'rsatilgan.	Topshiriqni bajaradilar
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Mavzuni rejasi asosida xulosa qilib, eng muhim ma'lumotlarga talabalar diqqatini jalb qiladi. 3.2. Muhokamada faol qatnashgan talabalarni rag'batlantiradi, baholaydi, yozib oladi.	Tinglashadi. Tinglashadi.

1-илова.

Aqliy hujumni olib borish qoidalari:

- Hech qanday o'zaro baho bermaslik va tanqid qilmaslik.
- Taklif etiladigan fikrlarni baholashdan o'zini tiyishlik, ular qanchalik g'ayri oddiy va fantastik bo'lmasin.
- Hamma narsa mumkin.
- Tanqid qilmaslik - hamma fikrlar teng ravishda qadrlidir.
- Gapirayotgan talabani fikrini bo'lmaslik.
- Tanbeh berishdan o'zini tiyishlik.
- Asosiy maqsad - fikrning miqdoridir.
- qancha ko'p fikr aytilsa, shuncha yaxshidir: yangi va qadrlilik fikrlarni dunyoga kelish imkoniyati kengayadi.

- | |
|--|
| <ul style="list-style-type: none">○ Fikrlar qaytarilsa jaxl chiqmaslik.○ Xayolni «junbushga kelishiga» imkoniyat yaratishlik.○ Yangi tugʻilgan fikrlarni rivojlantirish, garchi ular sxemalarga toʻgʻri kelmasa ham .○ Mazkur muammo faqat muayyan vositalar orqali yechim topishi mumkinligini unutishlik. |
|--|

Integrasiyalashgan (mujassamlashtirilgan) oʻqitish qoidasi

Talabalarining his qilish-umumlashtirish xususiyatlariga asoslangan taʼlim jarayonini yaratish.

Mavzularni mazmunan biriktirish hisobiga mavzuni chuqur oʻzlashtirishga erishish.

Talabalarining qobiliyatini rivojlantirish.

“Tilshunoslik” fani, uning mundarijasi, maqsadi, vazifasi va ahamiyati. Til ijtimoiy hodisa. Tilning paydo boʻlishi.

Tilshunoslik fani tilning paydo boʻlishi va rivojlanishi, til va tafakkur, til va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlar, tilning jamiyatdagi oʻrni, ichki tuzilishi, tillarning tasnifi, uni tahlil qilish usullari va shu kabi masalalarni oʻrganadi.

Til kishilik jamiyatida yaratilgan boʻlib, aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Uning tabiati ayrim shaxsda emas, balki jamiyat uchun xizmat qilishida namoyon boʻladi.

Til insoniyatning tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarini ifodalaydigan va avloddan avlodga meros qoldiradigan asosiy vositadir.

Tilning tabiati, mohiyati, kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi, tuzilishi va bu strukturani tashkil etgan unsurlarining oʻzaro munosabati, uning ichki mexanizmi, ishlash tamoyillari kabi muhim masalalarni ilmiy oʻrganishni har taraflama tadqiq etishni talab etadi.

Tilshunoslik yoki lingvistika (lotin tilida *lingua*-til) til nazariyasini oʻrganish bilan shugʻullanadigan fan boʻlib, u «Tilshunoslikka kirish» va «Umumiy tilshunoslik» nomlari bilan ataladigan mustaqil qismlardan tashkil topgan.

«Tilshunoslikka kirish» umumiy tilshunoslikning ajralmas qismi sifatida til haqidagi dastlabki maʼlumotlarni, tilshunoslik fanining asosiy tarkibiy qismlarini, tilshunoslikda qoʻllanadigan ilmiy terminlarni va xususiy tilshunoslikda oʻrganiladigan masalalarni (masalan, ingliz tilining nazariy grammatikasi, nazariy fonetikasi, leksikologiyasi) oʻrganish uchun nazariy asos yaratishga imkon beradi.

«Tilshunoslik tarixi»da fanda mavjud boʻlgan ilmiy dunyoqarashlarning, turli ilmiy maktablarning shakllanishi va rivojlanishi, umuman olganda, fan taraqqiyotining dinamikasi oʻrganiladi.

«Umumiy tilshunoslik» til ilmiga xos boʻlgan umumiy masalalarni oʻrganadigan mustaqil fan boʻlib, u quyidagi nazariy muammolar talqini bilan shugʻullanadi:

- 1)tilshunoslik fanining predmeti va vazifalari;
- 2)tilning tuzilishi;

- 3)tilning sistema ekanligi;
- 4)tilning rivojlanishi;
- 5)tilshunoslik fanida metod nazariyasi;
- 6)lingvistik tipologiya va universallik nazariyasi;
- 7)til va jamiyat;
- 8)til va tafakkur va boshqa shu kabilar.

Umumiy tilshunoslik xususiyl tilshunoslikda erishilgan nazariyl bilimlarni umumlashtirib, ayrim konkret tillarni ilmiyl urganish metodologiyasini va ilmiyl metodlarini belgilab beradi. Tilshunoslik fanidan tashqari tilni boshqa fanlar ham o'rganadi. Masalan, falsafa, mantiql kabilar. Shakl bilan mazmun birligi falsafiy qonun sifatida tilda ham o'z aksini topadi. Til va tafakkur muammolari esa mantiqda o'rganiladi. Zero, fikr til orqali ifodalanadi. Til va tafakkur bir-biri bilan uzviyl bog'langan, biri ikkinchisiz yashay olmaydi. . Tafakkur tilda yashaydi, har qanday nutq asosida esa tafakkur yotadi.

Tilning paydo bo'lishi, rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi tufayli til sotsiologlar, tarixchilar tomonidan ham o'rganiladi. Ma'lumki, jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida sodir bo'lgan voqea-hodisalar tilda aks etmay qolmaydi. Bundan tashqari, tilshunoslik fani psixologiya, etnografiya, antropologiya, matematika, jug'rofiya, fizika kabi fanlar bilan ham uzviyl bog'liqdir.

Tilshunoslik fanini ikkiga – mikrolingvistika va makrolingvistikaga bo'lib o'rganamiz. Mikrolingvistika (kichik tilshunoslik) tilning faqat ichki, ya'ni fonetik, leksik va grammatik tuzilishini, makrolingvistika (katta tilshunoslik) esa tilning umumiy muammolarini boshqa fanlar qurshovida o'rganadi.

Makrolingvistika tilning paydo bo'lishi va uning taraqqiyot qonunlarini, tilning ijtimoiyl mohiyatini, tafakkur bilan munosabatini, til bilan boshqa signal sistemalari orasidagi o'xshashlik va farqlarni, tilning tarqalishi, sheva, jargon, argo kabi muammolar tavsiflarini o'z ichiga oladi.

Tilning ijtimoiyl hodisa ekanligi izoh talab qilmaydi, albatta. Shu bois biz uni kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida ta'riflaymiz. Lekin bu uning vazifasiga ko'ra mohiyatini belgilab beradi. Tilning material nuqtayi nazaridan nimani taqozo etishining bunga aloqasi yo'ql. Bu jihatdan til o'ziga xos murakkab sistemani tashkil etadi. Shuning uchun Ferdinand de Sossyur: «Til tafakkurni ifoda qiluvchi belgilar yig'indisidan iboratdir», - degan edi.

Til sistemasi o'ta murakkab tuzilishga ega bo'lgan ma'lum bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etadi. Mazkur sistemaning asosiy unsurlari belgilar sanaladi. Ammo shuni ham aytish kerakki, bu tilning ijmoiyiligini, uning jamiyat mahsuli ekanligini inkor etmaydi, balki uni yanada aniqroql namoyon qiladi. Chunki belgilar ham jamiyat tomonidan yaratilgandir.

Belgilar voqelikdagi mavjud narsa, predmet va voqea-hodisalarni nomlash uchun xizmat qiladi. Ularning ba'zilari esa ana shular o'rtasidagi semantik-grammatik aloqani o'rnatish uchun qo'llaniladi.

Shunga e'tibor berish kerakki, til belgilari o'ziga xos semiologik sistemani (ishoralar sistemasini) tashkil etadi. Ammo bu ishoralar yoki belgilar boshqa shunga o'xshash belgilardan farql qiladi. Masalan, ko'cha qoidalari belgilari. Albatta, bu belgilar ham o'ziga xos tildir. Biroql ularni haydovchilar ko'proql tushunadilar va bu

belgilar shu doirada faol xizmat qiladi. Demak, bunday belgilarni ijtimoiy hodisa deb bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, ular ruhiy holat bilan bog'lana olmaydi.

Til quruq axborotning o'zinigina bir shaxsdan ikkinchi shaxsga etkazmasdan gapiruvchining unga munosabatini, uning xohish - istagi va bahosi, ruhiy holatini ham aks ettiradi.

Tildan boshqa barcha signal sistemalari o'zgaruvchan xarakterga ega. Masalan, yo'l qoidalarini bildiruvchi biror belgini yaxshirog'i bilan almashtirish mumkin. Lekin tilda bunga yo'l qo'yilmaydi. Til unsurlari ma'lum bir shaxsning xohishiga ko'ra o'zgarib ketavermaydi. Til o'zining ichki qonunlariga ko'ra jamiyat ta'sirida rivojlanadi va o'zgaradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jamiyat bo'lmas ekan, til ham bo'lmaydi. Jamiyat undan kundalik muomala ehtiyojlarida foydalanmas ekan, u rivojlanishdan to'xtaydi. Demak, til va jamiyat bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Boshqa signal sistemalari tilga nisbatan ikkilamchidir. Ular unga qo'shimcha vosita sifatida namoyon bo'ladi, uni to'ldiradi.

Til amalda qo'llanilganda, uning sistemasi tarkibidagi belgilar nutqqa ko'chiriladi va nisbatan kichikroq belgining har biri o'zidan katta belgi tarkibida faollik oladi. Bundan tashqari, ma'lum bir belgi ikkinchisining o'rnida qo'llanilishi ham mumkin: **u** =morfema, **u**=so'z, **u**=gap.

Til belgilari xususida gapirganida F.de Sossyur, asosan, morfemalarni va so'zlarni e'tiborga oladi va ularni belgi deb talqin etadi. Bugungi tilshunoslikda esa so'z birikmalari va hatto gap ham belgi deb tan olinmoqda. (V.G.Gak). Buning asosiy sababi ularning ikki jihatga - mazmuniy va shakliy yaxlitlikka ega bo'lishidir. Shuning uchun fonemalarni til belgilari jumlasiga kiritib bo'lmaydi. Chunki ularda shakliy butunlik mavjud, xolos. Fonemalar, shunday bo'lishiga qaramay, til belgilarining xom ashyosi sanaladi.

Belgi tanlash masalasi ham salmoqli mavqega egadir. Bu haqda F.de Sossyur muhim ilmiy ahamiyatga molik fikr bildiradi. Uning fikriga ko'ra, belgi tanlash erkin bo'lib, u har bir xususiy sistemaning ichki qonun-qoidalari asosida amalga oshiriladi. Biroq, buni nisbiy tushunmoq lozim. Chunki har qanday belgi ham til sistemasining faol a'zosiga aylangach, uni o'zgartirib bo'lmaydi va natijada erkinlik tushunchasi kun tartibidan tushiriladi.

Til belgilari sistemani tashkil etar ekan, ular tilning ijtimoiyligi uchun faol xizmat qiladi. Biroq, belgi tildan nutqqa ko'chirilgach, unda xususiylik alomatlari vujudga kela boshlaydi. Chunki nutq o'z mohiyatiga ko'ra xususiydir. Shuning uchun biz til bilan nutqni F. de Sossyur dixotomiyasiga ko'ra birini-ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yib o'rganamiz. Mazkur qarama-qarshilik ular o'rtasidagi umumiylik va xususiylik, virtuellik va aktuallik, statiklik va dinamiklik kabi farqlarda aniq ko'zga tashlanadi. Demak, til bilan nutq bir-biriga asosli ravishda suyansa ham, ular mushtarak hodisalar emas. Lekin til bilan nutq o'rtasida uzviylik mavjudligini inkor etib bo'lmaydi, zotan, til nutq uchun darkor bo'lsa, nutq ham, o'z navbatida, til uchun zarurdir. Nutq materiali til hisoblanadi, tilning esa qo'llanish ob'ekti nutqdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tilshunosligimizda, "til va nutq" dixotomiyasiga asoslangan tadqiqot ishlari anchagina bo'lishiga qaramay, til

belgilarining nutqqa ko‘chirilishi bilan bog‘liq muammolar endigina o‘rganilmoqda. Bu sohada izohlanishi lozim bo‘lgan masalalar hali ko‘p.

TILNING PAYDO BO‘LISHI

Inson tilining paydo bolishi masalasi o‘ta munozaralidir. Bu masala antik davrdan boshlab bizning davrimizgacha shunday bo‘lib kelmoqda.

Tilning paydo bo‘lishi muammosi nafaqat tilshunoslarni, balki antropologlarni, zoopsixologlarni, biologlarni, etnografiya mutaxassislarini, faylasuflarni, tarixchilarni ham qiziqtirib kelmoqda. Ammo shu narsa aniqki, tilning-inson nutqining paydo bo‘lishi masalasini jamiyatning, ongning, shuningdek, insonning paydo bo‘lishi singari muammolardan ajratib o‘rganib bo‘lmaydi.

Albatta, nutq tovushlarini taqozo etuvchi inson tili birinchi galda odamning paydo bo‘lishi bilan uzviy bog‘liqdir, zero, jonli mavjudotlar ichida faqat insongagina so‘zlashuv imkoniyati berilgan. Yaqin davrlargacha odam maymundan paydo bo‘lgan, degan aqidaga ishonib keldik. Xususan, F.Engelsning «Maymunning odamga aylanishida mehnatning roli» degan asari shunday nazariya bilan sug‘orilgan edi. Odamning takomillashuvida mehnatning rolini inkor etib bo‘lmaydi, albatta. Biroq maymunning odamga aylanishi masalasini ilmiy asoslangan deyish qiyin. Odamsimon maymunlar bo‘lmagan, ammo ibtidoiy odamlar ayrim jihatlari bilan maymunga o‘xshagan bo‘lishi mumkin. Ehtimol, bundan million yillar avval yashagan odamlar turmush tarziga ko‘ra maymunlardan kam farqlangandir. Lekin insonning nutq organlari faqat uning o‘zigagina xosdir. Dastlab bu organlar rivojlanmagan bo‘lishi shubhasizdir, chunki odamning tabiatga, jamiyatga munosabati uzoq yillar davomida uning nutq organlarining asta-sekin takomillashuviga sabab bo‘lgan. Bunda mehnat va u orqali vujudga kelgan jamiyatning ahamiyati yuksakdir. Ana shularga asoslanib, tilning paydo bo‘lishi muammosi ikki omil bilan - biologik va ijtimoiy (sotsial) faktorlar bilan bog‘lash mumkin. Biologik faktorlar inson miyasining, tafakkurining va ular bilan bog‘liq holda nutq organlarining ko‘p yillar davomida o‘rishini taqozo etsa, ijtimoiy faktorlar insonning mehnat faoliyatini va jamiyat salmog‘ining rolini taqozo etadi.

Biologik faktorlar ichida *tovushga taqlid* hamda *undov* farazlari muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, tilning paydo bo‘lishi bunda ana shu farazlar orqali izohlanadi.

Tilning paydo bo‘lishi ko‘proq qadimgi yunon olimlari tomonidan tovushga taqlid farazi bilan bog‘lab o‘rganiladi. Mazkur faraz XIX asr, hatto XX asr boshlarida ham ta’sir kuchini yo‘qotgani yo‘q. Nemis olimi V.Fon Gumboldt ham uning tarafdori edi.

Tovushga taqlid farazida tilning paydo bo‘lishi tabiatdagi hayvonlarning, qushlarning, sharsharalarning ovozlari ta’sirida yuz bergan,- degan g‘oya olg‘a suriladi. Masalan: *kakku*, *qarg‘a*, *miyovlamoq*, *akkillamoq* va boshqalar. Biroq bunday so‘zlar soni tilimizda ko‘p emas. Juda ko‘p so‘zlar qandaydir tovushlar bilan umuman bog‘lanmaydi. Bundan tashqari, anchagina taqlidiy so‘zlarning talaffuzi birmuncha murakkab bo‘lib, hali nutq organlari yaxshi taraqqiy etmagan ibtidoiy odamlarning ularni talaffuz eta olishiga ham ishonib bo‘lmaydi: *taqir-tuqur*, *g‘irt-g‘irt*, *cho‘lp-cho‘lp*, *qirs-qirs* va h.k.

Bizningcha, tovushga taqlid farazining tilning paydo bo'lishidagi ahamiyatini butunlay inkor etib bo'lmaydi. Chunki, bugungi tilimizda ham tovushga taqlid so'zlari alohida qatlamni tashkil etadi va ulardan yangi so'zlar ham yasalamoqda: *shar = sharshara*, *g'iz = g'izillamoq*, *g'ir = g'irillamoq*, *vish = vishillamoq* va boshq. Demak, tovushga taqlid farazining tilning paydo bo'lishidagi o'rni izoh talab qilmaydi. Lekin uni asosiy omillar jumlasiga ham kiritib bo'lmaydi. Chunki bunda mehnatning, tafakkurning va jamiyatning roli qariyb e'tiborga olinmaydi.

Biologik farazlarning ikkinchisi **undov** nazariyasidir. Bu farazda til insonning ichki kechinmalari bilan bog'liq bo'lgan turlicha baqiriq-chaqiriqlar, tasodifiy qichqiriqlar ta'sirida paydo bo'lgan deb taxmin qilinadi. Bu nazariyaning tarafdorlari jumlasiga ingliz olimi Ch.Darvin, rus olimi A. Potebnya kabilarni kiritish mumkin.

Agar tovushga taqlid so'zlar tilning paydo bo'lishida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan tashqi omillarni nazarda tutsa, undov farazida inson tilining paydo bo'lishida ma'lum qiymatga ega bo'lgan so'zlovchilarning ichki his-tuyg'ulari ko'zda tutiladi: *voy, dod, eh, uf* kabilar.

Tovushga taqlid farazining ham, undov farazining ham biologik omillarga asoslanganligini ko'rish qiyin emas. Ularda sotsial faktorlar e'tiborga olinmagan.

Tilning paydo bo'lishi masalasi *mehnat chaqiriqlari* va *ijtimoiy kelishuv* nazariyalari orqali ham izohlanadi. Mehnat chaqiriqlari farazini nemis olimi L.Nuare quvvatlaydi. Bunda odamlarning jamoa bo'lib mehnat qilishlari jarayonida kuzatiladigan har xil tovushlar asosida til paydo bo'lgan, degan g'oya olg'a suriladi.

Olimlarning dalolat berishicha, mehnat chaqiriqlari farazini tilimizning vujudga kelishi bilan bog'lab bo'lmaydi, chunki bunda narsa-predmetlarning, voqea-hodisalarning nomlari bilan hech qanday bog'lanish kuzatilmaydi.

Ijtimoiy kelishuv farazi esa XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga keladi. Bu farazning tarafdorlari shotlandiyalik Adam Smit va fransuz olimi Jan Jak Russolar edi. Bu farazda til kishilar tomonidan ongli ravishda yaratilgan kashfiyotdir, degan nazariya o'rta qo'yiladi.

Ko'rinadiki, bu faraz ham asosli emas, zero, nimadir demoq uchun birinchi galda til kerak. Tilsiz insonning ikkinchi bir kishi bilan kelishib olishi qiyin.

Shuni ham aytish lozimki, tilning paydo bo'lishi bilan bog'liq barcha farazlar imo-ishoralar bilan ham qaysidir ma'noda aloqadordir.

Imo-ishoralarning hozirgi tilimizda ham kumakchi vosita sifatida qo'llanilishi izoh talab qilmaydi, albatta.

Qadimda imo-ishoralardan ba'zi qabilalar o'zaro fikr almashuv davomida juda ko'p foydalanganlar. Masalan, Avstraliyaning *Aranda* qabilasi vakillarining so'zlashuvida 450 xil imo-ishora qo'llanilgani ma'lum. Bu vosita orqali nafaqat narsa-predmetlar, balki ular haqidagi tushunchalar ham ifodalangan. Biroq *Aranda* qabilasi a'zolari imo-ishoralardan to'g'ri kelgan har qanday vaziyatda ham foydalanavermaganlar, ularni kerakli o'rinlardagina qo'llaganlar.

Imo-ishoralar ba'zi qabilalarning urf-odatlarini, udumlari bilan qorishib ketganligini ham kuzatamiz. Bunga Avstraliyaning yana bir qabilasi – *Varramunga* misol bo'lishi mumkin. Bu qabila udumlariga ko'ra, beva qolgan ayol bir yilgacha nutq tovushlari orqali so'zlasha olmaydi. U o'z jamoasi a'zolari bilan ham, boshqa jamoalar a'zolari bilan ham faqat imo-ishoralar orqali so'zlashadi.

Bu singari odatlar amerikalik hindlarda ham kuzatiladi. Ularning ko'plari o'zaro tovush tili orqali so'zlashsalar-da, boshqa qabilalar a'zolari bilan imo-ishoralar orqali aloqa qilishadi.

Inson tilining paydo bo'lishida imo-ishoralarning ham ma'lum darajada ahamiyati borligini ko'pgina olimlar qayd etib o'tishgan. Masalan, V.Vundt eng avval ikkita til bo'lganligini, ularning biri tovush tili, ikkinchisi esa imo-ishoralarni taqozo etganligini ta'kidlaydi. Tovush tili orqali odamlar imo-ishoralar bilan izohlab bo'lmaydigan his-hayajonlarni ifodalagan bo'lsalar, imo-ishoralar bilan esa narsa-predmetlarning, voqea-hodisalarning ifodalanganligini kuramiz, degan fikrni beradi olim.

V.Vundt qo'l va mimika orqali ruxsat, ta'qiq, ko'rsatish, iltimos, xavf va shodlik kabi ma'nolar ifodalanganligini aytadi.

Bizningcha, V.Vundt fikri bilan qo'shilish mumkin. Chunki imo-ishoralardan bugungi tilimizda ham foydalanmoqdamiz. Ammo bu vosita har bir xalqda bir xilda qo'llanilmaydi. Masalan, bir soatlik so'zlashuv davomida meksikalik 180, fransuz 120, italiyalik 80, finlandiyalik esa atigi bir marta imo-ishoralardan foydalanishi qayd etilgan. Bundan tashqari, imo-ishoralar xalqlarda bir xil ma'noda qo'llanilmasligini ham kuzatamiz. Agar bolgariyaliklar boshini chap tomondan o'ng tomonga yoki aksincha chayqasa, tasdiq ma'nosini, vertikal yo'nalishdagi bosh harakati bilan esa inkor ma'nosini ifodalasalar, o'zbeklarda buning teskarisini ko'ramiz.

Ammo insonning tovush tili mukammallasha borgan sari imo-ishoralardan shunchalik kamroq foydalaniladi. Umuman olganda, imo-ishoralar ham inson tilining yordamchi vositalari sanaladi, ular tilning paydo bo'lishida asosiy omil bo'lolmaydi.

Shunday qilib, tilning paydo bo'lishi muammosi biz sanab o'tgan farazlarning birortasida ham ishonarli tarzda yoritilmaganligini ko'ramiz. Bu sohadagi biologik farazlarda jamiyatning roli hisobga olinmagan bo'lsa, mehnat chaqiriqlari va ijtimoiy kelishuv farazlarida biologik omillar chetda qolgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tilning paydo bo'lishi insonning tafakkuri, mehnati va jamiyatning bevosita ishtirokida izohlanishi mumkin. Bu omillarni tilning paydo bo'lishini materialistik nuqtai nazaridan izohlaganimizda ham, idealistik jihatdan izolaganimizda ham chetlab o'tib bo'lmaydi.

To'g'ri, insonni Alloh yaratgan. Biroq Alloh hamma narsani insonga birato'la berganida edi, insondan dangasa zot bo'lmagan bo'lar edi. Alloh tafakkur taraqqiyoti bilan bog'liq ko'p narsalarni insonning o'ziga qo'yib bergan.

Tafakkursiz til mavjud bo'lmaydi. Jamiyatning paydo bo'lishi va taraqqiyoti ham tafakkur bilan bog'liqdir. Ikkinchi tomondan esa, inson tilining paydo bo'lishi, rivojlanishi uchun jamiyat darkor. Jamiyatsiz til taraqqiy etmaydi. Demak, tilning paydo bo'lishi tafakkur, mehnat va jamiyat bilan uzviy bog'liqdir. Biroq, shuni aytish lozimki, ba'zi tilshunoslar tilning inson tafakkuri, madaniyati va ruhiyati bilan aloqadorligini haddan tashqari oshirib yuboradilar. Masalan, V. Fon Gumboldt tilni voqelikni ham o'zgartirib, uni inson ruhiyatining maxsuliga aylantirib yuborishi mumkin bulgan xarakat tarzida tushunadi. Bu g'aliz fikr keyinchalik E.Sepir va B.Uorf kabi olimlar nazariyalarining ham asosini tashkil etdi. Ular tilni insonni boshqaruvchi uchinchi kuch, qudrat tarzida izohladilar. Va buning natijasi o'laroq, lisoniy nisbiylik nazariyasi asoslandi. Unga ko'ra, insonlarning yurish-turishi, xulq-atvori sof lingvistik

omillar bilan bog‘lanadi. Shu bois voqelikni tasavvur etish har bir tilda o‘zgacha bo‘lishi mumkin, degan g‘oya olg‘a suriladi.

Mazkur g‘oyaning, albatta, asossiz ekanligi hech kimni ajablantirmaydi. Chunki voqelik haqidagi har bir fikr, tushuncha barcha tillarda bir xil tarzda o‘z ifodasini topadi.

2- ILOVA. MAVZU BO‘YICHA SAVOLLAR

1. Tilning jamiyatdagi vazifasi nimadan iborat?
2. Tilning material asosini nima tashkil etadi?
3. Tilshunoslik qanday fanlar bilan uzviy aloqador?
4. Mikro- va makrolingvistikalar nimalarni taqozo etadi?
5. Tilshunoslikka kirish fanining asosiy tekshiruv ob‘ekti nimalardan iborat?
6. Umumiy tilshunoslikda qanday masalalar o‘rganiladi?
7. Til belgisi deganda nimani tushunasiz?
8. F. de. Sossyurning “til va nutq” dixotomiyasi mohiyatini izohlay olasizmi?
9. Til sistemasining asosiy unsurlari nimalardan iborat?
10. Inson tilining paydo bo‘lishi masalasi bilan bog‘liq biologik farazlarni izohlang.
11. Tilning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq ijtimoiy farazlarni izohlang.
12. Sanab o‘tilgan farazlarga qanday munosabat bildirsa olasiz?
13. Tilning paydo bo‘lishida imo-ishoralarning ahamiyati bormi?



Shvetsariyalik mashhur tilshunos Ferdinand de Sossyur 1857 yilda Jenevada olimlar oilasida tavallud topadi. U bolalik paytlaridayoq yunon hamda lotin tillarini mukammal o‘rganadi. Sossyur 1875 yilda Jeneva universitetiga o‘qishga kiradi. 1876 yilda esa o‘qishini Germaniyaning Laypsig universitetiga ko‘chiradi va bu erda ikki yil davomida taxsil oladi. Sossyur 1880 yilda “Sanskritda absolyut qaratqich” degan mavzuda doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi. Shundan so‘ng u 1880 yilda Parijga keladi va Parij lingvistik jamiyatining faol ishtirokchisi sifatida faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Sossyur 1891 yilda yana vataniga qaytadi va 1907 yildan boshlab Jeneva universiteti umumiy tilshunoslik kafedrasiga mudirlik qiladi. Olim 1913 yilda vafot etadi.

- Til belgilari sistemani tashkil etar ekan, ular tilning ijtimoiyligi uchun faol xizmat qiladi. Biroq, belgi tildan nutqqa ko‘chirilgach, unda xususiylik alomatlari vujudga kela boshlaydi. Chunki nutq o‘z mohiyatiga ko‘ra xususiydir. Shuning uchun biz til bilan nutqni F. de Sossyur dixotomiyasiga ko‘ra birini-ikkinchisiga qarama-qarshi qo‘yib o‘rganamiz. Mazkur qarama-qarshilik ular o‘rtasidagi umumiylik va xususiylik, virtuallik va aktuallik, statiklik va dinamiklik kabi farqlarda aniq ko‘zga tashlanadi. Demak, til bilan nutq bir-biriga asosli ravishda suyansa ham, ular mushtarak hodisalar emas. Lekin til bilan nutq o‘rtasida uzviylik mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi, zotan, til nutq uchun darkor bo‘lsa, nutq ham, o‘z navbatida, til uchun zarurdir. Nutq materiali til hisoblanadi, tilning esa qo‘llanish ob‘ekti nutqdır.

TILSHUNOSLIK FANINING ORGANISH SOHASI

- Tilshunoslik fanining predmeti va vazifasi
- Tilning tuzilishi
- Tilning sistema ekanligi
- Tilning rivojlanishi
- Til va jamiyat
- Til va tafakkur

F. de Sossyurning "Til va nutq" dixotomiyasi

Til: umumiy, statik, virtual.

Nutq: xususiy, dinamik, aktual.

"Til tafakkurni ifoda etuvchi belgilar yig'indisidan iboratdir".

F. de Sossyur



Til quruq axborotning o'zinigina bir shaxsdan ikkinchi shaxsga etkazmasdan gapiruvchining unga munosabatini, uning xohish - istagi va bahosi, ruhiy holatini ham aks ettiradi.


Tildan boshqa barcha signal sistemalari o'zgaruvchan xarakterga ega. Masalan, yo'l qoidalarini bildiruvchi biror belgini yaxshirog'i bilan almashtirish mumkin. Lekin tilda bunga yo'l qo'yilmaydi. Til unsurlari ma'lum bir shaxsning xohishiga ko'ra o'zgarib ketavermaydi. Til o'zining ichki qonunlariga ko'ra jamiyat ta'sirida rivojlanadi va o'zgaradi.



Ulug' nemis olimi Vilgelm fon Gumboldt 1767-yilda dvoryan oilasida tavallud topadi. U 1787-yilda Frankfurt universitetiga o'qishga kiradi. Bir yildan keyin esa o'qishini Gyttingen universitetiga ko'chiradi. U paytda mazkur universitetda H.Hayne dars berar edi. Gumboldt 1801-1819 yillar mobaynida davlat ishlarida faoliyat ko'rsatadi. U 1820 yildan boshlab o'zini to'liq tilshunoslik muammolarini o'rganishga bag'ishlaydi.

Gumboldtning dastlabki tadqiqot ishlarida tilshunoslik muammolari falsafiy nuqtayi nazardan yoritiladi. U ko'proq I.Kant va I.Fixte kabi faylasuflar g'oyalari ta'sirida bo'ladi. Shu bois uning ba'zi qarashlarida idealistik tushunchalar ko'zga tashlanadi. Masalan, uning tilni tashqi dunyoni inson ruhiyatining mulki sifatida o'zgartiruvchi faoliyat tarzida tushunishi bunga misol bo'la oladi. Mazkur noto'g'ri g'oya keyinchalik E.Sepir hamda B.Uorflarning nazariyalariga ham ta'sir etdi.

- Umumiy tilshunoslik fanining asoschisi V. fon Gumboldt (1767-1835) tilshunoslik fanining asosiy masalalarini, predmetini va chegarasini belgilab berishga harakat qilgan mashhur olim edi. V. Gumboldt tilshunoslikni inson o'rganadigan tarixiy, falsafiy, etnografik fanlar qatoriga qo'shishga harakat qildi.
- V. Gumboldt ta'rificha, til murakkab, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifat va xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan hodisadir, shuning uchun ham tilni ilmiy o'rganishda, uning haqiqiy mohiyatini tushinishda antinomiya qarama-qarshilik metodini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Til tabiatiga xos asosiy antinomiya quyidagilardir:
- Birinchi antinomiya: til bilan tafakkurning ajralmas birligi va ichki qarama-qarshiligidir. Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo'lmaganidek, tilning ham tafakkurdan ajralib qo'yilishi mumkin emas.
- Ikkinchi antinomiya: til har doim rivojlanib turadigan dinamik hodisadir. Bir tomondan, til faoliyat bo'lsa, ikkinchi tomondan, faoliyat mahsulidir. Tilda so'zlovchi har bir kishi o'zining nutq faoliyati jarayonida tilning rivojlanishi uchun o'z hissasini qo'shadi. Shu bilan birga til insoniyat jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha tarixiy bo'yliklarini mujassamlantirgan va avlodlar-avlodga o'tib boradigan aniq tarixiy me'yordir. Aslida til faoliyat mahsulati emas, balki faoliyatning o'zinasidir». Bu antinomiya ko'rinish turibdiki, V. Gumboldt til bilan nutqning tilshunoslik fanining ob'ektlari, sifatida ajratib o'rganish masalasini ilgari surgan. Demak, ikkinchi antinomiya til bilan nutqning o'zaro munosabati masalasidan iborat.
- Uchinchi antinomiya: nutq va tushunish antinomiyasidir. V. Gumboldt ta'rifiga ko'ra nutq bilan nutqni tushunish inson nutq faoliyatining ikki tomonini tashkil etadi.
- To'rtinchi antinomiya: tildagi ob'ektiv va sub'ektiv xususiyatlarni o'z ichiga oladi. V. Gumboldtning fikricha, har bir individ insoniyat kollektivi tomonidan yaratilgan tildan foydalanadi va ushbu tilning qonun qoidalariga rioya qiladi. Sub'ektiv hodisa sifatida esa har bir so'zlovchi o'zining nutq faoliyati jarayonida tilning rivoji uchun o'z hissasini qo'shadi.
- Beshinchi antinomiya: tildagi kollektiv va individual xususiyatlardir. Ma'lumki nutq ayrim shaxslarning mahsulidir, ammo ayrim shaxslar o'zlaridan oldingi avlod tomonidan yaratilgan kollektiv mahsulotidan foydalanadilar. Nutq faoliyati o'z navbatida so'zlovchini va tinglovchini taqozo qiladi. Shuning uchun tildagi kollektiv va individual xususiyatlarni o'rganish zarur.
- Demak, V. fon Gumboldt fikricha, til nihoyat darajada murakkab va ko'p aspektli hodisa bo'lib, uni ilmiy o'rganish esa tilning barcha aspektlarini tekshirishni talab qiladi.



TILNING PAYDO BO' LISHI

● BIOLOGIK FAKTORLAR:

- Tovushga taqlid farazi (V.Fon Gumboldt)
- Undov farazi (Ch.Darvin, A.Potebnya)

● IJTIMOIIY FAKTORLAR:

- Mehnat caqiriqlari farazi (L.Nuare)
- Ijtimoiy kelishuv farazi (Adam Smit, Jan Jak Russo)

2-MAVZU	Tillarning shakllanishi va rivojlanishi (tilshunoslik tarixi haqida qisqacha ma'lumot).
----------------	---

**1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi.
(2- mashg'ulot)**

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 75 ta</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	2-ma'ruza.
<i>Ma'ruza rejasi:</i>	1. Qadimgi Hindistonda tilshunoslik fanining paydo bo'lishi. 2. Qadimgi yunon tilshunosligi. 3. Qadimgi xitoy tilshunosligi. 4. Qadimgi Arabistonda tilshunoslik fanining vujudga kelishi. 5. O'rta Osiyoda tilshunoslik fanining shakllanishi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: qadimgi Hindistonda tilshunoslik fanining paydo bo'lishi, Panini grammatikasi, yunon tilshunosligi, Iskandariya tilshunoslik maktabi, «Kratil», «Poetika», «Ritorika» asarlari, qadimgi xitoy tilshunosligi, qadimgi arab tilshunosligi, o'rta Osiyolik mutafakkirlar kaqida nazariy ma'lumotlar berish.</i>	

<i>Ta'lim metodlari:</i>	Ma'ruza, namoyish etish, integrasiyalashgan o'qitish, tezkor savol-javob, aqliy kújum.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruqlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari:</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruqlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va bakolash.</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'zini-o'zi nazorat qilish, reyting tizimi asosida bakolash.

**1.2. Ma'ruzaning xronologik xaritasi
(2-mashg'ulot)**

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish (5 minut)	1.1. Mavzu nomi, maqcad, o'quv mashg'ulotining natijalari e'lon qilinadi. O'tilayotgan mavzu ko'rgazmali ma'ruza tarzida tashkil etilishi haqida e'lon qiladi.	Eshitadilar.

II. Asosiy bosqich (65 minut)	2.1. Tezkor – so‘rov texnikasidan foydalanib, o‘tilgan mavzu eslatiladi va talabalar faollashtiriladi: 1. Hind olimi Panini va uning grammatikasi haqida ma’lumot beriladi. 2. Qadimgi yunon tilshunosligi yoritilib, Iskandariya tilshunoslik maktabi haqida alohida to‘xtaladi. 3. Qadimgi Xitoyda yaratilgan tilshunoslikka oid asarlar yoritiladi. 4. Arab tilshunosligining shakllanishida Herta Osiyolik olimlarning qo‘shgan ulkan hissalar haqida aytiladi.	Savol - javobda faol qatnashadilar.
	2.2. Talabalarni faollashtirish maqsadida «Aqliy xujum» metodini qo‘llab, umumiy savol beriladi. «Aqliy xujum» metodidan foydalanishda rioya qilish kerak bo‘lgan qoidalar bilan tanishtiriladi (3-ilova). Savollar 4-ilovada berilgan.	Topshiriqni bajaradilar
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Mavzuni rejasi asosida xulosa qilib, eng muhim ma’lumotlarga talabalar diqqatini jalb qiladi. 3.2. Muhokamada faol qatnashgan talabalarni rag‘batlantiradi, baholaydi, yozib oladi.	Tinglashadi. Tinglashadi.

3-ilova.

Aqliy hujumni olib borish qoidalari:

- Hech qanday o‘zaro baho bermaslik va tanqid qilmaslik.
- Taklif etiladigan fikrlarni baholashdan o‘zini tiyishlik, ular qanchalik g‘ayri oddiy va fantastik bo‘lmasin.
- Hamma narsa mumkin.
- Tanqid qilmaslik - hamma fikrlar teng ravishda qadrlidir.
- Gapirayotgan talabani fikrini bo‘lmaslik.
- Tanbeh berishdan o‘zini tiyishlik.
- Asosiy maqsad - fikrning miqdoridir.
- Qancha ko‘p fikr aytilsa, shuncha yaxshidir: yangi va qadrlil fikrlarni dunyoga kelish imkoniyati kengayadi.
- Fikrlar qaytarilsa jaxl chiqmaslik.
- Xayolni «junbushga kelishiga» imkoniyat yaratishlik.
- Yangi tug‘ilgan fikrlarni rivojlantirish, garchi ular sxemalarga to‘g‘ri kelmasa ham.
- Mazkur muammo faqat muayyan vositalar orqali yechim topishi mumkinligini unutishlik.

Integrasiyalashgan (mujassamlashtirilgan) o‘qitish qoidasi

Talabalarning his qilish-umumlashtirish xususiyatlariga asoslangan ta’lim jarayonini yaratish.

Mavzularni mazmunan biriktirish hisobiga mavzuni chuqur o‘zlashtirishga erishish.

Talabalarning qobiliyatini rivojlantirish.

Tillarning shakllanishi va rivojlanishi (tilshunoslik tarixi haqida qisqacha ma'lumot).

Tilshunoslik tarixini o'rganish til haqidagi bilim darajamizni boyitibgina qolmay, katta tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Xalqimizning turmush madaniyatining, ma'naviyatining boyib borishi ham til madaniyatining yuksalib borishi bilan bevosita bog'liqdir.

Boshqa fanlar singari tilshunoslik fani ham o'z tarixiga egadir. Bu haqda, hech bo'lmaganda, o'rtacha bilimga ega bo'lmay turib, bugungi tilshunoslikning erishgan yutuqlari va uning oldida turgan muammolarni o'rganib bo'lmaydi.

Tilshunoslik fani g'arbda ham, sharqda ham katta tarixiy bosqichlarni bosib o'tdi. Bu xususta, ayniqsa, qadimgi hind, yunon, xitoy, arab tilshunosliklari tarixini o'rganish qimmatli ma'lumotlar beradi. Masalan, qadimgi hind tilshunosligi bundan 2500 yil avval tashkil topgan edi.

Qadimgi Hindistonda tilshunoslikning vujudga kelishida o'sha davrlarda hukmron bo'lgan Veda diniga oid madhiyalarni, diniy adabiyotlar matnlarini to'g'ri tushunish va to'g'ri o'qiy bilish zarurati muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur madhiyalar va matnlar qadimgi sanskritda izohlab beriladi. Sanskrit esa o'sha davrda Hindistonning yagona adabiy tilini taqozo etardi.

Tilshunoslikka oid masalalarni Veda diniga (buddizmdan avvalgi din) tegishli bo'lgan yozma yodgorliklarda ham uchratish mumkin. Bu yodgorliklarning birida fonetikaga, ikkinchisida grammatikaga, uchinchisida etimologiyaga va h.k. oid ma'lumotlar keltirilgan. Bu esa, o'z navbatida, qadimgi Hindistonda tilshunoslikning qaysi sohalar vujudga kelganligidan rasmiy dalolat bera oladi.

Qadimgi Hindistonda (eramizdan avvalgi IV asr) Panini mashhur tilshunoslardan biri bo'lgan. U birinchi bo'lib hind tili me'yoriy grammatikasini yozishda o'zidan oldin o'tgan 10 ga yaqin tilshunoslarning ishlaridan foydalangan.

Panini grammatikasida 4000 dan ortiq qoidalar (sutrlar) beriladi. Ammo bu qoidalar o'ta qiyin matematik formulalarga o'xshash tilda yozilganki, ularni hatto sanskritning bilimdonlari ham qiynalib o'qiganlar.

Panini grammatikasida morfologik hodisalar: fe'l o'zagi, qo'shimchalari, tuslanish formalari, shuningdek, boshqa turkumlarga xos so'zlarning shakllari xususta ham keng ma'lumot beriladi. Bundan tashqari, mazkur grammatikada fonetikaga oid ma'lumotlar ham atroflicha yoritilgan.

Panini grammatikasida veda diniga tegishli materiallar sanskrit bilan qiyoslanganini ham ko'rish mumkin. Qiyosiy tahlil fonetik, morfologik, so'z yasalishi va qisman sintaktik masalalar bobida olib boriladi. Shu bois Panini grammatikasi qadimgi sanskritni o'rganishda ahamiyatli bo'libgina qolmay, u so'z shakllarini o'rganishda bugungi kunda ham qo'llanib kelmoqda.

Qadimgi hind tilshunosligida Paninidan tashqari, Vararuchi Katyaina, Bxartxari, Amara kabi olimlarning ham mashhur bo'lganligini ko'ramiz. Ular fonetika,

morfologiya, lugʻatshunoslik sohalarida teran maʼlumotlar berishdan tashqari, tillarni tarixiy-qiyosiy oʻrganish bobida ham muhim ishlar qilishdi.

Eramizning V asrida Amara tomonidan tuzilgan sanskrit tilining lugʻati hozirgi kunda ham sanskrit mutaxassislari tomonidan keng foydalanilmoqda.

Umuman olganda, Hindistonda tilshunoslikning barcha sohaları boʻyicha fundamental ishlar qilinganining guvohi boʻlamiz. Bu haqda gapirganda, V.Tomsen shunday yozgan edi: «Induslar tilshunoslik sohasida erishgan yutuqlar mutlaqo yuksak boʻlgan. Ovroʻpa tilshunosligi bu darajaga XIX asrga qadar erisha olmadi. Ammo shunda ham induslardan juda koʻp narsalarni oʻrganishga toʻgʻri keldi». (Tomsen V. XIX asr oxirigacha boʻlgan tilshunoslik tarixi.-M., 1938, 10-bet)

Tilshunoslik tarixida qadimgi Yunoniston olimlarining ham alohida oʻrni bor. Yunonistonda dastlab tilshunoslik muammolari faylasuflar tomonidan oʻrganila boshlagan. Shuning uchun qadimgi yunon tilshunosligi taraqqiyoti bosqichlarini ikkiga boʻlib oʻrganamiz:

1. Tilshunoslik materiallari faylasuflar tomonidan oʻrganilgan davr (eramizdan avvalgi V-III asrlar).

2. Grammatika ilmi mustaqil fan sifatida oʻrganilgan davr (III-I asrlar). Bu davrni Iskandariya davri deb atash mumkin, chunki oʻsha paytlarda Iskaidariya tilshunoslik maktabi asoslangan edi.

Qadimgi yunon faylasuflarini dastlab tilning paydo boʻlishi masalasi qiziqtirgan. Ammo bu masala bobida ularning fikrlari mushtarak emas edi. Shu bois yunon faylasuflari ikki qarama -qarshi guruhga boʻlinib ketishadi: materialistik gʻoyadagi faylasuflar va idealistik gʻoyadagi faylasuflar.

Birinchi guruh faylasuflari (Demokrit, Aristotel) fikrlariga koʻra, tabiatdagi, voqelikdagi narsa va predmetlarning nomlari ular bilan bogʻliq emas. Ularga shartli ravishda nom qoʻyiladi. Shuning uchun tilning kelib chiqishi muammosini ham ilohiy kuch bilan bogʻlab boʻlmaydi, degan gʻoyani olgʻa suradilar.

Ikkinchi guruh faylasuflari (Platon, Geraklit) narsa bilan uning nomi oʻrtasida azaliy bogʻliqlik borligini aytadilar. (Masalan, asal, achchiq). Suqrotida ham ana shunday fikr mavjud boʻlgan.

Tilshunoslik masalalari faylasuflar tomonidan oʻrganilganda, nafaqat umumiy muammolar, balki tilshunoslikning alohida masalalari ham nazardan chetda qolmadi. Bu davrda, ayniqsa, fonetik muammolarga katta ahamiyat berildi. Masalan, Platon tovushlarni oʻrganishda undosh ovozdor hamda undosh shovqinli tovushlarni farqlash lozimligini taʼkidlaydi.

Aristotel unli, yarim unli hamda undosh tovushlar haqida qimmatli maʼlumotlar beradi. U tovushlar tasnifiga alohida eʼtibor qilib, hatto bugungi kunda biz *fonema* deb atayotgan tushunchaga ham qariyb yaqin kelib qoladi.

Qadimgi yunon faylasuflari grammatikaga oid masalalarni ham oʻrganadilar. Buni Platonning «Kratil» deb nomlanuvchi dialogik asarida koʻramiz. Muallif soʻzlarni mantiq qonun-qoidalari asosida turkumlarga boʻladi va ot, feʼl turkumlarini ajratadi. U feʼl deganda harakat ifodasini anglatuvchi soʻzlarni, ot deganda esa shu harakatning ijrochisini tushunadi.

Soʻz turkumlari bobida Platonga nisbatan Aristotel aniqroq maʼlumot beradi. Xususan, u ot deganda zamon tushunchasiga aloqasi boʻlmagan, feʼl deganda esa

zamon tushunchasi bilan chambarchas bogliq bo'lgan so'zlarni tushunadi. Bu fikrlar uning «Poetika» nomli asarida keltirilgan bo'lsa, keyinchalik «Ritorika» nomli asarida u so'z turkumlarini uchga bo'ladi: ot, fe'l, bog'lovchilar. Bundan tashqari, Aristotel kelishiklar haqida ham ma'lumot beradi. Gapni u mustaqil ma'no anglatuvchi tovushlar yig'indisi tarzida izohlaydi.

Yunonistonda tilshunoslik fanining taraqqiyoti tarixiy Iskandariya davrida (eramizdan avvalgi III-II asrlar) yanada yuksaladi. Bu davrda Iskandariya tilshunoslik (grammatik) maktabi vujudga keldi. Bu maktabga Aristarx Samofrakiy, Dionis Frakiy, Apolloniy Diskol kabi mashhur olimlar asos solishadi.

Mazkur maktabning asosiy maqsadi yunon adabiy an'alarini saqlash, Gomer, Sofokl, Esxil kabi allomalar asarlariga filologik izoh berish, umumiy va yagona yunon adabiy tilini vujudga keltirish kabilardan iborat edi.

Iskandariya tilshunoslik maktabi vakillari yunon adabiy tili taraqqiyoti fonetik jihatdan 7 ta unli va 17 ta undosh bilan bog'liq ekanligini asosli tarzda izohlab beradilar. Ular so'zni nutqning eng kichik (birligi) ma'nodor parchasi sifatida ta'riflaydilar. Bundan tashqari, Iskandariya maktabida so'z turkumlari ham ancha mukammal o'rganiladi. Bu davrga kelib yunonistonlik tilshunoslar so'z turkumlari va so'zlarning nutqdagi aloqalari haqida ham ancha to'liq va ilmiy asoslangan fikrlar berdilar. Masalan, fe'l haqida gapirilganda, uning mayl, zamon, shaxs, nisbat kategoriyalari hamda tuslanish shakllari haqida to'liq ma'lumot berdilar.

Antik tilshunoslik xususida so'z yuritilganda, qadimgi Xitoyda vujudga kelgan lisoniy asarlarni ham eslab o'tish joiz. Qadimgi Xitoy tilshunosligi shakllanganiga ham 2500 yildan ko'proq vaqt ortda qolgan bo'lib, bunda dastlab «Erya» asari vujudga kelgan. «Erya» leksikografik ish bo'lsa-da, unda orfografik, ensiklopedik va mafkuraviy bilimlarning me'yori ham belgilab berilgan. Bu asarning sharhiga bag'ishlangan ba'zi ishlar ham yoziladi. Bunday ishlardan biri «Guanya» asaridir.

«Guanya» ni keng ma'noda «Erya» ning lo'g'ati deyish mumkin. Qadimgi Xitoyda keyinchalik «Mahalliy shevalar» deb ataluvchi «Fanyan» asari vujudga keladi. Biroq u «Erya» singari mashhur bo'lolmadi.

QADIMGI ARAB TILSHUNOSLIGI

Qadimgi arab tilshunosligining eng taraqqiy etgan davri VII- VIII asrlarda hukm surgan Xalifalik davriga to'g'ri keladi. Unga qadimgi hind, yunon, qisman xitoy tilshunosliklarining ta'siri katta bo'ldi.

Arab tilshunosligining vujudga kelishi ilohiy «Qur'on» kitobining mazmuni va mohiyatini musulmonlarga tushunarli qilish maqsadi bilan uzviy bog'liqdir. Bundan tashqari, klassik arab tilini shevalar ta'siridan himoya qilish ham ko'zda tutiladi.

Qadimgi arab tilshunosligining markazi Basra va Kufa shaharlari, keyinchalik esa Basra va Bog'dod shaharlari bo'lgan.

Arab tilshunosligining shakllanishida Muhammad payg'ambarning kuyovi Hazrati Alining xizmati ham katta bo'ldi. U Abul Osvad ismli olimga Qur'onning matnini, oyatlarini to'g'ri va tushunib o'qish uchun tilshunoslik bilimi zarur bo'layotganini aytadi va unga ot, fe'l hamda yordamchi so'zlarni e'tiborga olgan holda grammatik qo'llanma yozish vazifasini yuklaydi.

Bu, albatta, mazkur sohada qo'yilgan dastlabki qadam edi. Keyinchalik esa Xalil al-Faraxidi (VIII asr) tomonidan dastlabki arabcha lug'at yaratiladi va u «Oyna kitobi» deb nomlanadi.

Xalil al-Faraxidi mashhur arab tilshunosi Sibaveyxning ustози edi. Sibaveyx tilshunoslikda o'zining «Al Kitob» deb ataluvchi asari bilan mashhurdir. Bu asar shu darajada mukammal yozilgan ediki, so'nggi yillarda ham unga biror yangilik kiritish amri mahol bo'ldi.

Arablar fonetik bilimlarga katta ahamiyat berdilar va birinchilardan bo'lib tovush bilan harfni farqlab o'rgandilar. Ular uch undoshli o'zak haqida keng ma'lumot berish bilan birga, affikslar hamda ichki fleksiya to'g'risida aniq izohlar keltirdilar. Arablarning bu muvofaqligatlari XVIII-XIX asrlardagi Ovro'pa tilshunosligiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Arab tilshunosligining asosiy bo'limlari sifatida **tajvit** (fonetika), **sarf** (morfologiya) va **nahv** (sintaksis) kabilarni ko'rsatish mumkin. Bu bo'limlarning har biri Kufa va Basra tilshunoslik maktablarining asosiy o'rganish ob'ektlari bo'ldi.

Arab tilshunoslari lug'atshunoslik ishlari bilan ham astoydil shug'ullanadilar. Sog'aniy ismli olim 20 jildlik lug'at tuzgan bo'lsa, Al-Firuzobodiy tomonidan 60 jildli lug'at yaratildi.

Arablarning lug'atshunoslik bobida qilgan ishlari ibratlidir, albatta. Lekin bu lug'atlarda ko'proq sheva materiallari beriladi. Bundan tashqari, arab lug'atlari u paytlarda alifbo tartibiga asoslanmagan edi. Bu kamchiliklar keyingi leksikografik iishlarda, masalan, al-Javharning 40000 so'zli lug'atida tuzatildi. Al-Geraviyning lug'ati ham alifbo tartibida yozilgan edi.

Shuni ham aytish kerakki, arab tilshunoslari tilning paydo bo'lishi masalasini ham o'ziga xos yo'sinda izohlaydilar. Bunda quyidagilar xarakterlidir:

1.Odam Atoga til Alloh tomonidan berilgan.

2.Odam Atoga berilgan til to'liq va mukammal emas edi. U keyinchalik odamlar tomonidan rivojlanirildi.

3.Tilning vujudga kelishiga qabila boshliqlarining kelishuvlari ham katta ta'sir ko'rsatgan.

Ko'rinadiki, tilning paydo bo'lishi bobidagi arab tilshunoslarining fikrlari bilan qo'shilib bo'lmaydi, zotan, ular tilning paydo bo'lishida tafakkur, mehnat va jamiyatning rolini hisobga olmaganlar. Alloh tomonidan insonga berilgan til ana shu uch faktor og'ushida sayqal topganligini eslatish zarur edi.

Arab tilshunosligiga O'rta Osiyo olimlarining ham ulushlari katta bo'ldi. Bunga Ibn Sinoning «Arab tili fonetikasi», Zamaxshariyning «Al - Mufasssal», «Asos-ul balog'a» va boshqa asarlari dalil bo'la oladi.

Mahmud Zamaxshariyning «Al – Mufasssal» asari besh qismdan iborat bo'lib, uning birinchi bo'limi ot turkumiga, ikkinchi bo'limi fe'l turkumiga oid so'zlar tavsifiga, uchinchi bo'limi yordamchi so'zlar tavsifiga bag'ishlangandir. Asarning to'rtinchi bo'limi «Otlarning turlanishi», beshinchi bo'limi esa «Fe'llarning tuslanishi» deb nomlangan.

Mahmud Zamaxshariyning yana bir asarida dorivor o'simliklarning nomlari hamda bunday o'simliklar o'sishi mumkin bo'lgan tog'lar va boshqa hududlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Shuni ham aytish kerakki, biz bu o'rinda Zamaxshariyning lisoniy ma'lumotlar tavsifiga bag'ishlangan faqat ikki asari haqida fikr yuritdik. Uning tilshunoslik masalalari tavsifi berilgan boshqa asarlari ham mavjuddir.

Arab tilshunosligining o'ta taraqqiy qilgan davri VII- VIII asrlarga to'g'ri keladi. VIII asrdan so'ng bunda turg'unlik davri boshlanadi va uzoq yillar davomida biror bir fundamental lisoniy ish (asar) yozilganligini qayd eta olmaymiz.

Arab tilshunosligining taraqqiyotiga O'rta Osiyoda vujudga kelgan ishlar ham sezilarli darajada ta'sir etdi. Yuqorida Ibn Sinoning «Arab tili fonetikasi» haqida aytilgan edi. Bundan tashqari, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy kabi ko'plab allomalarning ishlari ham fikrimiz isboti bo'lishi mumkin.

Mahmud Koshg'ariyning 1071 -72 yillarda yozib tugallangan «Devonu lug'otit turk» asarida tahlil etilgan material turkiy so'zlar bo'lsa-da, ular arab tilida izohlangan edi. Mahmud Koshg'ariy bu asarida hozirgi mustaqil turkiy tillarning barchasini umumturkiy tilining lahjalari sifatida tavsiflaydi.

Bizgacha devonning birgina qo'lyozmasi etib kelgan bo'lib, u ham bo'lsa asarning birinchi jildini taqozo etadi. Bu kitob ayni paytda Istambulda saqlanmoqda.

Mazkur asarning o'ziga xosligi shundaki, muallif turkiy lahjalarga oid barcha ma'lumotlarni o'z ko'zi bilan ko'rib, o'z qulog'i bilan eshitib yozgan. Devonda berilgan turkiy so'zlar turkcha alifbo (18 ta asosiy va 7 ta qo'shimcha harf) bilan bitilgan. Mahmud Koshg'ariy turkiy tilga arab tilidagi harflar yot ekanligini ta'kidlaydi.

Devonning yozilishi haqida muallif shunday deydi: «Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlari, qishloqlari va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarni to'pladim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib, aniqladim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillar so'zlarida har qanday farqlarni aniqlab olish uchun qildim («Devonu lug'otit turk». - Toshkent: FAN. 1960-1963).

Devonda so'zlar ism va fe'l turkumlariga bo'lib o'rganiladi. Ot turkumiga ism, sifat, son va olmosh, fe'l turkumiga esa fe'l, ravish, sifatdosh, ravishdosh kabilar birlashtiriladi.

Asarda so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar, ko'makchi, undov va bog'lovchilar ham aniq ifodalanadi. Bundan tashqari, fe'l zamonlari, mayllari, shuningdek, fe'l darajalari (nisbat) mukammal ishlangan.

Alisher Navoiyning ham tilshunoslik bobidagi xizmatlarini alohida qayd etmoq lozim. Uning, ayniqsa, «Muhokamat ul-lug'atayn» («Ikki til muhokamasi») asari bu sohada katta ahamiyat kasb etadi. Asar 1499 yilda yozilib, unda o'zbek tilining o'sha zamonning adabiy tillari qatoridan o'rin olishga qodir ekanligi to'liq isbotlab beriladi.

Asarda juda ko'p so'zlar tahlil etiladi. Ular jumlasiga fe'l, ot, sifat va boshqa turkumlarga oid so'zlar kirib, ular mukammal yoritiladi. So'z yasalishi muammosi ham ancha yaxshi tavsiflanadi.

Alisher Navoiy mazkur asarida turkiy til imkoniyatlarini forsiy til imkoniyatlari bilan qiyoslaydi va turkiy tilning beqiyos imkoniyatlari aniq va ravshan qilib ko'rsatib beriladi. Alisher Navoiy bunda bir tilning qudratini, guzalligini ikkinchi tilni


mensimaslik evaziga emas, balki real qo'llanilishiga qarab dalillaydi, zotan, uning o'zi forscha so'zlashuvdan tashqari, bu tilda ijod ham qilgan.

Alisher Navoiyning mazkur asari turkiy tilning, jumladan, o'zbek tilining xalqaro mavqeyini oshirishga g'oyat katta xizmat qiladi. XV asrga kelib o'zbek adabiy tili to'liq asoslangan va faoliyat ko'rsatayotgan edi. Manbalarda milliy tilimiz XI asrda shakllanganligi eslatiladi va bunga Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yuganakiyning «Hibatul haqoyiq» asarlarining yozilishi dalil qilib ko'rsatiladi. Lekin, bizningcha, o'zbek milliy tili bundan ancha avval shakllangan bo'lishi muqarrardir. Shunisi achinarliki, qadimgi O'rta Osiyoda tilshunoslikka oid qilingan ishlar bizgacha to'liq etib kelmagan. Shu bois bu haqda aniq ma'lumotlarga ega emasmiz.




Panining "Ashtyadhyan" asari 8 bo'limdan iborat bo'lib, 10 ta rigveda sharhlangan edi. Mazkur asarni birinchi bo'lib rus tiliga Otto Byotling tarjima qiladi.

- ✖ Qadimgi Hindistonda (eramizdan avvalgi IV asr) Panini mashhur tilshunoslardan biri bo'lgan. U birinchi bo'lib hind tili me'yoriy grammatikasini yozishda o'zidan oldin o'tgan 10 ga yaqin tilshunoslarning ishlaridan foydalangan.
- ✖ Panini grammatikasida 4000ga yaqin qoidalar (sutrlar) beriladi. Ammo bu qoidalar o'ta qiyin matematik formulalarga o'xshash tilda yozilganki, ularni hatto sanskritning bilimdonlari ham qiynalib o'qiganlar.
- ✖ Panini grammatikasida morfologik hodisalar: fe'l o'zagi, qo'shimchalari, tuslanish formalari, shuningdek, boshqa turkumlarga xos so'zlarning shakllari xususida ham keng ma'lumot beriladi. Bundan tashqari, mazkur grammatikada fonetikaga oid ma'lumotlar ham atroflicha yoritilgan.
- ✖ Panini grammatikasida veda diniga tegishli materiallar sanskrit bilan qiyoslanganini ham ko'rish mumkin. Qiyosiy tahlil fonetik, morfologik, so'z yasalishi va qisman sintaktik masalalar bobida olib boriladi. Shu bois Panini grammatikasi qadimgi sanskritni o'rganishda ahamiyatli bo'libgina qolmay, u so'z shakllarini o'rganishda bugungi kunda ham qo'llanib kelmoqda.



АРИСТОТЕЛЬ
384-322 до н. э.





Демокрит

Qadimgi yunon faylasuflarini dastlab tilning paydo bo'lishi masalasi qiziqtirgan. Ammo bu masala bobida ularning fikrlari mushtarak emas edi. Shu bois yunon faylasuflari ikki qarama - qarshi guruhga bo'linib ketishadi: materialistik g'oyadagi faylasuflar va idealistik g'oyadagi faylasuflar.

Birinchi guruh faylasuflari (Demokrit, Aristotel) fikrlariga ko'ra, tabiatdagi, voqelikdagi narsa va predmetlarning nomlari ular bilan bog'liq emas. Ularga shartli ravishda nom qo'yiladi. Shuning uchun tilning kelib chiqishi muammosini ham ilohiy kuch bilan bog'lab bo'lmaydi, degan g'oyani olg'a suradilar.

So'z turkumlari bobida Platonga nisbatan Aristotel aniqroq ma'lumot beradi. Xususan, u ot deganda zamon tushunchasiga aloqasi bo'lmagan, fe'l deganda esa zamon tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan so'zlarni tushunadi. Bu fikrlar uning «Poetika» nomli asarida keltirilgan bo'lsa, keyinchalik «Ritorika» nomli asarida u so'z turkumlarini uchga bo'ladi: ot, fe'l, bog'lovchilar. Bundan tashqari, Aristotel kelishiklar haqida ham ma'lumot beradi. Gapni u mustaqil ma'no anglatuvchi tovushlar yig'indisi tarzida izohlaydi.



Гераклит
ок. 544 — ок. 483 до н. э.

- ✗ Ikkinchi guruh faylasuflari (Platon, Geraklit) narsa bilan uning nomi o'rtasida azaliy bog'liqlik borligini aytadilar. (Masalan, asal, achchiq). Suqrotida ham ana shunday fikr mavjud bo'lgan.
- ✗ Tilshunlik masalalari faylasuflar tomonidan o'rganilganda, nafaqat umumiy muammolar, balki tilshunoslikning alohida masalalari ham nazardan chetda qolmadi. Bu davrda, ayniqsa, fonetik muammolarga katta ahamiyat berildi. Masalan, Platon tovushlarni o'rganishda undosh ovozdor hamda undosh shovqinli tovushlarni farqlash lozimligini ta'kidlaydi.
- ✗ Qadimgi yunon faylasuflari grammatikaga oid masalalarni ham o'rganadilar. Buni Platonning «Kratil» deb nomlanuvchi dialogik asarida ko'ramiz. Muallif so'zlarni mantiq qonun-qoidalari asosida turkumlarga bo'ladi va ot, fe'l turkumlarini ajratadi. U fe'l deganda harakat ifodasini anglatuvchi so'zlarni, ot deganda esa shu harakatning ijrochisini tushunadi.



TILSHUNOSLIK TARIXIDAN MA'LUMOT

- ◆ Qadimgi Hindistonda Paninining “Ashtadxyan” nomli grammatikasi yaratildi (eramizdan av. IV asr). Bu asar 8 bo'limdan iborat bo'lib, 3996 ta qoidani o'z ichiga oladi. Asarni Otto Byotling rus tiliga tarjima qildi.
- ◆ Aristotel “Poetika”, “Ritorika” asarlarini yozdi.
- ◆ Platon “Kratil” asarini yozdi.
- ◆ Materialistlar (epikurchilar): Demokrit, Aristotel.
- ◆ Idealistlar (stoiklar): Platon, Geraklit.
- ◆ Iskandariya maktabi (er.av. III-I asr.) vujudga keldi.
- ◆ Xitoyda “Erya”, “Guanya”, “Fanyan” asarlari vujudga keldi.
- ◆ Van Nyan Sun “Xitoy tili grammatikasi” ni yozdi.



SYU SHEN

- ✱ Antik tilshunoslik xususida so'z yuritilganda, qadimgi Xitoyda vujudga kelgan lisoniy asarlarni ham eslab o'tish joiz. Qadimgi Xitoy tilshunosligi shakllanganiga ham 2500 yildan ko'proq vaqt ortda qolgan bo'lib, bunda dastlab «Erya» asari vujudga kelgan. «Erya» leksikografik ish bo'lsa-da, unda orfografik, ensiklopedik va mafkuraviy bilimlarning me'yori ham belgilab berilgan. Bu asarning sharhiga bag'ishlangan ba'zi ishlar ham yoziladi. Bunday ishlardan biri «Guanya» asaridir.
- ✱ «Guanya» ni keng ma'noda «Erya» ning lo'g'ati deyish mumkin. Qadimgi Xitoyda keyinchalik «Mahalliy shevalar» deb ataluvchi «Fanyan» asari vujudga keladi. Biroq u «Erya» singari mashhur bo'lolmadi.
- ✱ Syu Shen “Elementlar va murakkab belgilar” asarini yozadi. Asar orfografiya qoidalariga bag'ishlanadi.
- ✱ Van Nyan Sun hamda Van In Chji ota-bola olimlar “Xitoy yili grammatikasi” ni yaratishdi.





ALI IBN ABU TOLIB

- ✦ Arab tilshunosligining vujudga kelishi ilohiy «Qur'on» kitobining mazmuni va mohiyatini musulmonlarga tushunarli qilish maqsadi bilan uzviy bog'liqdir. Bundan tashqari, klassik arab tilini shevalar ta'siridan himoya qilish ham ko'zda tutiladi.
- ✦ Qadimgi arab tilshunosligining markazi Basra va Kufa shaharlari, keyinchalik esa Basra va Bog'dod shaharlari bo'lgan.
- ✦ Arab tilshunosligining shakllanishida Muhammad payg'ambarning kuyovi Hazrati Alining xizmati ham katta bo'ldi. U Abul Osvad ismli olimga Qur'onning matnini, oyatlarini to'g'ri va tushunib o'qish uchun tilshunoslik bilimi zarur bo'layotganini aytadi va unga ot, fe'l hamda yordamchi so'zlarni e'tiborga olgan holda grammatik qo'llanma yozish vazifasini yuklaydi.



QADIMGI ARAB TILSHUNOSLIGI

- ◆ Xalil al Faraxidi "Kitobul ayn" asarini yozdi (VIII asr).
- ◆ Amir bin Usmon Sibaveyxiy "Al kitob" asrini yaratdi.
- ◆ Sog'aniy 20 jildli "To'lqinlar toshqini" nomli lug'at tuzdi.
- ◆ Feruzobodiy 60 jildli "Qomus" nomli lug'at tuzdi.
- ◆ Abu Ali ibn Sino "O'tkirlik sintaksisda ekanligi kitobi", "Arab tili kitobi", "Tovushlarning chegaralanish sabablari" kitoblarini yozdi.
- ◆ Mahmud az Zamaxshariy "Al mufassal", "Muqadimatul adab", "Asos ul balog'a" kabi asarlar yaratdi.




- ✖ Arab tilshunosligiga O'rta Osiyo olimlarining ham ulushlari katta bo'ldi. Bunga Ibn Sinoning «Arab tili fonetikasi», Zamaxshariyning «Al - Mufasssal», «Asos-ul balog'a» va boshqa asarlari dalil bo'la oladi.
- ✖ Mahmud Zamaxshariyning «Muqadimat-ul adab» asari besh qismdan iborat bo'lib, uning birinchi bo'limi ot turkumiga, ikkinchi bo'limi fe'l turkumiga oid so'zlar tavsifiga, uchinchi bo'limi yordamchi so'zlar tavsifiga bag'ishlangandir. Asarning to'rtinchi bo'li-mi «Otlarning turlanishi», beshinchi bo'limi esa «Fe'llarning tuslanishi» deb nomlangan.
- ✖ Mahmud Zamaxshariyning yana bir asarida dorivor o'simliklarning nomlari hamda bunday o'simliklar o'sishi mumkin bo'lgan tog'lar va boshqa hududlar haqida ma'lumotlar beriladi.
- ✖ Shuni ham aytish kerakki, biz bu o'rinda Zamaxshariyning lisoniy ma'lumotlar tavsifiga bag'ishlangan faqat ikki asari haqida fikr yuritdik. Uning tilshunoslik masalalari tavsifi berilgan boshqa asarlari ham mavjuddir.



Махмуд Кашгарӣ (1028 -1126) — видный тюркский филолог и лексикограф. Родился в государстве Караханидов. Известен благодаря созданному им «Собранию тюркских наречий» (Диван Лугат ал-Турк) — словарно-справочному разноре́чью тюркских языков.

MAHMUD KOSHG`ARIY

- ✖ Mahmud Koshg'ariyning 1071 -72 yillarda yozib tugallangan «Devonu lug'otit turk» asarida tahlil etilgan material turkiy so'zlar bo'lsa-da, ular arab tilida izohlangan edi. Mahmud Koshg'ariy bu asarida hozirgi mustaqil turkiy tillarning barchasini umumturkiy tilining lahjalari sifatida tavsiflaydi.
- ✖ Bizgacha devonning birgina qo'lyozmasi etib kelgan bo'lib, u ham bo'lsa asarning birinchi jildini taqozo etadi. Bu kitob ayni paytda Istambulda saqlanmoqda.
- ✖ Mazkur asarning o'ziga xosligi shundaki, muallif turkiy lahjalarga oid barcha ma'lumotlarni o'z ko'zi bilan ko'rib, o'z qulog'i bilan eshitib yozgan. Devonda berilgan turkiy so'zlar turkcha alifbo (18 ta asosiy va 7 ta qo'shimcha harf) bilan bitilgan. Mahmud Koshg'ariy turkiy tilga arab tilidagi harflar yot ekanligini ta'kidlaydi.
- ✖ Devonning yozilishi haqida muallif shunday deydi: «Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlari, qishloqlari va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarni to'pladim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib, aniqladim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillar so'zlarida har qanday farqlarni aniqlab olish uchun qildim



- ✖ Alisher Navoiyning ham tilshunoslik bobidagi xizmatlarini alohida qayd etmoq lozim. Uning, ayniqsa, «Muhokamat ul-lugʻatayn» (“Ikki til muhokamasi”) asari bu sohada katta ahamiyat kasb etadi. Asar 1499 yilda yozilib, unda oʻzbek tilining oʻsha zamonning adabiy tillari qatoridan oʻrin olishga qodir ekanligi toʻliq isbotlab beriladi.
- ✖ Asarda juda koʻp soʻzlar tahlil etiladi. Ular jumlasiga feʼl, ot, sifat va boshqa turumlarga oid soʻzlar kirib, ular mukammal yoritiladi. Soʻz yasalishi muammosi ham ancha yaxshi tavsiflanadi.
- ✖ Alisher Navoiy mazkur asarida turkiy til imkoniyatlarini forsiy til imkoniyatlari bilan qiyoslaydi va turkiy tilning beqiyos imkoniyatlari aniq va ravshan qilib koʻrsatib beriladi. Alisher Navoiy bunda bir tilning qudratini, guzalligini ikkinchi tilni mensimaslik evaziga emas, balki real qoʻllanilishiga qarab dalillaydi, zotan, uning oʻzi forsha soʻzlashuvdan tashqari, bu tilda ijod ham qilgan.
- ✖ Alisher Navoiyning mazkur asari turkiy tilning, jumladan, oʻzbek tilining xalqaro mavqeyini oshirishga gʻoyat katta xizmat qiladi. XV asrga kelib oʻzbek adabiy tili toʻliq asoslangan va faoliyat koʻrsatayotgan edi.

4-ILOVA. MAVZU BOʻYICHA SAVOLLAR

- 1.Qadimgi Arabistonda tilshunoslikning vujudga kelishiga nima sabab boʻlgan?
- 2.Sibaveyxning «Al-kitob» asari haqida maʼlumot bering.
- 3.Arabistonda lugʻatshunoslikning vujudga kelishi xususida maʼlumot bering.
- 4.Oʻrta Osiyolik olimlardan kimlarning arab tilshunosligi rivojiga ulushlari bor?
- 5.Zamahshariyning tilshunoslikka oid qanday asrlarini bilasiz?
- 6.Alisher Navoiyning «Muhokamat ul- lugʻatayn» asarining asosiy mazmunini soʻzlab bering.
- 7.Qadimgi Hindistonda tilshunoslik fanining paydo boʻlishi nima bilan bogʻliq?
- 8.Panini yozgan hind tili meʼyoriy grammatikasida qancha lisoniy qoida (sutrlar) mavjud?
- 9.Panini grammatikasida nimalar yoritiladi?
- 10.Qadimgi Yunonistonda tilshunoslik faniga kimlar asos soldilar?
- 11.Yunonistonda tilshunoslik fanining taraqqiyot bosqichlarini izohlang.
- 12.Iskandariya tilshunoslik maktabining asoschilari kimlar?
- 13.Iskandariya tilshunoslik maktabining asosiy vazifalari nimalardan iborat edi?
- 14.«Kratil», «Poetika», «Ritorika» asarlari haqida maʼlumot bering.
- 15.Qadimgi Xitoyda dastlab tilshunoslikka oid qanday asarlar vujudga kelgan?

3-MAVZU	Fonetika va fonologiya.
---------	-------------------------

1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi.
(3- mashg'ulot)

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 75 ta</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	3-ma'ruza.
<i>Ma'ruza rejasi:</i>	1. Fonetikaning asosiy maqsadi. 2. Fonetika va fonologiya haqida. 3. Unli va undosh tovushlar tasnifi. 4. Segment va supersegment unsurlar. 5. Nutqning fonetik bo'linishi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: fonetika va fonologiya, fonema va allofonlar, fonetik akustika va artikulyasiya, unli va undosh tovushlar tasnifi, segment va supersegment unsurlar, nutqning fonetik bo'linishi, tovush va harf haqida yeng ma'lumot berish hamda talabalarda bilim ko'nikmalarini shakllantirish.</i>	
<i>Ta'lim metodlari:</i>	Ma'ruza, namoyish etish, integrasiyalashgan o'qitish, tezkor savol-javob, aqliy hujum.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari:</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'zini-o'zi nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

1.2. Ma'ruzaning xronologik xaritasi
(3- mashg'ulot)

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish (5 minut)	1.1. Mavzu nomi, maqscadi, o'quv mashg'ulotining natijalari e'lon qilinadi. O'tilayotgan mavzu ko'rgazmali ma'ruza tarzida tashkil etilishi haqida e'lon qiladi.	Eshitadilar.

II. Asosiy bosqich (65 minut)	2.1. Tezkor – so‘rov texnikasidan foydalanib, o‘tilgan mavzu eslatiladi va talabalar faollashtiriladi: 1. Fonetika va fonologiya . 2. Fonetikaning asosiy maqsadi. 3. Fonetik akustika va artikulyasiya. 4. Segmentn va supersegment unsurlar. 5. Nutq tovushlarining o‘zgarishi. 6. Tovush va harf.	Savol - javobda faol qatnashadilar.
	2.2.Talabalarni faollashtirish maqsadida «Aqliy xujum» metodini qo‘llab, umumiy savol beriladi. «Aqliy xujum» metodidan foydalanishda rioya qilish kerak bo‘lgan qoidalar bilan tanishtiriladi (5-ilova). Savollar 6-ilovada ko‘rsatilgan.	Topshiriqni bajaradilar
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1.Mavzuni rejasi asosida xulosa qilib, eng muhim ma’lumotlarga talabalar diqqatini jalb qiladi. 3.2. Muhokamada faol qatnashgan talabalarni rag‘batlantiradi, baholaydi, yozib oladi.	Tinglashadi. Tinglashadi.

5-ilova.

Aqliy hujumni olib borish qoidalari:

○ Hech qanday o‘zaro baho bermaslik va tanqid qilmaslik. ○ Taklif etiladigan fikrlarni baholashdan o‘zini tiyishlik, ular qanchalik g‘ayri oddiy va fantastik bo‘lmasin. ○ Hamma narsa mumkin. ○ Tanqid qilmaslik - hamma fikrlar teng ravishda qadrlidir. ○ Gapirayotgan talabani fikrini bo‘lmaslik. ○ Tanbeh berishdan o‘zini tiyishlik. ○ Asosiy maqsad - fikrning miqdoridadir. ○ Qancha ko‘p fikr aytilsa, shuncha yaxshidir: yangi va qadrli fikrlarni dunyoga kelish imkoniyati kengayadi. ○ Fikrlar qaytarilsa jaxl chiqmaslik. ○ Xayolni «junbushga kelishiga» imkoniyat yaratishlik. ○ Yangi tug‘ilgan fikrlarni rivojlantirish, garchi ular sxemalarga to‘g‘ri kelmasa ham . ○ Mazkur muammo faqat muayyan vositalar orqali yechim topishi mumkinligini unutishlik.
--

Integrasiyalashgan (mujassamlashtirilgan) o'qitish qoidasi

Talabalarning his qilish-umumlashtirish xususiyatlariga asoslangan ta'lim jarayonini yaratish.

Mavzularni mazmunan biriktirish hisobiga mavzuni chuqur o'zlashtirishga erishish.

Talabalarning qobiliyatini rivojlantirish.

Fonetika va fonologiya.

Fonetika tilshunoslik fanining mustaqil bo'limlaridan biri bo'lib, unda nutq tovushlari o'rganiladi. Nutq tovushari tilimizning xom ashyosi, uning moddiy boyligi hisoblanadi, zotan, inson tili tovushlar orqali mavjuddir. Tilning barcha birliklari oddiy fonemalaridan boshlab matngacha ana shu tovushlar yordamida o'z ifodasini topadi.

Fonetikaning asosiy predmetini tovushlarning akustik va artikulyatsion xarakteristikasi tashkil etadi. Ammo nutq tovushlari sof lingvistik jihatdan ham o'rganiladi. Bunda tovushlarning funksional jihatlari fonologiyaning predmetini tashkil etadi. Fonologiya - fonetik ma'lumotlarga asoslanuvchi va fonetikaning eng yuqori pog'onasini tashkil etuvchi, fonemalarning funksional qimmatini o'rganuvchi sohadir.

Fonema tildagi o'zidan yuqori bo'lgan birliklarni, ya'ni morfemalar, so'z, so'z formalarini va morfemalarni tashkil etuvchi va ularni farqlashga xizmat qiluvchi tilning eng kichik birligidir. Demak, fonetikani inson nutqining material tomonini, ya'ni artikulyatsiyasi va akustikasi haqidagi fan deb, fonologiyani esa tildagi tovushlarning ma'nosini farqlashga xizmat qiluvchi, ularning funksional jihatlarni o'rganuvchi fan deb atash mumkin.

Ma'lumki, jism tebranganda havoni to'ldiradi va tovush hosil bo'ladi va buni biz eshitamiz. Akustika ana shu narsa bilan bog'liqdir. Akustik jihatdan tovushning balandligi, kuchi, tembri, qisqa yoki cho'ziqligi farqlanadi. Tovushning balandligi tebranishning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Tebranish qancha ko'p (salmoqli) bo'lsa, tovush shuncha baland bo'ladi.

Nutq, tovushining kuchi tebranishning shiddatiga bog'liq bo'ladi. Tebranish darajasi qanchalik katta bo'lsa, shiddatli bo'lsa, tovush ham shunchalik kuchli bo'ladi. Tovushning kuchi havoning nutq organlarimizga qanday zarb bilan urilishiga qarab har xil bo'ladi.

Nutq tovushining tembri (ya'ni sifati) asosiy ton bilan qo'shimcha tonlarning (oberton va rezonator tonlarning) va shovqinning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Tovushning tembri rezonator vazifasini bajaruvchi og'iz bo'shlig'i va burun bo'shlig'ining shakli hamda hajmiga, un paychalarida hosil bo'ladigan asosiy tondan tashqari, obertonlarga, shuningdek, og'iz bo'shlig'i va bo'g'izda hosil bo'ladigan

shovqinlar hamda ovoz qanday ekanligiga ham bog'liq. Shunga ko'ra, har kimning ovozi o'ziga xos bo'ladi.

Tovushning cho'ziqlik darajasi tebranish davom etgan vaqt bilan o'lchanadi. Ba'zi tillarda, masalan, turkman tilida *u-u*:, *a-a*:, *o-o*:, *i-i*: unlilari tebranish davom etgan vaqtga qarab turlicha talaffuz etiladi.

Albatta, tovushlarning balandligini, kuchini, tembrini, qisqa yoki cho'ziqligini aniqlashda eshitish organimiz - quloqning ahamiyati katta. Unda 4,5 ming nozik tolachalar bo'lib, ular turli xil tonlarga jo'rlanganga o'xshaydi.

Tovushlarning akustik jihatlari bugungi tilshunoslikda maxsus apparatlar yordamida ham o'rganilmoqda. Bunday apparatlar jumlasiga *kimograf lentasi*, *obsillograf* moslamasi va boshqa shu kabilarni kiritish mumkin.

Nutq tovushlarining artikulasiyasi nutq apparati bilan bevosita bog'liqdir. Nutq apparati, o'z navbatida, quyidagilarga bo'linadi: a) nafas apparati (o'pka, bronxlar, nafas yo'li); b) bo'g'iz bo'shlig'i (un paychalari, qalqonsimon va piramidasimon tog'aylar); v) og'iz bo'shlig'i (kichik til, til, tanglay, lablar, tish, milk); g) burun bo'shlig'i.

Nutq organlarining tovush hosil qilishda o'rinlari turlicha bo'lib, til, kichik til, lablar, yumshoq tanglay va un paychalari aktiv organlar hisoblanadi. Tishlar, qattiq tanglay va burun bo'shlig'i passiv organlar sanaladi. Lekin ba'zi tillarda, masalan, fransuz tilida burun faol organlar jumlasiga kiradi. Bu tilda to'rtta burun undoshi mavjud.

Nutq organlarining tovush hosil qilish paytidagi harakati va holati **artikulatsiya** deyiladi. Artikulatsiyada ikki narsa farq qilinadi: a) artikulasiya o'zni va b) artikulyatsiya usuli.

U yoki bu organning tovush hosil qilish paytidagi faol qatnashadigan qismi artikulasiya o'zni deyiladi. Masalan, *t*, *d*, *l* tovushlarining hosil bo'lishida tilning oldingi qismi milkka va tishlarga qadaladi. Demak, bu tovushlarning artikulasiyasi o'zni til oldidadir. Yoki *b*, *r*, *m* tovushlarining artikulasiyasi lablarda ekanligi ham bunga misol bo'la oladi.

Tovush hosil qilish paytida ikki nutq organining jipslanishi yoki jipslashmay oradan havo o'tkazishi artikulasiya usuli deyiladi. Bunda portlovchi va sirg'aluvchi tovushlarni farqlaymiz.

Yuqoridagilardan tashqari, nutq tovushlarining aytilishida ovoz va shovqinni ham hisobga olmoq kerak. Unga ko'ra, jarangli va jarangsiz fonemalarni farqlab o'rganamiz.

Nutq tovushlarini o'rganishda har doim tilimizning eng kichik birligi tovush ekanligini va uning o'zicha ma'no anglata olmasligini, bo'linmas unsur sanalishini esda tutmoq darkor. Ana shular asosida tovushning nutqimizdagi funksional qimmatini belgilay olamiz.

Nutqda tovushlar ba'zan me'yoriy talaffuzdan chiqishi mumkin. Masalan, rus tilidagi *завопумъ* so'zida «g» tovushi «h», «g» tarzida talaffuz etilishi ham kuzatiladi: **govorit-hovorit-g'ovorit**.

Bu o'rinda asosiy fon «g» bo'lib, *h* va *g* fonlari variant tovushlarni taqozo etadi. Ilmiy tilda «g» tovushiga nisbatan ayni paytda variant ko'rinishidagi «g» va «h» tovushlari **allofonlar** deb yuritiladi.

Agar tovush o'zgarishi sifat o'zgarishlariga olib kelsa, bu o'rinda fonlar haqida emas, balki fonema xususida fikr yuritish lozim bo'ladi. Masalan: *bo' r-bir-bar-ber*.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarga asoslanib, fonemani qat'iy ravishda til birligi deb belgilaymiz. Fonema shu bois nutqdagi nodifferensial tovush o'zgarishlarini taqozo etmaydi. Fonema til birligi sifatida mavhum birlik bo'lib, nutqda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yagona vazifani bajaruvchi barcha fonlarning umumiy yig'indisidir.

Shunday qilib, allofonlarni nutq hodisasi deb tushunmoq lozim, fonema esa variant tovushlarga (tilda) ega bo'lmaydi.

Fonemalar majmuasi har bir tilning o'z ichki sistemasi qoidalariga muvofiq ravishda tillarda turlicha sanaladi. Agar o'zbek tilida 6 ta unli va 23 ta undosh fonema mavjud bo'lsa, ba'zi tillarda, masalan, ingliz tilida 21 unli va 24 undosh tovush mavjuddir. Ba'zi tillarda atigi 11 ta tovush bo'lsa, ayrim tillarda ularning soni 70 tagacha etadi. Masalan, *gavay* tilida 6 undosh va 5 unli, *abxaz* tilida 2 unli va 68 undosh bor.

Unli va undoshlar har bir tilda soni jihatidan bu tildagi tovush sistemasini to'liq qoniqtiradi va fikr ifodasini mukammal berish uchun etarli hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida unlilar majmuasini **vokalizm** deb, undoshlar yig'indisini esa **konsonantizm** deb atash qabul qilingan. Xususiy tilshunoslikda esa uning uziga mos milliy atamalar qo'llanilishi ham mumkin.

Har qanday tilda ham unlilar tasnifi tilning holati va lablarning ishtirokini e'tiborga olgan holda beriladi. Bunda tilning gorizontal va vertikal holatlari nazarda tutiladi. Uning gorizontal holatiga ko'ra ko'p tillarda til oldi va til orti unlilari, ba'zi tillarda esa til o'rta unlilari ham belgilanadi. Masalan, rus tilida «Ы», «а» unlilari artikulyatsiyasi o'rni til o'rta qismidadir.

Tilning vertikal holatiga ko'ra unlilarni quyidagilarga bo'lish mumkin: a) yuqori tor unlilar; b) o'rta keig unlilar; quyi keng unlilar.

Lablarning ishtirokiga ko'ra unlilarni ikkiga - lablangan va lablanmagan unlilarga ajratish mumkin.

Unlilar tarkibiga ko'ra 3 turga bo'linadi: a) **monoftonglar**, b) **diftonglar**, v) **triftonglar**.

Tarkiban faqat bir tovushdan iborat bo'lsa, bunday tovush monoftong deb ataladi: **a, u, i**. Tarkibida ikki tovush bo'lgan unlini diftong deb ataladi: nem.: **ei**, frans. **ui, ie (puis, pied)**. Bunday tovushlar g'arb tillarida mavjud. Tarkiban uch tovushdan iborat bo'lgan unlini triftong deb ataymiz: **ing, our**

Diftong va triftonglar bir fonemani taqozo etadi, bo'g'in ajratishda ham ular bir bo'g'in tarkibiga kiradi.

UNDOSH FONEMALAR TASNIFI

Undosh fonemalarning tasnifi quyidagi omillar bilan chambarchas bog'liqdir: a) hosil bo'lish o'rni; b) hosil bo'lish usuli; v) ovoz va shovqinning ishtiroki.

Hosil bo'lish o'rniga ko'ra undoshlar uch guruhga bo'linadi: a) **lab undoshlari**; b) **til undoshlari**; s) **bo'g'iz undoshlari**.

Lab undoshlari, o'z navbatida, lab-lab va lab-tish undoshlariga bo'linadi: **b, p, m, v** - lab-lab; **v, f** - lab-tish undoshlari.

Til undoshlarining artikulyatsiyasi xususiyatlariga qarab to'rtga bo'lish mumkin: a) **til oldi undoshlari**: **t, d, s, l, r** va h.k.; b) **til o'rtasi undoshi**: **y; v**; c) **til orqasi undoshlari**: **k, g, n (ng)**; g) chuqur til orqasi undoshlari: **q, g', x**.

Bo'g'iz undoshi arab tilida va undan so'z o'zlashtirgan ba'zi tillarda ko'p uchraydi. Masalan, «h» tovushi o'zbek tilida ham mavjud.

Hosil bo'lish usuliga ko'ra undoshlar **portlovchilarga, sirg'aluvchilarga** va **portlovchi-sirg'aluvchilarga** bo'linadi: **b, p, t, d** va h.k. – portlovchilar; **s, z, sh, x** va h.k. - sirg'aluvchilar; **m, n, ng, l, r** - portlovchi-sirg'aluvchilar.

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra undosh fonemalar jarangsizlarga va jaranglilarga bo'linadi.

Jarangli tovush talaffuzida shovqindan tashqari sof ovoz ham ishtirok etadi, jarangsizlar esa faqat shovqindan iboratdir. Jaranglilar ichida sonorlar alohida ajralib turadi. Bu tovushlarda ovoz miqdori ancha baland bo'ladi: **m, n, ng, r, l**.

Shuni ham aytish kerakki, biz berayotgan undoshlar tasnifi, asosan, o'zbek tili materiallariga asoslanadi. Biroq jahon tillarida undoshlar aynan bir xil xususiyatga ega emas. Ularning undoshlar sistemasi, albatta, bir-biridan sezilarli farq qiladi. Masalan, ingliz tilida nafas undoshi (h) ham mavjud.

Lekin, shunday bo'lsa ham, undoshlar tasnifida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan asosiy faktorlar barcha tillar uchun umumiydir.

Segment va supersegment unsurlar

Odatda, ifoda materiali mavjud bo'lgan fonetik unsurlarni segment unsurlar deb ataladi. Bu jihatdan nutq tovushlarining barchasi segment unsurlaridir. Supersegment unsurlar deganda esa, ifoda materiali bo'lmagan unsurlarni tushunamiz.

Umuman olganda, nutqni kichik va katta bo'laklarga bo'lish jarayoni **segmentatsiya** deb ataladi va mazkur bo'laklarni segmentlar deb nomlanadi.

Supersegment unsurlar jumlasiga, odatda, bug'in, urg'u va ohang kiritiladi. Bu vositalar segment unsurlar evaziga mavjuddir, ular go'yo segment unsurlar ustida joylashgandek ko'rinadi.

Bo'g'in bu jihatdan o'zining ifoda materialiga egadek tasavvur etilsa ham, bu holat real emas. Boshqacha aytganda, bo'g'inning ifoda materiali tovush deb o'ylashimiz mumkin. Lekin tovush segment element sanaladi. Demak, bo'g'in supersegment vosita sifatida tovushlar evaziga yashaydi. Urg'u supersegment vosita sifatida ma'lum bir bo'g'in doirasidagi tovush orqali o'z ifodasini topadi. Bu o'rinda ham tovush tom ma'nodagi urg'uning ifodasi bo'lolmaydi.

Urg'u sifat jihatidan **dinamik, miqdor** va **musiqaviy** turlarga bo'linadi.

Dinamik urg'uda so'zning ma'lum bir bo'g'ini kuchli talaffuz etiladi. Bu urg'u o'zbek, rus, nemis, qozoq va h.k. tillarning barchasiga xos. Miqdor urg'usi ma'lum bir bo'g'inning cho'zibroq talaffuz etilishini taqozo etadi: **zamok-zamok**.

Musiqaviy urg'uda ovoz tonining ko'tarilishi yoki pasayishi kuzatiladi. Bu urg'u xitoy, vietnam tillarida uchraydi. **Uni tonik** urg'u deb ham atashadi.

Tillar erkin va turg'un urg'uli bo'lishi ham mumkin. Masalan, o'zbek, fransuz, polyak tillari turg'un urg'uli bo'lsa, rus, ingliz, nemis tillari erkin urg'uli sanaladi.

Yuqoridagilardan tashqari, mantiqiy urg'u ham mavjud bo'lib, u jumla tarkibidagi biror so'zni boshqalaridan ma'no salmog'iga ko'ra ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Nutqimiz turlicha hajmdagi fonetik bo'laklardan tashkil topadi. Ular quyidagilardan iboratdir: 1) **fraza** (jumla); 2) **takt**; 3) **so'z**; 4) **bo'g'in**; 5) **tovush**.

Fraza nutqimizning ikki pauzasi oralig'idagi ohang butunligi bo'lib, ko'pincha bir gapga teng bo'ladi: **Ashraf keldi. U kelganda yana davra jonlanib ketdi.**

Takt frazaning ikki qiska pauzasi oralig'idagi ohang butunligidir. Takt bir (bosh) urg'u bilan aytiladi va u bir so'zdan yoki bir necha so'zdan iborat bo'lishi mumkin: **Do'stlari / uning har bir so'zidan/ zavqlanib kular edi.**

So'z taktning ham, frazaning ham asosiy material qismini taqozo etadi. U takt ichida yoki o'zicha alohida urg'u bilan aytiladigan bo'lakdir. Biroq yordamchi so'zlar ko'pincha mustaqil so'zlarning urg'ularidan foydalanib nutqqa kiradi. Ular o'zicha urg'u ololmaydi: **sen bilan, maktab tomon, dadam kabi** va h.k.

Nutq tovushlarining o'zgarishi

Nutq jarayonida real qo'llanganda, tovushlar biri ikkinchisiga ta'sir etib va boshqa ayrim sabablarga ko'ra turli xil o'zgarishlarga duch keladi. Bunday o'zgarishlar **akkomodatsiya, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, gaplologiya, metateza, diereza, epenteza** va boshqa shular kabi hodisalar doirasida yuz beradi. Bu hodisalarning jamini kombinator o'zgarishlar deb atash mumkin.

Akkomodatsiya lotincha (*accomodatio*) so'z bo'lib, «moslashuv» degan ma'noni anglatadi: **qafas** (bunda til orqa undoshidan keyin kelayotgan tovush ham til orqasida aytilmoqda), **dom-disk** (bu so'zlarda «o» va «i» tovushlari ta'sirida «d» qattiq va yumshoq talaffuz etilmoqda).

Akkomodatsiya hodisasi **progressiv** va **regressiv** bo'lishi mumkin. O'zbek tilidan berilgan misolda **progressiv**, ruscha misolda esa **regressiv** akkomodatsiya yuz bermoqda.

Assimilyatsiya lotincha so'z (*assimilatio*) bo'lib, «o'xshatish» ma'nosini anglatadi. Bu hodisa ham **progressiv** (yurak+ga=yurakka, ayt+di=aytti) yoki **regressiv** (nonvoy-novvoy, birta-birta) bo'lishi mumkin.

Dissimilyatsiya lotincha (*dissimilis*) «noo'xshash» so'zidan olingan bo'lib, bunda o'xshash tovushlar, noo'xshash tovushlarga aylanib qoladi: **koridor-kolidor, zarur-zaril.**

Metateza so'zi yunoncha (*metathesis*) bo'lib, «almashish» degan ma'noni anglatadi. Bunda so'z tarkibidagi tovushlarning o'rin almashishi nazarda tutiladi: **marhamat-mahramat, yomg'ir-yog'mir.**

Gaplologiya so'zi yunoncha «*gaplos*» - oddiy va «*logos*»-tushuncha degan ma'nolarni taqozo etadi. Gaplologiyada ma'lum bir bo'g'inning tushib qolishi nazarda tutiladi: **заметаноцеу – заметаноцеу, qayin ini-qayni.**

Diereza hodisasida so'z talafuzidan biror tovushning tushirilishi kuzatiladi: **go'sht-go'sh, do'st-do's, past-pas, dasht-dash.**

Epenteza hodisasi so'z tarkibiga yangi tovush qo'shilishini taqozo etadi: **u+ga=unga, shu+dan=shundan, doklad-doklad** kabi.

Epenteza tushunchasi ham yunoncha «*epentesis*»-(tovush orttirilishi) so'zining ma'nosini taqozo etadi.

Nutq tovushlarining pozitsion o'zgarishlari ko'proq supersegment vositalar bilan bog'lanadi.

Tovushlar soʻzda tutgan oʻrniga qarab talaffuzda, baʼzan yozuvda ham oʻzgarib ketishi mumkin yoki maʼlum fonetik vositalar (supersegment unsurlar) taʼsirida tovush tushib qolishi mumkin. Masalan, **zavod, bob, kitob** soʻzlarida oxirgi jarangli tovushlar (t) tarzida jarangsizlashib qoladi. **Burun, ogʻiz, qorin** soʻzlariga qoʻshimcha qoʻshilganda, urgʻu qoʻshimchalarga oʻtadi va oxirgi boʻgʻinlardagi tovush tushib qoladi (burni, ogʻzi, qorni). Bunday pozitsion oʻzgarish **reduksiya** deb ataladi.

Reduksiya lotincha soʻz boʻlib, «qisqarish» (reductio) maʼnosini anglatadi. Bu hodisa unli tovushlarning urgʻuli va urgʻusiz holatiga taalluqli boʻlib, asosan, dinamik urgʻu bilan bogʻlanadi.

Baʼzi tillarda unlilar urgʻu olganda bir xil, urgʻusiz holatda esa boshqacha talaffuz etiladi. Baʼzan esa urgʻusiz unlilar tushib qolishi ham mumkin. Masalan, ingliz tilida **he, she, we** olmoshlari urgʻu olganda choʻziq **i** fonemasi bilan [hi:], [shi:], [wi:], urgʻusiz holatda esa [hiʹ], [shiʹ], [wiʹ] tarzida talaffuz etiladi.

Tovush va harf

Tovush va harf deganda, oʻqish va yozish nazarda tutiladi. Lekin, aytish lozimki, dunyodagi tillarning alfavitlaridagi harflar soni tovushlar soniga toʻgʻri kelmaydi. Bu munosabatni, yaʼni tovush va harf munosabatini **orfografiya** oʻrganadi. Bu atama yunoncha «*orthos*»-toʻgʻri va «*grapho*» yozaman degan soʻzlardan tashkil topgan boʻlib, u imlo qoidalari bilan shugʻullanadi.

Oʻqish bilan yozish oʻrtasidagi eng yaqin munosabat oʻzbek tilida kuzatiladi. Imkoni boricha harflar tovushlarga mos keltirilgan. Lekin shunday boʻlsa ham, ular oʻrtasidagi tofovut sezilarlidir. Bu tilda harflar 26 ta, harf birikmalari 3 ta.

Hozirgi ingliz tilida bu sohada oʻzbek tilining teskarisini koʻramiz. Bu tilda harflar soni tovushlar sonidan deyarli ikki marta kam, yaʼni 48 ta tovushga 26 ta harf toʻgʻri keladi. Bunday vaziyatda transkripsiya deb ataluvchi maxsus yozuvdan keng foydalaniladi.

6-ILOVA. MAVZU BOʻYICHA SAVOLLAR

1. Fonetika tilshunoslik fanining qanday boʻlimi hisoblanadi?
2. Fonetika va fonologiya haqida maʼlumot bering.
3. Fonema va allofonlar qanday farqlanadi?
4. Fonetik akustika va artikulyatsiyani izohlang.
5. Artikulyatsiyada nimalar farqlanadi?
6. Unlilar tasnifida nimalar eʼtiborga olinadi?
7. Unlilarning qanday shakliy turlari mavjud?
8. Undosh tovushlarning tasnifi nimalar bilan bogʻliq?
9. Hosil boʻlish oʻrniga koʻra undoshlarni necha turga boʻlasiz?
10. Hosil boʻlish usuliga koʻra undoshlarni qanday tasnif qilasiz?
11. Ovoz va shovqinning ishtirokiga koʻra undoshlarning qanday turlari bor?
12. Segment va supersegment unsurlar qanday farqlanadi?
13. Nutqning fonetik boʻlinishini izohlab bering.
14. Nutq tovushlari qanday fonetik hodisalar doirasida oʻzgaradi?
15. Tovush va harf xususida maʼlumot bering.

FONETIKA

FONETIKANING ASOSIY MAQSADI:

- 1) nutq tovushlarining akustikasi (tovushning balandligi, pastligi, sifati, cho`ziqligi, qisqaligi);
- 2) nutq tovushlarining artikulyatsiyasi (tovushning hosil bo`lish o`rni va hosil bo`lish usuli).

Fonologiya fonemalarning funksional qimmatini o`rganadi.

Allofonlar fonemalarning nutqdagi variantidir.

Nutqimiz fonetik jihatdan fraza, takt, so`z, bo`g`in va tovushga bolinadi.

Bo`g`in, urg`u, ohang supersegment unsur sanaladi (ular ifoda materialiga ega emas).

Unli tovushlar tasnifi

Tilning vertikal holatiga ko`ra:

- a) yuqori tor unlilar: i, u;
- b) o`rta keng unlilar: e, o`;
- c) quyi keng unlilar: a, o.

Tilning gorizontal holatiga ko`ra:

- a) til oldi: i, e, a;
- b) til orqa: o, o`, u;    c) til o`rta: ы.

Lablarning ishtirokiga ko`ra: a) lablangan: o, o`, u;

b) lablanmagan: a, e, i;

Tarkibiga ko`ra: monoftonglar: a,u,i; diftonglar: ei,ui,ie;
triftonglar: ing, our.

Undosh tovushlar tasnifi

Hosil bo'lish o'rni:

a) lab undoshlari: b, p, m; b) lab tish: f, v; c) til undoshlari: til oldi (t,n,d,z); til o'rta (y); til orqa (k,g,ng); chuqur til orqa (q,g',x). d) bo'g'iz undoshi: h.

Hosil bo'lish usuli: portlovchilar (b,p,g); sirg'aluvchilar (s,z,f); portlovchi sirg'aluvchi(m,n)

Ovoz va shovqinning ishtiroki: jarangli (b,v,g); jarangsiz (p,f,k); sonor (m,n,ng).

4-MAVZU	Grammatika. Morfologiya.
----------------	---------------------------------

1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi. (5-6-mashg'ulot)

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 75 ta</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	4-ma'ruza.
<i>Ma'ruza rejasi:</i>	1. Morfologiyaning tekshiruv obyekti. 2. Morfema va allomorflar. 3. Morfemaning turlari. 4. Leksik va grammatik ma'no. 5. Grammatik kategoriyalar. 6. Sintetik va analitik tillar.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: morfologiyaning tekshiruv obyekti, morfema va allomorflar, morfemaning turlari, leksik va grammatik ma'no, grammatik kategoriyalar haqida ma'lumot berish hamda talabalarda bilim ko'nikmalarini shakllantirish.</i>	

<i>Ta'lim metodlari:</i>	Ma'ruza, namoyish etish, integrasiyalashgan o'qitish, tezkor savol-javob, aqliy hujum.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari:</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'zini-o'zi nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

**1.2. Ma'ruzaning xronologik xaritasi
(5-6-mashg'ulot)**

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish (5 minut)	1.1. Mavzu nomi, maqscadi, o'quv mashg'ulotining natijalari e'lon qilinadi. O'tilayotgan mavzu ko'rgazmali ma'ruza tarzida tashkil etilishi haqida e'lon qiladi.	Eshitadilar.
I. Asosiy bosqich (65 minut)	2.1. Tezkor – so'rov texnikasidan foydalanib, o'tilgan mavzu eslatiladi va talabalar faollashtiriladi: 1. Morfologiyaning tekshiruv obyekti. 2. Morfema va allomorflar. 3. Morfemaning turlari. 4. Leksik va grammatik ma'no. 5. Grammatik kategoriyalar. 6. Sintetik va analitik tillar.	Savol - javobda faol qatnashadilar.
	2.2. Talabalarni faollashtirish maqsadida «Aqliy xujum» metodini qo'llab, umumiy savol beriladi. «Aqliy xujum» metodidan foydalanishda rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar bilan tanishtiriladi (7-ilova). Savollar 8-9-illovalarda keltirilgan.	Topshiriqni bajaradilar
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Mavzuni rejasi asosida xulosa qilib, eng muhim ma'lumotlarga talabalar diqqatini jalb qiladi. 3.2. Muhokamada faol qatnashgan talabalarni rag'batlantiradi, baholaydi, yozib oladi.	Tinglashadi.

		Tinglashadi.
--	--	--------------

7-ilova.

Aqliy hujumni olib borish qoidalari:

- Hech qanday o‘zaro baho bermaslik va tanqid qilmaslik.
- Taklif etiladigan fikrlarni baholashdan o‘zini tiyishlik, ular qanchalik g‘ayri oddiy va fantastik bo‘lmasin.
- Hamma narsa mumkin.
- Tanqid qilmaslik - hamma fikrlar teng ravishda qadrlidir.
- Gapirayotgan talabani fikrini bo‘lmaslik.
- Tanbeh berishdan o‘zini tiyishlik.
- Asosiy maqsad - fikrning miqdoridadir.
- Qancha ko‘p fikr aytilsa, shuncha yaxshidir: yangi va qadrli fikrlarni dunyoga kelish imkoniyati kengayadi.
- Fikrlar qaytarilsa jaxl chiqmaslik.
- Xayolni «junbushga kelishiga» imkoniyat yaratishlik.
- Yangi tug‘ilgan fikrlarni rivojlantirish, garchi ular sxemalarga to‘g‘ri kelmasa ham .
- Mazkur muammo faqat muayyan vositalar orqali yechim topishi mumkinligini unutishlik.

Integrasiyalashgan (mujassamlashtirilgan) o‘qitish qoidasi

Talabalarining his qilish-umumlashtirish xususiyatlariga asoslangan ta’lim jarayonini yaratish.

Mavzularni mazmunan biriktirish hisobiga mavzuni chuqur o‘zlashtirishga erishish.

Talabalarining qobiliyatini rivojlantirish.

Grammatika. Morfologiya.

Tilshunoslik fani, asosan, fonetika-fonologiya, morfologiya, leksikologiya va sintaksis deb nomlanuvchi to‘rt bo‘limdan tashkil topadi. Uning ichki sistemasi va taraqqiyoti bilan bog‘liq barcha muammolar ana shular bilan uzviy tutashadi.

Morfologiya so‘zlarning grammatik tuzilishi va shakli, ularning turkumlarga bo‘linishi kabi masalalar bilan shug‘ullanadi. Bunda so‘zlarning ma’no jihatdan, fonetik jihatdan o‘zgarishi emas, balki ularniig tuzilishi, shakliy o‘zgarishi birinchi galda o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalarni taqozo etadi. Morfologiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi yunoncha *morphe* - shakl va *logos* – so‘z, ta’limot degan tushunchalarni taqozo etadi.

Tilshunoslik fanining har bir bo'limi o'zining birligiga egadir. Biz fonetika haqida ma'lumot olganimizda fon, allofon, fonema kabi tushunchalar bilan tanishgan edik. Morfologiyani eng kichik birligi esa nutqda ma'no anglatadigan unsurdir. Bu birlikning tildagi ko'rinishi **morfema** deb ataladi. Morfema - bu tilning eng kichik, bo'laklarga parchalanmaydigan mustaqil holda ham yo grammatik, yo leksik ma'no anglatadigan birligidir. Masalan, **ishchi** va **paxtakor** so'zlari ikkitadan morfemaga egadir: ish+chi, paxta+kor. Bu morfemalar alohida ma'no anglatuvchi qismlarga bo'linmaydi. **Paxtakorlarning** so'zi esa turtta morfemadan tashkil topmoqda.

Ko'rinadiki, morfemalar so'z tarkibida yashaydi va uning qurilish materiali sanaladi. Morfemaning asosiy xususiyatlaridan biri shunda ko'rinadiki, u til birligi bulishi bilan birga, uning belgisi ham hisoblanadi. Biz tilning belgilar yig'indisidan tashkil topgan sistema ekanligini bilamiz. Bu jihatdan morfema til belgisi sifatida **ifodalovchi** va **ifodalanuvchi** tomonlariga egadir. Uning ifodalovchi tomoni tovushlar orqali o'z aksini topadi, ifodalanuvchi jihati esa u anglatgan yo leksik, yoki grammatik ma'noni taqozo etadi.

Morfemaning bu jihatlari og'zaki nutqda tovush va ma'no orqali, yozma nutqda esa harflar va ma'no orqali ifodalanadi.

Morf va morfemalarni so'zdagi bug'inlar bilan tenglatirib bo'lmaydi, zero, morf va morfemalar so'z bo'g'inlari bilan ba'zan to'g'ri kelsa-da, ular ifoda rejalariga ko'ra mutlaqo boshqa-boshqa hodisalardir. Masalan, **a-kam** so'zi ikki bo'g'indan iborat, ammo bu bo'linish morfemalarga ajratishda **aka-m** tarzida bo'ladi. **Ish+chi, osh+paz** so'zlarining bo'g'inlarga va morfemalarga bo'linishi mos kelishi esa «baxtli» tasodifdir.

Shuni ham aytish kerakki, morf bilan morfema har doim to'g'ri kelavemaydi. Morfema til birligi sifatida nutqda bir morf orqali ifodalanishi ham mumkin. Masalan, **otlar, ishda** kabi so'zlarda morf va morfemalar soni tengdir. Lekin jo'nalish kelishigida bu mushtaraklik buziladi: **ishga, otga, yurakka, tilakka, buyruqqa, tog'ga**. Bu vaziyatda bir morfema 3 ta morf orqali ifodalanishi kuzatiladi. Bir morfema ifodasini beruvchi bu singari morflarni variant morflar yoki **allomorflar** deb ataladi. Allomorflarga rus tilidagi **книги, чтения, студенты, папыса** so'zlarida ko'plik anglatadigan и, я, ы, а singari bir morfemaning turli variantlari yaxshi misol bo'la oladi.

Morfemaning turlari

Morfemalar ma'no xususiyatlariga ko'ra turlarga bo'linadi. Bu jihatdan ularni o'zak morfemalarga va affiks morfemalarga ajratiladi. Bu turlarning har biri, o'z navbatida, yana alohida tasnif etiladi.

O'zak morfemalar leksik ma'no anglatuvchi va grammatik ma'no ifadalovchi turlarga bo'linadi. Leksik ma'no anglatuvchi o'zak morfemalar **ish, kntob, bahor, daraxt** singari alohida so'zga teng bo'ladi. Grammatik ma'no anglatuvchi o'zak morfemalar so'zlarning grammatik ma'nolarini hosil qiluvchi, gap tarkibida so'zlar o'rtasida grammatik munosabat o'rnatuvchi sifatga ega. Bunday morfemalar jumlasiga predlog, ko'makchi, bog'lovchi, artikl, yordamchi fe'llar va hokazolar kiradi.

Affiks morfemalar ham so'z yasovchi, shakl yasovchi va so'z o'zgartiruvchi turlarga egadir.

Soʻz yasovchi affiks morfe­malar yangi soʻz yasash uchun xizmat qiladi –*zor*, –*kor*, –*paz*, –*la*, –*chi* kabilar. Rus tilida –*тель* (учи+тель. пи­сатель), –*чик* (переписчик, счетчик) kabilar.

Koʻrinadiki, soʻz yasovchi affiks morfe­malar oʻzak morfe­malarga qoʻshilib yangi soʻz yasaydi va soʻzning leksik maʼnosini oʻzgartira oladi: ***tin+ch+lik***.

Affiks morfe­malarning qolgan ikki turini tobe leksik morfe­malar deb atash ham mumkin. Bunday morfe­malar soʻzlarga qoʻshilganda leksik maʼnoni oʻzgartira olmaydi. Ular faqat grammatik maʼnoni oʻzgartiradi. Shu bois bu xildagi morfe­malarni grammatik merfema deb atash ham mumkin.

Soʻzning leksik maʼnosini oʻzgartirmay, u orqali anglashilayotgan narsa-predmetlarning, voqea-hodisalarning borliqqa munosabatini ifodalaydigan morfe­malar shakl yasovchi morfe­malar deb ataladi. Bunga otlarda koʻplik, kichraytirish, erkalash, feʼllarda zamon, mayl, nisbat, sonlarda maʼno turlarini yasovchi qoʻshimchalar, shuningdek, feʼlning funktsional shakllari - sifatdosh, ravishdosh, harakat nomini yasovchi qoʻshimchalar kiritiladi.

Soʻz birikmalari, soʻz tizilmalari, gap komponentlari oʻrtasidagi munosabatlarni taʼminlovchi affiks morfe­malarni soʻz oʻzgartiruvchi morfe­malar deb ataymiz. Ular jumlasiga otlarda egalik, kelishik qoʻshimchalari, feʼlning shaxs-son qoʻshimchalarini kiritish mumkin.

Lekin odatdagi mazkur bulinishni nisbatan boshqacharoq reja asosida qayta koʻrib chiqish lozim koʻrinadi. Bizningcha, soʻz yasovchi morfe­malarni alohida hisoblab, shakl yasovchi va soʻz oʻzgartiruvchi morfe­malarni ularning keyingisining nomi bilan atab, yagona turga birlashtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki shakl oʻzgartiruvchi qoʻshimchalar ham, asosan, grammatik maʼno doirasida faoldir.

Affiks morfe­malarning barchasi bir soʻz doirasida qoʻllanishi ham mumkin: ***paxtakorlarimizga***.

Mazkur soʻz doirasida yangi soʻz yasovchi /-kor/, soʻz shaklini yasovchi /-lar/ va soʻz oʻzgartiruvchi /-imiz, -ga/ affikslari qatnashmoqda.

Bundan tashqari, bir soʻz doirasida soʻz yasovchi affikslar ham qator kelishi va har gal yangi soʻz yasalishi mumkin: ***tin+ch+lik***, ***tila+k+dosh*** kabilar. Affiks morfe­malar oʻzakka nisbatan joylashishiga qarab uch turga boʻlinadi: ***prefiks******al***, ***infiks******al***, ***postfiks******al*** morfe­malar. Prefiks morfe­malar oʻzakning oldida joylashadi: ***befarq***, ***noqulay***, ***изгнать***, ***наилучший***, ***recopier***, ***anormal*** (-ale) va h.k.

Infiks morfe­malar oʻzakning ichiga joylashadi: lotincha ***findo*** soʻzidagi ***n*** infiks morfe­madir. U ***fid*** (infinitiv) ***sanchmoq*** feʼlining hozirgi zamon qoʻshimchasidir. Yoki ingliz tilida ***man*** (odam), ***men*** (odamlar). Bunda ***e*** koʻplik maʼnosini anglatmoqda. Yoki yana lotincha va arabcha misollarda ham buni bemalol kuzatish mumkin: ***wiki-*** ***yengdim***, ***vinko-*** ***yengaman***, ***ktaab-kitob***, ***kutub-kitoblar***.

Postfiks morfe­malar soʻz oʻzagidan keyin qoʻllaniladi: ***tilshunos***, ***oʻyinchi***, ***ошхона***, ***мыло***, ***затхлый***, ***спутник***. Postfiks morfe­malar suffiks va fleksiyaga boʻlinadi.

Grammatik maʼno

Leksik va grammatik ma'no tushunchalari morfema tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir: o'zak morfemalar orqali leksik ma'no anglatilsa, affiksial morfemalar va yordamchi so'zlarni taqozo etuvchi o'zak morfemalar orqali grammatik ma'no ifodalanadi.

Ba'zi tilshunoslarning fikriga ko'ra, so'z yasovchi morfemalarni ham leksik morfemalar jumlasiga kiritish mumkin (mas., (M.Irisqulov).

Leksik ma'no ma'lum bir so'z bilan bog'lanib, voqelikdagi narsa-predmet, voqea-hodisalarning nomlari bilan aloqador bo'ladi. Grammatik ma'no bunday xususiyatga ega bo'lmaydi va yakka ma'nolik xususiyatga ham ega emas.

Leksik va grammatik ma'nolar bir-biridan farqlansa-da, uzviy aloqadordir. Ularning biri ikkichisiz uchramaydi. Masalan, **uy, nok, kitob, atom, bo'g'in** kabi leksik ma'nolari har xil: oltita so'z bu o'rinda olti xil ma'no anglatmoqda, lekin ularning grammatik ma'nolarida farq kuzatilmaydi, zotan, so'zlarning barchasi birlik va bosh kelishikdagi otlardir. Agar ularga biror kelishik qo'shimchasini qo'shsak (uydan, nokdan, kitobdan, sigirdan, atomdan, bo'g'indan), shu kelishik ma'nosini ham bir xilda anglatadi. Lekin grammatik jihatdan bo'lgan bu o'zgarishlar ularning leksik ma'nolariga ta'sir etmaydi. Biroq mazkur so'zlarning rus tilidagi shakllariga e'tibor bersak, leksik ma'no ham bu o'rinda turlicha ekanligidan tashqari, grammatik ma'no ham bir xil emasligini ko'ramiz: **дом, атом, слог** kabilar birlik, bosh kelishik va mujskoy rod tushunchasini bersa, **корова, груша, книга** kabilar birlik, bosh kelishik va jenskiy rod tushunchalarini anglatadi. Demak, grammatik ma'no har bir tilda uning ichki qurilishiga mos holda ifodalanadi.

Bu o'rinda shunga ahamiyat berish lozimki, grammatik rod tushunchasi «jins» ma'nosi bilan har doim ham bog'liq bo'lavermaydi. Masalan, **он-она, бык-корова** so'zlarida rod tushunchasi tom ma'noda qo'llanilsa, **стол, ручка, книга, карандаш** so'zlarida bu tushuncha ma'no anglatmaydi. Demak, rod tushunchasini faqat grammatik hodisa sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir.

Grammatik ma'no voqelikdagi narsa-predmet, voqea-hodisalar o'rtasidagi munosabatni anglatadi. Bu vazifa kelishik qo'shimchalari, fe'l zamonlari, sifat darajalari, so'zning takror qo'llanishi, suppletiv formalar, ohang kabilar orqali ifodalanadi.

8-ILOVA. MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR

1. Morfologiyaning tekshiruv ob'ekti nimalardan iborat?
2. Morfema va allomorflar haqida ma'lumot bering.
3. Morfemalarning qanday turlari mavjud?
4. Leksik va grammatik ma'nolar qanday farqlanadi?
5. Affiks morfemalarni o'zakka nisbatan joylashishiga qarab necha turga bo'lasiz?
6. Infiksial morfema qanday tillarda kuzatiladi?

MORFOLOGIYA

- *Morfe* – shakl, *logos* – ta’limot.
- Morfologiyaning eng kichik birligi *morfema* deb ataladi.
- Morfemaning varianti *allomorf* deb ataladi.
- Morfema *o’zak* va *affiks* morfemalarga bo’linadi.

So’zlarning turkumlarga bo’linishi:

- a) leksik-grammatik ma’nolariga ko’ra;*
- b) morfologik belgilariga ko’ra;*
- c) sintaktik xususiyatiga ko’ra;*
- d) distributiv munosabatiga ko’ra.*

TILNING GRAMMATIK VOSITALARI

Tilning grammatik vositalari ichida eng faollaridan biri affiksdur. Affikslar soʻz yasovchi, shakl yasovchi va soʻz oʻzgartiruvchi boʻlishi mumkin. Affikslarning mavqei ayniqsa sintetik tillarda balanddir.

Affikslardan tashqari, yana turli xil grammatik vositalar mavjud boʻlib, ularning har biriga quyida qisqacha toʻxtalamiz.

Ohang. Ohang, odatda, urgʻu va melodika bilan ifodalanadi. Ular oxangning tarkibiy qismlari sanaladi. Ammo baʼzi tillarda urgʻu, baʼzilarida esa melodika grammatik maʼno ifodalashda faol qatnashadi.

Urgʻu haqida oldingi maʼruzalarimizda batafsil maʼlumot berilgan edi. Ayni paytda esa melodikaga izoh bermoqchimiz.

Melodika deganda ton balandligining oʻzgarishini tushunamiz. Bu koʻproq xitoy-tibet tillarida katta ahamiyatga egadir. Chunki, bu tillarda affikslar mutlaqo qoʻllanilmaydi. Masalan, xitoy tilida maʼno ton oʻzgarishiga qarab farqlanadi:

- *ma (brrinchi ton) - ona;*
- *ma (ikkinchi ton) - kanop;*
- *ma (uchinchi ton) = chumoli;*
- *ma (turtinchi ton) = soʻkinmoq.*

Bundan shu narsa anglashiladiki, melodika faqat grammatik maʼnoni emas, balki leksik maʼnoni ham oʻzgartiradi. Melodika vositasida rus, oʻzbek tillarida gapning turini hamda uning boʻlaklarini farqlash, ajratish mumkin: **Он приишён. Он приишён?**

Он пришёл! U keldi. U keldi? U keldi! Ходить долго – не мог. Ходить - долго не мог. Ish ko‘p, bora olmadim. Ish, ko‘p bora olmadim.

M.Irisqulovning fikriga ko‘ra, ohang orqali rus tilidagina so‘roq gaplar ifodalanishi mumkin, o‘zbek, ingliz, nemis tillarida faqat ohangning o‘zi bu o‘rinda kamlik qiladi. Bu tillarda ohangdan tashqari boshqa vositalar ham qo‘llaniladi. Masalan, o‘zbek tilida yuklamalar. Bizningcha, o‘zbek tilida faqat ohang yordamida so‘roq gaplar bimalol shakllanaveradi. Bunga yuqoridagi misollar dalil bo‘la oladi. Yuklama bilan shakllangan so‘roq gaplar esa alohida turni tashkil etadi.

Reduplikatsiya, ya‘ni takror deganda, so‘z o‘zagining to‘liq yoki qisman takrorlanishi, asosning (negizning) yoki to‘liq so‘zning takroriy ishlatilishi tushuniladi. Reduplikatsiya grammatik ma‘no ifodalaydi va turli maqsadlarni ko‘zda tutadi: *sudara-sudara* (*fuqarolar*), *sudara* (*fuqaro*), *orang-orang* (*odamlar*), *orang* (*odam*). Mazkur misollar malay tiliga xos bo‘lib, reduplikatsiya bunda grammatik ko‘plikni ifodalamoqda. Quyidagi misollarda esa reduplikatsiyaning boshqa maqsadlarda qo‘llanilganini ko‘ramiz: hind tilida **lambe-lambe** - juda uzun; fors tilida **tond-tond** - juda tez; tamil tilida **vev-veri** – turlicha; o‘zbek tilida tog‘-tog‘, **kitob-mitob**, **choy-poy**, rus tilida **белый-белый**, **работаемь-работаемь**.

Ichki fleksiya deganda, so‘z tarkibidagi tovushlarning o‘zgarishi natijasida so‘z shakllarining yasalishi tushuniladi. Bu hodisa hind-ovro‘pa tillarida, shuningdek, arab tilida ko‘p kuzatiladi. Masalan: ingliz tilida *get - olmoq*, *got - olgan*, nemis tilida *ich shliefe - men uxlayapman*, *ich shliefe - men uxladim*, ingliz tilida *man - erkak*, *men – erkaklar*, arab tilida *ктааб - kitob*, *kutub -kitoblar*, nemis tilida *Mutter - ona*, *Mütter - onalar*, sanskrit tilida *nidra - uyqu*, *naidra - uxlayotgan*.

Suppletivizm deganda ma‘lum bir so‘zning grammatik formalari turli xil o‘zak va negizlardan yasalishini tushunamiz: **я -меня, мы - нас, je suis-il est, frans., она -ей, I -me, she -heg, we – our ing, bon – meilleur frans, хороший - лучше.**

Suppletivizm hodisasida grammatik ma‘no ifodalanishida alohida so‘z formalaridan foydalaniladi.

Yordamchi so‘zlar ham grammatik ma‘no ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday so‘zlar o‘zak morfemalar jumlasiga kiradi. Yordamchi so‘zlarga ko‘makchi, bog‘lovchi, artikl, predlog, kumakchi fe‘llar, yuklamalar kiradi.

Yordamchi so‘zlar analitik shakl ifodasini berishda ham faol qo‘llanadi. Artikl, predlog, fe‘llar, asosan, hind-ovro‘pa tillarida kuzatiladi. Masalan, ingliz tilida *a(n)*, *the* artikllari, fransuz tilida *le, la, les, une, des* kabi artikllar. Bu vositalar otlarning aniq va noaniqlik kategoriyasini belgilashda muhim ahamiyatga egadir.

Yordamchi fe‘llar ham grammatik ma‘no ifodalaydi. Bu vositalar ko‘proq hind-ovro‘pa tillari uchun xarakterlidir. Masalan, fransuz tilida ikkita (*être, avoir*), nemis tilida uchta, rus tilida bitta (*быть*) yordamchi fe‘l mavjuddir.

So‘zning analitik formasi ko‘makchilar, takror va ohang orqali o‘zbek tilida ham grammatik ma‘no ifodalanadi: *gul kabi, maktab tomon, eng yaxshi, tog‘-tog‘ (xirmon)* kabilar.

O‘zbek tilida analitik forma (yordamchi) ko‘makchi fe‘l orkali yasalishi mumkin: **o‘qib chiq, olib ko‘r, kela qol**. Bunda *chiq, tur, qol* ko‘makchi fe‘llari asosiy fe‘llarga birikib, analitik shakl hosil qilmoqda.

Soʻz tartibi orqali ham analitik shakl singari grammatik maʼno yasaladi. Masalan: ***Aka ukadan katta - Uka akadan kichik. Karim Akbarga kitob berdi - Akbar Karimdan kitob oldi.***

Shunday qilib, grammatik maʼnoning turli vositalar orqali ifodalanishini koʻramiz. Bu vositalarni analitik va sintetik vositalarga ajratamiz.

Sintetik vositalar jumlasiga affiksatsiya, ichki fleksiya, suppletiv usul kiradi. Analitik vositalarga esa yordamchi soʻzlar, soʻz tartibi, takror, ohang kabilar tegishli.

Jahon tillari bu jihatdan analitik tillar, sintetik tillar deb ataluvchi guruhlariga boʻlinadi. Baʼzi tillarda esa har ikki vosita ham qoʻllaniladi (maktabga tomon, sening uchun, shuning bilan).

Rus, nemis tillari sintetik tillar, ingliz, fransuz tillari esa analitik tillar jumlasiga kiradi. Turkiy tillarda sintetik tillarga moyillik kuchlidir. Bunga ularda affikslar faol qoʻllanishi sabab boʻladi.

Grammatik kategoriya tushunchasi

Grammatik kategoriya tushunchasi grammatik maʼno bilan chambarchas bogʻliqdir. Zero, grammatik kategoriyalar, asosan, grammatik maʼno orqali ifodalanadi. Tillarda grammatik kategoriyalar bir xil emas. Har bir tilda grammatik maʼnolar va ularning ifodalanishi usullari turlicha boʻlgani uchun, ularda grammatik kategoriyalar ham farq qiladi.

Grammatik kategoriya umumlashgan grammatik maʼno demakdir. Shu bois grammatik kategoriyalar orqali tilning qaysi morfologik turga xosligini ham aniqlab olish mumkin.

Umumiy grammatik maʼnoni tashkil etuvchi xususiy maʼnolar bir-biriga zid boʻladi. Masalan, son kategoriyasini olib koʻraylik: ***kitob-kitoblar***. Bunda birlik bilan koʻplik zid ekanligi izoh talab qilmaydi. Koʻplik maʼlum bir belgi (-lar) orqali ifodalanmoqda. Birlik esa bunday qoʻshimchaga ega emas. Demak, -lar morfemasi koʻplikni ifodalamoqda. Shuning uchun bu oʻrinda nol morfemani Ø belgisi bilan ifodalash mumkin. Ana shu birlik va koʻplik maʼnolari grammatik son kategoriyasini beradi.

Grammatik kategoriyalar tillarda uch xil boʻladi:

- 1) sintetik grammatik kategoriyalar;
- 2) analitik grammatik kategoriyalar;
- 3) aralash grammatik kategoriyalar.

Sintetik grammatik kategoriyalar affiks morfemalar orqali ifodalanadi. Masalan: ***maktabda oʻqiydi, shaharda yashaydi*** kabi.

Analitik grammatik kategoriyalar yordamchi soʻzlar orqali ifodalanadi: ***Bell Willcome now. Il va à la gare. Ukam uchun oldim.***

Aralash grammatik kategoriyalar ham sintetik, ham analitik vositalar orqali ifodalanadi: ***Men maktabga tomon bordim. - Men maktab tomonga bordim.***

Grammatik kategoriyalar tillarda bir xil boʻlmasligi eslatilgan edi. Masalan, oʻtning grammatik kategoriyalarini olaylik. Oʻtning rus tilida son, kelishik, rod kategoriyalari, oʻzbek tilida son, kelishik, egalik kategoriyalari, ingliz tilida son, kelishik, aniqlik-noaniqlik kategoriyalari, fransuz tilida ham shu singari kategoriyalar mavjud.

Ammo bir tilda mavjud kategoriya ikkinchi tilda bo'lmisligi bu tilda mazkur grammatik ma'no ifodalanmaydi, degan fikrni anglatmaydi. Masalan, roman-german tillarida mavjud bo'lgan aniqlik-noaniqlik ma'nolarining artikllar bilan ifodalanishi, o'zbek va rus tillarida leksik va sintaktik usullar bilan berilishi fikr isboti bo'lishi mumkin: **un homme** – frans. qandaydir odam, какой-то человек. Yoki o'zbek tilida egalik kategoriyasi orqali ifodalanadigan grammatik ma'no ingliz va fransuz tillarida sintaktik usul bilan ifodalanishi mumkin: **kitabim - my book – mon livre- моя книга**.

Shunday qilib, dunyodagi barcha tillar grammatik kategoriyalarni ifodalashga qodirdir. Lekin mazkur kategoriyalar birorta grammatik vosita orqali voqelanishi shart.

Mustaqil so'zlarning har bir turkumi o'ziga xos grammatik kategoriyalarga egadir. Ularning alohida turkumlarga bo'linishida ham ana shu morfologik belgi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, egalik kategoriyasi faqat otlarga xos bo'lsa, nisbat kategoriyasi yoki zamon faqat fe'llar uchun xarakterlidir.

ASOSIY GRAMMATIK KATEGORIYALAR

Grammatik rod kategoriyasi

Rod kategoriyasiga ko'ra tillarda mujskoy, jenskiy rodlar va sredniy, ya'ni neytral rod ajratiladi. Mazkur grammatik kategoriyaning o'ziga xosligi shundaki, u inson tafakkuri mantiqiga to'g'ri kelmaydi.

Ma'lumki, tabiiy biologik jins ikkita, grammatik rod esa uchta. Sredniy, ya'ni neytral rodga tilda to'g'ri keladigan so'zlar bor bo'lsa-da, tabiatda unga mos keladigan jins yo'q.

Albatta, tabiatda jins jonli mavjudotlarga xosdir. Grammatikada esa rod kategoriyasi jonli-jonsizlikni farq qilmaydi.

Grammatik rod kategoriyasi, asosan, hind-ovro'pa tillariga xosdir. Bunda har bir tilning o'ziga xos rod bildiruvchi ko'rsatkichlari mavjud.

Rus tilida jenskiy rod -a, mujskoy rod Ø affiksali morfema bilan, sredniy rod esa -o, -я, -e. qo'shimchalari orqali ifodalanadi. Ammo bu ko'rsatkichlar mutlaq emas, ular istisnolarni tashkil etishi ham mumkin. Masalan, **мужчина, papa** so'zlari mujskoy rodga tegishli bo'lsa-da, ularda jenskiy rod affiksi -a qatnashayotganini ko'ramiz.

Bir so'zning o'zi tillarda turli rodga tegishli bo'lishi mumkin: **лошадь** - rus tilida jenskiy rodga, nemis tilida sredniy –**das Pferd**, fransuz tilida mujskoy rodga – **le cheval** tegishlidir. Bundan tashqari, **женщина** va **девочка** so'zlari nemis tilida sredniy rodga tegishlidir: **das Weib, das Madchen**.

Grammatik rodning ajablanarli tomoni shundaki, u tarixan o'zgaruvchandir. Masalan, bir vaqtlar **atom** so'zi jenskiy rodga bo'lib, **atoma** deb yuritilgan bo'lsa, **molekula** so'zi mujskoy rodga **molekul** deb berilgani ma'lum. Qadimgi ingliz tilida ham **qayiq** so'zi jenskiy rodga bo'lgan, chunki qayiqning old tomoni ayol kishining byusti bilan bezatilgan.

Nemis olimlarining fikrlariga ko'ra, odamlar dunyodagi hamma kuchli narsalarni mujskoy roddagi so'zlar bilan ataganlar. Qo'lda yasalgan narsalarni esa neytral rod deb bilishgan. Ammo bu fikr olimlar tomonidan tasdiqlanmadi. Chunki nemis tilining

oʻzida ham *ayol* va *qiz* soʻzlari neytral rodga tegishlidir. Nozik va goʻzal boʻlsa-da, rus tilida *целомок* soʻzi mujskoy rodga toʻgʻri keladi.

Grammatik son kategoriyasi

Bu kategoriya koʻp tillarda ikki xususiy maʼno - birlik va koʻplikdan tashkil topadi. Lekin baʼzi tillarda juftlikni anglatuvchi ikkilik soni ham mavjud.

Son kategoriyasi ot, olmosh, sifat va feʼllarda uchraydi. Oʻzbek, rus, nemis, ingliz, fransuz tillarida bu kategoriya yuqorida aytilgan ikki xususiy maʼno orqali ifodalanadi.

Son kategoriyasi oʻzbek tilida ot, olmosh va feʼllarda, ingliz tilida ot va olmoshlarda, rus tilida ot, sifat, olmosh va feʼllarda qoʻllanadi.

Oʻzbek tilida sifatlarda son kategoriyasi yoʻq: *yashil oʻrmonlar*. Rus tilida esa u sifatlarda ham mavjud: *белый дом - белые дома*.

Ingliz tilida otlarda koʻplik ichki fleksiya orqali ham ifodalanishi mumkin: *man* - odam, *men* - odamlar, *goose* - gʻoz, *geese* - gʻozlar. Bu hodisani arab tilida ham kuzatamiz: *ktaab - kitob, kutub* - kitoblar.

Hind-ovroʻpa tillarida olmoshlarning koʻplik shakli suppletiv usul bilan ifodalanadi: *я, ты, он, мы, вы, они; I, you, he, she, we, they; je, vous, nous; ich, wir, ihr, sie*.

Oʻzbek tilida ham olmoshlarda koʻplik suppletiv usul bilan ifodalanadi deyish mumkin: *men, sen, biz, siz*.

Tillarda faqat birlikda va faqat koʻplikda ishlatiladigan soʻzlar ham mavjud: *koʻz, suv, un; очку, дыху*. Faqat birlikda qoʻllanadigan soʻzlarga nisbatan *singularia tantum*, faqat koʻplikda ishlatiladigan soʻzlarga nisbatan esa *pluralia tantum* tushunchalari qoʻllanadi.

Kelishik kategoriyasi

Maʼlumki, kelishik kategoriyasi ot soʻz turkumiga xos soʻzlarning boshqa soʻzlar bilan munosabatini ifodalaydi. Shuning uchun mazkur kategoriyani morfologik-sintaktik kategoriya deb atash ham mumkin.

Kelishiklarning soni hamma tillarda ham bir xil emas. Ular hozirgi zamon ingliz tilida ikkita, rus va oʻzbek tillarida oltita, nemis tilida toʻrtta, eston tilida oʻn beshta, venger tilida esa yigirmadan ortiqdir. Xitoy-tibet tillarida va hozirgi fransuz tilida kelishik kategoriyasi yoʻq.

Shuni ham aytish lozimki, bir tilda boʻlgan kelishikning maʼlum bir turi boshqa bir kelishik kategoriyasi mavjud tilda boʻlmasligi ham mumkin. Masalan, oʻzbek tilidagi qaratqich va tushum kelishiklari rus tilidagi roditelny padej orqali ifodalanadi. Bundan tashqari, oʻzbek tilida faqat ot va olmoshlar turlansa, rus tilida sifat va sonlar ham bunday xususiyatga ega: *Камол встретил моего близкого друга*.

Biz bu oʻrinda kelishiklar haqida umumiy maʼlumot berdik, xolos. Biroq kelishik va uning ifodalanishi har bir tilning oʻz ichki qonun-qoidalariga boʻysunadi.

Grammatik zamon kategoriyasi

Tillarda grammatik zamon kategoriyasi feʼlning asosiy kategoriyalaridan biridir. Zamon kategoriyasi ish-harakatning nutq davom etayotgan vaqtga munosabatiga

qarab aniqlanadi. Masalan, harakat nutq soʻzlanib turgan paytda, undan oldin yoki undan keyin sodir boʻlishi mumkin.

Hozirgi zamon nutq soʻzlanib turgan paytda oʻz ifodasini topadi. Biroq bu zamon yana bir necha belgiga ega:

1.Doimiy va toʻxtovsiz harakatni koʻrsatadi: ***Samarqand-qadimiy va hamisha navqiron shahar.***

2.Maʼlum darajada kelasi zamon maʼnosini ifodalaydi: ***Men universitetda oʻqiymen.***

3.Harakatning davomlilikini koʻrsatadi: Siz ishlayotibsiz. ***Я пабoмaю. Mishel parle – Mishel soʻzlamoqda.***

Oʻtgan zamon nutq jarayonidan oldin boʻlib oʻtgan voqea, hodisa, harakatni ifodalaydi: ***Nous avons parlé de vorte visite -Biz sizning tashrifingiz haqida soʻzlashdik.***

Barcha tillarda zamon ifodasi oʻziga xos belgilarga ega. Aksariyat tillarda oʻtgan zamon ham ularning grammatik qurilishiga mos ravishda bir necha shaklga voqelanadi. Masalan, hozirgi oʻzbek tilida uning quyidagi turlarini kuzatamiz: ***yaqin oʻtgan zamon feʼli, uzoq oʻtgan zamon feʼli, oʻtgan zamon hikoya feʼli, oʻtgan zamon davom feʼli, oʻtgan zamon maqsad feʼli.***

Kelasi zamon nutq soʻzlanayotgan paytdan keyin sodir boʻladigan harakatni bildiradi va, asosan, ikki koʻrinishga ega: ***kelasi zamon maqsad feʼli, kelasi zamon gumon feʼli.***

Grammatik zamon kategoriyasi turli tillarda turlicha boʻladi va turlicha belgilanadi.

Soʻz turkumlari

Tilshunoslikda soʻzlarning turkumlarga boʻlinishi quyidagilarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi: 1)soʻzlarning leksik-grammatik maʼnolari;

2)har bir soʻzning morfologik belgilari;

3)soʻzlarning gapdagi sintaktik vazifasi;

4)soʻzlarning distributiv xususiyatlari.

1.Soʻzlarning leksik-grammatik maʼnolari deganda, ularning umumlashgan maʼnolarini tushunamiz. Masalan, narsa, hodisa, harakat, holat, belgi kabi leksik-grammatik maʼnolar ana shunday umumiy xususiyatga ega: ***uy, dars, hayvon, olov, chaqmoq*** kabi turlicha xususiy maʼno anglatuvchi soʻzlar predmetni ifodalashiga koʻra ot turkumiga, ***oʻqimoq, yurmoq, uxlamok, ishlamoq*** kabilar harakat-holat bildirib feʼl turkumiga, ***yaxshi, yomon, eski, katta, kichik*** kabi soʻzlar belgi bildirib sifat turkumiga xos boʻlgan soʻzlarning umumiy leksik-grammatik maʼnolarini anglatadi.

2.Morfologik belgilar deganda, asosan, soʻzlarga xos boʻlgan grammatik maʼno va kategorialarni tushunmoq lozim. Masalan, grammatik egalik, kelishik, rod kategoriyalari faqat otlarga xos boʻlsa, nisbat, oʻtimli-oʻtimsizlik, boʻlishli-boʻlishsizlik, zamon, mayl kabi kategoriyalar feʼl uchun xarakterlidir. Daraja kategoriyasi esa sifatlarning asosiy morfologik xususiyatlaridan birini tashkil etadi.

3. Soʻzlarning sintaktik vazifalari har bir turkum uchun oʻziga xoslikka ega. Masalan, ot gapda, asosan, ega, toʻldiruvchi, aniqlovchi vazifalarida kelsa, feʼl gapning kesimi boʻlib kelishga xoslangandir. Sifat, son kabilar otlarning aniqlovchilari boʻlib kelsa, ravish feʼlning aniqlovchisidir.

4. Soʻzlarning distributiv xususiyatlari deganda, ularning oʻzaro munosabati qurshovini tushunamiz. Masalan, ot narsa-predmet, voqea-hodisa nomini bildirib kelar ekan, u sifat bilan, son bilan, feʼl bilan, olmosh bilan distributiv munosabatda boʻlishi shubhasizdir. Bundan tashqari, hind-ovroʻpa tillarining koʻplarida artikl ot distributsiyasida keladi.

Tillarda soʻz turkumlari soni muammosi olimlar tomonidan turlicha sharhlanadi. Masalan, hozirgi rus tilida 10 ta, 12 ta, hatto 15 ta soʻz turkumi bor degan fikrlar mavjud. Agar **цветок** soʻzining ot ekanligini isbotlamoqchi boʻlsak, uning yuqorida ot uchun xarakterli deb aytib oʻtilgan barcha morfologik va distributiv xususiyatlariga ega ekanligini koʻramiz. Lekin baʼzi soʻzlar, masalan, **вероятно, возможно** kabilar bu jihatdan birorta ham turkumga kirmaydi. Bu soʻzlar ravishga oʻxshasa ham, gapda ravish bajargan vazifani bajara olmaydi. Shuning uchun bunday soʻzlarni modal soʻzlar deb yuritiladi.

Hozirgi ingliz tilida soʻz turkumlarining soni oʻnta deb belgilangan (ot, feʼl, sifat, son, olmosh, ravish, artikl, predlog, bogʻlovchi va yuklama). Lekin baʼzi tilshunoslar ularga yana modal soʻzlarni, holat bildiruvchi soʻzlarni, undovlarni va javob soʻzlarni qoʻshib, soʻz turkumlari sonini 14 taga etkazadilar.

Umuman olganda, soʻz turkumlarini mustaqil soʻzlarga, yordamchi soʻzlarga va undov soʻzlarga boʻlib oʻrganish odat tusiga kirib qolgan. Bizningcha, soʻz turkumlari soni qancha oshirilsa, ularni oʻrganish shunchalik qiyinlashadi. Soʻz turkumlarini Panini, Aristotel, Mahmud Koshgʻariy va Mahmud Zamaxshariylar oʻrgangani singari, uchga boʻlish maqsadga muvofiq koʻrinadi (ot, feʼl va yordamchi soʻzlar). Bunda yordamchi soʻzlar ikkiga, yaʼni grammatik kategoriyalarga ega yordamchi soʻzlar (sifat, son, olmosh, ravish) va grammatik kategoriyalari yoʻq yordamchi soʻzlarga (bogʻlovchi, koʻmakchi, modal soʻzlar, predlog, undov soʻzlar, yuklamalar, taqlid soʻzar) ajratiladi.

Umuman olganda, soʻzlarni turkumlarga boʻlish masalasining baʼzi jihatlari hozirgacha izohtalab boʻlib qolmoqda.

9-ILOVA. MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR

1. Grammatik rod kategoriyasi nima?
2. Grammatik rod kategoriyasi bilan biologik jins o'rtasida bog'liqlik bormi?
3. Tillarda son kategoriyasi qanday ifodalanadi?
4. Kelishik kategoriyasini qanday izohlaysiz?
5. Grammatik zamon kategoriyasi haqida ma'lumot bering.
6. So'zlarni turkumlarga bo'lishda nimalar e'tiborga olinadi?

TILNING GRAMMATIK VOSITALARI

Affikslar

Ohang

Reduplikatsiya (takror)


Ichki fleksiya (so'z tarkibidagi tovushning o'zgarishi va so'z shaklining yasalishi: *get-got*)

Suppletivizm (so'zning grammatik formasi turli xil o'zak-negizdan yasaladi: *я-меня*)

Yordamchi so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, artikl, predlog, ko'makchi fe'llar)

Sintetik tillar: rus, nemis, turkiy tillar.

Analitik tillar: ingliz fransuz.



Ulug' nemis olimi Vilgelm fon Gumboldt 1767-yilda dvoryan oilasida tavallud topadi. U 1787-yilda Frankfurt universitetiga o'qishga kiradi. Bir yildan keyin esa o'qishini Gyottengin universitetiga ko'chiradi. U paytda mazkur universitetda H.Hayne dars berar edi. Gumboldt 1801-1819 yillar mobaynida davlat ishlarida faoliyat ko'rsatadi. U 1820 yildan boshlab o'zini to'liq tilshunoslik muammolarini o'rganishga bag'ishlaydi.

Gumboldtning dastlabki tadqiqot ishlarida tilshunoslik muammolari falsafiy nuqtayi nazardan yoritiladi. U ko'proq I.Kant va I.Fixte kabi faylasuflar g'oyalari ta'sirida bo'ladi. Shu bois uning ba'zi qarashlarida idealistik tushunchalar ko'zga tashlanadi. Masalan, uning tilni tashqi dunyoni inson ruhiyatining mulki sifatida o'zgartiruvchi faoliyat tarzida tushunishi bunga misol bo'la oladi. Mazkur noto'g'ri g'oya keyinchalik E.Sepir hamda B.Uorflarning nazariyalariga ham ta'sir etdi.



Shvetsariyalik mashur tilshunos Ferdinand de Sossyur 1857 yilda Jenevada olimlar oilasida tavallud topadi. U bolalik paytlaridayoq yunon hamda lotin tillarini mukammal o'rganadi.

Sossyur 1875 yilda Jeneva universitetiga o'qishga kiradi. 1876 yilda esa o'qishini Germaniyaning Laypsig universitetiga ko'chiradi va bu erda ikki yil davomida ta'xsil oladi. Sossyur 1880 yilda "Sanskritda absolyut qaratqich" degan mavzuda doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi. Shundan so'ng u 1880 yilda Parijga keladi va Parij lingvistik jamiyatining faol ishtirokchisi sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi.

Sossyur 1891 yilda yana vataniga qaytadi va 1907 yildan boshlab Jeneva universiteti umumiy tilshunoslik kafedrasiga mudirlik qiladi. Olim 1913 yilda vafot etadi.



Hozirgi jahon strukturalizmning asosiy tayanch manbalaridan biri Amerika deskriptiv tilshunosligi sanaladi. Uning mashhur namoyandalari jumlasiga birinchi navbatda Frans Boas (1858-1942), Eduard Sepir (1884-1939) va Leonard Blumfildlarni (1887-1949) kiritamiz.

Leonard Blumfild Amerikadagina emas, balki butun jahonga mashhur tilshunoslardan biri bo'lib, u o'zining "Til" deb ataluvchi asari bilan katta obro' qozonadi. Bu asar amerika tilshunosligida ovro'pada Sossyurning lingvistik g'oyalari qanday shuhrat qozongan bo'lsa, shunday e'tiborga molikdir.

Asar Amerikada tilshunoslik fanining barcha sohalarida asosiy qo'llanma bo'lib qolishi bilan birga, deskriptiv tilshunoslikning shakllanishida ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Tilshunoslik fanining bu yo'nalishi Amerikada qariyb chorak asr ustuvor ahamiyat kasb etadi. Asarda deskriptivizmning asosiy g'oyalari o'z aksini topganini ko'ramiz. Shuning uchun amerikalik strukturalistlarning barchasi Blumfildni o'z ustozini deb bilishadi.



V. Mateziusning lingvistik nazariyasi markazini tashkil etuvchi gapning aktual bo'laklari muammosiga to'xtalmoqchimiz. V. Mateziusning gapning aktual bo'laklari nazariyasini o'zining "O tak nazayvaemom aktualnom chlenemi predlojeniya" (1947) hamda «Osnovnaya funktsiya poryadkaslov v cheshskom yazыke» (1947) asarlarida ilmiy asoslaydi (1).

Gapning aktual bo'laklari nazariyasi jumlasining muayyan nutq muhitiga munosabati muammosiga asoslanib unda asosiy urg'u jumlaning asosini tashkil etuvchi hamda xabarning yadrosini belgilovchi unsurlarga qaratiladi. Bu jihatdan gapning aktual bo'laklari yosh grammatikachilarning psixologik subekt va psixologik predikat deb nomlagan tushunchalari bilan juda yaqin turadi. Chunki gapning aktual bo'laklari ikkita bo'lib, ularning birini V. Matezius gapning boshlanish nuqtasi yoki "asos" (osnova) deb, ikkinchisini esa "yadro" deb nomlaydi. Bu o'rinda asos deganda nutq muhiti qurshovida tinglovchiga ham, so'zlovchiga ham ma'lum bo'lgan gap unsuri, yadro deganda esa so'zlovchi asos deb nomlanayotgan ana shu unsur haqida ma'lumot beradigan va jumla orqali ifodalayotgan xabarning yadrosini tashkil etuvchi unsur tushuniladi. Xabarning yadrosini psixologik predikat bilan, asosni ega psixologik subekt bilan qiyoslash mumkin.



Kopengagen tilshunoslik to'garagi 1931 yilda fonologik muammolar va umuman, til strukturasi mukammal o'rganish maqsadida daniyalik olimlarni birlashtirdi. Bu tadbirning asoschilari V.Bryondal (1887-1942), X.Uldall (1907-1957) va Lui Elmslevlar (1899-1965) edilar. L.Elmslevni jahon tilshunosligida bugungi kunda ham Glossematikaning etakchi vakili sifatida tan oladilar. L.Elmslev glossematik g'oyalar bilan sug'orilgan bir necha asarlari bilan mashhur bo'ldi. Mazkur asarlar quyidagi nomlar bilan ataladi:

1. Umumiy grammatikaning tamoyillari. Bu asar 1928 yilda chop etiladi va unda glossematikaning nazariy asoslari belgilab beriladi.
2. Sabab kategoriyasi (la categorie des eas).mazkur asar 1935-1937 yillar davomida yoziladi. Bu asarda asosiy e'tibor kelishiklar munosabati tahliliga qaratiladi va til materiali talqini immuent (tashqi ta'sirdan xoli) xarakterdaligi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.
- 3.Boshqaruv tushunchasi (1939).
- 4.Til va nutq (1942).
5. Tilshunoslikda struktur tahlil metodi (1950-1951).
6. Til nazariyasiga kirish. Bu asrning Kopengagenda chop etilgan yili bizda noma'lum. Uni "Hoeoe e лингвистике" (1962) jurnalida bosilgan tarjimasini orqali bilamiz.

L.Elmslev tilshunoslikda birinchilardan bo'lib til materiallari talqiniga matematik metodlarni, ayniqsa matematik mantiq g'oyalarini tatbiq etgan olimdir. U tilshunoslikka aniq fanlar metodlarini joriy etishga harakat qiladi va glossematikaning asosiy maqsadi va vazifasini tilning immanent algebrasini yaratishda ko'radi.



Eji Kurilovich ham Praga tilshunoslik maktabining yirik namoyandaligidan biri bo'lib, u o'zining sintaktik Derivastiya nazariyasi bilan mashhurdir. Ma'lumki, tilshunoslik fanida leksik derivastiya tushunchasi ko'p yillardan beri qo'llanilib keladi va u so'z yasaliishi muammosi bilan bog'liq. Sintaktik derivastiya nazariyasining ilmiy istemolga kiritilganiga esa hali ko'p vaqt o'tganicha yo'q. To'g'ri Eji Kurilovich sintaktik derivastiya nazariyasini o'tgan asrning 30-yillarida ilmiy asoslab bergan edi. Lekin shunday bo'lsa ham, mazkur nazariya 60-yillarga kelib ilmiy iste'molga kiritila boshladi. Bunga asosiy turtki bo'lgan voqealardan biri Kurilovichning "Derivation lecrque et derivation syntaxique" deb nomlanuvchi salmoqli ishining rus tiliga ("Derivastiya leksicheskaya i derivastiya sintaksicheskaya") tarjima qilinishi bo'ldi. Kurilovich derivastiya terminini "shakllanish", "tarmoqlanish" degan ma'nolarda tushungani holda sintaktik derivastiyani biror asos struktura zahirida ikkinchi bir sintaktik strukturaning shakllanishi ma'nosida talqin etadi.



Franstuz tilshunosi I.Tenyer 1893 yilda tavallud topadi. U 1912 yilda Sarbon universitetida o'qishga kiradi va bunda Meye, Vandriyis kabi mashhur tilshunoslardan ta'lim oladi. Biroq Tenyer 1913 yilda Germaniyaning Laypzig universitetida o'qishni davom ettiradi vash u universitetni tugatadi. L.Tenyer tilshunoslik olamida o'zining «Struktur sintaksis asoslari» deb nomlanuvchi asari Bilan shuhrat qozonadi (1). Mazkur asar 1959 yilda olimning vafotidan keyin chop etiladi. Asarni Tenyerning qo'l yozmasi asosida uning safdoshlari Furke hamda Domalar nashrga tayyorlaydilar. Biroq shuni ham aytish lozimki, ular asarni chop ettirish masalasida juda ko'p andisha qiladilar. Zotan, olimning bu asari struktur tilshunoslik masalalari talqiniga bag'ishlangan bo'lishiga qaramay, u odatdagi, masalan, N.Xomskiyning yoki amerikalik boshqa olimlarning struktur tilshunoslik doirasida yozilgan ishlariga mutlaqo o'xshamas edi. Bu haqda R.Yakobson mulohaza bildirganida quyidagilarni aytgan edi :“O'ziq bir paytlar Tenyerning qo'lyozmasini chop ettirish ham mumkin bo'lmagan edi. Mendan uni nashr etish arzigulik ismi, deb so'rashgan edilar ham. Hozir esa ishning bebaholigi izoh talab qilmaydi” (2,5).

5-MAVZU	Leksikologiya.
---------	----------------

1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi. (5-mashg'ulot)

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 75 ta</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	5- ma'ruza.
<i>Ma'ruza rejasi:</i>	1. Leksikologiyaning bo'limlari. 2. So'z ma'nosining ko'chirilishi. 3. So'zning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari. 4. Lug'atshunoslik va lug'atlarning turlari.
<i>O'quv mashgulotining maqsadi: semasiologiya, frazeologiya, etimologiya, onomasiologiya, onomastika, antroponimika, leksikografiya haqida keng ma'lumot berish, hamda talabalarda bilim ko'nikmalarini shakllantirish.</i>	

<i>Ta'lim metodlari:</i>	Ma'ruza, namoyish etish, integrasiyalashgan o'qitish, tezkor savol-javob, aqliy hujum.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari:</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'zini-o'zi nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

1.2. Ma'ruzaning xronologik xaritasi (5– mashg'ulot)

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish (5 minut)	1.1. Mavzu nomi, maqcad, o'quv mashg'ulotining natijalari e'lon qilinadi. O'tilayotgan mavzu ko'rgazmali ma'ruza tarzida tashkil etilishi haqida e'lon qiladi.	Eshitadilar.
II. Asosiy bosqich (65 minut)	2.1. Tezkor – so'rov texnikasidan foydalanib, o'tilgan mavzu eslatiladi va talabalar faollashtiriladi: 1. Leksikologiyaning bo'limlari. 2. So'z ma'nosining ko'chirilishi. 3. So'zning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari. 4. Lug'atshunoslik va lug'atlarning turlari.	Savol - javobda faol qatnashadilar.
	2.2. Talabalarni faollashtirish maqsadida «Aqliy xujum» metodini qo'llab, umumiy savol beriladi. «Aqliy xujum» metodidan foydalanishda rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar bilan tanishtiriladi (10-ilova). Savollar 11-ilovada keltirilgan.	Topshiriqni bajaradilar
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Mavzuni rejasi asosida xulosa qilib, eng muhim ma'lumotlarga talabalar diqqatini jalb qiladi. 3.2. Muhokamada faol qatnashgan talabalarni	Tinglashadi.

	ragʻbatlantiradi, baholaydi, yozib oladi.	Tinglashadi.
--	---	--------------

10-ilova.

Aqliy hujumni olib borish qoidalari:

- Hech qanday oʻzaro baho bermaslik va tanqid qilmaslik.
- Taklif etiladigan fikrlarni baholashdan oʻzini tiyishlik, ular qanchalik gʻayri oddiy va fantastik boʻlmasin.
- Hamma narsa mumkin.
- Tanqid qilmaslik - hamma fikrlar teng ravishda qadrlidir.
- Gapirayotgan talabani fikrini boʻlmaslik.
- Tanbeh berishdan oʻzini tiyishlik.
- Asosiy maqsad - fikrning miqdoridadir.
- Qancha koʻp fikr aytilsa, shuncha yaxshidir: yangi va qadrli fikrlarni dunyoga kelish imkoniyati kengayadi.
- Fikrlar qaytarilsa jaxl chiqmaslik.
- Xayolni «junbushga kelishiga» imkoniyat yaratishlik.
- Yangi tugʻilgan fikrlarni rivojlantirish, garchi ular sxemalarga toʻgʻri kelmasa ham .
- Mazkur muammo faqat muayyan vositalar orqali yechim topishi mumkinligini unutishlik.

Integrasiyalashgan (mujassamlashtirilgan) oʻqitish qoidasi

Talabalarning his qilish-umumlashtirish xususiyatlariga asoslangan taʼlim jarayonini yaratish.

Mavzularni mazmunan biriktirish hisobiga mavzuni chuqur oʻzlashtirishga erishish.

Talabalarning qobiliyatini rivojlantirish.

LEKSIKOLOGIYA

Leksikologiya tilning lugʻat boyligini oʻrganadi. Bunda soʻz maʼnosining oʻzgarishi, maʼnoning kengayishi, torayishi, soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari, ularning hududiy va ijtimoiy qatlamlari, yangi soʻzlarning paydo boʻlishi kabi masalalar tekshiriladi.

Leksikologiyaning, oʻz navbatida, semasiologiya, leksikografiya, etimologiya, frazeologiya, onomasiologiya, onomastika kabi boʻlimlari mavjuddir.

Semasiologiya til belgilarining maʼno xususiyatlarini oʻrganadi. Soʻzning belgi sifatidagi ikki jihatidan biri-ifodalanuvchi qismi maʼnodir.

Leksikografiyada lugʻatlarning tuzilishi tamoyillari, ularning turlari, lugʻat maqolalari oʻrganiladi.

Etimologiyada soʻzlarning kelib chiqishi, qaysi tildan oʻzlashganligi va ularning tarixiy taraqqiyoti bilan bogʻliq jihatlar tekshiriladi.

Frazeologiyada soʻzlarning koʻchma maʼnoda qoʻllanishi, frazeologik turgʻun birikmalar va ularning turlari oʻrganiladi.

Onomasiologiyada narsa va predmetlarga, hodisalarga nom berish jarayoni tekshiriladi, onomastikada esa atoqli otlar oʻrganilib, ular ikkiga boʻlinadi: antroponimika (odamlarning ismlari ilmiy jihatdan oʻrganiladigan soha), toponimika va etnonimika (joylarning va urugʻlarning, millatlarning nomlarini oʻrganuvchi soha).

Tilning hozirgi holati va tarixiy bosib o'tgan yo'li jihatidan leksikologiya sinxronik va diaxronik leksikologiya deb ataluvchi alohida sohalarga ham bo'linadi.


Tilning lug'at boyligi tasnifiy va qiyosiy talqin etilishi mumkin. Ayrim olingan tilning lug'at boyligini har tomonlama o'rganish tasnifiy leksikologiya, ikki yoki undan ortiq tillarning lug'at boyligini qiyosiy tekshiradigan soha qiyosiy leksikologiya deb ataladi.

Eslatib o'tilgani singari, so'z tilshunoslik fanining barcha bo'limlari uchun asosiy tekshiruv ob'ekti hisoblanadi. Masalan, fonetik jihatdan olganda, so'z tovushlarning real qo'llanishi uchun asosiy ob'ekt bo'lib, u fonetik butunlikni tashkil etadi. Shu bois so'z bir harakatda talaffuz qilinadi va pauzalarga bo'linmaydi. Qiyoslaylik: **fraza, takt**.

Fraza nutqimizning ikki pauzasi oralig'idagi ohang butunligi bo'lsa, takt fraza ichidagi ikki qisqa pauza oralig'idagi ohang butunligidir.

Morfologik jihatdan so'z alohida ahamiyat kasb etadi. Morfologiyada uning shakllanishi, tuzilishi va turkumlarga bo'linishi kabi qator masalalar o'rganiladi. Sintaksisda esa so'zlarning o'zaro munosabatga kirishuvi tekshiriladi. Ammo shuni ham aytilish kerakki, so'z har qanday ob'ekt tarkibida o'rganilganda ham, uning til belgisi sifatida shakl va ma'no birligi to'liq saqlanadi.

Hozirgi tilshunoslikda so'zning ma'nosini **signifikat** termini bilan nomlaymiz, so'z anglatayotgan hodisa yoki predmetni **denotat** deb ataymiz. Bunda quyidagi uchburchak hosil bo'ladi:



Ko'rinadiki, so'z shakl, narsa (hodisa) va mazmundan tashkil topadi.

So'z bilan denotat va signifikat o'rtasida nisbiy bog'lanish mavjud, ya'ni biz biror tushunchaga ega bo'lish maqsadidagina ma'lum bir so'z orqali nimanidir aytamiz va bu haqda ma'lum bir tushunchaga ega bo'lamiz. Aslida esa so'z bilan u atayotgan narsa o'rtasida hech qanday bog'lanish yo'q.

So'z va narsa o'rtasidagi muammo juda ko'p davrlar mobaynida tortishuvlarga sabab bo'lib keldi. Hatto XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Avstraliyada Rudolf Meringer boshliq «So'z va Narsa» nomi bilan ataluvchi maxsus maktab ham vujudga keldi.

Shunday qilib, so'z voqelikdagi biror narsani, voqeani, hodisani nomlaydi. Ana shu jarayonda so'zning ma'nosi shakllanadi. So'zning fizik qiyofasi bilan u anglatgan narsaning fizik qiyofasi o'rtasidagi bog'lanish birligini ma'no deb ataymiz. So'z ana shu ma'no tufayligina nimanidir atay oladi.

So'z va tushuncha

So'zning ma'no jihatlarini semasiologiya o'rganadi. So'zning ma'nosi deganda, bu o'rinda uning leksik ma'nosini nazarda tutamiz. Bu jihatdan semasiologiya onomasiologiya bilan uzviy aloqada bo'ladi. Zero, leksik ma'no predmet, voqea-hodisalarning nomlanishi bilan chambarchas aloqadordir. So'zning leksik ma'nosi

uning nominativ birlik ekanligidan dalolat beradi. Bunda soʻzni lugʻat boyligining maʼlum bir unsuri sifatida **vokabula** deb, maʼlum bir maʼnoni ifodalashini nazarda tutib esa **semantema** deb ataymiz.

Soʻz maʼlum bir narsaning nomini atagani uchun va tushuncha bildirgani uchun **leksema** deb ataladi. Leksemaning maʼlum bir narsani nomlashi va maʼno anglatishi uning asosiy leksik maʼnosini taʼminlaydi.

Aytish lozimki, leksema maʼno va tovush kompleksini oʻzida mujassamlashtiradi. Masalan, xitoy tilida **shu** leksemasi qisqa talaffuz qilinganda **daraxt** maʼnosini, choʻziq talaffuz qilinganda esa **kitob** maʼnosini hosil qiladi. Ammo buni nisbiy tushunmoq kerak. Chunki leksik maʼno faqat tovush kompleksi bilan aniqlanmaydi. Aks holda sinonim, omonim tushunchalari boʻlmasdi. Demak, leksema maʼno bilan tovush kompleksining majmuasidan tashkil topadi.

Soʻzning leksik maʼnosi voqelikdagi narsa-predmetlar bilan uzviy bogʻliqdir. Leksik maʼno konkret, abstrakt, yakka hamda umumiy lashgan boʻlishi mumkin.

Soʻz alohida olingan narsa yoki predmetlarning belgisi emas, balki ular haqidagi tushunchalarning belgisidir. Masalan, **stol** soʻzi voqelikdagi aniq bir predmetning umumlashgan nomidir. **Stol** tushunchasi esa u haqdagi tasavvurni anglatadi. Chunki leksik maʼno borliqdagi narsa, hodisa yoki harakatning oʻzini emas, balki ular haqidagi tushunchani ifodalaydi. Ana shu jihatdan leksik maʼno bilan tushuncha oʻrtasida bogʻliqlik hamda farq mavjud boʻladi: a) bir soʻz bir necha leksik maʼno berishi va bu maʼnolarning har biri alohida tushunchani ifodalashi mumkin (son, yuz, chang, ot); b) bir tushuncha bir necha soʻz orqali ifodalanishi ham mumkin (yuz, bet, chehra, bashara, turq); v) tushuncha, leksik maʼnodan farqli ravishda, soʻz birikmasi bilan ifodalanishi ham mumkin (qoʻshma gap, hayvonot bogʻi).

Soʻz maʼnosi bilan tushuncha farq qilishini koʻrib oʻtdik. Bunga tilimizda qoʻllanadigan tabu va evfemizmlar yanada aniq misol boʻla oladi. Masalan, **oʻldi** soʻzi oʻrniga **hayotdan koʻz yumdi, abadiy uyquga ketdi** deb aytiladi. Yoki rus tilida soʻzlashuvchi ovchilar **ayiq** soʻzini ishlatmaydilar. Bu rus ovchilarining irimi bilan bogʻliq. Oʻzbeklarda ham bunday irimlar mavjud. Masalan, kechasi **ilon** soʻzi ishlatilmagan, balki uning oʻrniga **argʻamchi** soʻzidan foydalanganlar. **Chayon** soʻzining oʻrniga esa **rangi sovuyq, oti yoʻq** kabi birikmalar qoʻllanilgan. Bundan tashqari, kelinlar kuyovning va uning yaqin qarindoshlarining ismlarini aytishmaganlar. Bu odat baʼzi hududlarda hozir ham amal qiladi.

Evfemizm hodisasi bir tushunchani ikkinchi tushuncha bilan almashtirishni nazarda tutadi: **boʻyida bor, yoshi ulugʻ, в положении** (беременная), **ikki qat** va h.k.

Leksik maʼnoning turlari

Leksik maʼno boshqa maʼnolarga qaraganda konkret va individualdir. Har bir leksik maʼno muayyan bir soʻzga tegishli boʻladi va tilda virtual, yaʼni umumlashtiruvchi, mavhum holatda yashaydi. Masalan, **qanot** soʻzi orqali qushlarning, samolyotning qanotlarini tushunish mumkin. Yoki dasta soʻzi orqali ketmonning, belkurakning, choynakning maʼlum bir moslamasini tushunamiz.

Soʻzning leksik maʼnosi xususida gap borganda, dastlab uning tildagi va nutqdagi maʼnolarini farqlamoq darkor. Soʻzning umumlashgan va nisbatan mavhum maʼnolari

tilga oid bo'lib, ular lug'aviy ma'no deb ataladi. Har bir so'zning konkret ma'nosini faqat nutqda belgilash mumkin. Masalan: ***Yo'lingizdan qolmang. Men mashinaga minib jo'nadim.***

Keltirilgan misollarda ***yo'l*** va ***minib*** so'zlariga e'tibor beraylik. Bu so'zlar ayni paytda o'z lug'aviy ma'nolaridan ancha yiroqlashgan. Chunki bu o'rinda ***yo'l*** ***ish*** so'zi bilan, ***minib*** so'zi esa ***o'tirmoq*** so'zi bilan ma'nodosh bo'lib kelmoqda.

Ba'zan nutq jarayonida so'zlarning lug'aviy ma'nosi me'yor darajasidan chiqib ketishini ham kuzatish mumkin. Masalan, ***yuragi yorilayozdi, qulog'i og'ir, ichiga o't tushdi*** kabi iboralarda ***yorilmoq, og'ir, o't tushmoq*** kabi so'zlarning ayni paytdagi leksik ma'nolari ularning lug'aviy ma'nolariga to'g'ri kelmaydi.

Shunday qilib, so'zlarning leksik ma'nolarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Atash ma'nosi: ***arslon, bo'ri, ayiq, inson, hayvon, tosh, tuproq, suv, olov, ko'l.***

2. Ko'rsatish ma'nosi: ***u, bu, shu, o'sha, ana bu, o'shal (bul, shul).***

3. Ko'chma ma'no: insonga nisbatan: ***tulki, chayon, latta, olov, maymun;*** harakatga nisbatan: ***yondirmoq, suv sepmoq,*** va h.k.. Ko'chma ma'noni ayni paytda ma'noning bir predmetdan ikkinchisiga ko'chirilishi deb tushunmoq kerak. Chunki ma'noning ko'chirilishi frazeologik iboralarda so'zlarning ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan mushtarak hodisa (lar) emas.

So'z ma'nosining ko'chirilishi metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik hodisalari doirasida sodir bo'ladi.

Metaforada ma'noning ko'chirilishi ikki predmet o'rtasidagi tashqi belgilarning o'xshashligiga asoslanadi: ***samolyotning dumi, ariqning labi, tog'ningetagi, tandirning og'zi.***

Metonimiya hodisasi ikki predmetning yoki tushunchaning doimiy ravishda yonma-yon qo'llanishiga asoslanadi. Bunda bir predmetning ma'nosi ikkinchisiga to'liq ko'chadi va ularning birini aytsak, ikkinchisini tushunamiz: ***samovarga chiqdim, Navoiyni o'qidim, bir tovoq edim.***

Sinekdoxa hodisasi butun va qism tushunchalari o'rtasidagi munosabatga asoslanadi. Bunda butun orqali qismning va qism orqali butunning ma'nosini tushunish mumkin: ***besh qo'l barobar emas, ular tirnoqqa zor, xo'jalikda tuyoqlar soni oshmoqda.***

Vazifadoshlik hodisasida ma'noning ko'chishi predmetlar bajarayotgan vazifaga asoslanadi. Masalan, ***nayza*** va ***o'q*** so'zlari o'rtasida shakliy o'xshaplik yo'q. Biroq, shunday bo'lsa-da, ularning vazifalari bir xil.

Leksikologiya

SO'Z: denotat (hodisa yoki predmet); signifikat (tushuncha).

Vokabula (lug'at boyligining bir unsuri)

Semantema (ma'no)

Leksema (tushuncha)

Tabu (man qilingan so'zlar): *chayon-rangi sovuq*

Evfemizm (pardali so'zlar): *yoshi ulug'*



11-ILOVA. MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR

- 1.Leksikologiyaning tekshiruv ob'ekti nimalardan iborat?
- 2.Leksikologiyaning qanday bo'limlarini bilasiz?
- 3.So'z-signifikat-denotat tushunchalarini izohlang.
- 4.Leksik ma'no deganda qanday manoni tushunasiz?
- 5.So'z va tushuncha xususida ma'lumot bering.
- 6.Leksik ma'noning qanday turlarini bilasiz?
- 7.So'z ma'nosining ko'chirilishi qanday hodisalar doirasida ro'y beradi?

6-MAVZU	SINTAKSIS
---------	-----------

1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi.
(6-mashg'ulot)

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 75 ta</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	6-ma'ruza.

<i>Ma'ruza rejasi:</i>	1. Sintaksisning tekshiruv obyekti. 2. Kichik sintaksis haqida. 3. Predikativlik hodisasi. 4. Sintaktik valentlik nazariyasi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: kichik sintaksis, so'z birikmasi, predikativlik, so'z sintaksisi, sintaktik valentlik va aktantlar haqida keng ma'lumot berish hamda talabalarda bilim ko'nikmalarini shakllantirish.</i>	
<i>Ta'lim metodlari:</i>	Ma'ruza, namoyish etish, integrasiyalashgan o'qitish, tezkor savol-javob, aqliy hujum.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari:</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'zini-o'zi nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

1.2. Ma'ruzaning xronologik xaritasi (6-mashg'ulot)

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish (5 minut)	1.1. Mavzu nomi, maqsadi, o'quv mashg'ulotining natijalari e'lon qilinadi. O'tilayotgan mavzu ko'rgazmali ma'ruza tarzida tashkil etilishi haqida e'lon qiladi.	Eshitadilar.

I. Asosiy bosqich (65 minut)	2.1. Tezkor – so‘rov texnikasidan foydalanib, o‘tilgan mavzu eslatiladi va talabalar faollashtiriladi: 1. Sintaksisning tekshiruv obyekti. 2. Kichik sintaksis haqida. 3. Predikativlik hodisasi. 4. Sintaktik valentlik nazariyasi.	Savol - javobda faol qatnashadilar.
	2.2. Talabalarni faollashtirish maqsadida «Aqliy xujum» metodini qo‘llab, umumiy savol beriladi. «Aqliy xujum» metodidan foydalanishda rioya qilish kerak bo‘lgan qoidalar bilan tanishtiriladi (12-ilova). Savollar 13-ilovada keltirilgan.	Topshiriqni bajaradilar
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Mavzuni rejasi asosida xulosa qilib, eng muhim ma’lumotlarga talabalar diqqatini jalb qiladi. 3.2. Muhokamada faol qatnashgan talabalarni rag‘batlantiradi, baholaydi, yozib oladi.	Tinglashadi. Tinglashadi.

12-ilova.

Aqliy hujumni olib borish qoidalari:

- Hech qanday o‘zaro baho bermaslik va tanqid qilmaslik.
- Taklif etiladigan fikrlarni baholashdan o‘zini tiyishlik, ular qanchalik g‘ayri oddiy va fantastik bo‘lsin.
- Hamma narsa mumkin.
- Tanqid qilmaslik - hamma fikrlar teng ravishda qadrlidir.
- Gapirayotgan talabani fikrini bo‘lmaslik.
- Tanbeh berishdan o‘zini tiyishlik.
- Asosiy maqsad - fikrning miqdoridadir.
- Qancha ko‘p fikr aytilsa, shuncha yaxshidir: yangi va qadrlilik fikrlarni dunyoga kelish imkoniyati kengayadi.
- Fikrlar qaytarilsa jaxl chiqmaslik.
- Xayolni «junbushga kelishiga» imkoniyat yaratishlik.
- Yangi tug‘ilgan fikrlarni rivojlantirish, garchi ular sxemalarga to‘g‘ri kelmasa ham .
- Mazkur muammo faqat muayyan vositalar orqali yechim topishi mumkinligini unutishlik.

Integratsiyalashgan (mujassamlashtirilgan) o‘qitish qoidasi

Talabalarning his qilish-umumlashtirish xususiyatlariga asoslangan ta’lim jarayonini yaratish.

Mavzularni mazmunan biriktirish hisobiga mavzuni chuqur o‘zlashtirishga erishish.

Talabalarning qobiliyatini rivojlantirish.

SINTAKSIS

Ma'lumki, sintaksis grammatikaning ikkinchi bo'limini tashkil etadi va unda so'zlarning o'zaro munosabatlari o'rganiladi. An'anaga ko'ra, sintaksisda so'z birikmalari, sodda va qo'shma gaplar, gap bo'laklari muammolari tekshiriladi.

Biroq, shuni ham aytish lozimki, sintaktik muammolar tavsifi bugungi kunda ko'pchilikni qoniqtirmayapti. Bu sohada yechilmagan va munozarali muammolar ko'p. Buning asosiy sababi, bizningcha, "til va nutq" dixotomiyasiga bog'liq masalalar yaxshi o'rganilmagani bilan bevosita aloqadordir.

Aytish lozimki, hozirgacha tilshunoslik fani, asosan, til sistemasini o'rganish bilan shug'ullandi. Masalaning ikkinchi tomoni - sistema unsurlarining nutqda real qo'llanilishi tadqiqi ikkinchi darajali bo'lib keldi. Shu bois hozirgi tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri nutq sintaksisi muammolarini tadqiq etish bo'lib qoldi.

An'anaviy tilshunoslikda sintaksis doirasida so'z birikmalari va gap o'rganildi. Lekin bugungi kunda so'z sintaksisi muammolari ham dolzarb bo'lib turibdi. Unga ko'ra, kichik sintaksis deb atalishi mumkin bo'lgan yangi sohaning asoslanishi talab etilmoqda.

Kichik sintaksisning asosiy vazifasi yasama va qo'shma so'zlar tarkibiy qismlarini, shuningdek, so'z birikmalari shakllanishi masalalarini tadqiq qilishdan iboratdir.

Shu narsa e'tiborga molikki, yasama so'zlarning tarkibiy qismlari, ya'ni morfemalarning o'zaro munosabatlari ham sintaktik qonun-qoidalar asosida ro'y beradi; **ish+chi, til+shunos, tin+ch-lik, учу+мель, лошад+ник** va boshqalar.

Yasama so'zlarda morfemalar munosabati gorizontal chiziq bo'ylab shakllanar ekan, ularning mikrosintagmatik munosabatda ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Bunday munosabatlar doirasida ham ob'ekt-sub'ekt va harakat aloqalarini bimalol kuzatish mumkin. Masalan, **ishchi** so'ziga e'tibor beraylik. Bunda **ish** - ob'ekt, **-chi** sub'ekt o'rnidagi ijrochidir. Ob'ekt va ijrochi o'rtasida harakat mazmuni kuzatiladi. *O'qituvchi* so'zini ham bunga misol keltirish mumkin. Qo'shma so'zlar unsurlari o'rtasida esa ega-kesim, to'ldiruvchi-harakat, aniqlovchi-aniqlanmish munosabatlari ham kuzatiladi: *Xudoyberdi, Keldiyor, otboqar, sohibjamol* va boshqalar.

Ana shulardan kelib chiqib, sintaktik munosabatlarni so'z birikmalari unsurlari o'rtasidagi aloqalardan emas, balki so'z unsurlari munosabatlaridan boshlab o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi grammatikalarimizda so'z birikmalari tavsifi erkin birikmalar matereallariga asoslanadi. Ammo so'z birikmalarining turg'un deb ataluvchi turi na grammatikada, na leksikologiyada va na frazeologiyada o'rganiladi. Vaholonki, turg'un birikmalar komponentlari o'rtasida ham, statik xarakterda bo'lsa-da, sintagmatik munosabatlar mavajuddir. Shuning uchun turg'un birikmalarni to'lig'icha kichik sintaksis tekshiruv ob'ektlari jumlasiga kiritish mumkin.

Erkin so'z birikmalari muammosi ham hozirgacha to'liq hal etilgani yo'q. Bunda quyidagi muammolar izohtalabdir:

1. Erkin so'z birikmalari komponentlarining munosabati xarakteri (ergash bog'lanish va teng bog'lanish).

2. Erkin so'z birikmalarining turlari.

3. Erkin birikmalarning predikativlik hodisasiga munosabati va boshqalar.

Aytish joizki, erkin soʻz birikmalari nutqda shakllanadi. Shuni uchun ham ularni erkin soʻz birikmalari deb ataymiz. Biroq hozirgacha erkin birikmalarning nutqdagi shakli emas, balki tildagi sxemasi oʻrganilib kelinmoqda. Ayniqsa, feʼlli birikmalar *vazifani bajarmoq, nasihat qilmoq* tarzida olinib tahlil etilmoqda. Ammo bu birikmalar nutqdagi soʻz birikmalarini taqozo etmaydi. Nutqda ular **vazifani bajardi** (bajaradi, bajarmoqda) tarzida tugʻiladi. Bu esa feʼlli birikmalarning predikativ qurilmalar ekanligidan dalolat beradi. Ularning tildagi sxemasiga asoslanib, soʻz birikmalari sof nominativ va nopredikativ ekanligi haqida hukm chiqarish notoʻgʻridir.

Sintaktik tadqiqotlarda hali predikativlik tushunchasi ham toʻliq izohlangani yoʻq. Qariyb barcha darslik va oʻquv qoʻllanmalarda predikativlik hodisasi faqat gapga xos ekanligi taʼkidlanadi. Bizningcha, bunday xulosa bilan ham qoʻshilish qiyin. Chunki til materiallarining tahlili predikativlik hodisasi alohida olingan bir soʻz doirasida ham ifodalanishi mumkinligini koʻrsatadi. Masalan, shahar xaritasining ustiga **London** deb yozib qoʻyilgan boʻlsa, (А.И.Смирницкий), bu soʻz orqali voqelikka munosabat bildirilayotganini inkor etib boʻlmaydi. Demak, bu oʻrinda predikativlik hodisasi shakllanmoqda.

Yuqoridagilardan tashqari, bugungi sintaksisda gap doirasida qoʻllaniladigan undalma va kirish soʻzlar xususida ham ishonarli fikrlar aytilganicha yoʻq. Bunday soʻzlar gap boʻlaklari hisoblanmasligi izohtalabdir. Shu bois tilshunoslik adabiyotlarida ularni avtonom monemalar (А.Мартине), gapning uchinchi darajali boʻlaklari (Р.Сайфуллаев) tarzida oʻrganish lozimligi xususida aytilgan baʼzi fikr va mulohazalarni ham koʻramiz.

Anʼanaviy tilshunoslikda gap sintaksisi, asosan, gap boʻlaklari doirasida oʻrganib kelinmoqda. Bunda gapning bosh boʻlaklari (ega va kesim) va ikkinchi darajali boʻlaklar (aniqlovchi, toʻldiruvchi, hol) tahlil etiladi. Gapning tuzilishiga koʻra turlari esa sodda va qoʻshma gaplar misolida izohlanadi.

Gap boʻlaklari haqida shuni aytish mumkinki, bunday boʻlinish bugungi tilshunoslik fanining taraqqiyot bosqichida talabga javob bermayapti. Gapning bosh boʻlaklarini olaylik. Ega va kesim tushunchalari bizga Aristoteldan meros qolgan **subʼekt** va **predikat** tushunchalarining kalkalashtirilgan shakllaridir. Gʻarb tillarida esa subʼekt va predikat (tushunchalari) terminlarining oʻzi qoʻllanilmoqda.

Subʼekt va predikat tushunchalari aslida mantiq kategoriyalaridir. Ularning grammatikada qoʻllanilishi talabga javob bera olmayapti. Shuning uchun soʻnggi yillarda **aktant, sirkonstant, agens, patsiens** singari bir qator yangi terminlardan foydalanilmoqda.

Gapning ikkinchi darajali boʻlaklarining nomlanishi ham izohtalabdir. Aniqlovchi, toʻldiruvchi, hol atamaları gapning sintaktik tahlilida qoʻllanilayotgan boʻlsa-da, ular gap strukturasini soxta ravishda sxemalashtiradi va grammatik tamoyillarga toʻliq asoslanmagan (В.В.Виноградов).

Shuni alohida qayd etish lozimki, tilshunoslik fanining bugungi taraqqiyoti davrida semantik sintaksis muammolari koʻpchilikni qiziqtirmoqda. Semantik sintaksisda koʻproq mantiqiy tushunchalarga asoslaniladi. Bunda **predikat** va uning

argumentlari, propozitsiya va **presuppozitsiya** tushunchalaridan keng foydalaniladi va ular atroflicha izohlanadi.

Argument deganda, predikat bevosita munosabatda bo'ladigan hukmning ijrosida asos vazifasini o'tovchi unsurlarni tushunamiz. Predikat hukmning ijrosini, argument esa bu jarayonning ishtirokchisi vazifasini bajaradi: *Иван дал брату книгу*.

Propozitsiya deganda, predikat ishtirokida shakllanib, valentlik darajalari to'ldirilgan semantik struktura tushuniladi (B.B.Касевич). **Presuppozitsiya** deganda esa, ma'lum bir sintaktik struktura ifodalayotgan real ma'nodan tashqari, uning ichki (tub) strukturasida anglashiladigan ma'no tushuniladi (Bola uxlamogda - uyg'oq emas).

G'arb tillarida va rus tilshunosligida ham semantik sintaksis muammolari ancha mukammal ishlangan. O'zbek tilshunosligida esa bu sohada «O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi» deb nomlanuvchi dastlabki asar 1992 yilda nashrdan chiqdi.

Yuqoridagilardan tashqari, struktur sintaksis yo'nalishi ham mavjuddir. Bunda amerikalik tilshunoslar, xususan, N.Xomskiy, fransuz tilshunosi L.Tenyer kabilarning ishlarini alohida qayd etish lozimdir.

Struktur sintaksis muammolari gapning bevosita ishtirokchilari hamda transformatsiya usullari yordamida keng yoritilgan. Biroq L.Tenyerning «Struktur sintaksis asoslari» (M., 1988) deb nomlanuvchi asarida struktur sintaksis muammolari o'ziga xos yo'nalishda izohlanadi. Unda L.Tenyer translitiratsiya usulidan keng foydalanib, gapda so'zlarning o'zaro munosabatini stemmalar orqali tasvirlab beradi.

L.Tenyerning nazariyasi jahon tilshunosligida verbosentrik nazariya deb tan olingan, zotan, o'nda fe'lning sintatik faolligiga alohida ahamiyat beriladi.

L.Tenyer mazkur asarida jahonda birinchilardan bo'lib fe'lning sintaktik valentligi masalasini ilmiy asoslab beradi. Fe'l valentligi **aktantlar** va **sirkonstantlar** qurshovida izohlanadi. Aktant deganda, muallif harakat ijrochilarini, sirkonstant deganda esa, harakat ijrosi amalga oshadigan nutq jarayoni bilan bog'liq holda qo'llanadigan holat bildiruvchi so'zlarni tushunadi.

Aktantlarni L.Tenyer uch turga bo'ladi: 1) birinchi darajali aktantlar (ega vazifasida keluvchi), 2) ikkinchi darajali aktantlar (to'g'ri, ya'ni vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladigan aktantlar), 3) uchinchi darajali aktantlar (vositali to'ldiruvchi vazifasida keluvchi aktantlar).

Sirkonstantlar fe'l valentligi darajasiga ta'siri bo'lmasa-da, harakat ifodasi doirasida ishtirok etuvchi holat bildiruvchi so'zlardir. Bunga holning barcha turlarini kiritish mumkin. Aniqlovchi vazifasida keluvchi so'zlarni L.Tenyer alohida tavsiflaydi va ularni aktantlar doirasida keluvchi so'zlar sirasiga kiritadi.

Aytish lozimki, L.Tenyerning bu nazariyasi bugungi kunda ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlarining vujudga kelishiga metodologik asos bo'lmoqda. Bu nazariya zahirida ayni paytda sintaktik, semantik valentlik nazariyalari yanada takomillashtirilmoqda.

Sintaksis

SEMANTIK SINTAKSIS

Argument: hukmning ijrosida asos vazifasini o'tovchi unsur.

Propozitsiya: valentlik darajasini ti'ldiruvchi semantik struktura.

Presuppozitsiya: ichki (tub) ma'no.

Anvar kitobni akasiga berdi.

Anvar-argument, kitobni akasiga-propozitsiya, presuppozitsiya-kitob unda emasligi, berdi-predikat.



13-ILOVA. MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR

1. Sintaksisning tekshiruv ob'ekti nimalarni taqozo etadi?
2. Kichik sintaksisda nimalar o'rganiladi?
3. So'z sintaksisini tavsiflab bering.
4. Predikativlik deganda nimani tushunasiz?
5. Sintaktik valentlik va aktantlar haqida ma'lumot bering.
6. L.Tenyerning sintaktik valentlik nazariyasi haqida nimalarni bilasiz?

GAPNING AKTUAL BO'LAKLARI

Gapning funksional tahlili usullari so'nggi yillarda tilshunoslikning diqqat markazidagi asosiy masalalardan biri bo'lib qoldi. Bu sohada jahon tilshunosligida ilmiy tadqiqot ishlari keng ko'lamda olib borilmoqda.

Ammo shuni ham qayd qilish lozimki, funksional tahlil bobida tilshunoslar fikrlari mushtarak emas. Ba'zi tilshunoslar funksional tahlil deganda gapning an'anaviy bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linishini tushunsalar, ba'zilar funksional tahlilni gapning aktual bo'laklari bilan bog'laydilar, boshqa birlari esa bu tahlilni gap komponentlarining tildan nutqqa ko'chirilishi doirasida izohlaydilar. Quyida gapning aktual bo'laklari nazariyasiga to'xtalamiz.

Avvalo, shuni aytish kerakki, bu nazariya dastlab chex olimi V.Metezius tomonidan asoslangan. Keyinchalik shu sohada rus olimlarining ham qator-qator ilmiy ishlari yaratildi (I.P.Raspopov, V.G.Gak, K.G.Krushilnitskaya va boshqalar). O'zbek olimlaridan A.Sodiqov ham mazkur yo'nalish bo'yicha ancha ishar qildi.

Gapning aktual bo'laklari nazariyasining asosiy mohiyati shundaki, har bir gapda sintaktik strukturadan tashqari, muloqot strukturasi ham bo'ladi. Muloqot, ya'ni kommunikativ struktura gap komponentlarining mantiqiy faolligiga asoslanadi. Boshqacha aytganda, har bir gapning boshlanish nuqtasi - asosi (основа высказывания) va undagi xabar ifodasining markazi bo'ladi (ядро высказывания). Masalan, **Sobir qalam bilan yozdi**.

Mazkur gapda xabarning asosi, albatta, **Sobir** so'zi orqali ifodalanmoqda. Bu yangilik emas. Xabar yangiligi **qalam** so'zi bilan berilmoqda. Negaki, **Sobir ruchka bilan, bo'r bilan emas**, balki **aynan qalam bilan yozganligi** bo'rttirilmoqda. Biroq, bu o'zgarma ifoda emas. Agar tinglovchini Sobirning bekor o'tirishi emas, balki yozganligi qiziqtiradigan bo'lsa, bu gapda **yozdi** so'zi xabar markazini tashkil etishi ham mumkin.

Gapning aktual bo'laklari tahlili, asosan, ikki unsur orqali - **xabarning asosi** va **xabarning (yadrosi) markazi** orqali olib boriladi. Biroq tilshunoslikda bu o'rinda keyingi paytlarda «tema» va «rema» atamalari keng qo'llanilmoqda. Tema xabarning so'zlovchiga ham, tinglovchiga ham avvaldan ma'lum qismini taqozo etadi. Rema esa xabarning markazini, uning yangiligini taqozo etadi: **Nodir choy ichdi**.

Bu gapda **Nodir** so'zi tema vazifasida, **choy** so'zi esa rema vazifasida kelmoqda. Agar gapni **Choy yozda ko'p ichiladi** tarzida davom ettirsak, **choy** so'zi endi rema bo'lolmaydi, chunki u xabar markazidan chetlashadi va tema funksiyasini bajaradi. Bunda nutq muhiti xarakteri bilan bog'liq holda rema vazifasini **yozda** so'zi, yoki **ichiladi** so'zi bajarishi ham mumkin.

Ko'rinadiki, gapning aktual bo'laklari beqaror xarakterga ega. Shu bois ular gapning turli bo'laklari bilan ifodalanaveradi. Bunda, asosan, gapning qaysi bir bo'lagi mantiqiy urg'u olishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi, zotan, mantiqiy urg'u olayotgan bo'lak rema vazifasini o'taydi.

Gapning aktual bulaklarini belgilashda rus tilshunosligida dastlab «данное» va «новое» deb ataluvchi atamalardan foydalanildi. Biroq bugungi kunda rus tilshunosligida ham «tema», «rema» terminlari keng qo'llanilmoqda.

Gapning aktual bo‘laklarga bo‘linishi, ko‘rib o‘tganimiz singari, mantiqiy yohud semantik tushunchalarga asoslanadi. Shuning uchun uni sintaksis (odatdagi sintaksis) doirasida o‘rganish ancha qiyin. Bizningcha, mazkur nazariya semantik sintaksis muammolari tahliliga mos keladi. Chunki «tema»ni sub’ekt bilan, «rema» ni esa predikat bilan qiyoslash mantiqqa to‘g‘ri keladi.

Gap komponentlarining funksional tahlilini barqaror unsurlarga asoslangan holda talqin etish maqsadga muvofiqdir, zero, gapning har bir unsuri shu gap doirasida o‘zgarmas funksiya bajaradi. Bundan tashqari, masalaning ikkinchi tomoni ham bo‘lib, unga ko‘ra gapning aktual bo‘laklari nazariyasini yangi nazariya deb ayta olmaymiz. Chunki xali Aristotel yashagan davrlardayoq bunga monand ilmiy fikrlar mavjud edi. Gapning mantiqiy urg‘u oluvchi bo‘lagi predikat deb atalishining o‘zi ham fikrimiz dalili bo‘la oladi. Shuning uchun gapning aktual bo‘laklari nazariyasini formal-sintaktik qoidalar doirasida qo‘llab bo‘lmaydi. Undan, semantik sintaksisda keng foydalanish mumkin, zotan, predikat va rema mushtarak hodisalardir.

Gap komponentlarining funksional tahlili muammosi Praga tilshunoslik maktabining vakillaridan biri taniqli fransuz tilshunosi Andre Martine tomonidan ham ishlangan. Andre Martine o‘zining funksional tahlilini til unsurlarining nutqda real qo‘llanilishi masalasi bilan uzviy bog‘laydi. Uning funksional tahlil nazariyasida asosiy e’tibor til unsurlarining nutqqa ko‘chirilishi va aktuallashishiga qaratiladi.

Andre Martine o‘z g‘oyalarini «Sinxronik tilshunoslik», «Til va funksiya» deb ataluvchi asarlarida asoslaydi. Uning funksional tahlil nazariyasida nutqning eng kichik birligi **«monema»** tavsifi va monemaning turlari atroflicha yoritiladi.

Muallif monema deganda nutqning eng kichik birligini tushunar ekan, u shu asosda gapning shakllanishini mukammal izohlab beradi. Monemaning uch turi: **avtonom** (muxtor) **monema**, **funksional monema** va **qaram monema** haqida to‘liq ma’lumot beradi.

Muxtor, ya’ni avtonom monema gapning mustaqil komponentlaridan biri sifatida faol qo‘llanadi. Muxtor monemaning bu nom bilan atalishining asosiy sababi uning tildan nutqqa ko‘chirilishidir. Bunday monema boshqa unsurlarning yordamiga tayanmagan holda aktuallashuvidan tashqari, o‘zi ham gap tarkibida qatnashayotgan biror bir unsurga sintaktik faollik olishida ko‘maklasha olmaydi: **Ehtimol, hamma charchagandir. Bugun Sobir ishga kelmadi.**

Bu gaplarda **ehtimol** va **bugun** so‘zlari muxtor monema vazifasida kelmoqda. Zero, ularning har ikkalasi ham tildan nutqqa (paradigmatik qatordan sintagmatik qatorga) mustaqil holda ko‘chirilmoqda. Bundan tashqari, berilgan gaplarning har ikkalasida ham biror komponentning muxtor monemalar bilan sintagmatik munosabati yo‘q. Shuning uchun bu monemalar gap tarkibidan tushirilganda ham, keltirilgan gaplarning sintaktik butunligi o‘zgarib qolmaydi.

Muxtor monemalar har bir tilda uning ichki sistemasi qonun-qoidalari asosida belgilanadi. Ular mustaqil so‘zlar orqali ham, kirish so‘z yoki kirish birikmalar orqali ham, undalma orqali ham ifodalanishi mumkin.

Monemalar ichida **funksional monemalar** muhim ahamiyat kasb etadi. Funksional monema gapning sintagmatik zanjirini yasovchi va uning salmog‘ini belgilovchi asosiy vositalar jumlasiga kiradi.

Funksional monema gapning bir yoki bir necha unsuriga sintaktik faollik beradi va ularning tildan nutqqa ko'chirilishida asosiy vosita hisoblanadi. Masalan, **Adolat qishloqdan shaharga keldi.**

Berilgan gapda to'rtta funksional monema qatnashmoqda. Ega kesimga va kesim egaga funksiya berayotgani uchun ularning har ikkisini ham funksional monema deb ataymiz. Bundan tashqari, -dan, -ga affikslari ham funksional monemalardir. Chunki mazkur affikslar ishtirokisiz **qishloq** va **shahar** so'zlari tildan nutqqa ko'chirilmaydi. Ayni paytda -dan,-ga affikslari **qishloq** va **shahar** so'zlarini tildan nutqqa ko'chiribgina qolmay, ularni sintaktik funksiya bilan ham ta'minlamoqda.

Funksional monema avval eslatib o'tilganidek, gapning birdan ortiq unsuriga funksiya berishi ham mumkin: **Salim bilan Sobir masala ishlashdi. Akbar yaxshi o'qigani uchun mukofot oldi.**

Keltirilgan misollarning birinchisida **bilan** ko'makchisi bir yo'la ikki unsurga (Sobir, Salim) funksiya berayotgan bo'lsa, ikkinchi misolda **uchun** ko'makchisi **yaxshi o'qigani** tarzida birikib kelayotgan ikki so'zga funksiya ulashmoqda.

Qaram monema gap tarkibidagi funksional monemalar orqali funksiya oladi va tildan nutqqa ko'chirilishi ham ularga bog'liq bo'ladi: **Salima darsga keldi.**

Berilgan misolda **dars** so'zi qaram monema vazifasini bajarmoqda. Uning qaram ekanligi gap tarkibidan -ga affiksini olib tashlasak, yanada yaxshiroq seziladi. Demak, **dars** so'zining tildan nutqqa ko'chirilishi ham, funksiya bilan ta'minlanishi ham to'liq icha -ga affiksiga qaramdir.

Shuni ham aytish kerakki, Martinening nazariyasida masala tavsifining asosiy tamoyillari ko'rsatib berilgan, xolos. Shu bois ba'zi o'rinlarda mustaqil fikrlashga to'g'ri keladi. Bu, ayniqsa, funksional monemalarni o'rganishda ko'proq ko'zga tashlanadi. Chunki funksional monemalarning ba'zi turlari nafaqat alohida olingan mustaqil so'zga, balki mustaqil gapga va hatto qo'shma gapning tarkibiy qismlariga ham funksiya bera oladi. Shuning uchun bunday monemalarni biz **superfunktional monema** deb atamoqdamiz.

Yuqoridagilardan tashqari, tilning ba'zi unsurlari nutqda yarim funksional monema vazifasida qo'llanilishini ham kuzatamiz. Bunga g'arb tillarida artikllar, turkiy tillarda ko'proq egalik qo'shimchalari, nisbat qo'shimchasi kiritilishi mumkin.

Superfunktional monemalar jumlasiga, asosan, qo'shma gaplarning tarkibiy qismlarini o'zaro bog'lovchi vositalarni kiritish mumkin:

1. **Bahor kelgach, gullar ochiladi.**

2. **Sobir keldi va ishlar yurishib ketdi.**

Keltirilgan gaplarda **-gach, va** unsurlari superfunktional monemalardir. Chunki ular yordamida qo'shma gaplarning tarkibiy qismlari sintaktik faollik olmoqda. Bundan tashqari, qo'shma gaplarning umumiy sintaktik funksiyalari ham ana shu vositalar bilan bevosita bog'lanmoqda.

Bunday monemalarning sintaktik vazifalarini bir nechta sanash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ularning oddiy funksional monemalardan tubdan farqlanishini ko'rsatadi. Andre Martine nazariyasida funksional monemaning bu jihatlari o'rganilmagan yoki e'tiborga olinmagan.

A.Martine artikl xususida ham biror qat'iyroq fikr aytmaydi. Bizningcha, artiklni yarim funksional monema hisoblash maqsadga muvofiqdir. Uni to'liq funksional

monema sanash uchun etarli asos yo'q. Artikl ot bilan «tirik». Ot bo'lmas ekan, u mustaqil faollik ko'rsata olmaydi. Ot birlamchi, artikl esa ikkilamchi xarakterga egadir. Boshqacha aytganda, artikl ot qaysi rodada va sonida bo'lsa, shunga ishora qiladi, xolos. Lekin, ikkinchi tomondan, artikl qo'llanilmasa, otning grammatik shakli to'liq ifodalanmay qoladi. Ana shu jihatdan artiklni yarim funksional monema hisoblash lozim bo'ladi.

O'zbek tilida egalik qo'shimchasi ham, (son) ko'plik qo'shimchasi ham ana shunday xususiyatga egadir.

Derivatsion tahlil

Operator sintaktik derivatsiyani vujudga keltiruvchi asosiy unsur.

Operand derivatsiyaning xomashyosi.

Derivat (hosila) derivatsiyaning natijasi.

o'tirardi: tub struktura (V).

Sobir o'tirardi: tayanch struktura (SV).

Sobir xomush o'tirardi: hosila struktura (SXV)-operator nuli ifodali.

Sobir sandal chetida xomush o'tirardi: hosiladan yasalgan hosila struktura (SX₂V)-operator: **-da**.

Distributiv tahlil

1. **Qo'shimcha distributsiya.** Tilning ikki birligi bir qurshovda kela olmaydi. Ingliz tilida -ed morfemasi jarangsiz undoshdan so'ng [t] deb o'qiladi: **worked, passed.**
2. **Kontrast distributsiya.** Til birliklari bir qurshovda kela oladi va turlicha ma'no ifodalaydi: maktab+ga, maktab+dan, maktab+da kabi.
3. **Erkin almashuv distributsiyasi.** Tilning ikki va undan ortiq birligi bir qurshovda kelib, ma'no o'zgarishi sodir etmaydi: John's book – The book of John; nonpaz-novvoy.

Gapning bevosita ishtirokchilarga (BI) bo'linishi

Valining kichik ukasi biz bilan o'qiydi.

P=gap. GN=ot guruhi. GV=fe'l guruhi.

GN=N(ot)+d(yordamchi vosita)+N(ot).

GV=GN+V(fe'l). GN=N(olmosh)+d(yordamchi vosita).

Bahor keldi va gullar ochildi.

$P_1=N+V$; $P_2=N+V$.



Transformatsion tahlil

1. Nominalizatsiya transformatsiyasi

Dars boshlandi – Darsning boshlanishi = $N+V.N_1+N_2$.

2. Aktiv qurilmalarning passiv qurilmalarga aylanishi

Binokorlar uy qurdilar – Uy binokorlar tomonidan qurildi.

$N_1+N_2+V. N_1+N_2+d+V.$

3. Almashuv transformatsiyasi

O`g`lim va qizim maktabda o`qiydi – Farzndlarim maktabda o`qiydi. $N_1+d+N_2+N_3+V. N_1+N_2+V.$

4. Kontaminatsiya transformatsiyasi

O`rtaga jimlik cho`kdi. U boyagidan ham noqulay edi – O`rtaga boyagidan ham noqulay jimlik cho`kdi.

$N_1+N_2+V.N_1+N_2+d+V. N_1+N_2+d_1+d_2+N_3+V.$

15-ILOVA. MAVZU BO`YICHA SAVOLLAR

1. Gapning aktual bo`laklari haqidagi nazariyaning asosiy mohiyati nimadan iborat va uni dastlab kim asoslagan?
2. Gap komponentlarining tema-rematik munosabatini izohlab bering.
3. Funksional sintaksis xususida nimalarni bilasiz?
4. Avtonom, funksional va qaram monemalar qanday farqlanadi?
5. Superfunksional monema nima?
6. Til belgilarining nutqqa ko`chirilishini izohlang.

7-MAVZU	Kommunikativ tilshunoslik .Matn tilshunosligi.
----------------	--

**1. Ma’ruza mashg’ulotining ta’lim texnologiyasi.
(7- mashg’ulot)**

<i>O‘quv soati: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 75 ta</i>
<i>O‘quv mashg’ulotining shakli:</i>	7-ma’ruza.
<i>Ma’ruza rejasi:</i>	1. Mikro va makromatnnning tuzilishi. 2. Murakkab sintaktik qurilmalarning turlari. 3. Abzas derivatsiyasi.
<i>O‘quv mashg’ulotining maqsadi: matnning turlarini o‘rganish va matnning tahlil uslubini tekshirish.</i>	
<i>Ta’lim metodlari:</i>	Ma’ruza, namoyish etish, integrasiyalashgan o‘qitish,tezkor savol-javob, aqliy hujum.
<i>Ta’lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
<i>O‘qitish shart-sharoitlari:</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Og‘zaki nazorat, savol-javob, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

**1.2. Ma’ruzaning xronologik xaritasi
(7-mashg’ulot)**

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O‘qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish (5 minut)	1.1. Mavzu nomi, maqcad, o‘quv mashg’ulotining natijalari e’lon qilinadi. O‘tilayotgan mavzu ko‘rgazmali ma’ruza tarzida tashkil etilishi haqida e’lon qiladi.	Eshitadilar.

II. Asosiy bosqich (65 minut)	2.1. Tezkor – so‘rov texnikasidan foydalanib, o‘tilgan mavzu eslatiladi va talabalar faollashtiriladi: 1. Gapning aktual bo‘laklari. 2. Gap komponentlarining tema-rematik munosabatlari. 3. Funksional tahlil. 4. Gapning bevosita ishtirokchilarga bo‘linishi.	Savol - javobda faol qatnashadilar.
	2.2. Talabalarni faollashtirish maqsadida «Aqliy xujum» metodini qo‘llab, umumiy savol beriladi. «Aqliy xujum» metodidan foydalanishda rioya qilish kerak bo‘lgan qoidalar bilan tanishtiriladi (14-ilova). Savollar 15-ilovada berilgan.	Topshiriqni bajaradilar
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Mavzuni rejasi asosida xulosa qilib, eng muhim ma’lumotlarga talabalar diqqatini jalb qiladi.	Tinglashadi.
	3.2. Muhokamada faol qatnashgan talabalarni rag‘batlantiradi, baholaydi, yozib oladi.	Tinglashadi.

14-ilova.

Aqliy hujumni olib borish qoidalari:

- Hech qanday o‘zaro baho bermaslik va tanqid qilmaslik.
- Taklif etiladigan fikrlarni baholashdan o‘zini tiyishlik, ular qanchalik g‘ayri oddiy va fantastik bo‘lmasin.
- Hamma narsa mumkin.
- Tanqid qilmaslik - hamma fikrlar teng ravishda qadrlidir.
- Gapirayotgan talabani fikrini bo‘lmaslik.
- Tanbeh berishdan o‘zini tiyishlik.
- Asosiy maqsad - fikrning miqdoridadir.
- Qancha ko‘p fikr aytilsa, shuncha yaxshidir: yangi va qadrli fikrlarni dunyoga kelish imkoniyati kengayadi.
- Fikrlar qaytarilsa jaxl chiqmaslik.
- Xayolni «junbushga kelishiga» imkoniyat yaratishlik.
- Yangi tug‘ilgan fikrlarni rivojlantirish, garchi ular sxemalarga to‘g‘ri kelmasa ham .
- Mazkur muammo faqat muayyan vositalar orqali yechim topishi mumkinligini unutishlik.

Integrasiyalashgan (mujassamlashtirilgan) o‘qitish qoidasi

Talabalarining his qilish-umumlashtirish xususiyatlariga asoslangan ta’lim jarayonini yaratish.

Mavzularni mazmunan biriktirish hisobiga mavzuni chuqur o‘zlashtirishga erishish.

Talabalarning qobiliyatini rivojlantirish.

Mavzu : KOMMUNIKATIV TILSHUNOSLIK. MATN TILSHUNOSLIGI

Ravshanki, matn tilshunosligi muammolari fanimiz taraqqiyotining hozirgi davrida o‘ta dolzarb sanaladi, zotan, endigina ilmiy asoslangan nutq lingvistikasining asosiy zalvari matn tilshunosligi zimmasiga tushishi tabiiydir.

Bugungi tilshunosligimizda matn lingvistikasi muammolari bilan bog‘liq talay tadqiqot ishlari vujudga keldi. Mazkur ishlar matnning turli xil ko‘rinishlari, shu jumladan, mikro- va makromatn shakllarining lingvistik tabiatini o‘rganish bilan ham bevosita aloqadordir. Bunday ishlar jumlasiga matnning derivastion xususiyatlarini o‘rganish doirasida bajarilgan tadqiqotlar ham kiradi. Chunki derivastiya tushunchasi birinchi galda **shakllanish** ma’nosi bilan uzviy bog‘liqdir.

Albatta, mikromatn derivastiyasi bilan makromatn derivastiyasi mushtarak tamoyillarga asoslanmaydi, zero, makromatn doimiy ravishda sintaktik derivastiya natijasini taqozo etsa, mikromatn semantik derivastiyaning ham, leksik yoxud sintaktik derivastiyaning ham mahsuli bo‘lishi mumkin. Buni quyidagilarda ko‘ramiz: 1) ifoda materiali yozuvda grafema (nutqda tovush) bo‘lgan mikromatn semantik derivastiya mahsuli sanaladi; 2) ifoda materiali tub so‘z bo‘lgan mikromatn ham semantik derivastiya natijasini taqozo etadi; 3) ifoda materiali yasama so‘z bo‘lgan mikromatn leksik derivastiyaning hosilasi hisoblanadi; 4) so‘z birikmasidan boshlab makromatngacha bo‘lgan nutq birliklarining voqelanishi sintaktik derivastiya bilan uzviy bog‘liq.

Quyida mazkur mikro- va makromatnlarning har birining derivastion xususiyatlariga qisqacha izoh beramiz.

Ifoda materiali grafema bo‘lgan eng kichik matn jumlasiga avtobus bekatlari yoki trolleybuslar to‘xtash joylariga qo‘yiladigan «A», «T» harflari bilan belgilangan matn maqomidagi simvollarni kiritish mumkin. Bunday vaziyatda muayyan belgilarga semantik vazifa yuklatilgan bo‘ladi va shu bois ularning derivastiyasi mazmuniy ifoda qolipida shakllanadi.

Tub so‘z bilan ifodalangan mikromatn ham mazmuniga ko‘ra butun bir gap maqomida kelishi bois, semantik derivastiya mahsuli sanaladi. Masalan, muayyan san’at asariga «**Poyga**» deb nom qo‘yilgan bo‘lsa, unda tugal fikr ifodasini ko‘ramiz.

Yasama soʻz bilan ifodalangan matnning leksik derivastiya mahsuli ekanligi shubhasizdir. Biroq bu oʻrinda leksik derivastiyaga sintaktik derivastiya vazifasi yuklatiladi. Buning asosiy sababi shundaki, ayni paytda yasama soʻz gap maqomini oladi va shu holatda matn vazifasini bajaradi: «**Paxtazor**», «**Suvchi**» va h.k. Mazkur yasama soʻzlar matn maqomida kelishi uchun maxsus qoʻllanilgan boʻlishi lozim. Boshqacha aytganda, ular, masalan, biror sanʼat asarining nomini taqozo etganda matn vazifasini bajara oladi.

Soʻz birikmasining shakllanishi sintaktik tamoyillarga asoslanishi izoh talab qilmaydi, albatta. Bu esa uning sintaktik derivastiya mahsuli ekanligini koʻrsatadi. Bundan tashqari, gap, murakkab sintaktik qurilmalar ham, yuqorida koʻrib oʻtganimiz singari, sintaktik derivastiya natijasini taqozo etadi.

Ravshanki, ayni paytda biz sanab oʻtgan matnlarning barchasi mikroxarakterlidir. Makromatn jumlasiga esa abzas, bob va yaxlitligicha olingan bobdan katta nutq birliklari kiradi. Ammo mazkur ierarxik bogʻlanishli makromatn turlarining barchasining derivastion xususiyatlarini bir yoʻla tadqiq etish qiyin, albatta. Shuning uchun makromatn sintaktik derivastiyasini abzas misolida oʻrganamiz.

Makromatn maqomida aslida abzasdan katta nutq birliklari ham keladi. Ular jumlasiga bob, paragraf, maqola, hikoya, ocherk, roman, monografiya va turli xil badiiy, ilmiy matnlar kiradi. Bu koʻrinishdagi sintaktik butunliklarning barchasi makromatn sanaladi. Albatta, ular derivastion xususiyatlariga koʻra bir-biridan farqlanadi. Masalan, abzas bilan bobni oladigan boʻlsak, ular oʻrtasidagi farq birinchi galda operandlar xarakteridagi tafovutda koʻrinadi. Abzas derivastiyasining operandlari gap, murakkab sintaktik qurilma, parstellyativ va ilovali qurilmalar materialini taqozo etsa, bobning operandlari vazifasida abzaslar keladi. Bundan tashqari, abzas sintaktik derivastiyasining operatori uning tarkibidagi biror semantik va sintaktik funkstiyasiga koʻra faol soʻz yoki birikma orqali ifodalansa, bobning sintaktik derivastiyasi operatori muayyan soʻz bilan, birikma yoxud gap bilan ifodalanishi ham mumkin. Bunday tafovut makromatnning boshqa turlari oʻrtasida ham kuzatiladi.

Ammo ayni paytda makromatn turlarining sintaktik derivastiyasi voqelanishi doirasida qoʻllanilayotgan baʼzi qoidalarini hali mukammallik darajasiga etgan deb boʻlmaydi. Shu bois ular qatʼiylilik kasb etmasligi ham mumkin. Chunki makromatn turlari aksarining derivastion xususiyatlarini oʻrganish tadqiqotlarimiz kun tartibiga qoʻyilganicha yoʻq. Bugungi kunda biz faqat abzasning makromatn sifatidagi hamda sintaktik derivastiyasi muammosiga taalluqli baʼzi xususiyatlari haqida ilmiy maʼlumotga egamiz, xolos. Biroq mazkur maʼlumotlarimiz ham hali mukammal emas. Boshqacha aytganda, abzasning lingvistik maqomi va derivastion xususiyatlari tadqiqi bobida qilinajak ishlar anchagina koʻrinadi. Bu

masalaning bir tomonini tashkil etsa, uning ikkinchi tomoni abzas derivastiyasi bilan bog'liq muammolarni o'rganish makromatnning boshqa turlarining derivastion xususiyatlarini tadqiq etish uchun muhim ahamiyat kasb etishi bilan uzviy aloqadordir.

Abzas va uning lingvistik maqomi

Mazkur ishning oldingi bobida til va nutq birliklarining pog'onali munosabat tashkil qilishi til sistemasining nutqda qo'llanilishida g'oyat muhim ahamiyat kasb etishi haqida ma'lumot berilgan edi. Bu o'rinda shuni ta'kidlamochimizki, til va nutq birliklarining pog'onali munosabati til sistemasining amalda qo'llanilishi jarayoni bilan bog'liq muayyan qonuniyatni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, til va nutq birliklarini farqlab o'rganishni tadqiqotlarimiz kun tartibiga asosli ravishda kiritishni talab qiladi. Ana shu narsaga tayangan holda, biz qo'shma gapda matn maqomi mavjudligini va shu bois uni **gap** deb emas, balki murakkab sintaktik qurilma tarzida o'rganish lozimligini va ana shundagina gap bilan matn o'rtasida mavjud bo'lgan dastlabki pog'onali munosabat o'zini ko'rsata olishini namoyish etish mumkin.

Abzasni lingvistik adabiyotlarda grafik birlik sifatida talqin etishadi. A.Hojievning «Lingvistik terminlarning izohli lug'ati» da uning quyidagicha tavsifi berilganini ko'ramiz. «nem. absatz < absetzen-ich tomon, orqa tomon surmoq)». 1. Tekstni yangi yo'ldan bir oz o'rin (uch harf o'rni) qoldirib boshlash. Yangi abzasdan yozmoq. 2. Tekstning bir abzasdan keyingi abzasgacha bo'lgan qismi: ikki abzasni tashlab o'qimoq.

Darhaqiqat, abzas matn yozuvining yangi qatordan 3, ba'zan 5 harf o'rnini tashlab boshlanishi demakdir. Bu, o'z navbatida, uning grafik birlik ekanini ko'rsatadi¹.

A. M. Peshkovskiy abzas deganda, qator boshidan yoziluvchi murakkab butunlikni (slojnoe stelo) tushunadi va uning matndagi o'rni ikkinchi murakkab butunlikning boshlanishiga qadar bo'lgan hududda belgilanishini qayd etadi².

Bu o'rinda abzasga A. M. Peshkovskiy tomonidan berilayotgan izoh bilan qo'shilish mumkin. Biroq shuni ham aytish lozimki, abzas faqat murakkab butunlik yoki ularning o'zaro birikuvidan emas, balki nutq muhitining talabiga qarab bir so'z bilan, bir gap bilan ifodalanishi ham mumkin. Bunday vaziyatda u, nima bilan ifodalanayotganidan qat'i nazar, eng muhimi, nisbiy tugallikka ega bo'lgan sintaktik qurilmani taqozo etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

T. I. Silman abzas deganda, muayyan ma'no ifodasiga ega bo'lgan matn parchasini bir yoki bir necha gapdan tashkil topuvchi sintaktik strukturani tushunadi³.

Ko‘rinadiki, T. I. Silmanning abzas haqidagi mulohazalari ham yuqoridagilardan qariyb farqlanmaydi. Ammo ayni paytda olimaning abzasni sintaktik struktura deb atayotgani, bizningcha, muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki abzasning sintaktik yoki stilistik maqomda kelishi masalasi bobida tilshunoslar fikr va mulohazalari mushtarak emas (bu haqda ishimizning keyingi sahifalarida fikr yuritamiz).

I. V. Arnold abzasni muayyan bir qator boshidan ikkinchi qator boshigacha bo‘lgan (ot odnoy krasnoy stroki do drugoy) murakkab sintaktik butunlik maqomida vazifa bajaruvchi yozma nutq parchasi sifatida tushunadi va uni nisbiy tugallangan badiiy matnni tashkil etishini qayd etadi. Uning ta’kidlashiga ko‘ra, abzas ajratuvchi (farqlovchi) pauza bilan xarakterlanadi. Abzaslar o‘rtasida vujudga keluvchi pauza berilayotgan xabarga yakun yasaydi va keyingi abzasga o‘tish uchun zamin yaratadi⁴.

E. A. Referovskaya abzasning lingvistik tabiati haqida so‘z yuritganida, uni gapdan katta birlik (sverxfrazovoe edinstvo) bilan qiyoslaydi. Olima semantik maqomiga ko‘ra abzas va gapdan katta birlik mushtarak hodisalar bo‘lmasa-da, ular o‘rtasida umumiy jihatlar ko‘pligini ta’kidlaydi: ularning har ikkisi ham tugallangan va muayyan mavzuni aks ettiruvchi matn parchasini taqozo etadi; muallifning shakllanayotgan matnga sub’ektiv munosabati umumiy tasavvurini aks ettiradi. Ammo ular o‘rtasida farq ham bo‘lib, bu farqlarni quyidagilarda ko‘rish mumkin: 1) gapdan katta birlik, odatda, muayyan chegaraga ega bo‘ladi. Lekin mazkur chegara ba’zan nutqda ro‘y beradigan zaruratga ko‘ra boshqa bir fikr ifodasi bilan bo‘linib qolishi va keyin yana davom ettirilib, tugatilishi ham mumkin; 2) abzas bo‘lsa har doim ham tugallangan ma’no ifodasini beravermaydi. Bunday hollarda unda boshlangan mavzuga doir ma’no ifodasi yondosh abzaslarda tugallangan holatga keladi. Buning natijasi o‘laroq, har bir mikromavzu gapdan katta birlik ifodasi bilan bog‘liq bo‘lgani bois, mazkur gapdan katta birlik sathida bir yoki bir necha abzas kelishi ham kuzatilishi mumkin⁵.

Bunday mulohaza N. A. Levkovskayaning tadqiqotlarida ham ko‘zga tashlanadi. Olima abzas bilan gapdan katta birlikni farqlab o‘rganish lozimligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, abzas matnning so‘zlovchi pragmatik tasavvuri bilan bog‘liq bo‘lgan sub’ektiv bo‘linishidir. Gapdan katta birlik esa matnning pragmatik holati bilan bevosita bog‘lanadi⁶.

Ko‘rinadiki, tilshunoslik adabiyotlarida abzas bilan gapdan katta birlikning mushtarak hodisalar emasligi, ular o‘rtasida ma’lum darajada farq borligi qayd etiladi. Bu jarayonda asosiy tafovut abzasning har doim qator boshidan yozilishida, gapdan katta birlik esa qator boshidan yozilishi ham, yozilmasligi ham

mumkinligida kuzatiladi. Nazarimizda, abzas ifoda materiali qanday bo'lishidan qat'i nazar, o'z lingvistik maqomiga ega bo'lgan nutq birligidir. Uning hajmi ba'zan minimal holatda, ba'zan esa turlicha ifoda materialiga ega bo'lgan murakkab sintaktik qurilmalarni ham birlashtirgan maksimal holatda bo'lishi ham mumkin.

Yuqoridagilardan tashqari shuni ham aytish kerakki, gapdan katta birlik yoki butunlik (sverxfrazovoe edinstvo) tushunchasi, bizningcha, masala mohiyatini ancha chigallashtiradi. Chunki uning biz murakkab sintaktik qurilma deb nomlayotgan nutq birligidan farqli jihatlari juda kam. Ana shu bois, mazkur qurilmani ham murakkab sintaktik qurilmalar qatoriga kiritish mumkin. Aks holda, gapdan katta bo'lgan sintaktik qurilmalar soni ham ancha ko'payib (period, slojnoe sintaksicheskoe stelo, sverxfrazovoe edinstvo, slojnoe predlojenie) ketadi. Chunki ularning barchasida murakkab sintaktik qurilmaga xos belgilar mavjud. Shu bois ularni birlashtirib, yolg'iz bir termin – *murakkab sintaktik qurilma* termini orqali atash mumkin deb o'ylaymiz. Tilshunoslikda, ayniqsa, rus tilshunosligida matn maqomida kelishi mumkin bo'lgan nutq birliklarining soni sun'iy ravishda orttirilgan ko'rinadi. Chunki period, murakkab sintaktik qurilma, gapdan katta birlik kabilarning barchasi sintaktik shakllarining murakkabligi bilan bir-biriga yaqinlashadi. Bundan tashqari, ularning barchasi ham nutq muhitining taqozosiga ko'ra abzas maqomida kelishi ham mumkin. Gapdan katta birlikning (sverxfrazovoe edinstvo) ba'zi hollarda birdan ortiq abzasni o'z ichiga olishi haqida aytilayotgan fikr va mulohazalarni, bizningcha, ilmiy asosli deyish qiyin.

Ana shulardan kelib chiqib, period, murakkab sintaktik qurilma, gapdan katta sintaktik birlik kabi tushunchalarni izohtalab deb o'ylaymiz. Nazarimizda, mazkur tushunchalarning barchasi nutq lingvistikasi hali ilmiy asoslanmagan davrda shakllanganligini ham e'tiborga olish lozim ko'rinadi. Hozirgi davrda esa nutq lingvistikasi tomonidan nutq birliklarini konkret belgilashga zarurat sezilmoqda.

Shu narsa tabiiyki, nutq lingvistikasining faoliyat ko'rsatuvi uning o'ziga xos mexanizmi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Mazkur mexanizm esa nutq birliklarini taqozo etadi.

Yuqoridagilardan tashqari, abzas lingvistik tabiatini belgilash bilan bevosita bog'liq bo'lgan yana bir voqelik mavjud bo'lib, uni biz abzasning kategorial maqomida ko'ramiz. Ravshanki, hozirgacha abzasni ba'zi tilshunoslar sintaktik hodisa deb atasalar, ba'zilar uni stilistik hodisa deb izohlaydilar. Quyida ana shularga qisqacha to'xtalamiz.

A. M. Peshkovskiy adabiy nutqda (yozma nutq nazarda tutiladi) murakkab sintaktik butunlikdan kengroq hajmli yana bir sintaktik butunlik mavjudligini eslatib o'tadi va bu haqda quyidagilarni qayd etadi: «Afsuski, mazkur birlikni

nomlash uchun biror bir sintaktik termin bo'lmagani uchun uni tipografik «abzas» termini bilan atashga majbur bo'ldik»⁷.

Bu haqda mazkur ishning oldingi sahifalarida ham qisman eslatib o'tilgan edi. Biroq ayni paytda A. M. Peshkovskiyning abzasni sintaktik kategoriya (hodisa) deb atayotganiga e'tibor qaratmoqchimiz. Bunday mulohaza I. V. Arnold tadqiqotlarida ham kuzatiladi. Abzas shakllanishida pauza stilistik nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatgan bo'lsa ham, I. V. Arnold abzasni sintaktik – intonastion birlik deb ataydi⁸.

T. I. Silman ham abzasni sintaktik hodisa tarzida talqin etadi va bunda intonastionning mavqeini ham qayd etadi⁹. Biroq E. A. Referovskaya abzas stilistik hodisa ekanligini alohida uqtiradi¹⁰. Analogik fikr N.A.Turmachevada ham kuzatiladi. Ammo bu o'rinda abzas stilistik-semantik kategoriya maqomida ekanligi aytiladi¹¹.

O'zbek tilshunosligida ham abzasning lingvistik tabiatini o'rganishga bag'ishlangan fikr va mulohazalar o'zbek tilshunosligida ham mavjud. Taniqli o'zbek tilshunosi A. G'ulomov abzasni sintaktik birlik sifatida tushunadi. Olim bu haqda quyidagilarni ta'kidlaydi: «Tekst – yirik nutq parchasi, abzas esa tekstning bo'lagi. Tekstning hamma ko'rinishlari (maksimal tekst va minimal tekst) ma'lum bir temani (mundarijani) tugal ifodalaydi. Demak, u – yuqori darajadagi sintaktik birlik»¹².

M. Yo'ldoshevning fikriga ko'ra, abzas stilistik hodisadir. Bu haqda olim quyidagilarni yozadi: «Faqat abzasni yozma nutqdagi matn birligi sifatida emas, balki yozma matndagi o'ziga xos kompozition-stilistik usul (aynan usul, birlik emas) tarzida tadqiq etish ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi»¹³.

Ko'rinadiki, tilshunoslar tomonidan abzas va uning lingvistik tabiati haqida bildirilgan mulohazalar mushtarak emas. Bu esa abzas strukturasini va uning shakllanishi tamoyillarini yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etadi. Faqat ana shu orqali uning lingvistik maqomi haqida aniqroq to'xtamga kelish mumkin. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, tadqiqotlarimiz natijalariga tayangan holda, uning lingvistik maqomi haqida quyidagilarni qayd etishni lozim topdik:

1. Abzasning sintaktik yoki stilistik kategoriya ekanligi bilan bog'liq masala, bizningcha, muhim emas. Chunki sintaksis bilan stilistikani bir-biridan ayri holda

tasavvur etish qiyin. Bu xususda mulohaza yuritganida, amerikalik tilshunos Richard Oman: «Sintaksis uslubni belgilaydi», -degan edi¹⁴.

Uni sof uslubiy hodisa sifatida o'rganganimizda ham komponentlari o'rtasida sintaktik aloqa mavjudligini inkor etib bo'lmaydi.

2. Abzas sintaktik hodisani taqozo etadi. Buning dalilini birdan ortiq mustaqil gaplarning yoki murakkab sintaktik qurilmalarning o'zaro sintaktik munosabati abzas shakllanishiga olib kelishida bevosita kuzatish mumkin.

3. Abzasni kompozition-stilistik kategoriya tarzida o'rganish mumkin, biroq uni kompozition-stilistik usul deb atash izohtalab ko'rinadi. U nutq birligi ekan¹⁵, bunday xulosaga kelish, bizningcha, qiyin. Bordi-yu, uni kompozition-stilistik usul deb ataganimizda ham, har qanday usulning muayyan ifoda materiali bo'lishini nazarda tutmog'imiz lozim. Bunday materialni biz uning sintaktik birlik ekanligida ko'ramiz.

4. Abzas sintaktik kategoriya sifatida predikativlik va ustpredikativ belgilari bilan alohida ajralib turadi. Biroq ustpredikativlik belgisi abzasning har qanday ko'rinishida emas, balki keng hajmli abzaslarda shakllanadi. Bunda uning komponentlarining har biri alohida predikativlik ifodalab, avval polipredikativlik hodisasini shakllantiradi, keyin esa ana shu polipredikativlik asosida ustpredikativlik vujudga keladi. Ifoda materiali so'z, so'z birikmasi va mustaqil gap bo'lgan abzaslarda esa ustpredikativlik hodisasi shakllanmaydi.

Abzas – ustpredikativ hodisa

Predikativlik hodisasi nutqning barcha birliklarida kuzatiladi, shu jumladan, abzas ham voqelikka bevosita munosabat bildirishi bois predikativlik belgisiga egadir. Albatta, garchi biz abzasni makromatn sifatida talqin etayotgan bo'lsak-da, buni nisbiy tushunmoq kerak. Chunki bob, paragraf, maqola, ocherk, hikoya va hokazo kabi undan katta makromatnlar ham bor. Mazkur matn turlarining barchasi voqelikka munosabat bildiradi va predikativlik ifodalaydi. Bu xususda mulohaza bildirganida I.R.Galperin quyidagilarni qayd etadi: «Matn o'z tarkibiga kiruvchi komponentlarida ifodalanuvchi predikativlikdan tashqari o'ziga xos predikativlik belgisiga ham egadir»¹⁶.

Albatta, matn deganda ayni paytda makromatn nazarda tutilmoqda. Makromatn tarkibida keluvchi ifoda materiali gap, murakkab sintaktik qurilma, parstelliyativ yoki ilovali qurilmalarning har biri predikativlik belgisiga ega ekanligi izoh talab qilmaydi. Ammo shuni ham aytish kerakki, ularning bu jihatdan farqlanuvchi jihatlari ham mavjud. Masalan, matn komponenti bo'lgan gap alohida

olinganda ham o'zicha voqelikka munosabat bildiradi va bunda uning modallik belgisi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, gapning bosh bo'laklari uning voqelikka munosabat bildirishida katta nufuzga egadir. Fikr isboti uchun konkret matnga murojaat etaylik:

O'rmon ichidagi keng erto'la juda yorug' edi. Quyruq qorong'ilikdan kirgan Bektemirning ko'zlari qamashib, yoshlanib ketdi. Odamlar, narsalar asta-sekin gavgdalandi. Yaradorlar ko'p. Aksari engil. Bir nechasi ingrar, ikki-uchtasi og'ir va haroratning zo'ridan alahsirar. Oppoq kiyimda doktorlar va hamshiralar juda tez va jiddiy ishlardilar (Oybek. Quyosh qoraymas).

Berilgan abzas sathida ettita mustaqil gap qatnashib, ularning har biri o'ziga xos yo'sinda predikativlik ifodalamoqda. Ularning barchasini alohida tahlil qilishga, biznigcha, ehtiyoj yo'q. Shu bois faqat birinchi gap orqali ifodalanayotgan predikativlikning ba'zi jihatlariga e'tibor qaratamiz.

Bu o'rinda predikativlik hodisasining vujudga kelishiga birinchi galda gapning voqelikka munosabat bildirayotgani sabab bo'lmoqda. Bu juda muhimdir. Chunki gap orqali berilayotgan xabarning markazida bo'lgan *erto'laning kengligi, juda yorug'ligi* bu jarayonda, ya'ni voqelikka munosabat bildirishda modallik alomatlarini shakllantirmoqda. Modallik esa, o'z navbatida, predikativlik hodisasining ajralmas tarkibiy qismini taqozo etadi. Bundan tashqari, gapning bosh bo'laklari o'rtasidagi sintaktik munosabat ham gapning voqelikka munosabat bildirishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida xizmat qilmoqda.

Keltirilgan abzas tarkibidagi barcha gaplarda ham shu singari holat u yoki bu tarzda shakllanganini ko'ramiz. Boshqacha aytganda, ayni paytda matn tarkibida har biri alohida vujudga kelgan predikativlik hodisalari polipredikativlik hodisasini shakllantiradi va shundan so'ng, ularning o'zaro munosabatidan ustpredikativlik hodisasi vujudga keladi. Buning natijasida esa umumiy predikativlik hodisasi doirasida pog'onali munosabat voqelanadi.

Shuni ham aytish kerakki, abzas sathida agar mustaqil gaplardan tashqari murakkab sintaktik qurilmalar ham mavjud bo'lsa, u holda polipredikativlik hodisasi doirasida ham pog'onali munosabat shakllanadi:

Komila yig'lab yubordi. Matniyoz yugurib kelib uni darvoza tomonga boshladi. Azimjon Ochil buvani tinchitishga urinar, Sattor bo'lsa bir og'iz gap aytolmay og'zini ochgancha bir chetda turar edi. Ichkaridan To'lqinning o'ksib yig'lagani eshitildi (A. Muxtor. Chinor).

Mazkur gapda polipredikativlik hodisasi uchta mustaqil gap va bitta murakkab sintaktik qurilma ishtirokida voqelanmoqda. Biroq ayni paytda polipredikativlik hodisasining pog'onali ekanligini kuzatamiz. Chunki umumiy polipredikativlikdan tashqari murakkab sintaktik qurilma sathida ham polipredikativlik hodisasi shakllanmoqda, zotan, u har biri o'zining predikativ

markaziga ega bo'lgan ikki mustaqil gapdan tashkil topmoqda. Bu esa ayni paytda ustpredikativlik hodisasining vujudga kelishi spiral tarzda bog'lanayotgan bir necha omil bilan aloqador ekanligidan dalolat beradi.

Albatta, matnning ustpredikativ xarakterini bir-ikki jumla orqali to'liq yoritib berish qiyin. Bizningcha, mazkur hodisani mukammal o'rganish uchun maxsus monografik tadqiqotga ehtiyoj tug'iladi.

Abzas derivastiyasi

Shuni ta'kidlash kerakki, tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davriga qadar derivatologiya muammolari bobida ulkan tadqiqot ishlari bajarildi. Shu jumladan, sintaktik derivastiya masalalari tadqiqi bo'yicha ham, xususan, so'z birikmalari, sodda gap, qo'shma gaplar derivastion xususiyatlarini o'rganish bo'yicha monografik tadqiqotlar vujudga keldi. Bunday ishlar boshqa tillar materiali asosida bo'lganidek, o'zbek tili materiali asosida ham amalga oshirildi. Biroq matn derivastiyasi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar hali juda kam. Bunday vaziyatni nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki jahon tilshunosligida ham kuzatamiz. Nazarimizda, shunday bo'lishi tabiiydir, chunki nutq lingvistikasi tilshunosligimizning alohida bir yo'nalishi sifatida endigina ilmiy asoslanmoqda.

Albatta, matn derivastiyasi masalasi nutq lingvistikasining ilmiy asoslanishi bilan uzviy bog'liqdir, zotan, matn keng ma'noda nutq birligi sanaladi. Ammo matn nihoyatda kengqamrovli tushuncha bo'lgani uchun uning derivastion xususiyatlarini yaxlit olingan makromatn (masalan, hikoya, roman, monografiya va h. k.) materiali asosida talqin etish ancha qiyin. Shu bois matn va uning derivastion xususiyatlarini muayyan mikromatn yoki abzas, bob singari makromatnning biror turi materiali asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek tilshunosligida mikromatnning muayyan bir turi–teng komponentli murakkab sintaktik qurilmaning derivastiyasiga bag'ishlangan monografik tadqiqot mavjud ¹⁷. Tobe komponentli murakkab sintaktik qurilmalar derivastion xususiyatlari, shuningdek, abzas derivastiyasining ba'zi muammolari ham qisman o'rganilgan ¹⁸. Biroq mazkur masalalarning mukammal derivastion talqini hali izohtalabdir. Nazarimizda, tobe komponentli murakkab sintaktik qurilmalar hamda abzas derivastiyasining har biri atroflicha o'rganiladigan bo'lsa, ular yirik monografik tadqiqotlarning mavzusi bo'lishi mumkin. Bu o'rinda esa biz abzas derivastiyasi va u bilan bog'liq muammolar hamda ularning tadqiqi jarayonida nimalarga asosiy e'tibor qaratilishi lozimligi haqida qisqacha to'xtalamiz.

Eng avval shuni qayd etish lozimki, abzas maqomidagi matn sintaktik derivastiyasi operandlari o'z xarakteriga ko'ra yuqorida biz ko'rib o'tgan gap va

murakkab sintaktik qurilmalar derivastiyasi operandlaridan farq qiladi. Ravshanki, gapning sintaktik derivastiyasi operandlari soʻz qolipida, murakkab sintaktik qurilmalar derivastiyasi operandlari esa gap qolipida keladi. Ammo abzas derivastiyasi operandlari mustaqil gap, murakkab sintaktik qurilma, ilovali qurilma va h.k. kabi nutq birliklari qolipida kelishi bilan alohida ajralib turadi:

Oʻshanda ertasiga u dadasining oʻrtogʻiga konni koʻrsatadigan boʻldi. Quyoshli kun ertasi juda chiroyli edi. Yoʻl boʻyidagi qayragʻochlarning shapaloqdek-shapaloqdek qizgʻish barglari oyoq ostida shitirlaydi, koʻlmak suvlar jimirlaydi. Togʻ shabadasi Shodasoyning sovuq shovqinini daralarga taratmoqda, uzoqda qorli choʻqqilar quyoshga oʻchakishgandek yilt-yilt charaqlaydi, kungay yon bagʻirlarda saf tortgan archalar qorayib koʻrinadi (A.Muxtor. Chinor).

Keltirilgan abzas derivastiyasi operandlari jumlasiga ikkita gap va ikkita murakkab sintaktik qurilma kirganligini koʻramiz. Bu oʻrinda shu narsa xarakterliki, abzas sintaktik derivastiyasining operandi vazifasida kelayotgan murakkab sintaktik qurilmalarning har ikkisi ham, mustaqil qoʻllanilganda yoki matn tarkibida kelishidan qatʼi nazar, mikromatn maqomini tark etmaydi. Bu esa abzas derivastiyasining operandi mikromatn ekanligidan dalolat beradi. Boshqacha aytganda, ayni paytda nutq birliklarining pogʻonali munosabati shakllanganligini kuzatamiz. Buni quyidagicha tasavvur etish mumkin¹⁹: *gap bilan murakkab sintaktik qurilma oʻrtasidagi pogʻonali munosabat* → *gap bilan abzas oʻrtasidagi pogʻonali munosabat* → *murakkab sintaktik qurilma bilan abzas oʻrtasidagi pogʻonali munosabat*.

Koʻrinadiki, abzas sintaktik derivastiyasi operandlari oʻrtasidagi oʻzaro munosabat ancha murakkab boʻlib, birinchi navbatda pogʻonalikka asoslanadi.

Abzas sintaktik derivastiyasining operandi vazifasida ilovali qurilmalar kelganida, ular oʻzlari ilovasi boʻlib qoʻllanayotgan etakchi gap bilan va shundan soʻng abzasning umumiy strukturasi bilan pogʻonalilik orqali sintaktik munosabatga kirishadi:

Yallachi xonimlarning muzika va qoʻshiqlari yoqimli va muloyim edi. Mehmonlar undan-bundan turli modalardan, oldi-qochdi gʻiybatlardan boshlab, to islom libosiga qadar gapni uladilar. Ammo odob, nazokat bilan oʻtirishlariga qaraganda gʻiybat va fitnani payqash qiyin edi (Oybek. Nur qidirib).

Berilgan abzasning oxirgi komponenti ilova qurilma boʻlib, u oʻzidan oldin kelayotgan etakchi gap bilan sintaktik munosabatga kirishgandan keyin abzas bilan pogʻonali munosabat tashkil eta oladi. Bu ham, albatta, abzas derivastiyasi operandlarining oʻziga xos jihatlaridan birini taqozo etadi.

Abzasning oʻzi ham yaxlitligicha ilova maqomida boʻlishi mumkin. Bunday vaziyatda abzas biror bogʻlovchi, kirish soʻz va shu kabilar bilan boshlanadi:

Mana, masjiddan, «xufton» namozidan ota ham qaytdi. Abdulvohid uzun bo'yli, novdaday ingichka, harakatlari muloyim, mosh-guruch soqoli echnikiday ko'rimsizgina, qirq sakkiz yashar kishi edi. U o'zining eski, tor ochkanini²⁰ kiyganda belining ingichkaligi ayniqsa ko'zga tashlanar edi.

Lekin Abdulvohid o'z qarashlarining sodiq quli va mutaassib musulmonlardan edi. U bir vaqtlar madrasada ko'p yil o'qib, lekin oz ma'lumot kasb etgan va hiyotning turli tarmoqlarida turli ishlar bilan shug'ullanib, birontasidan durustgina naf ko'rmagan edi (Oybek. Nur qidirib).

Ko'rinadiki, ikkinchi abzas birinchi abzasning to'liq ilovasi vazifasini bajarmoqda va uning sintaktik derivastiyasi ham shu maqomda voqelanmoqda. Uning derivastiyasi operandlari munosabatida esa yuqorida ko'rib o'tilgan abzaslardagi operandlar munosabatidan sezilarli farq kuzatilmaydi.

Ma'lumki, gapning sintaktik derivastiyasi muayyan tub strukturaga asoslangan tayanch struktura tushunchasi bilan bog'lanadi. Chunki tayanch strukturaga operator qo'shilishi jarayonida hosila (derivat) struktura shakllanadi. Murakkab sintaktik qurilmalar esa doimiy ravishda hosila strukturani taqozo etadi va mazkur maqom ularga operator (real qo'llanilgan yoki nol ifodali bo'lishidan qat'i nazar) vositasida berilganligi ko'rinib turadi. Biroq abzas derivastiyasi jarayoni boshqacha tamoyillarga asoslanadi. Bu haqda bizning fikrimiz quyidagicha: «...hosila struktura matnni, xususan, makromatnni tashkil etadigan bo'lsa, tayanch struktura va uning belgilanishi masalasi gap derivastiyasining dastlabki bosqichiga asos bo'luvchi tayanch strukturaning belgilanishidan keskin farq qiladi. Buning asosiy boisi quyidagilarda kuzatiladi: 1. Gapning sintaktik derivastiyasi asoslanadigan tayanch struktura tub struktura zahirida, uning bo'sh o'rinlarini to'ldirish jarayonida vujudga keladi. 2. Matn derivastiyasi asoslanuvchi tayanch struktura vazifasida matn komponentlaridan biri faollik ko'rsatadi. Bunda tub struktura masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmaydi. Chunki makromatnning har qanday ko'rinishi ham tayyor holdagi hosila qurilma demakdir»²¹.

Ayni paytda shuni ham aytish kerakki, leksik derivastiyada ham, sintaktik derivastiyada ham derivastion jarayon ro'y berganda derivastiya operandlari tarkibiga operatorning tashqaridan olib kirilishi qonuniyat maqomidadir. Masalan, so'z yasovchi, so'z birikmasi komponentlarini bog'lovchi omillar, gapning sintaktik strukturasi kengayishi, murakkab sintaktik qurilmalar komponentlarining o'zaro munosabatga kirishuvi uchun xizmat qiluvchi morfologik vositalar, hatto semantik distributiv muhit ham derivastiya operatori vazifasini bajaradi va ularning barchasi derivastion jarayonning shakllanishini ta'milovchi operandlar tarkibiga tashqaridan kiritiladi. So'z, so'z birikmasi,

murakkab sintaktik qurilmalar mikromatn maqomida kelganida ham ana shu qonuniyat to'liq amal qiladi. Ammo makromatn, jumladan, abzas sintaktik derivastiyasi boshqacha tamoyillarga bo'ysunishini ko'ramiz. Bunda operator derivastion jarayonga tashqaridan olib kirilishi kuzatilmaydi, chunki abzasni biz mudom tayyor holdagi hosila struktura tarzida o'rganamiz. Biroq shuni ham aytish kerakki, mazkur mulohazalarimiz makrostrukturali abzas derivastiyasiga taalluqlidir. Mikrostrukturali abzas derivastiyasi jarayonida esa abzasning ifoda materiali bilan bog'liq holda, operator tanlanishi imkoniyati bo'ladi. Masalan, so'z, so'z birikmasi, gap va murakkab sintaktik qurilmalarning har biri abzas maqomida kelganida o'z derivastion tamoyillariga to'liq amal qiladi. Bu esa, o'z navbatida, makro-va mikromatn sintaktik derivastiyalari tamoyillari mushtarak emasligini ko'rsatadi.

Abzasni makromatn tarzida o'rganishimizda ham uning sintaktik derivastiyasi asoslanuvchi ma'lum bir tayanch struktura bo'ladi. Biroq bunday strukturani abzas operandlari tarkibida belgilashimizga to'g'ri keladi:

Iskandaroning rangi uchib ketdi, qo'rqinch to'la ko'zlari bilan eshikka qarab-qarab qo'ydi. Yurakda o'qtin-o'qtin ishq va sog'inchi to'liqini sezganday bo'lar va qiz har gal xursand o'z uyidan chiqarkan, go'yo qamoqxonadan qochgan mahbusday, jon hovuchlab yugurar, Ahmad Husaynni ko'rishi bilanoq har gal qo'rquv va tahlikani unutsa-da, yuragining bir chekkasi hamisha g'ash bo'lar, sevgining eng go'zal baxtiyor daqiqalarini to'satdan uzib ketishga oshiqar edi, Ahmad Husayn ham undan hech vaqt ranjimas edi (Oybek. Nur qidirib).

Mazkur abzas sintaktik derivastiyasining tayanch strukturasi uning birinchi operandining birinchi qismi (*Iskandaroning rangi uchib ketdi*) sanaladi. Zotan, abzas strukturasi sintaktik shakllanishi uchun ana shu minimal struktura tayanch vazifani bajarmoqda. Ayni paytda, albatta, birinchi abzasning birinchi operandi murakkab sintaktik qurilma maqomidadir. Biroq sintaktik derivastiyaning, ayniqsa, uning birinchi bosqichining tayanch strukturasi imkon qadar sodda shaklli bo'lishi lozimligi bois, murakkab sintaktik qurilmani yaxlitligicha abzas derivastiyasining tayanch strukturasi tarzida belgilab bo'lmaydi.

Abzas derivastiyasining tayanch strukturasi tarzida belgilanadigan sintaktik struktura o'z mazmuniy salmog'iga ko'ra abzas komponentlarining barchasiga daxldor bo'lmog'i lozim. Ana shu jihati bilan mazkur struktura abzas komponentlarining barchasi sintaktik shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shu narsa xarakterliki, abzas derivastiyasining tayanch strukturasi vazifasida aksariyat hollarda uning birinchi komponenti keladi:

Qish edi. Derazadan televizion antennalarning izg'irinda hushtak chalgani eshitildi. Onasi ham gapning dilsiyohlikka aylanishidan qo'rqib jim bo'ldi.

Allamahalgacha izg'irinning sovuq hushtagidan boshqa ovoz eshitilmadi (A. Muxtor. Chinor).

Bu o'rinda ham abzas derivastiyasining tayanch strukturasi (Qish edi) uning birinchi komponentidir. Shu bois mazkur minimal shaklli operandning mazmuni salmog'i abzasning barcha komponentlarida qaysidir ma'noda o'z aksini topmoqda.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda shuni ham aytish kerakki, abzas sintaktik derivastiyasining tayanch strukturasi har doim ham uning birinchi operandi orqali belgilanavermaydi. Ayrim abzaslar derivastiyalarida komponentlarining semantik salmog'i bilan bog'liq holda, boshqa bir operand tayanch struktura maqomida kelishi ham mumkin:

Qiyom vaqti. Og'ilda sigir ma'raydi. Uni podaga yubormaydilar: bir ko'zi ko'r bo'lganidanmi podadan qaytishda shoxi bilan konkaning oynasini sindirib qo'ygan. Bobom qattiq xafa bo'lib, bir so'mmi, yarim so'mmi jarima to'lagan (Oybek. Bolalik).

Keltirilgan abzas sintaktik derivastiyasining tayanch strukturasi uning ikkinchi operandidir. Chunki keyingi operandlarning barchasi ana shu ikkinchi operandning ma'no salmog'i bilan uzviy bog'liqdir. Boshqacha aytganda, ularning sintaktik shakllanishi mazkur operandning ma'no salmog'iga tayanmoqda.

Ko'rinadiki, abzas derivastiyasining tayanch strukturasi belgilash o'ziga xosligi bilan mikromatn turlari sintaktik derivastiyasining tayanch strukturasi aniqlashdan tubdan farq qiladi. Chunonchi, mikromatn sintaktik derivastiyasi tayanch strukturasi dastlabki bosqichi aksariyat hollarda tub strukturaning bo'sh o'rinlarini to'ldirish orqali shakllanib, dinamik xarakter olsa, makromatn derivastiyasining tayanch strukturasi matnning boshqa komponentlari bilan munosabatga kirishuvi jarayonida analogik maqomga erishadi.

Ravshanki, derivastiyaning har qanday turi ham operatorsiz ro'y bermaydi. Demak, matn derivastiyasi, jumladan, abzas derivastiyasi ham muayyan operator vositasida voqelanadi. Biroq, bu o'rinda operator tanlash imkoniyati bo'lmaydi. Chunki abzas derivastiyasi tamoyillarini, odatda, og'zaki nutq materiali asosida emas, balki tayyor holdagi yozma nutq materiali asosida o'rganamiz. Bunday vaziyatda, albatta, operator tanlash haqida so'z yuritish qiyin.

Albatta, operator derivastiyaning har qanday turini ham shakllantiruvchi eng faol vosita sanaladi. Uning mazkur faolligi abzas derivastiyasida ham to'liq namoyon bo'ladi:

Opam Karomat - hali paranjisiz yosh qiz - maktabdan qaytdi. Men uning mahallamizdagi maktabini – otin bibining uyini yaxshi bilaman. Bir kun opamga ergashib borganman. Ayvonda ancha qizlar – katta-kichik aralash qator tizilib o'tirib, chuvvos bilan kitoblar o'qishadi (Oybek. Bolalik).

Mazkur abzas derivastiyasining operatori **opam** soʻzi ekanligi izoh talab qilmaydi. Zotan, bu soʻzni yoki uning oʻrnida kelgan sinonimik vositalarni abzas operandlarining har birida kuzatamiz. Ana shu bois u derivastiya operatori darajasiga koʻtarila olgan. Biroq har qanday derivat operatori yagona boʻladi. Hatto ikki yoki undan ortiq tarkibli boʻlgan dublooperator ham yaxlitligicha bir operator vazifasini bajaradi. Masala tavsifiga ana shu nuqtai nazardan yondashadigan boʻlsak, berilgan abzas derivastiyasida ham faqat dastlab qoʻllanilgan **opam** soʻzi derivastiya operatori vazifasini bajarmoqda, keyingi operandlarda qoʻllanilgan uning sinonimik ifodalari yoki oʻzining takroriy qoʻllanishi operator boʻla olmaydi. Chunki ular operatorning keyingi operandlar tarkibidagi aksini taqozo etadi:

Yazdiy Shohruh Mirzoning ilk uylanish toʻyi Samarqandning Bogʻi Behishtida boʻlganini birgina jumlada aytib oʻtibdi. Shu birgina jumla Gavharshodbeginning koʻzi oldida chindan ham jannatga oʻxshaydigan Bogʻi Behishtni gavalantiradi. Navroʻz kunlarida shu bogʻda boshiga oq harir roʻmol yopib, Sohibqiron qaynotasiga kelinsalom qilganlarini begim hayajon bilan eslaydi (P. Qodirov. Ona lochin vidosi).

Berilgan abzas sintaktik derivastiyasining operatori **Bogʻi Behisht** birikmasidir. Uning vositasida abzas komponentlarining (operandlarining) barchasi derivastion faollik olmoqda va operastiya natijasini taqozo etuvchi derivatning semantik hamda sintaktik salohiyati ham ana shu vosita yordamida taʼminlanmoqda.

Operator tushunchasi, albatta, derivastion nuqtai nazardan ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, derivastiyaning har qanday turi ham uning ishtirokisiz voqelanmaydi. Bu oʻrinda shuni ham aytish lozimki, masala tavsifiga kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashiladigan boʻlsa, operator vazifasida kelayotgan soʻz yoki birikmaning *freym* tushunchasi bilan mazmuniy mushtarakligini koʻramiz.

Freym tushunchasi rus tilshunosligida, asosan, M. Minskiyning tadqiqot ishlariga asoslanganligini kuzatamiz. Olim freym deganda inson xotirasida saqlanadigan muayyan maʼno ifodasi bilan bogʻliq boʻlgan strukturalarni tushunadi ²². M. Minskiy *freym* tushunchasi ierarxik xarakterli boʻlishi mumkinligini ham alohida qayd etadi va fikr isboti uchun quyidagi misollarga murojaat etadi: *hayvon, toʻrt oyoqli katta hayvon, oʻrtacha kattalikdagi hayvon, it, kolli, Lessi* va h. k. ²³.

Darhaqiqat, tilimiz sistemasida mavjud boʻlgan barcha tushuncha ifodalovchi vositalar oʻz turi va jinsiga koʻra turlichadir. Mazkur turlarning har

biriga mansub tushuncha doirasida pogʻonalilik hodisasi ham mavjudligini koʻramiz. Masalan, duradgorlar qoʻllaydigan asboblarni yoki oʻquv predmeti tushunchasini olaylik. Ularning har biri yana kichik predmetlarning nomi boʻlgan tushunchalarga boʻlinadi. Bu esa, oʻz navbatida, freym tushunchasining pogʻonali (ierarxik) xarakteridan dalolat beradi. Shu bois V. B. Kasevich til sistemasining oʻzi freymlar sistemasidan iboratligini taʼkidlaganida haqlidir²⁴. Darhaqiqat, tilimiz sistemi belgilar majmuasidan iborat ekan, unda har bir belgi oʻziga xos maʼno ifodasiga ega ekanligi buning dalili boʻla oladi. Belgi, shubhasiz, ifodalovchi jihatidan tashqari, maʼno ifodasi bilan bogʻliq ifodalanuvchi jihatiga ham egadir. Biroq ularning derivastion jarayonda qay tarzda qoʻllanishi soʻzlovchining nutqiy salohiyati bilan ham uzviy bogʻliq boʻladi. Zotan, baʼzilar soʻzlashuv jarayonida umumiy maʼno ifodasini beruvchi freymlardan koʻproq foydalansa, ayrimlar mazkur umumiy freymni segmentlarga boʻlib qoʻllashni afzal biladilar. Buning, albatta, abzas yoki, umuman, matn derivastiyasi uchun ham taʼsiri sezilarli boʻladi. Xususan, derivastiya operatori vazifasidagi soʻzni belgilash masalasi ana shu jarayon bilan bevosita bogʻliq holda amalga oshiriladi:

Navroʻz arafasi ekan, mevali daraxtlar qiygʻos gullagan. Amir Temurning oʻttiz ming kishilik qoʻshini mevazorlarni toptamaslik uchun bogʻ koʻchalarda boʻlinib-boʻlinib yoʻl bosmoqda ekan (P. Qodirov. Ona lochin vidosi).

Keltirilgan abzas sintaktik derivastiyasining operatori **mevali daraxtlar** freymi orqali ifodalanib, u ayni paytda umumiy maʼno ifodasini bermiqda. Biroq bu oʻrinda abzas derivastiyasi mazkur umumiy maʼnoli freym oʻrnida **...olma, gilos, shaftoli qiygʻos gullagan** tarzidagi **subfreymlar** qoʻllanilishi ham mumkin edi. Bunday vaziyatda derivastiya operatori tarkibli (dublooperator) boʻlgan boʻlardi.

Badiiy adabiyotda abzas sintaktik derivastiyasi voqelanishida subfreymlar qoʻllanishi ham koʻp kuzatiladi:

Lekin qazo yaqinligini sezgan boshqa maslahatgoʻylar ham Amir Temur atrofida parvonaday aylanishmoqda edi. Ayniqsa, devonbegi Xoʻja Ahmad Tusiy, hakimi hoziq Fazlulloh Tabriziy, vazir Masʼud Siymoniylar Sohibqiron olamdan oʻtgandan soʻng Xalil Sultonni taxtga chiqarish tarafdori edilar (P. Qodirov. Ona lochin vidosi).

Ayni paytda abzas sintaktik derivastiyasi operatorini umumiy maʼno ifodasini anglatayotgan *maslahatgoʻylar* freymi orqali belgilaymiz. Ammo bundan tashqari, abzas sintaktik strukturasi bilan bogʻliq subfreymlar ham mavjudligini koʻramiz: *Xoʻja Ahmad Tusiy, Fayzulloh Tabriziy* va h. k.

Biroq abzas sintaktik derivastiyasi operatori vazifasida bunday vaziyatda, yaʼni umumiy maʼno anglatuvchi freym va subfreymarning barchasi mavjud

bo'lganda, subfreymlar emas, balki asosiy sanaluvchi umumiy ma'no anglatadigan freym keladi. Subfreymlarni esa ularga zarurat sezilgandagina ajratib ko'rsata olamiz.

Abzas makromatnni taqozo etgani bois, bu o'rinda kognitiv ma'no anglatuvchi *freym* tushunchasidan foydalanmoqdamiz. Chunki matnning har qanday turi ham, ayniqsa, makromatn bog'lanishli nutq mahsuli sanaladi. Bog'lanishlilik esa, o'z navbatida, birinchi galda semantik nuqtai nazardan ahamiyat kasb etadi, zotan, matn komponentlarining har biri ikkinchisi bilan qaysidir ma'noda mazmunij jihatdan bog'langan bo'ladi. Hatto komponentlari radial munosabatda kelganda ham, matnning umumiy semantik salmog'i uning har bir komponenti bilan ichki bog'lanishli bo'ladi. Shuning uchun freym tushunchasi matnning sintaktik derivastiyasi mutlaq hokim unsuri – operator darajasiga ko'tariladi.

Amsterdam universiteti professori T. A. van Deyk freym haqida mulohaza bildirganida quyidagilarni ta'kidlaydi: «Freymlar bilishning erkin tarzda ajratib ko'rsatiladigan shunchaki parchalarini taqozo etmaydi. Ular muayyan konsept doirasida shakllangan birliklarni tashkil etadi. ...Bundan tashqari, freymlar ozmi-ko'pmi konvenstional (an'anaga ko'ra hukm surayotgan vaziyatga mos) tabiatlidir. Shu bois ular muayyan jamiyatda xarakterli yoki tipik bo'lgan voqea-hodisalar ifodasi uchun qo'llaniladi»²⁵.

T. A. van Deykning mazkur mulohazalariga to'liq qo'shilish mumkin, zotan, insonning bilimi doirasida nafaqat o'zi yashayotgan, balki undan oldin sodir bo'lib o'tgan tarixiy voqea-hodisalar haqidagi bilimlar ham mavjud ekanligi izoh talab qilmaydi. So'zlovchi esa o'z bilish qobiliyati orqali ularning barchasiga munosabat bildiradi. V. B. Kasevich ta'biri bilan aytganda, freymlar munosabatlar to'rini tashkil etadi²⁶.

Sh. Safarov freym tushunchasi haqida quyidagi mulohazalarni bildiradi: «Har bir inson xotirasidagi ma'lum miqdordagi bilimlar strukturasi zaxirasi saqlanadi va aynan shu zaxira axborotni qabul qilib idrok etish vositasi rolini o'ynaydi. Boshqacha aytganda, har bir shaxs ongida «freymlar to'ri to'plami» mavjudkim, ushbu to'plam bilim va idrok faoliyatini ma'lum ko'rinishdagi «andoza»lar asosida amalga oshishini ta'minlaydi»²⁷.

Darhaqiqat, so'zlovchining ongida bo'lgan freymlar to'ri nutqiy jarayonda uning shakllanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu bilan jonli matn derivastiyasi bevosita bog'liqdir. Aynan ana shu jarayonda freymlar yoki ularning muayyan komponentlari – subfreymlar derivastiya operatori vazifasini bajaradi. Bu

juda muhimdir, zero, makromatn sintaktik derivastiyasining xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, uning operandlari tarkibida operator tayyor holda mavjud bo‘ladi. Ammo buni nisbiy tushunmoq lozim. Aslini olganda, har qanday matn, shu jumladan, abzas ham so‘zlovchining sub’ektiv maqsadi ifodasini berish, boshqacha aytganda, muayyan xabarni nutqiy voqelantirish uchun derivastion holat kasb etadi. Masala tavsifiga shu nuqtai nazardan yondashadigan bo‘lsak, u holda matnni ham tayyor holdagi nutq material deb bo‘lmaydi. U nutq material sanalar ekan, bunda uning nutqiy jarayonda shakllanishi va dinamik xarakter kasb etishi e’tibor markazida bo‘ladi. Matn derivastiyasining operatori derivastion jarayonga tashqaridan olib kiritilmasligi, uni matn sathida belgilash lozimligi haqida yuqorida aytilgan fikr va mulohazalar muayyan ob’ektning yozma shakli bilan bog‘liqdir. Shuning uchun abzas derivastiyasining operatori xususida bildirilgan mulohazalarimizni nisbiy tushunmoq lozim.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda yana shuni ham ta’kidlash kerakki, abzas strukturasi derivastion nuqtai nazardan derivatni taqozo etadi. Demak, u hosila strukturadir. Derivat, albatta, operandlar majmuasidan tashkil topadi. Operandlar munosabati esa, o‘z navbatida, ko‘p jihatdan operator hamda tayanch struktura bilan bog‘liq bo‘ladi.

Shuni ham aytish kerakki, abzas sintaktik derivastiyasi tamoyillarini o‘rganishda biz semantik yoxud kognitiv – pragmatik nazariyaning freym tushunchasiga ham murojaat etdik. Biroq bu bilan semantik va formal sintaktik nazariyalar kategoriyalarini qorishtirib yubormoqchi emasmiz. Bunda faqat abzas derivastiyasining operatori eng avval matn sathidagi mazmuniy salmog‘iga va shu orqali sintaktik faollik ko‘rsatishiga qarab belgilanishi nazarda tutildi. Umuman olganda, matn shakllanishi muammolarini sof semantik–kognitiv tilshunoslik nazariyasi doirasida o‘rganish maxsus monografik tadqiqotning mavzusi bo‘lishi mumkin. Bu jarayonda, albatta, umumiy sub’ekt (ego) va umumiy predikat, propozistiya, presuppozistiya, argument va hokazo kategoriyalar talqini ustivor ahamiyat kasb etadi.

MAVZU BO‘YICHA SAVOLLAR

1. Matnning turlarini izohlab bera olasizmi?
2. Miro mant deganda nimani tushunasiz?
3. Makromatnga nimalar mansub?
4. Freym deganda nimani tushunasiz?
5. Abzats derivatsiyasini izohlab bering.
6. Predikativlik va ustpredikativlik belgilar qanday farqlanadi?

Mavzu : SOTSIOLINGVISTIKA. GENETIK TIPOLOGIYA.

Til bilan jamiyat uzviy aloqadadir, zotan, til jamiyatda yashaydi va jamiyat ham, o'z navbatida, tilning ishtirokisiz rivojlana olmaydi. Agar til jamiyat bilan hamohang taraqqiy etmas ekan, u o'lik tilga aylanadi, faqat ilmiy jihatdan o'rganishgagina yaroqli bo'lib qoladi.

Til tabiiy hodisa bo'lmagani uchun, uning o'rnini ijtimoiy hodisalar doirasida belgilanadi. Biroq bu o'rinda uning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan aloqasi qandayligini tushunib yetmog'imiz kerak. Ayni paytda quyidagi savol ko'ndalang turadi: Tilning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan umumiyligi va farqlari nimalardan iborat?

Tilning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan umumiyligini jamiyatning tilsiz taraqqiy eta olmasligida ko'ramiz, zotan, u jamiyat uchun ma'naviyat va madaniyat kaliti sanaladi.

Til o'zining tarixiy taraqqiyoti qonuniyatlari hamda vazifasiga ko'ra boshqa ijtimoiy hodisalardan tubdan farqlanadi. Bunga uni jamiyatning huquqiy, diniy, siyosiy qarashlari bilan qiyoslaganimizda to'liq ishonch hosil qilamiz.

Darhaqiqat, jamiyat a'zolarining siyosiy, diniy yoki huquqiy qarashlari jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy bosqichi (feodalizm, kapitalizm) bilan, uning talablari bilan mushtarak holda yashaydi, til esa bunday xususiyatga ega emas. U har doim, jamiyat a'zolarining siyosiy, diniy hamda huquqiy qarashlaridan qat'iy nazar, ularning barchasiga bir xilda xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, til bazisning ustqurmasi emasligidan dalolat beradi, zero, u ming yillar davomida yashab kelayotgan hodisadir. Shuning uchun ham u jamiyat a'zolarining barchasiga tushunarli bo'ladi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda shuni ham aytish lozimki, tilni madaniyat bilan ham to'g'ridan-to'g'ri tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki madaniyat asl ma'nosiga ko'ra mafquradir (A.Reformatskiy,16), til esa harqanday mafkura uchun ham bir xilda xizmat qiladi. Biroq har bir millatning tili uning milliy madaniyatini taqozo etadi, zotan, u milliy madaniyatning ajralmas muchasidir. Boshqacha aytganda, millatning madaniyati uning tilida ham ko'rinadi.

Tilning jamiyatdagi vazifasini uning kishilar o'rtasida aloqa quroli ekanligida ko'ramiz. Biroq buni til ishlab chiqarish quroli ham bo'la oladi deb tushunmaslik kerak. Ba'zi tilshunoslar esa uni ishlab chiqarish quroli bilan tenglashtirishga harakat qiladilar (H.Marr). Albatta, bunday g'alis g'oya bilan qo'shilish qiyin. Ishlab chiqarish quroli mahsulot etishtiradi va u o'zining ma'lum bir shakliy ko'rinishiga ega bo'ladi. Til esa, hech narsa ishlab chiqmaydi, u jism tarzidagi shakliy ko'rinishga ham ega emas; uning strukturasi va sistemasi mavjud, xolos. Ana shu sistema belgilari orqali kishilar o'zaro fikr almashadilar. Bu esa til bilan tafakkur haqida mulohaza yuritishga undaydi.

Albatta, til bilan tafakkur munosabati o'ta uzviydir. Lekin ular mushtarak hodisalar emas. Buni quyidagilarda ko'ramiz:

1. Til jamiyatning yutug'i bo'lib, u asrlar davomida sayqal topadi va asrlar davomida yashaydi.

2. Tafakkur tilga nisbatan tez o'sadi va o'zgaradi, shu bilan birga, u tilsiz yashay olmaydi. Tilsiz tafakkur kishilar o'rtasidagi muloqot doirasiga chiqa olmaydi.

3. Til qonuniyatlari tilshunoslikda, tafakkur qonuniyatlari esa mantiqda o'rganiladi.

Biroq til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog'langan egizak hodisalardir, tilsiz tafakkur bo'lmaganidek tafakkursiz til ham faoliyat ko'rsata olmaydi.

Tilning jamiyatda real qo'llanishi, shubhasiz, nutq jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Nutq faoliyati, o'z navbatida, ikki jihatga egadir :

1. Individual-psixik. 2. Ob'yektiv – sotsial.

Nutq faoliyatining individual-psixik jixati, bizningcha, izoh talab qilmaydi. Chunki inson jamiyat a'zolari bilan muloqotga kirishish jarayonida har doim o'z ichki kechinmalari, maqsadi ifodasi og'ushida bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, so'zlovchining ruhiyati nutqiy faoliyat bilan uzviy aloqadordir.

Ammo yuqoridagi fikr va muloxazalar asosida inson nutqini mutlaqo individual xarakterga ega deb aytolmaymiz, zotan, u o'zining voqiylanayotgan muxiti va kimgadir qaratilayotgani bilan sotsial xarakterga ham egadir. Ma'lum bir tilda so'zlovchi shaxs shu tilning hammaga bir xil xizmat qiluvchi lug'at boyligini, grammatik qonun-qoidalarini o'zlashtirgan bo'ladi. Bu esa nutqning sotsial xarakteridan dalolat beradi. Bundan tashqari, nutq jarayoni tilning qo'llanish me'yoriga (normasiga) bo'ysunadi.

Ta'kidlash lozimki, til belgilarining jamiyat a'zolari tomonidan real qo'llanishi ma'lum bir me'yorni talab qiladi. Bu narsa belgining ifodalovchi tomoniga ham ta'sir etadi va unda o'z aksini topadi. Aks holda, til me'yoriga ehtiyoj qolmagan bo'lardi.

Ammo me'yor tushunchasi borasida tilshunoslar fikrlari mushtarak emas. Masalan, L.Yelmslevning (Kopengagen tilshunoslik maktabi vakili) tadqiqotlarida me'yor tushunchasi salbiy baholanadi. Uning fikriga ko'ra, uzus (ya'ni tilning jamoa tomonidan e'tirof etilishi) eng muhim omil hisoblanadi, me'yor esa uzusning material tomonini tashkil etadi. (Bu haqda adabiyotlar ro'yxatidagi Zveginsevning asariga qarang).

Y.Koseriuning fikriga e'tibor beradigan bo'lsak, me'yor til sistemasining jamoa a'zlari tomonidan umumiy qo'llanishidir. Bu haqda u shunday degan edi : «Me'yor- bu tarixiy hodisa bo'lib, til sistemasining kollektiv qo'llanishidir. Me'yor deganda, nimani va qanday qilib gapirish kerak, degan tushunchani aniqlamog'imiz darkor» (299).

Albatta, bu fikrni ham, undan oldin eslatib o'tilgan L.Yelmslevning fikrini ham salbiy baholamoqchi emasmiz. Lekin shunday bo'lsa ham, ularda qandaydir g'alizlik mavjudligini ko'ramiz. Masalan, me'yor uzusning material tomonini tashkil etishi haqidagi fikr bilan, shuningdek, sistemaning jamoa a'zolari tomonidan umumiy qo'llanishi me'yor demakdir, degan fikr bilan ham to'lig'icha qo'shilish qiyin. Chunki me'yor uzusning material tomonini tashkil etmaydi, balki uzusning o'zi me'yorning bir unsuri sanaladi. Me'yorning yana ikki unsuri bo'lib, ularning birini adabiy til deb, ikkinchisini esa til uslubi deb ataymiz.

Aytish lozimki, me'yordan adabiy tilda so'zlashuvchilar ham turlicha foydalaniladi, zotan, u so'zlovchining madaniy saviyasi bilan ham bog'liqdir. Ba'zi jamoa a'zolari esa ikki til me'yorida so'zlaydilar. Bunday hodisa **bilingvizm** deb

ataladi. Mazkur hodisani Kanada, Shveytsariya, Lotin Amerikasi, Belgiyada kuzatish mumkin. Masalan, Kanadada ingliz va fransuz, Shveytsariyada fransuz va nemis tillari davlat maqomiga ega. Shu bois bu mamlakatlarda bilingvizm sotsial hodisa sanaladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuqorida izoh berib o'tilganlardan tashqari sotsiolingvistika shug'ullanishi lozim bo'lgan ko'plab muammolar ham borki, ular tilshunoslarimizdan o'z yechimini kutmoqda. Mazkur masalalar talqiniga jahon tilshunoslari turlicha yondashmoqdalar. Quyida amerikalik tilshunoslarning bu sohadagi ishlariga qisqacha to'xtalamiz.

Eng avval shuni aytish kerakki, amerika tilshunosligida **sotsiolingvistika** va **sotsiologiya** farqlab o'rganiladi. Sotsiolingvistika birinchi navbatda tilning sotsial jihatdan ma'lum qoliplarga solingan qo'llanish variantlarini o'rgansa, sotsiologiya til bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tekshiradi.

Amerikalik olimlar hozirgi industrial jamiyatda yashovchi jamoa tilini bir necha variantda olib o'rganish lozimligini ta'kidlamoqdalar. Bunda amerikalik olimlar (hozirgi industrial jamiyatda yashovchi) jamoa tilini bir necha variantda olib o'rganish lozimligini ta'kidlamoqdalar. Bunga amerikalik oq tanlilar hamda qora tanlilar so'zlashuv tillari o'rtasidagi tafovutlarni o'rganish misol bo'ladi. Mazkur jamiyatda qora tanlilar tili alohida **Black English** degan nom bilan ataladi.

Bizningcha, mazkur tezis bilan qo'shilish qiyin, chunki industrlashgan jamiyat deganlari bilan oq va qora tanlilar tillari o'rtasidagi sinfiy tafovutni xaspo'shlab bo'lmaydi.

Amerika sotsiologiyasida tilni **mikro - va makrosathlarga** bo'lib o'rganish g'oyasi olg'a suriladi. Mikrosathda asosiy e'tibor nutq hodisalarini so'zlashuv muhitini hisobga olgan holda tahlil qilish lozimligiga qaratiladi. Mikrosath tahlilida asosiy o'rinda nutqiy muloqot turadi. Muloqot esa, o'z navbatida, kishilar o'rtasida ro'y beradi.

Sotsiologiyaning makro sathida e'tibor til variantlarining ijtimoiy va psixologik aspektlarda qo'llanishiga qaratiladi. Albatta, til qo'llanishining sotsial muammolarini bu taqlid o'rganish ilmiy jihatdan ahamiyatga molikdir. Biroq amerikalik olimlar mikro - va makrosathlar o'rtasidagi bog'lanishga jiddiy ahamiyat bermaydilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sotsiolingvistika muammolarini o'rganishga qanday yo'l bilan yondashishdan qat'iy nazar, bu urinishlarning har biri tilning jamiyatda real qo'llanishi masalasi tavsifi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tillari tasnifi

Tillarni bir-biriga muqoyasa qilib, taqqoslab o'rganish shuni ko'rsatadiki, ba'zi tillardagi so'zlarning ma'nolari, shakllari, grammatik xususiyatlari bir-biridan juda katta farq qiladi. Albatta, bunday tillar bir-biriga yaqin. Qardosh tillar bo'la olmaydi. Ammo ba'zi tillarning tuzilishi, grammatik xususiyatlari, shu tillardagi so'zlarning paydo bo'lish manbai, So'z shakllari va ma'nolari bir-biriga ancha yaqin bo'ladi. Bunday tillar bir umumiy o'zakli tildan kelib chiqqan bo'lib, **qardosh tillar** deyiladi. Grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo'lgan tillar guruhi **til oilasi** deb ataladi. Chunonchi, o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, ozorbayjon, yoqut,

turkman, qoraqalpoq, turk, chuvash tillari kabilar turkiy tillar oilasiga kiradi. Bu qardosh tillardagi o'xshashlik, yaqinlik ularning So'z boyligi, grammatik qurilishi va nutq tovushlarida ifodalanadi.

Shuni ham ko'rsatib o'tish kerakki, qardosh bo'lmagan ba'zi tillarning So'z boyligida alohida so'zlarning ma'no jihatidan o'xshashlik hodisalari uchrashi mumkin. Bunday hodisa bir tilga qarindosh bo'lmagan boshqa bir tildan kirgan so'zlarda uchraydi. **Masalan**, o'zbek tiliga arab tilidan: *oil*a, *mak*tab, *lug'*at, *kit*ob singari, rus tilidan *sam*ovar, *ma*shina, *st*ol, *st*ul, *cho*ynak kabi anchagina so'zlar o'zlashgan. Lekin bunday so'zlar o'zbek tilining arab tili yoki rus tili bilan qardosh til ekanligiga asos bo'lolmaydi, chunki birinchidan, bunday tillarning qarindosh ekanligini isbot qilish uchun faqat so'zning o'zi asos bo'la olmaydi. Ikkinchidan, har bir tilning So'z boyligida boshqa tildan kirgan so'zlar juda ozchilikni tashkil etadi va ularning grammatik xususiyatlari butunlay boshqacha bo'ladi. Uchinchidan, tarixiy taraqqiyot jarayonida turli munosabatlar tufayli boshqa tillardan kirib qolgan bunday tasodifiy so'zlar tillarning tarixini solishtirib, taqqoslab o'rganshida material bo'la olmaydi, chunki bunday tillarning tuzilishi bir-biriga to'g'ri kelmaydi.

Rus, bulg'or, chex, polyak tillari ham bir oiladagi qardosh tillarga qarashli bo'lganligi uchun bu tillarda so'z ma'nolari, grammatik tuzilishlari jihatidan birmuncha o'xshashlik, yaqinlik bor.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, qardosh tillarda So'z o'zaklari grammatik vositalar jihatidan farq qilsa ham, ularning manbai bir bo'lib, ular bir o'zak tildan kelib chiqqan. Biror So'z yoki grammatik vositalardagi tovush o'zgarishlari ma'lum bir fonetik qonuniyat asosida yuz bergan. Bir qardosh tilga, bir tovushga ikkinchi bir qardosh tildagi shunga muvofiq tovush to'g'ri keladi. Masalan, o'zbek tilidagi **g** tovushiga qozoq tilidagi **u (w)** tovushi muvofiq keladi: **bog - bau (baw), tog - tau (taw)** : o'zbek tilidagi **t** tovushiga ozarbayjon tilidagi **d** tovushi muvofiq keladi: **temir-demir, til-dil**; o'zbek tilidagi **y** tovushiga qardosh tillardagi tovushlarning bir-biriga muvofiq kelishi fonetik qonunga asoslangandir hamda qardosh tillardagi so'zlarning ma'nolari va grammatik qurilishlari bilan bog'liq.

Demak, qardosh tillar oilasiga kiradigan tillarda ba'zi tovushlar bir-biridan ozmi-ko'pmi farq qilsa ham, grammatik vositalar, so'zlarning ma'nolari o'zaro yaqin bo'ladi.

Tilning boyligi irqning oq yoki sariq ekanligiga bog'liq emas. Shunday qilib, geneologik tasnif qardosh tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida bir o'zak tilidan tarqalganligini va ularning o'zaro munosabatini, so'z ma'nolari va grammatik shakllarini, nutq tovushlarining bir-biriga yaqinligini, o'xshashligini nazarda tutib, tillarni guruhlariga ajratadi.

Hozirgi vaqtda tarixi o'rganilib, bir-biri bilan qardosh ekanligi aniqlangan tillar oilasi quyidagilardan iborat.

1. **Hind-yevropa tillari oilasi.**
2. **Xom-som tillari oilasi.**
3. **Turk tillari oilasi.**
4. **Ugor-fin tillari oilasi.**
5. **Kavkaz tillari oilasi.**

6. ***Xitoy-tibet tillari oilasi.***

7. ***Dravid tillari oilasi.***

8. ***Indonezi tillari oilasi kabilar.***

I. ***Hind-evropa tillari oilasiga*** hindiston, eron, slavyan, boltiq, german, roman, kel't, grek (yunon), alban, arman tillari kabi til guruhlarini kiradi.

I. **Hindiston tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *hind tili*. Bu tilda 450 milliondan ortiq kishi so'zlashadi. Hind tili hozirgi Hindiston Respublikasining (poytaxti Yangi Dehli) davlat tili bo'lib, eski hind yozuvi - devonagaridan foydalanadi.

b) *urdu tili*. Bu tilda 180 millioncha kishi so'zlashadi. U hozirgi Pokistonning (poytaxti Islomobod) davlat tili bo'lib, arab yozuvidan foydalanadi. Bundan tashqari Hindiston tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

1. *Bengal tili*. Bu tilda 100 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

2. *Maratxi tili*. Bu tilda 40 milliondan oshiq kishi so'zlashadi.

3. *Panjob tili*. Bu tilda 40 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

4. *Rajastoni tili*. Bu tilda 20 milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

5. *Gujarati tili*. Bu tilda 20 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

Bu tillarda so'zlovchilarning aksariyati Hindistonda yashaydi.

Hind tillari guruhiga lo'li, sindxi tillari, shuningdek, o'lik tillardan sanskrit, pali, prokrit tillari kiradi. Sanskrit tili qadimgi hind mumtoz adabiy tili bo'lib, bu tilda "**Mahabxarata**" ("Bxaratlarning buyuk jangi haqida doston") hamda "Xito padasha" ("Yaxshi nasihat") kabi bir qancha ajoyib epik asarlar yaratilgan. Bizning eramizdan oldingi IV asrda hind olimi Panini o'zining mashhur "Sanskrit grammatikasi" asarini yaratgan.

2. **Eron tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *fors tili*. Bu tilda 30 millionga yaqin kishi so'zlashadi, u Eronning (poytaxti Tehron) davlat tili bo'lib, arab yozuvidan foydalanadi;

b) *pushtu-dari tillari*. Bu tillarda 15 millionga yaqin kishi so'zlashadi. U Afg'onistonning (poytaxti Kobul) davlat tili bo'lib, u arab yozuvidan foydalaniladi;

v) *kurd tili*. 3 milliondan ortiq bo'lgan kurd xalqi Eronda, Irokda, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida va Turkiyada yashaydi;

g) *tojik tili*. Bu til Tojikiston respublikasining (poytaxti Dushanbe) davlat tili bo'lib, bu tilda ikki milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

d) *osetin tili*. Bu til Osetiya respublikasining davlat tili bo'lib, bu tilda 550 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

e) *baluchi tili*. Bu tilda so'zlovchilar Pokistondan va Eronda yashaydi.

Eron tillari guruhiga bulardan tashqari tolish tili, tog' tili, o'lik tillardan esa qadimgi fors, pahlavi, sug'du, xorazmiy tillari kiradi.

3. **Slavyan tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *rus tili*. Bu til RSFSR ning (poytaxti Moskva) davlat tili bo'lib, bu tilda 150 million kishi so'zlashadi;

b) *ukrain tili*. Bu til Ukraina respublikasining (poytaxti Kiev) davlat tili bo'lib, bu tilda 40 milliondan ko'proq kishi so'zlashadi.

v) *belorus tili*. Bu til Belorussiya respublikasining (poytaxti Minsk) davlat tili bo'lib, bu tilda 10 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

g) *bulg'or tili*. Bu til Bulg'oriya Respublikasining (poytaxti Sofiya) davlat tili bo'lib, bu tilda 9 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

d) *serb-xorvat tillari*. Bu tillar Yugoslaviya Federativ Respublikasining (poytaxti Belgrad) davlat tili bo'lib, bu tilda 10 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

e) *chex tili*. Bu til Chexoslovakiya Respublikasining (poytaxti Praga) davlat tili bo'lib, bu tilda 10 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

j) *slovak tili*. Bu tilda 4 millionga yaqin kishi so'zlashadi. Bu til ham Chexoslovakiya respublikasining davlat tili hisoblanadi. Bu tilda so'zlashuvchilar Slovakiyada (poytaxti Bratislava) yashaydi;

z) *polyak tili*. Bu til Pol'sha Respublikasining (poytaxti Varshava) davlat tili bo'lib, bu tilda 40 milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

Bundan tishqari, kashub, serboluj tillari, o'lik tillardan qadimgi slavyan, polab, pomor tillari ham slavyan tillari guruhiga kiradi.

4. Boltiq tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *litva tili*. Bu til Litva respublikasining (poytaxti Vil'nyus) davlat tili bo'lib, bu tilda 2,2 million kishi so'zlashadi;

b) *latish tili*. Bu til Latviya respublikasining (poytaxti Riga) davlat tili bo'lib, bu tilda 1,5 million kishi so'zlashadi.

O'lik tillardan prus tili ham boltiq tillari guruhiga kiradi.

5. German tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *ingliz tili*. Bu tilda so'zlashuvchilarning soni 400 millionga etadi. Bu tilda so'zlashuvchilar Buyuk Britaniya, Irlandiya, Shimoliy Amerika Shtatlari, Kanada, Janubiy Amerika Ittifoqi va boshqa joylarda yashaydi. Ingliz tili buyuk Britaniya (Poytaxti London), Shimoliy Amerika Qo'shma Shtatlari (poytaxti Vashington), Kanada (poytaxti Ottava) kabi bir qancha mamlakatlarning davlat tilidir;

b) *nemis tili*. Nemis tili Germaniya Federativ Respublikasining (poytaxti Berlin), Avstriya Respublikasining (poytaxti Vena davlat tili bo'lib, bu tilda so'zlashuvchilarning soni 100 milliondan oshadi);

v) *daniya tili*. Bu til Daniyaning (poytaxti Kopengagen) davlat tili bo'lib, bu tilda so'zlashuvchilarning soni 4 millionga yaqindir;

g) *shved tili*. Bu til Shvesiyaning (poytaxti Stokgol'm) davlat tili bo'lib, bu tilda 7 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

d) *norveg tili*. Bu til Norvegiyaning (poytaxti Oslo) davlat tili bo'lib, bu tilda 3,5 million kishi so'zlashadi;

e) *golland tili*. Bu til Gollandiyaning (Niderlandiyaning) (poytaxti Amsterdam) davlat tili bo'lib, bu tilda 13 million kishi so'zlashadi;

j) *island tili*. Bu til Islandiyaning (poytaxti Reykyavik) davlat tili bo'lib, bu tilda 250 ming kishi so'zlashadi.

O'lik tillardan vesgod va ostgot tillari ham german tillari guruhiga kiradi.

6. Roman tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *fransuz tili*. Bu til Fransiyaning (poytaxti Parij) davlat tili bo'lib, bu tilda 60 million kishi so'zlashadi;

b) *italyan tili*. Bu til Italiyaning (poytaxti Rim) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 50 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

v) *ispan tili*. Bu til Ispaniyaning (poytaxti Madrid) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 95 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

g) *portugal tili*. Bu til Portugaliyaning (poytaxti Lissabon) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 45 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

d) *rumin tili*. Bu til Ruminiya Respublikasining (poytaxti Buxarest) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 18 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

e) *moldava tili*. Bu til Moldaviya respublikasining (poytaxti Kishinev) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 2 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

j) *provansal tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 10 milliondan ko‘p kishi bo‘lib, ular Fransiyaning janubi-sharqida yashaydi;

z) *sardin tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar bir milliondan ortiq bo‘lib, ular Italiyaga qarashli Sardiniya orolida yashaydi;

i) *katalan tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar besh milliondan oshiq kishi bo‘lib, ular asosan, Ispaniyada yashaydi;

k) *reto-roman tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 550 ming kishi bo‘lib, ularning aksariyati Italiyada yashaydi.

O‘lik tillardan latin, osk, umbr tillari ham roman tillari guruhiga kiradi.

7. Kelt tillari guruhiga quyidagilar kiradi:

a) *irland tili*. Bu til Irlandiya Respublikasining (poytaxti Dublin) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 800 ming kishi so‘zlashadi;

b) *shotland tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 140 mingdan ko‘p kishi bo‘lib, ular Angliyada yashaydi;

v) *breton tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar bir milliondan ortiq kishi bo‘lib, ular Fransiya qarashli Bretan‘ yarim orolida yashaydi;

d) *uel’s (valli) tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar bir milliondan ortiq kishi bo‘lib, ular Angliyaning g‘arbiy qismida yashaydi.

O‘lik tillardan gal va kornoul tillari ham kal‘t tillari guruhiga kiradi.

8. Grek (yunon) tili guruhiga yangi grek (yangi yunon) tili kiradi:

Bu til Gretsiyaning (poytaxti Afina) davlat tili bo‘lib, bu tilda 9 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

O‘lik tillardan qadimgi yunon, o‘rta yunon yoki Vizantiya tillari ham grek tili guruhiga kiradi.

9. Alban tili guruhiga alban tili kiradi. *Alban tili* Albaniya Xalq Respublikasining (poytaxti Tirana) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 2 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi. Alban tilidagi yozuv yodgorliklari XV asrdan beri ma’lumdir.

10. **Arman tili guruhiga** hozirgi zamon arman tili kiradi. Bu til Armanistonning (poytaxti Erevan) davlat tili bo‘lib, bu tilda 3 milliondan ko‘proq kishi so‘zlashadi. O‘lik tillardan qadimgi arman tili ham bu guruhga kiradi.

I. Hind-Evropa tillari oilasiga, yuqorida ko‘rsatib o‘tganlarimizdan tashqari, xett, toxar tillari singari o‘li tillar guruhi ham kiradi.

11. **Xom-som tillari oilasi**. Bu tillar oilasi ikki katta guruhga: 1) som tillari guruhiga va 2) xom tillari guruhiga bo‘linadi.

1) **Som tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

Arab tili. Bu tilda 50 milliondan ortiqroq kishi soʻzlashadi. Arab tili Birlashgan Arab Respublikasi (poytaxti Qohira), Iroq respublikasi (poytaxti Bagʻdod), Sudan (poytaxti Xartum), Marokash (poytaxti Rabat), Livan (poytaxti Bayrut), Tunis (poytaxti Tunis), Iordaniya (poytaxti Irlandiya), Liviya (poytaxti Tripoli), Jazoir Xalq respublikasi (poytaxti Jazoir), Yaman respublikasi (poytaxti Sana), Suriya arab respublikasi (poytaxti Damashq) kabi bir qancha arab mamlakatlarining davlat tilidir.

Afrika qitʼasida yashovchi yana bir qancha xalqlar arab tilida soʻzlashadi. Shuningdek, janubiy arab tili, amxar tili, aysar tili hamda oʻlik tillardan asseriya, vavilon, xonaney, qadimgi yahudiy va aramay tillari ham som tillari guruhiga kiradi.

1. **Xom tillari quruhiga:** shilx, tuareg, kabil, amazirt tillari, oʻlik tillardan esa liviya, numid, shtul, qadimgi misr tillari va boshqa tillar kiradi. Umuman, xom-som oilasiga kirgan tillar yaxshi tekshirilib oʻrganilmagan.

III. Kavkaz tillari oilasi. Kavkaz tillari yana bir qancha guruhlariga, chunonchi, gʻarbiy guruhga, veynax guruhiga, Dogʻiston guruhiga boʻlinadi.

1. Gʻarbiy guruhga quyidagi tillar kiradi:

a) *abxaz tili.* Bu til Abxaziya Respublikasida yashovchilarning xalq tili boʻlib, bu tilda 80 mingga yaqin kishi soʻzlashadi;

b) *abazin tili.* Bu til Cherkas Avtonom Respublikasida yashovchi xalqlarning davlat tili boʻlib, bu tilda 25 mingga yaqin kishi soʻzlashadi;

v) *adigey tili.* Bu til Adigey Respublikasida yashovchi xalqning tili boʻlib, bu tilda 80 mingdan ortiq kishi soʻzlashadi;

g) *kabardin-cherkes tili.* Bu til Kabarda-Balkar va Cherkas Respublikalarida yashovchi xalqlarning davlat tili boʻlib, bu tilda 250 mingdan ortiq kishi soʻzlashadi.

2. Veynax guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *chechen tili.* Bu til Chechen respublikasida yashovchi xalqlarning davlat tili boʻlib, unda 500 mingga yaqin kishi soʻzlashadi;

b) *ingush tili* (bu tilda 100 mingdan koʻproq kishi soʻzlashadi, ular Ingush respublikasida yashaydi);

g) *basbi tili.* Bu tilda soʻzlashuvchilar Chechen va Ingush Respublikalarida yashaydi.

3. Dogʻiston guruhiga Dogʻiston respublikasida yashovchi xalqlarning tillari kiradi:

a) *avar tili.* Bu tilda 300 mingga yaqin kishi soʻzlashadi;

b) *dargin tili.* Bu tilda 160 ming kishi soʻzlashadi;

v) *lazgin tili.* Bu tilda 230 mingga yaqin kishi soʻzlashadi;

d) *lak tili.* Bu tilda 70 ming kishi soʻzlashadi;

e) *tabassaran tili.* Bu tilda 34 ming kishi soʻzlashadi.

Bulardan tashqari, nufuzi kam boʻlgan bir qancha tillar ham dogʻiston guruhiga kiradi. Bu tillarda soʻzlovchilarning aksariyati Dogʻiston Avtonom Respublikasida yashaydi.

4. Janubiy guruhga gruzin tili kiradi. Gruzin tili Gruziya respublikasining (poytaxti Tbilisi) davlat tili boʻlib, bu tilda 2,5 milliondan ortiq kishi soʻzlashadi.

Shuningdek, 110 ming kishi soʻzlashadigan chan tili, 290 ming kishi soʻzlashadigan migrel tili va 15 ming kishi soʻzlashadigan svan tili ham janubiy guruhga kiradi.

IV. Ugor-fin tillari oilasi 2 guruhga: 1) ugor tillari; 2) fin tillari guruhiga boʻlinadi.

1. **Ugor tillariqa quyidagilar kiradi:**

a) *venger (mojar) tili*. Bu til Vengriya Respublikasining (poytaxti Budapesht) davlat tili boʻlib, bu tilda 13 milliondan koʻp kishi soʻzlashadi;

b) *mansi tili*. Bu til Xanti-Mansi milliy okrugida yashovchi xalqlarning davlat tili boʻlib, bu tilda 7 mingga yaqin kishi soʻzlashadi;

v) *xanti tili*. Bu tilda soʻzlashuvchilar 22 mingdan koʻp boʻlib, ular ham Xanti-Mansi milliy okrugida yashaydilar.

2. Fin tillariqa quyidagilar kiradi:

a) *fin tili*. Bu til Finlandiyaning (poytaxti Xelʼsinki) davlat tili boʻlib, bu tilda 4 millionga yaqin kishi soʻzlashadi. Bu tilda soʻzlovchilarning bir qismi Kareliya Respublikasida yashaydi;

b) *eston tili*. Bu til Estoniya respublikasining (poytaxti Tallin) davlat tili boʻlib, bu tilda bir milliondan ortiq kishi soʻzlashadi.

3. Ming kishi soʻzlashadigan veps tili, 15 ming kishi soʻzlashadigan ijor tili ham fin tillari guruhiga kiradi. Bu tillarda soʻzlashuvchilar Sankt-Peterburg viloyatida yashaydilar;

v) *komi-permyak tili*. Bu tilda soʻzlashuvchilar 180 mingga yaqin kishi boʻlib, ular Rossiya Federasiyasining Komi-Permyak milliy okrugida yashaydilar;

g) *komi-ziryan tili*. Bu tilda soʻzlashuvchilar 250 mingga yaqin kishi boʻlib, ular Komi Respublikasida yashaydilar;

d) *udmurd tili*. Bu tilda soʻzlashuvchilar 580 ming kishi boʻlib, ular Udmurd Respublikasida yashaydilar.

e) *mari tili*. Bu tilda soʻzlashuvchilar 500 mingga yaqin kishi boʻlib, ular asosan, Mari Respublikasida yashaydilar.

Bulardan tashqari, erzya va moksha-ijor tillari ham fin tillari guruhiga kiradi.

V. Turkiy tillar oilasiqa quyidagi tillar kiradi:

a) *ozarbayjon tili*. Bu tilda soʻzlashuvchilarning soni 15 milliondan oshadi. Bulardan 9 milliondan koʻprogʻi Eronda, 6 milliondan koʻprogʻi esa Ozarbayjonda yashaydi. Bu til Ozarbayjon Respublikasining (poytaxti Boku) davlat tilidir;

b) *turk (usmonli turk) tili*. Bu til Turkiyaning (poytaxti Anqara) davlat tili boʻlib, bu tilda 40 millionga yaqin kishi soʻzlashadi;

v) *turkman tili*. Bu til Turkmaniston Respublikasi (poytaxti Ashxobod) davlat tili boʻlib, bu tilda 2 millionga yaqin kishi soʻzlashadi;

g) *oʻzbek tili*. Bu til Oʻzbekiston Respublikasining (poytaxti Toshkent) davlat tili boʻlib, bu tilda 16 milliondan ortiq kishi soʻzlashadi;

d) *qozoq tili*. Bu til Qozogʻiston respublikasining (poytaxti Olma-Ota) davlat tili boʻlib, bu tilda 10 millionga yaqin kishi soʻzlashadi;

e) *qirgʻiz tili*. Bu til Qirgʻiziston Respublikasining (poytaxti Bishkek) davlat tili boʻlib, bu tilda 1,5 milliondan ortiq kishi soʻzlashadi;

j) *tatar (Qozon tatarlari) tili*. Bu til Tatariston Respublikasining asosiy davlat tili bo'lib, bu tilda so'zlashuvchilar 6,5 milliondan ortiqdir;

z) *uyg'ur tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 5 milliondan ortiqroq bo'lib, ular asosan Xitoy Xalq Respublikasining Sin'-szan-uyg'ur avtonom tumanida yashaydilar;

i) *chuvash tili*. Bu til Chuvash Respublikasida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu tilda 1,5 milliondan ko'proq kishi so'zlashadi;

k) *boshqird tili*. Bu til Boshqirdiston respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo'lib, bu tilda 1 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

l) *yoqut tili*. Bu til Yoqutiston respublikasida yashovchi xalqning tili bo'lib, 300 mingdan ko'p kishi so'zlashadi;

m) *qoraqalpoq tili*. Qoraqalpog'istonda yashovchi xalqlarning tili bo'lib, bu tilda 200 mingdan ortiq kishi so'zlashadi;

i) *tuva tili*. Tuva respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo'lib, bu tilda 150 mingdan ko'proq kishi so'zlashadi.

Shuningdek, qumiq tili (310 ming kishi so'zlashadi), qorachoy tili (100 mingcha kishi so'zlashadi), balqar tili (50 ming kishi so'zlashadi), xakas tili (60 ming kishi so'zlashadi) va yana bir qancha boshqa tillar hamda o'lik tillardan o'rxo'n, pechenet, qipchoq, qadimgi uyg'ur, bulg'or va hazar tillari ham turkiy tillar oilasiga kiradi.

VI. Mo'g'ul tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *xalxa-mo'g'ul tili*. Mo'g'uliston Respublikasining (poytaxti Ulan-Bator) davlat tili bo'lib, bu tilda 3,5 millionga yaqin kishi so'zlashadi. Bu tilda so'zlashuvchilarning bir qanchasi Xitoy Xalq Respublikasida (Ichki Mo'g'uliston ham Sin'szanda) yashaydi;

b) *buryat tili*. Burt respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo'lib, bu tilda 270 mingdan ko'proq kishi so'zlashadi;

v) *qalmiq tili*. Qalmiq respublikasida yashovchi xalqlarning tili bo'lib, bu tilda 105 ko'proq kishi so'zlashadi.

VII. Tungus-manjur tillari.

1). Tungus guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *evenk tili*. Rossiya Federasiyasining Evenk milliy okrugida hamda mamlakatimizning shimoli-sharqiy tumanlarida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu tilda 20 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

b) *even tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 10 mingcha kishi bo'lib, ular asosan Rossiya Federasiyasining Even, Oxot, Chukotka, Koryak milliy okruglarida yashaydi.

3. Manjur guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *manjur tili*. Xitoy Xalq Respublikasining Shimoli-Sharqiy qismida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu til hozir o'lik tillar qatoriga o'tyapti;

b) *nanay tili*. Rossiya Federasiyasining Quyi Amur milliy okrugida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu tilda 8 ming kishi so'zlashadi.

Udey, ulq, oroch tillari ham manjur guruhidagi tillarga kiradi.

VIII. Xitoy-Tibet tillari oilasiga tay-xitoy va tibet tillari guruhlar kiradi.

1. Tay-xitoy guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *xitoy tili*. Xitoy Xalq Respublikasining (poytaxti Pekin) davlat tili bo'lib, bu tilda bir milliarddan ko'p kishi so'zlashadi. Xitoy tili bir necha mustaqil dialektlarga bo'linadi. U juda qadimgi (eramizdan ikki yarim ming yil burungi) tillardan biri bo'lib, boy yozuv-yodgorliklariga egadir;

b) *dungan tili*. Bu tilda so'zlashuvchi xalqning soni 3,5 million kishidan ortiq bo'lib, ular asosan, Xitoy Xalq Respublikasida so'zlashadi;

g) *vetnam tili*. Vetnam Xalq demokratik Respublikasining (poytaxti Xanoy) davlat tili bo'lib, bu tilda 30 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

d) *tay (siam) tili*. Tailandning (poytaxti Bangkok) davlat tili bo'lib, bu tilda 46 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

2. *Tibet tillari*. Bu tilda so'zlashuvchilar 4 milliondan ortiq kishi bo'lib, ular asosan, Xitoy Xalq Respublikasining Tibet avtonom tumanida va Hindistonda yashaydi;

b) *birma tili*. Birma Ittifoqining (poytaxti Rangun) davlat tili bo'lib, bu tilda 33 millionga yaqin kishi so'zlashadi. Assam tillari ham tibet tillari guruhiga kiradi.

IX. Dravid tillariga quyidagi tillar kiradi:

a) *tamil tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 3,5 millionga yaqin kishi bo'lib, ular Hindistonning Janubi-sharqida va Seylon orolining shimolida yashaydi;

b) *malayalam tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 13 milliondan ko'proq kishi bo'lib, ular Hindistonning Janubi-g'arbida yashaydi;

v) *kannara tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 14,5 million kishi bo'lib, ular G'arbiy Hindistonda yashaydi;

g) *telugu tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 31 million kishi bo'lib, ular Hindistonning Janubi-sharqida yashaydi;

d) *braxun tili* (260 mingga yaqin kishi so'zlashadi) va boshqa bir qancha kichik tillar dravid tillar oilasiga kiradi.

X. Malay-polineziya tillari. Bu tillarga malay yoki indoneziya tili kiradi. Indoneziya Respublikasining (poytaxti Jakarta) davlat tili. Shuningdek, madura tili, bali tili, yavan tili, tagalog tili, maori tili, samoa tili va uvea tili kabi bir qancha tillar ham shunga kirdi. Bu tillarda so'zlashuvchi kishilar soni hali yaxshi aniqlanmagan. Umuman, malay-polineziya tillarida 90 milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

XI. Avstraliya guruhi tillari. Bu tillar oilasiga juda ko'p kichik tillari kiradi, lekin ular ham yaxshi o'rganilmagan.

XII. Papua tillari. Bu tillarda so'zlashuvchilar Yangi Gvineya orolida yashaydi. Bu tillar ham hali yaxshi o'rganilmagan.

XIII. Sudan tillari. Sudan tillarida so'zlashuvchilar Afrikada yashaydi. Bu tillar bir necha guruhlariga bo'linadi: chunonchi: nil-chad, nil-abissan, nil-ekvator, kardofan, nil-kongo, ubang, shor niger-chad, niger-kamerun, quyi-niger, dagomey, niger-latgal, liberi va senegal gviney guruhlariga kabi.

XIV. Bantu tillari. Bu tillarda so'zlashuvchilar markaziy va Janubiy Afrikada yashaydi. Bu tillar: teke, songo, suaxeln, konde, makua va sotko kabi bir necha guruhlariga bo'linadi.

XV. Paleoafrika tillari. Bu tillarda so'zlashuvchilar ham Afrikada yashaydi. Ular ikki guruhga ya'ni bushmen va gottentog tillari guruhiga bo'linadi.

XVI. Paleoosiy tillari. Bu tillarda so‘zlashuvchilar Rossiya Federasiyasining Shimoli-Sharqida yashaydi. ***Paleoosiyo tillari ikki guruhga:***

1) *Chukot guruhi* va 2) *Sibir‘ guruhiga* bo‘lindi. Chukot guruhiga chukot tili (1,5 ming kishi so‘zlashadi), koryak tili (7 ming kishi so‘zlashadi), kamchadal tili (2,5 ming kishi so‘zlashadi) kiradi. Sibir guruhiga odul tili (ming kishi so‘zlashadi), nivx tili (4 ming kishi so‘zlashadi), ket tili (2 ming kishi so‘zlashadi) kiradi.

XVII. Eskimos tillari guruhi. Bu tillar guruhiga: eskimos tili (bu tilda so‘zlashuvchilar Chukotka yarim orolida, Vrangel‘ orolida, alyaskaning shimolida, Kanadada. Grenlandiyada yashaydi) va aleut tili (bu tilda so‘zlashuvchilar Komandor va Aleut orollarida yashaydi) kiradi.

XVIII. Amerika hindularining tillari. Amerika hindularining tillari 200 mdan oshiq bo‘lib, ular uch guruhga:

1) *Shimoliy Amerika*; 2) *Markaziy Amerika*; 3) *Janubiy Amerika* guruhlariga bo‘linadi.

XIX. Austr-Osiyo tillari. Bu tillarga: mon-kxmer (6 millionga yaqin kishi so‘zlashadi), bunda (6 milliondan ko‘p kishi so‘zlashadi), malakk, markaziy va janubi-sharqiy tillar guruhi kiradi.

XX. Hech qanday tillar guruhiga kirmagan Uzoq Sharq tillari:

1) *yapon tili.* Yaponiyaning (poytaxti Tokio) davlat tili bo‘lib, bu tilda 100 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

2) *ryukyu tili.* Bu tilda so‘zlashuvchilar Ryu-Kyu orolida yashaydi;

3) *quriya (koreya) tili.* Quriya Xalq Demokratik Respublikasining (poytaxti Pxen‘yan) davlat tili va Janubiy Quriya Respublikasining (poytaxti Seul) davlat tili bo‘lib, bu tilda 60 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

4) *ayn tili.* Bu tilda so‘zlashuvchilar 18 mingga yaqin bo‘lib, ular Yaponiyaning shimolidagi Xokkaydo orolida bulib, ular Hindistonning shimolida, Qorakorum dovonlarida yashaydi.

XXI. Burjaski tili. Bu til ham hech qanday guruhga kirmaydi. Bu tilda so‘zlashuvchilar 30 mingga yaqin kishi bo‘lib, ular Hindistonning shimolida, Qorakorum dovonlarida yashaydi.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, genealogik tasnif har bir tilning kelib chiqishini, tarixiy taraqqiyotini, tillarning o‘zaro munosabatini hozirgi ahvolini va shu kabi qator masalalarni chuqur o‘rganishni talab qiladi. Lekin anchagina tillar bu jihatdan ham chuqur teshirilib o‘rganilmagan. Shuning uchun bu tillarning qaysi tillar bilan qardosh ekanligi, qaysi til oilasiga, qaysi til guruhiga mansub ekanligi ham hali hal qilinmagan.

MAVZU BO‘YICHA SAVOLLAR

1. Til bilan jamiyat o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor ?
2. Til ijtimoiy hodisalarning boshqa turlaridan nimalarga ko‘ra farq qiladi ?

3. Jamiyat a'zolarining siyosiy, huquqiy qarashlari tilning real qo'llanishiga ta'sir etadimi ?

4. Tilni madaniyat bilan to'g'ridan – to'g'ri tenglashtirib bo'ladimi ?

5. Aloqa quroli deganda nimani tushunasiz ?


6. Til va tafakkur munosabati haqida nimalarni bilasiz ?

7. Me'yor tushunchasini qanday izohlaysiz ?

8. Bilingvizm hodisasini tushuntirib bering.

9. Amerika tilshunosligida sotsiolingvistika va sotsiologiya tushunchalari qanday vazifalarni taqozo etadi ?

10. Dunyo tillari tasnifini izohlab bera olasizmi ?



ГЕНЕАЛОГИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ЯЗЫКОВ¹

1. ИНДОЕВРОПЕЙСКАЯ СЕМЬЯ

ИНДИЙСКАЯ ГРУППА

хинди	лахнда	ведийский*
урду	синджи	санскрит*
бенгали	цыганский	
панджаби	кашмири	

ИРАНСКАЯ ГРУППА

персидский (фарси)	таджикский
пушту (афганский)	курдский
памирские языки	осетинский
авестийский*	скифский*

СЛАВЯНСКАЯ ГРУППА

Восточная подгруппа		
русский	украинский	белорусский
Южная подгруппа		
болгарский	македонский	
сербскохорватский	словенский	
старославянский*		
Западная подгруппа		
чешский	лужицкий	
словацкий	полабский*	
польский	кашубский	

БАЛТИЙСКАЯ ГРУППА

литовский	латышский	прусский*
-----------	-----------	-----------

ГЕРМАНСКАЯ ГРУППА

Северогерманская подгруппа		
датский	норвежский	
шведский	исландский	
Западногерманская подгруппа		
английский	немецкий	
фризский	идиш	
нидерландский (голландский)		

¹ Сокращенный вариант классификации дан по учебнику А.А. Реформатского.

*Значком * обозначены мертвые языки.

Восточногерманская подгруппа
готский*

РОМАНСКАЯ ГРУППА

французский	провансальский
итальянский	сардинский
испанский	каталанский
португальский	румынский
молдавский	латинский*

КЕЛЬТСКАЯ ГРУППА

ирландский	шотландский
бретонский	валлийский
галльский*	

ГРЕЧЕСКАЯ ГРУППА

греческий

АЛБАНСКАЯ ГРУППА

албанский

АРМЯНСКАЯ ГРУППА

армянский

2. КАВКАЗСКАЯ СЕМЬЯ

ЗАПАДНАЯ ГРУППА

абхазский	абазинский
адыгейский	кабардинский

ВОСТОЧНАЯ ГРУППА

чеченский	ингушский
аварский	лезгинский

ЮЖНАЯ ГРУППА

метропский	лазский
грузинский	сванский

3. БАСКСКИЙ ЯЗЫК (вне группы)

ФИНО-УГРОСКАЯ ГРУППА

Угорская ветвь		
угорский	мансийский	хантыйский
Прибалтийско-финская ветвь		
финский (суоми)	эстонский	
карельский	савский	
Пермская ветвь		
коми-пермяцкий	удмуртский	

Волжская ветвь

марийский мордовский

САМОДИЙСКАЯ ГРУППА

ненецкий селькупский

5. АЛТАЙСКАЯ СЕМЬЯ

ТЮРКСКАЯ ГРУППА

турецкий	азербайджанский
туркменский	гагаузский
крымско-татарский	карачаво-балкарский
татарский	башкирский
хакасский	тувинский
якутский	казахский
каргинский	узбекский
каракалпакский	чувацкий
печенежский*	половецкий*
бугарский*	хазарский*

МОНГОЛЬСКАЯ ГРУППА

монгольский бурятский калмыцкий

ТУНГУСО-МАНЧЖУРСКАЯ ГРУППА

эвенкийский (тулусский) маньчжурский нанайский

ЯЗЫКИ ДАЛЬНЕГО ВОСТОКА

японский корейский

6. СЕМИТО-ХАМИТСКАЯ (АФРАЗИЙСКАЯ) СЕМЬЯ

Семитская ветвь

арабский ассирийский

амхарский иврит

Египетская ветвь

древнеегипетский*

Берберо-ливийская ветвь

нунидский

Кушитская ветвь

сомали оромо


Чадская ветвь


хауса

7. НИГЕРОКОНГОЛЕЗСКАЯ СЕМЬЯ

банту зулу

- 8. НИЛО-САХАРСКАЯ СЕМЬЯ**
- 9. КОЙСАНСКАЯ СЕМЬЯ**
бушменские
- 10. КИТАЙСКО-ТИБЕТСКАЯ СЕМЬЯ**
китайский тибетский бирманский
- 11. ТАЙСКАЯ СЕМЬЯ**
тайский лаосский
- 12. ЯЗЫКИ МЯО-ЯО**
- 13. ДРАВИДИЙСКАЯ СЕМЬЯ**
- 14. ЯЗЫК БУРУШАСКИ (вне семьи)**
- 15. АУСТРОАЗИАТСКАЯ СЕМЬЯ**
кхмерский вьетнамский
- 16. АВСТРОНЕЗИЙСКАЯ (МАЛАЙСКО-ПОЛИНЕЗИЙСКАЯ) СЕМЬЯ**
индонезийский яванский балийский
илоканский гавайский тагальский
- 17. АВСТРАЛИЙСКАЯ СЕМЬЯ**
- 18. ПАПУАССКАЯ СЕМЬЯ**
- 19. ПАЛЕОАЗИАТСКАЯ СЕМЬЯ**
чукотский карякский
эскимосский алеутский
- 20. ИНДЕЙСКАЯ (АМЕРИНДСКАЯ) СЕМЬЯ**
делаварский юрок
ирокезские навахо
ацтекские майя





8-MAVZU	Yozuvning paydo bo'lishi. Yozuv turlari.
----------------	--

**1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi.
(8 - mashg'ulot)**

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 75 ta</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	8-ma'ruza.
<i>Ma'ruza rejasi:</i>	1. Piktografik yozuv. 2. Logografik yozuv. 3. Iyeroglifik yozuv. 4. Fonografik yozuv.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: yozuvning turlari bilan tanishtirish va yozuvning taraqqiyot bosqichlarini o'rganish.</i>	
<i>Ta'lim metodlari:</i>	Ma'ruza, namoyish etish, integrasiyalashgan o'qitish, tezkor savol-javob, aqliy hujum.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari:</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'zini-o'zi nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

**1.2. Ma'ruzaning xronologik xaritasi
(8- mashg'ulot)**

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish (5 minut)	1.1. Mavzu nomi, maqscadi, o'quv mashg'ulotining natijalari e'lon qilinadi. O'tilayotgan mavzu ko'rgazmali ma'ruza tarzida tashkil etilishi haqida e'lon qiladi.	Eshitadilar.

II. Asosiy bosqich (65 minut)	2.1. Tezkor – so‘rov texnikasidan foydalanib, o‘tilgan mavzu eslatiladi va talabalar faollashtiriladi: 1. Yozuvning paydo bo‘lishini izohlang. 2. logogrammalar deganda nimani tushunasiz? 3. O‘rta osiyo xalqlari yozuvini izohlab bering.	Savol - javobda faol qatnashadilar.
	2.2. Talabalarni faollashtirish maqsadida «Aqliy xujum» metodini qo‘llab, umumiy savol beriladi. «Aqliy xujum» metodidan foydalanishda rioya qilish kerak bo‘lgan qoidalar bilan tanishtiriladi (16-ilova). Savollar 17-ilovada.	Topshiriqni bajaradilar
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Mavzuni rejasi asosida xulosa qilib, eng muhim ma’lumotlarga talabalar diqqatini jalb qiladi. 3.2. Muhokamada faol qatnashgan talabalarni rag‘batlantiradi, baholaydi, yozib oladi.	Tinglashadi. Tinglashadi.

16-ilova.

Aqliy hujumni olib borish qoidalari:

- Hech qanday o‘zaro baho bermaslik va tanqid qilmaslik.
- Taklif etiladigan fikrlarni baholashdan o‘zini tiyishlik, ular qanchalik g‘ayri oddiy va fantastik bo‘lmasin.
- Hamma narsa mumkin.
- Tanqid qilmaslik - hamma fikrlar teng ravishda qadrlidir.
- Gapirayotgan talabani fikrini bo‘lmaslik.
- Tanbeh berishdan o‘zini tiyishlik.
- Asosiy maqsad - fikrning miqdoridadir.
- Qancha ko‘p fikr aytilsa, shuncha yaxshidir: yangi va qadrli fikrlarni dunyoga kelish imkoniyati kengayadi.
- Fikrlar qaytarilsa jaxl chiqmaslik.
- Xayolni «junbushga kelishiga» imkoniyat yaratishlik.
- Yangi tug‘ilgan fikrlarni rivojlantirish, garchi ular sxemalarga to‘g‘ri kelmasa ham .
- Mazkur muammo faqat muayyan vositalar orqali yechim topishi mumkinligini unutishlik.

Integrasiyalashgan (mujassamlashtirilgan) o‘qitish qoidasi

Talabalarning his qilish-umumlashtirish xususiyatlariga asoslangan ta’lim jarayonini yaratish.

Mavzularni mazmunan biriktirish hisobiga mavzuni chuqur o‘zlashtirishga erishish.

Talabalarning qobiliyatini rivojlantirish.

Mavzu: Yozuvning paydo bo'lishi. Yozuv turlari.

Til oz bo'lsada o'zgaruvchan hodisadir. Undagi o'zgarishlarni biz yozuv orqaligina bilib olamiz. Faqat yozuv tufayligina tilning evolyutsion taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni kuzatish imkoniyati bo'ladi.

Yozuvning paydo bulishini turlicha izohlaydilar. Ba'zi tillarning hanuzgacha yozuvi yo'q. Amerika qit'asida yashovchi ko'pchilik xalqlarning tillarini bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Dastlab yozuvning paydo bo'lishi piktografiya bilan bog'lanadi. Shuning uchun uni **piktografik** yozuv deb yuritiladi. Bu atama lotincha «chizilgan» va «yozaman» degan so'zlarning lug'aviy ma'nolarini taqozo etadi.

Mazkur yozuv suratlar orqali ifodalangan bo'lib, bu suratlarni **piktogrammalar** deb ataganlar. Har bir piktotramma ma'lum bir fikr ifodasini anglatadi. Masalan, Mandan qabilasining a'zosi daraxt po'stlog'iga uzun chiziq tortib, uning bir tomoniga miltiq va o'ttizta qunduzning rasmini, ikkinchi tomoniga esa savsar, suvsar hamda qutos mo'ynalarining suratlarini chizgan. Bu orqali u bir miltiq va o'ttizta qunduz mo'ynasiga savsar, suvsar hamda qutos mo'ynalarini almashtirish istagini bildirgan.

Piktografik yozuvdan so'ng **ideografik** yozuv vujudga kelgan. Mazkur atama aslida yunoncha «tushuncha» va «yozaman» degan so'zlarning ma'nolarini taqozo etadi. Uning boshqa bir nomi **logografik** yozuvdir. Bu yozuvda qo'llangan belgilarni **ideogrammalar** yoki uning ikkinchi nomiga moslab **logogrammalar** deb yuritilgan bo'lib, har bir belgi ma'lum bir so'z tushunchasini ifodalagan.

Ana shu yozuv asosida **ieroglifik** yozuv paydo bo'lgan. Bu yozuvning nomi yunoncha «muqaddas yozuv» ma'nosini bildiradi. Mazkur yozuv Qadimgi Xitoy va Arabistonda keng tarqalgan. Bu yozuv doirasida sekin-asta alifbo tushunchasi ham vujudga kela boshladi. Alifbo belgilari shaklan mixlarga o'xshaydi. U keyinchalik takomillasha borib, ancha soddaroq bo'lgan belgilar kashf qilina boshlagan va natijada **fonografik** yozuv paydo bo'lgan.

Fonografik yozuv bir necha ko'rinishga ega bo'lgan. Ulardan birini sillabik yozuv deb yuritiladi. Bunda biror tushunchani yozish kerak bo'lganda bo'g'inlar qo'shilgan. Boshqacha aytganda, kerakli bo'lgan bo'g'inlar kompleksi tayyor bo'lgan va ular lozim hollarda ishlatilgan.

Mazkur yozuv qadimgi Hindiston, Mesopotomiyada keng tarqalgan. Keyinchalik esa Arabiston va Yunonistonda ham taraqqiy eta boshlagan. Bu yozuvga diakritik belgilar ham qo'shiladi va imkon qadar mukammallasha boradi. O'rta asrlarga kelib mazkur yozuv yunonlardan bo'lg'orlarga, serblarga va ulardan ruslarga ham o'tgan. Ana shu tariqa u jahonning boshqa millatlari yozuviga ham ta'sir ko'rsata borgan.

Eslatib o'tilgan yozuvlarning barchasi o'qish va o'qitish ishlarini ancha murakkablashtiradi, zero, piktografik yozuv belgilari butun bir jumlaning ideografik yozuv belgilari so'zni (tushunchani), ieroglifik yozuv belgilari esa bo'g'inlarni taqozo etadi.

Shuni ham aytish lozimki, keyinchalik ieroglifik yozuvlarda alifbo belgilari ko'rina boshladi va piktogrammalarga nisbatan osonroq, soddaroq yozuv vujudga keldi.

Yozuvning eng soddalashtirilgan va progressiv usuli **fonografik** yozuv bo'ldi. Bu so'z ham yunoncha bo'lib, **phone** «tovush» va **grapho** «yozaman» degan so'zlar ma'nolarini taqozo etadi. Bu yozuv tovushlarga asoslanilgani bilan boshqa yozuvlardan ancha afzaldir.

Fonografik yozuv ham ko'p ko'rinishlarga ega. Masalan, sillabik yozuv haqida aytilgan edi. Sillabik yozuv qo'shma so'zlarni qismlarga bo'lish yo'li bilan paydo bo'ldi. Bunda qismlar hozirgi tilimizdagi bo'g'inlarga to'g'ri keladi.

Keyinchalik har bir tovush bir belgini talab qila boshlaydi. Biroq bu yozuvni qabul qilayotganda har bir xalq unga o'zining tili ichki sistemasi talablaridan kelib chiqqan holda yangiliklar, o'zgarishlar kiritishgan. Bunda, albatta, bo'g'in yordami bilan so'z tuzish imkoniyati bo'lgan xalqlarga osonroq bo'lgan, tilida bunday imkoniyatlari bo'lmagan xalqlar esa talay qiyinchiliklarga duch kelganligi natijasida diakritik belgilar kashf etilgan.

Shunday qilib, fonografik yozuvning birinchi bosqichini bo'g'inlarga asoslangan sillabik yozuv tashkil etdi. Har bir tovush uchun harflarning yaratilishi uning ikkinchi bosqichini belgilaydi. Hozirgi biz yozayotgan harflarning kelib chiqishi Arabistonda yashagan finikiylar bilan bog'lanadi.

Finikiylar yozuvi dastlab yunonlar tomonidan o'zlashtirilgan bo'lib, keyinchalik u O'rta Er dengizi atrofida yashagan boshqa xalqlarga ham tarqala boshladi.

Yuqoridagilardan tashqari, hozirgi vaqtda maxsus yozuvlardan ham keng foydalaniladi. Stenografiya va transkripsiya ana shunday yozuv turlaridandir.

Stenografiya grekcha so'z bo'lib, «stenos - «tor» va grapho-«yozaman» degan ma'nolarni beradi. Bu yozuvni mutaxassislar ishlatadi. Uning asosiy vazifasi og'zaki nutqni tez va to'liq qog'ozga tushirishdan iborat.

Stenografik yozuvning har bir belgisi bir, ba'zan bir necha so'zning ma'nosiga to'g'ri keladi. Bu yozuvdan majlislar qarorini yozishda keng foydalaniladi. Stenografistlar tayyorlaydigan maxsus kurslar ham mavjud.

Transkripsiya so'zi aslida lotincha bo'lib, u «ko'chirib yozish» degan ma'noni beradi. Transkripsiya sun'iy yozuvdir. Uning yordamida so'zlarning talaffuzi aniq ifodalanadi. transkripsiyaning qo'llanish doirasi uncha keng emas, chunki u maxsus ehtiyojlar uchungina qo'llaniladi.

O'rta Osiyo xalqlarining yozuvi tarixidan

O'rta Osiyo xalqlarining yozuvi tarixi ham jahon xalqlari yozuvi tarixi bilan mushtarak holda rivojlandi.

O'rta Osiyoda eramizdan avvalgi V1-1V asrlarda mix yozuvi keng tarqaladi. Eramizdan avvalgi III asrlarda esa oromiy yozuvi qo'llaniladi. Shundan so'ng, eramizning boshlarida sug'd yozuvi joriy etiladi. Bu yozuvning vatani (ixtirosi makoni) Samarqand va Panjikent edi.

Sug'd yozuvi qariyb 600 yil qo'llanilgan, V-VIII asrlarga kelib Urxun-Enasoy yozuviga ko'chib o'tilgan va undan keng foydalanilgan. Arab yozuvi VII-VIII asrlarda

Oʻrta Osiyoni arablar bosib olgach, majburan kiritilgan. Bu yozuv qariyb XIX asrning oxirigacha istemolda boʻldi.

Shuni ham aytish kerakki, Oʻrta Osiyoda arab yozuvi bilan bir paytning oʻzida X-XV asrlarda uygʻur yozuvi ham qoʻllanilgan. Manbalarning dalolat berishicha Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» asarining dastlabki nusxasi ham uygʻur yozuvida bitilgan. Shunday boʻlishi tabiiy edi. Chunki zoʻravonlik bilan kiritilgan arab yozuvini koʻpchilik tan olgisi kelmasdi.

Arab yozuvi Oʻzbekistonda 1929 yilgacha amalda boʻldi. 1929 yilda uning oʻrniga lotin alifbosi qabul qilindi va u 1940 yilgacha ishlatildi. 1940 yilda rus alifbosiga oʻtildi.

Rus alifbosi asosiga qurilgan oʻzbek yozuvida 35 ta harf boʻlib, ularning ikkitasi tovush ifoda qilmaydigan belgilar (ъ, ы) ni taqozo etadi. Bu yozuvda 33 ta harf va 31 ta tovush mavjud.

Hozirgi oʻzbek orfografiyasining asosiy tamoyillarini fonetik va morfologik prinsiplar deb yuritamiz. Fonetik prinsipga koʻra, soʻzlarni va undagi tovushlarni qanday eshitsak, shunday yozamiz. Masalan: yosh+a=yasha, ong+.la=angla, tara+q=taroq, bilak+ga=bilakka h.k.


Morfologik qoidalarga koʻra tovushlarni eshitisishiga qarab emas, balki ularning maʼlum grammatik, fonetik qoidalarga moslab yozamaz. Masalan : **maskur-mazkur, ketti-ketdi.**

Morfologik prinsipga nemis tilidagi **acht - sakkiz, acht -diqqat, Lesen - oʻqimoq, Lesen - oʻqish** soʻzlari ham misol boʻla oladi. Nemis tilida otlarning bosh harflar bilan yozilishi ularni boshqa soʻz turkumlaridan ajratib koʻrsatadi. Yukorida berilgan misollarda shu bois bir xil talaffuz etiladigan suzlarning yozuvda farqlanayotganini koʻramiz.

Shunday qilib, yozuvimiz tarixini oʻrganish hozirgi fonografik yozuvimizning asosiy belgilarini va tilimizning orfografik qoidalarini oʻrganishga yaqindan yordam beradi.

MAVZU BOʻYICHA SAVOLLAR


- 1.Dastlabki yozuvlar haqida maʼlumot bering.
- 2.Piktografik yozuv nima?
- 3.Ideografik va ieroglifik yozuvlar qanday farqlanadi?
- 4.Fonografik yozuv nima?
- 5.Maxsus yozuvlar haqida maʼlumot bering.
- 6.Oʻrta Osiyo xalqlari yozuvlari tarixini izohlab bering.



Dastlab yozuvning paydo bo'lishi piktografiya bilan bog'lanadi. Shuning uchun uni **piktografik** yozuv deb yuritiladi. Bu atama lotincha «chizilgan» va «yozaman» degan so'zlarning lug'aviy ma'nolarini taqozo etadi. Mazkur yozuv suratlar orqali ifodalangan bo'lib, bu suratlar **piktogrammalar** deb ataganlar. Har bir piktogramma ma'lum bir fikr ifodasini anglatadi. Masalan, rasmda ko'rsatilgan yozuvda «uzoq safarga chiqqan qabila boshlig'i o'zining safdoshlari bilan uch kun yo'l yurgandan so'ng beshta qayiqqa minib, daryoni kesib o'tdi va omon-eson o'z manziliga yetib oldi», - degan ma'no anglashilmoqda.

Piktografik yozuvdan so'ng **ideografik** yozuv vujudga kelgan. Mazkur atama aslida yunoncha «tushuncha» va «yozaman» degan so'zlarning ma'nolarini taqozo etadi. Uning boshqa bir nomi **logografik** yozuvdir. Bu yozuvda qo'llangan belgilarni **ideogrammalar** yoki uning ikkinchi nomiga moslab **logogrammalar** deb yuritilgan bo'lib, har bir belgi ma'lum bir so'z tushunchasini ifodalagan. Berilgan jadvalda logogrammalarining fonografik yozuvga o'tishi ko'rsatilgan.

Шумер IV тыс. до н.э.	Шумер III тыс. до н.э.	Вавилония Курсия II тыс. до н.э.	Ассирия Курсия I тыс. до н.э.	Шумерское значение	Вавилонско- ассирийское значение
				о, вода; семя, потомство; родитель; слог о	ну - вода; алу - наследник; слог о
				сег, глава; глава; вода	решу - глава, глава; слог сег, сег, сег, сег, сег и т.д.
				хо, куб, рыба; слог хо, хо; детерминатив рыба	куру - рыба; слог хо; детерминатив рыба
				ро, ду, син, носить; губ, стая; шум, приносить; слог ро, ду, син	алопу - носить; шузуу, стая и т.д.; слог ду, син; губ, губ, куб, куб
				алин, луг; энор, земледельец; уру, возделыватель	эпину - луг; энорру - земледельец и др.; слог лин
				кас, пиво; бе, ряд сосудов (?); слог бе	шипору - пиво; слог би, пи, кас, кас, кас
	Восел из уштра-блекия	—	—	?	—
				кур, гора; чужая страна; син, хлам	мону, страна; шобу, гора; слог мот, мот, шот, шот, мот, мот, кур, син и т.д.



Logografik yozuv asosida **ieroglifik** yozuv paydo bo'lgan. Bu yozuvning nomi yunoncha «muqaddas yozuv» ma'nosini bildiradi. Mazkur yozuv Qadimgi Xitoy va Arabistonda keng tarqalgan. Bu yozuv doirasida sekin-asta alifbo tushunchasi ham vujudga kela boshladi. Alifbo belgilari shaklan mixlarga o'xshaydi. U keyinchalik takomillasha borib, ancha soddaroq bo'lgan belgilar kashf qilina boshlagan va natijada **fonografik** yozuv paydo bo'lgan.

O'rta Osiyoda eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda mix yozuvi keng tarqaladi. Eramizdan avvalgi III asrlarda esa oromiy yozuvi qo'llaniladi. Shundan so'ng, eramizning boshlarida sug'd yozuvi joriy etiladi. Bu yozuvning vatani (ixtiroi makoni) Samarqand ia Panjikent edi.

Образец арамейского письма

Sug'd yozuvi qariyb 600 yil qo'llanilgan, V-VIII asrlarga kelib Urxun-Enasoy yozuviga ko'chib o'tilgan va undan keng foydalanilgan.

Vowels	Consonants	Numerals	Тюркское линейно-угловое письмо		
𐰃 a a	𐰁 H n	𐰄 Ш sh	𐰆 X h	𐰇 0	0
𐰅 э e	𐰇 ng	𐰉 T t	𐰊 K k	𐰋 1	1
𐰇 и i	𐰉 б b	𐰊 д d	𐰋 ц ts	𐰌 2	2
𐰉 o o	𐰊 п p	𐰋 ч ch	𐰌 3 dz	𐰍 3	3
𐰊 y u	𐰋 x h	𐰌 ж dzh	𐰍 x h	𐰎 4	4
𐰋 ou	𐰌 Г g	𐰍 й y	𐰎 ж z	𐰏 5	5
𐰌 y oo	𐰍 M m	𐰎 p r	𐰏 lh	𐰐 6	6
𐰍 ee	𐰎 л l	𐰏 B v	𐰐 zh	𐰑 7	7
	𐰏 c s	𐰐 ф f	𐰑 ch	𐰒 8	8
				𐰓 9	9

Arab yozuvi VII-VIII asrlarda O'rta Osiyoni arablar bosib olgach, majburan kiritilgan. Bu yozuv qariyb XIX asrning oxirigacha istemolda bo'ldi .



**1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi.
(9 - mashg'ulot)**

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 75 ta</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	9-ma'ruza.
<i>Ma'ruza rejasi:</i>	1. Til va tafakkur 2. Tafakkur sezgidan, idrok va tasavvur. 3. Til bilan nutq o'rtasidagi qarama-qarshiliklar. 4. Tilning umumiyligi va nutqning xususligi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: yozuvning turlari bilan tanishtirish va yozuvning taraqqiyot bosqichlarini o'rganish.</i>	
<i>Ta'lim metodlari:</i>	Ma'ruza, namoyish etish, integrasiyalashgan o'qitish, tezkor savol-javob, aqliy hujum.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari:</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'zini-o'zi nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

**1.2. Ma'ruzaning xronologik xaritasi
(9– mashg'ulot)**

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish (5 minut)	1.1. Mavzu nomi, maqscadi, o'quv mashg'ulotining natijalari e'lon qilinadi. O'tilayotgan mavzu ko'rgazmali ma'ruza tarzida tashkil etilishi haqida e'lon qiladi.	Eshitadilar.

II. Asosiy bosqich (65 minut)	2.1. Tezkor – so‘rov texnikasidan foydalanib, o‘tilgan mavzu eslatiladi va talabalar faollashtiriladi: 1. Til va tafakkurni qanday izohlaysiz? 2. Tafakkur sezgidan, idrok va tasavvurdan qanday jihatlariga ko‘ra farqlanadi? 3. Til va tafakkurni F.de Sossyur qanday tushunadi? 4. Til bilan nutq o‘rtasida qanday qarama-qarshiliklar bor? 5. Tilning umumiyligi va nutqning xususligini qanday tushunasiz?	Savol - javobda faol qatnashadilar.
	2.2. Talabalarni faollashtirish maqsadida «Aqliy xujum» metodini qo‘llab, umumiy savol beriladi. «Aqliy xujum» metodidan foydalanishda rioya qilish kerak bo‘lgan qoidalar bilan tanishtiriladi (16-ilova). Savollar 17-ilovada.	Topshiriqni bajaradilar
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Mavzuni rejasi asosida xulosa qilib, eng muhim ma‘lumotlarga talabalar diqqatini jalb qiladi. 3.2. Muhokamada faol qatnashgan talabalarni rag‘batlantiradi, baholaydi, yozib oladi.	Tinglashadi. Tinglashadi.

16-ilova.

Aqliy hujumni olib borish qoidalari:

○ Hech qanday o‘zaro baho bermaslik va tanqid qilmaslik. ○ Taklif etiladigan fikrlarni baholashdan o‘zini tiyishlik, ular qanchalik g‘ayri oddiy va fantastik bo‘lmasin. ○ Hamma narsa mumkin. ○ Tanqid qilmaslik - hamma fikrlar teng ravishda qadrlidir. ○ Gapi-rayotgan talabani fikrini bo‘lmaslik. ○ Tanbeh berishdan o‘zini tiyishlik. ○ Asosiy maqsad - fikrning miqdoridadir. ○ Qancha ko‘p fikr aytilsa, shuncha yaxshidir: yangi va qadrli fikrlarni dunyoga kelish imkoniyati kengayadi. ○ Fikrlar qaytarilsa jaxl chiqmaslik. ○ Xayolni «junbushga kelishiga» imkoniyat yaratishlik. ○ Yangi tug‘ilgan fikrlarni rivojlantirish, garchi ular sxemalarga to‘g‘ri kelmasa ham. ○ Mazkur muammo faqat muayyan vositalar orqali yechim topishi mumkinligini unutishlik.
--

Integratsiyalashgan (mujassamlashtirilgan) o‘qitish qoidasi

Talabalarining his qilish-umumlashtirish xususiyatlariga asoslangan ta’lim jarayonini yaratish.

Mavzularni mazmunan biriktirish hisobiga mavzuni chuqur o‘zlashtirishga erishish.

Talabalarning qobiliyatini rivojlantirish.

Mavzu : TIL VA TAFAKKUR

Til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog‘lik hodisalardir. Ularni ayrim holatda o‘rganib bo‘lmaydi. Tafakkur ,albatta, insonning bilishi jarayoni bilan bevosita bog‘lanadi. Bilish bo‘lganda ham tafakkur aqliy bilishni taqozo etadi. Shu bois hissiy bilishni tafakkur bilan tenglashtira olmaymiz. Zero, bilishniig bu turi jonli mavjudotlarning barchasiga xosdir. Tafakkur esa faqat insonga berilgan in‘omdir. Shuning uchun tafakkurni bilishning eng yuqori bosqichi deb atash mumkin.

Biroq, yukoridagilardan hissiy bilishni tafakkurdan ajratib qo‘yish, ularni qarama-qarshi hodisalar tarzida tushunish lozim degan xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Zotan, bu ikki hodisa umumiy jarayonning ikki bosqichini taqozo etadi. Aqliy bilish sezgilarimizdan, hissiy bilishdan oziqlanadi.

Lekin, shunday bo‘lsa-da, tafakkur sezgidan, idrok va tasavvurdan quyidagi jihatlariga ko‘ra farqlanadi:

a) tafakkur sezgi organlariga nisbatan narsa va hodisalar mohiyatini chuqurroq ochib beradi;

b) tafakkur sezgimizga nisbatan voqelikni umumiyroq aks ettirib, narsa va hodisalar o‘rtasidagi doimiy munosabat, aloqalarni ham aniqlaydi;

v) biz sezgilarimiz orqali narsa-hodisalar orasidagi oddiy munosabatlarni bilamiz. Tafakkur esa ularning umumiy bog‘lanishini, taraqqiyot qonunlariga munosabatini bilib olishimizga yordam beradi.

Tafakkur orqali biror narsani bilish uchun, avvalo, u haqda tushuncha hosil qilish darkor. Predmet haqida tushuncha hosil qilishda umumiy qonun-qoidalar yoki umumiy tushunchadan foydalaniladi. Bunda, albatta, tafakkurning til bilan munosabati yanada aniqroq seziladi.

Tafakkurning muhim xususiyati uning til bilan uzviy bog‘langanligidir. Inson tafakkuri til bilan birga rivojlanadi. Tafakkur natijalari tilda mustahkamlanadi. Til o‘zining shu xislati bilan insonga bilim to‘plashga, uni saqlashga, avloddan avlodga etkazishga yordam beradi. Til tafakkurni takomillashtirish, mavhumlashtirish, umumiyalashtirish va juz‘iylashtirish qurolidir. Insonni hayvonot olamidan ajratib, uni ongli mavjudotga aylantirgan xislat ham tafakkur va tildir.

Til va tafakkur voqelikni bilish, boshqa insonlar bilan munosabatda bo‘lish, real voqiylikka ta’sir ko‘rsatishda ko‘rinuvchi, inson faoliyatining ongli, maqsadga muvofiqligini ta’minlovchi insongagina xos bo‘lgan tarixiy muhim xislatdir.

Lekin, shunday bo‘lishiga qaramay, amalda, hayotda, tarixiy jarayonda til va tafakkur ajralmas bo‘lsa-da, ularni alohida fanlar sifatida o‘rganamiz. Tafakkur formalarini mantiq fani o‘rgansa, til kategoriyalarini tilshunoslik o‘rganadi. Tafakkur umumbashariy bo‘lsa, tilning qonun-qoidalari milliy xarakterga egadir. Dunyodagi tillarning qonun-qoidalari bir-biridan ba’zan kamroq , ba’zan keskin farq qiladi.

Tafakkur shakllari, tamoyillari esa insonning millati, irqidan qat'iy nazar, hammada bir xildir.

Mantiq fani tafakkurni tarkibiy qismlarga ajratganda, u uch birlikdan: tushuncha, muhokama va xulosadan tarkib topganini ko'rsatadi. Tilshunoslik fani nutqni tarkibiy qismlarga bo'lganda, nutq tovushi (fon), morf, so'z, gap va matnlarga ajratadi. Demak, til va tafakkur birliklari miqdor jihatdan to'g'ri kelmaydi.

Ba'zi olimlar tafakkurdagi tushuncha tildagi so'zga, muhokama esa gapga to'g'ri keladi, degan fikrni ilgari surishgan. Lekin bugungi kunda mazkur fikrning asossizligi dalillanmoqda. To'g'ri, tilda ko'pchilik so'zlar ma'lum bir tushuncha bilan bog'langan: **uy, stol, qalam** va h.k. Biroq, **uchun, bilan, kabi, ham** kabi so'zlar ham borki, ular tushuncha bilan bog'lanmaydi. Agar gaplarning barchasi voqea-hodisalarning mavjudligi, yo'qligi, rostligi yoki yolg'onligi ifodalanganda, unda gap bilan muhokamani bir-biriga teng deyish mumkin bo'lardi. Ammo tilimizda ba'zi gaplar so'roq shaklida, buyruq shaklida beriladi, mantiqning esa bu singari xususiyatlardan holi ekanligini ko'ramiz. Yana shu narsa ahamiyatga molikdirki, gap bo'laklari barqaror xususiyatlidir. Bir gap tarkibida ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqllovchi, hol funksional jihatdan o'zgarmas xarakterga ega bo'ladi. Mantiqiy bo'laklar esa beqarordir. Gapdagi har bir so'z mantiq sub'ekti yoki predikati bo'lib kelishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, til va tafakkur birliklari na miqdor, na sifat jihatdan bir-biriga to'g'ri keladi. Demak, til bilan tafakkur har qancha uzviy bog'langan bo'lsa ham, mushtarak hodisalar emas.

Ammo til bilan tafakkurni bir-biridan ajratib qo'yish ham mumkin emas. Tafakkursiz til va tilsiz tafakkur bo'lishini tasavvur etolmaymiz. Bu hodisalar doimo biri ikkinchisini taqozo qiladi. Tafakkur tilda yashaydi, u faqat til vositasi orqali namoyon bo'ladi. Taniqli nemis olimi Velgilm Fon Gumboldt ta'biri bilan aytganda, bunchalik bir-biriga o'xshash boshqa bir narsani o'ylab topish qiyindir.

Til fikrlash jarayonining voqelanishi sifatida tafakkurni to'liq hajmi va barcha unsurlari bilan namoyon qiladi. Shuning uchun B.P.Ardentov: «Kishi miyasining til bilan bog'liq bo'lgan butun faoliyatini tafakkur deb bilish lozim», - degan edi.

Til va tafakkurning bir-biridan ajralmas hodisa ekanligi haqida qadimgi Yunoniston olimlari Demokrit, Aristotel davrlaridan boshlab bugungi kungacha ilmiy xulosalar aytilib kelinmoqda. Bu sohada Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, M.Qoshg'ariy, A.Navoiy kabi O'rta Osiyolik mugafakkirlar tomonidan aytilgan fikrlar ham qimmatlidir.

Til va tafakkurning uzviy bog'likligini Ferdinand de Sossyurning quyidagi fikrlarida yanada aniqroq ko'rsa bo'ladi: «Tilni qog'oz varag'iga qiyoslash mumkin: fikr uning yuza tomoni bo'lsa, tovush orqa tomonidir, uning orqa tomonini ham kesmasdan turib, yuza tomonini kesib bo'lmaydi; shuning singari tilda ham na fikrni tovushdan, na tovushni fikrdan ajratib buladi; bunga faqat abstraksiya yo'li bilan erishish mumkin, bu esa muqarrar ravishda sof psixologiyaga yoki sof filologiyaga olib keladi».

Til bilan tafakkur muammolari xususida gapirganda shunga ham alohida e'tibor berish kerakki, til bilan nutq ham mushtarak hodisalar emas. Shu bois, masala tavsifini to'liq berishga ulgurmagan bo'lsa-da, F.de Sossyur "til va nutq" dixotomiyasi hakidagi fikrni birinchi bo'lib izohlagan edi. Til bilan nutq ham o'zaro uzviy bog'liqdyr.

Ularning birini ikkinchisiz tasavvur etish mumkin emas. Biroq, shunday bo'lishiga qaramay, ular o'rtasida jiddiy farqlar ham ko'zga tashlanadi. Bunday farqlarni tilning mavhum, virtual hodisa ekanligida, nutqning esa konkret, aktual hodisa ekanligida ko'ramiz. Bundan tashqari, til ijtimoiy hodisa bo'lsa, nutq ijtimoiylikdan ko'ra xususiylik alomatlari bilan xarakterlanadi. Bu jihatdan ular tafakkur ifodasiga ham har xil yondashadi. Boshqacha aytganda, tafakkur ifodasi virtual belgilar bilan emas, balki aktual belgilar bilan ko'prok bog'lanadi, zero, til aloqa quroli bo'lmog'i uchun nutqqa ko'chirilmog'i lozim.

Shuni ham aytish kerakki, til bilan nutqning birligi va qarama-qarshiligi qonuniyatlariga faqat keyingi yillardagina ahamiyat berila boshladi. Hozirgacha mavjud tilshunoslikka doir ishlarning ko'plarida tilni nutqdan, va aksincha, nutqni tildan farqlamadilar. Buning natijasida tilning sistema ekanligi, sistemaning belgilar (ishoralar) yig'indisidan iboratligi mukkamal o'rganildi-yu, mazkur belgilarning nutqda real qo'llanilishi masalasini o'rganish ikkinchi darajali bo'lib qoldi. Shu bois tilning nutqda voqe bo'lishi, real qo'llanilishi muammolarini o'rganish hozirgi tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qoldi.

Ta'kidlash lozimki, nutq mantiqsiz bo'lmaydi. Bu esa, o'z navbatida, tafakkurning nafaqat til bilan, balki nutq bilan ham uzviy aloqadorligidan dalolat beradi. Til va tafakkur deganda, tilni umumiy holda, ya'ni uni nutqdan ajratmagan holda tasavvur etiladi. Biroq, hozirgacha mavjud ishlarda xususiylik belgilari qariyb tadqiq etilmadi.

Nutqning xususiyligini o'rganiish boshqa fanlar bilan, jumladan, psixologiya bilan ham uzviy bog'liqdir. Bu jihatdan so'zlovchining nafaqat nutq organlari o'rtasida, balki fikrlash qobiliyatlari, so'zlashish usullari o'rtasida ham farq borligini ko'ramiz. Bunda bolalar va kattalarning fikrlash qobiliyati va til unsurlaridan so'zlashish jarayonida foydalanish darajalari o'rtasida ham mavjud farqlarni hisobga olish kerak bo'ladi.

MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR

Til va tafakkurni qanday izohlaysiz?

Tafakkur sezgidan, idrok va tasavvurdan qanday jihatlariga ko'ra farqlanadi?

Til va tafakkurni F.de Sossyur qanday tushunadi?

Til bilan nutq o'rtasida qanday qarama-qarshiliklar bor?

Tilning umumiyligi va nutqning xususligini qanday tushunasiz?

Til bilan jamiyat o'rtasida qanday bog'liqlik bor ?


Til ijtimoiy hodisalarning boshqa turlaridan nimalarga ko'ra farq qiladi ?

Jamiyat a'zolarining siyosiy, huquqiy qarashlari tilning real qo'llanishiga ta'sir etadimi ?

Tilni madaniyat bilan to'g'ridan – to'g'ri tenglashtirib bo'ladimi ?

Aloqa quroli deganda nimani tushunasiz ?

Til va tafakkur munosabati haqida nimalarni bilasiz ?



SEMINAR MASHG'ULOTLARI ISHLANMASI

1-Mavzu	Fikr ifodalashning verbal va noverbal vositalari.	
----------------	---	--

1. Seminar mashg'ulotini olib borish texnologiyasi

Vaqt: 2soat	Talabalar soni: 20
<i>Mashgʻulot shakli:</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga ajratilgan seminar mashgʻuloti.
<i>Mashgʻulot rejasi:</i>	1. Tilning sistema ekanligi. 2. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. 3. Til belgilari. 4. Mikro- va makro lingvistika. 5. Til va nutq dixotomiyasi.
<i>Masgʻulotning maqsadi: Mavzu boʻyicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	Oʻquv faoliyati natijalari:
• mavzuni mustaqil oʻrganish uchun asos yaratadi; • mavzu boʻyicha bilimlarni chuqur oʻzlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi; • oʻz nuqtai nazariga ega boʻlishni shakllantiradi; • mantiqiy xulosa chiqarishga koʻmak beradi.	amaliy mashgʻulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib,tayyorgarlik koʻradi; • kursda oʻrganilgan asoiy tushunchalar va atamalarni aytib beradi.
<i>Oʻqitish usullari</i>	Topshiriqlar,amaliy ishlah usuli, bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash.
<i>Oʻqitish vositalari</i>	Maʼruzalar matni, markerlar, qogʻozlar,skotch.
<i>Oʻqitish shakllari</i>	Jamoa guruhlariida ishlash.
<i>Oʻqitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan taʼminlangan va guruhlarda ishlashga moʻljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Ogʻzaki nazorat, savol-javob, oʻz-oʻzini nazorat qilish, test savollari.

2. Seminar mashg'ulotining xronologik xaritasi

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish bosqichi (10 minut).	1.1. Seminar mashg'ulot mavzusi, maqsadi, rejalari bilan tanishtirib, uni qanday tashkil etish va o'quv faoliyati natijalarini aytib o'tish..	Tinglaydilar.
	1.2. Faollashtirish maqsadida savollar beriladi. Blis-so'rov, savol-javob o'tkaziladi (1-ilova).	Savollarga javob beradi.

II. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1. Ta'lim jarayoni kichik guruhlarda taqdimot orqali o'tkaziladi.	Mustaqil taqdimot qilishadi.
	2.2 Guruhlarda ishlash tashkil qilinadi va unda yagona muammoli savol o'rta tashlanadi. Ta'lim jarayoni kichik guruhlarda ishlash orqali amalga oshirilishi tushuntiriladi (2-ilova).	Uchta guruhga bo'linadi.
	2.3. Talabalar 3 guruhga bo'linadi, ekspert varag'i tarqatiladi, bajarish metodikasi tushuntiriladi. Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (3-ilova).	Topshiriqlarni bajaradilar. Tinglaydilar.
	2.4. Har bir guruhning javoblarini ekspert guruhi baholaydi. Har bir ekspert guruhi o'zi ko'rib chiqqan topshiriqlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini ko'rsatib beradi.	Jamoa bo'lib topshiriqlarni bajaradilar, bahs-munozara yuritadilar, qo'shimchalar qiladilar, xulosa chiqaradilar.
	2.5. Topshiriqlar bajarilishining qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tignlaydi	Baholaydilar.
	2.6. Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar tushuntiriladi va izoh beriladi.	Tinglaydi.
	2.7. Natijalar tekshiriladi, muhokama qilinadi.	Baholanadi.
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi (4-ilova).	Eshitadi. Aniqlaydi..
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faolligi tahlil qilinadi va baholanadi.	Tinglaydi.

MAVZU : Fikr ifodalashning verbal va noverbal vositalari.

«Tilshunoslikka kirish» kursining asosiy vazifasi filologiya fakultetlari talabalariga tilshunoslikning fonetika-fonologiya, leksikologiya, grammatika sohalarining har biri o'rganadigan masalalari xususida to'la ma'lumot berish, shuningdek, tilning material nuqtai nazardan nimani taqozo etishi, tilning sistema ekanligi, tilning jamiyatdagi o'rni, uning rivojlanish qonuniyatlari, til va tafakkur, til

va nutq, sotsiolingvistik masalalar, yozuv va uning turlari xususidagi ma'lumotlar bilan batafsil tanishtirishdan iboratdir. Talabalar tomonidan tilshunoslikning har bir bo'limi o'rganadigan masalalar nimalardan iborat ekanligi va har bir bo'limning qanday muammoli masalalari mavjudligini atroflicha chuqur o'zlashtirib olinishi juda muhimdir. O'qituvchi tomonidan mashg'ulotlar davomida aytilgan barcha ma'lumotlarni talaba to'liq o'zlashtirib, to'plangan material doirasida erkin ilmiy mushohada yurita olishi shart ekanligi ko'zda tutiladi. Bu borada nazarda to'atilgan yuqori natijani qo'lga kiritish uchun, albatta, o'qituvchining ma'ruzalari hamda amaliy mashg'ulotlar uchun rejalashtirgan materiallari fan yutuqlarining eng so'nggi natijalariga asoslangan bo'lmog'i lozim. Mazkur mavzuga bag'ishlangan mashg'ulotda birinchi navbatda, tilning jamiyatdagi o'rnini izohlanishi nihoyatda muhimdir. Tilning jamiyatdagi vazifasi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish jarayonida tilning tabiati, mohiyati, tuzilishi va bu strukturani tashkil etgan unsurlarning o'zaro munosabati, uning ichki mexanizmi, ishlash tamoyillari singari juda muhim bo'lgan masalalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mashg'ulot davomida lingvistika fanining har bir bo'limi, va bu bo'limlarning o'rganish ob'ektini tashkil etuvchi muammolarni sanab o'tish, shu bilan birga, bu muammolar o'z ichiga qanday masalalarni qamrab olganligini ham talaba tomonidan tasavvur etilishi keyingi mavzularni to'liq tushunib o'zlashtirishga keng imkon yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tilshunoslik fanini mikrolingvistika va makrolingvistika sohalariga ajralishi va bu sohalarining har biri o'zining qat'iy o'rganish ob'yektiga ega ekanligi aniq tasavvur etilmog'i muhimdir. Shuni ham aytish lozimki, tilni faqat tilshunoslik fani emas, balki boshqa fanlar ham tadqiq etishi mumkinligi eslatilib, tilshunoslik va boshqa fanlarning tilni tekshirishdagi maqsad va rejaları turlicha ekanligini yoritish ahamiyatlidir.

Mavzuga doir eng muhim ma'lumotlardan yana biri shuki, til va nutqning o'zaro birligi va qarama-qarshiligi, ya'ni F.de Sossyurning «til va nutq» dixotomiyasi mohiyatining yoritilishidir. Chunki til va nutq dixotomiyasiga asoslangan ilmiy tadqiqot ishlari mavjud bo'lishiga qaramay, til birliklarining nutqqa ko'chirilishi

bilan bog‘liq muammoli masalalar tavsifiga endigina qo‘l urilayotganini o‘z kelajagining tamal toshini qo‘yayotgan kelajak vorislari hozirdanoq bilib olishlari foydadan xoli emas.

1-ilova

“Tezkor-so‘rov” savollari

1. Tilning jamiyatdagi vazifasi nimadan iborat?
 2. Tilning material asosini nima tashkil etadi?
 3. Tilshunoslik qanday fanlar bilan uzviy aloqador?
-

2-ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo‘lmog‘i lozim
 2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilishi lozim.
 3. Kichik guruh oldiga qo‘yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
 4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tayziqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
 5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o‘qituvchi ularga yo‘riqnoma berishi lozim.
 6. Nima bo‘lganda ham muloqotda bo‘ling, o‘z fikringizni erkin namoyon eting.
-

3-ilova

Ekspert varag'i №1

1. Tilshunoslikka kirish fanining asosiy tekshiruv ob'ekti nimalardan iborat?
 2. Umumiy tilshunoslikda qanday masalalar o'rganiladi?
-

Ekspert varag'i №2

1. F. de. Sossyurning "til va nutq" dixotomiyasi mohiyatini izohlay olasizmi?
 2. Til sistemasining asosiy unsurlari nimalardan iborat?
-

Ekspert varag'i №3

1. Til belgisi deganda nimani tushunasiz?
 2. Mikro- va makrolingvistikalar nimalarni taqozo etadi?
-

4-ilova

Mavzu bo'yicha test savollari

1. «Tilshunoslik» fani nimalarni o'rganadi?
 - a) tilning nazariy fonetikasi va leksikologiyasiga oid qoidalarni
 - b) morfologiya va sintaksisga tegishli muammolarni
 - v) tilshunoslikda qo'llanadigan lisoniy tahlil usullarini
 - g) tillarning geneologik tasnifini
 - d) til haqidagi dastlabki ma'lumotlarni, tilshunoslikning tarkibiy qismlarini, ilmiy terminlarni, tilning paydo bo'lishi kabi muammolarni
2. Mikro va makrolingvistikalarda nimalar o'rganiladi?
 - a) mikrolingvistika fonema, morfema singari tilning kichik birliklarini, makrolingvistika matn tahlilini
 - b) mikrolingvistika tilning fonetik tuzilishini, makrolingvistika tilning grammatik qurilishini
 - v) mikrolingvistika tilning ichki sistemasini, makrolingvistika nutqning qonun-qoidalarini
 - g) mikrolingvistika tilning ichki tuzilishini, makrolingvistika tilning umumiy muammolarini
 - d) mikrolingvistika ichki til birliklari, makrolingvistika tilning katta birliklarini

3. Til sistemasi

- a) belgilar yig'indisidan tashkil topadi
- b) fonemalar va morfemalar muammosini taqozo etadi
- v) so'z va qo'shma so'zlar munosabatidan tashkil topadi
- g) so'z birikmasi va gap munosabatini taqozo etadi
- d) til bilan nutq birliklaridan iborat bo'ladi

Guruhlarda ishlashni baholash

Guruhlar	Javobning to'liqligi (1,0)	Szemalarda berilganligi (0,4)	Guruh ishtirokchisining faolligi (0,6)	Ballar	Bahosi
1					
2					
3					
4					
5					
6					

Baho mezonlari va ko'rsatkichlari (balda)

Guruhlar	Baho	Yechim mantig'i	Izchilligi, to'liqligi, faolligi	Amaliy ahamiyati	Jami
	Ballar	1	2	2	5
1					
2					
3					

Guruhlar	1	2	3	Umumiy ballar yig'indisi	Baho umumiy ballar yig'indisining ikkiga bo'lingani
1	-				
2		-			
3			-		

Talabaning yakka bahosi guruh faoliyatining umumiy bahosiga teng.

Seminaridagi maksimal yakuniy baho – 3 ball

2,2 – 3 – «a'lo»

1,2 - 2 – «yaxshi»

0,5 – 1,1 – «qoniqarli»

0 – 0,5 – «qoniqarsiz»

Kurs bo'yicha baholashda bilish, tushunish, tadbiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.

Har bir amaliy mashg'ulotda 2 ballgacha olishlari mumkin bo'lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni tushunadilar	Usullarni qo'llay oladilar	Natijalarni tahlil qila oladilar
20 %	20 %	30 %	30 %

2-Mavzu	Tillarning hududiy bo'linishi va tillar o'rtasidagi aloqalar.
----------------	---

1. Seminar mashg'ulotini olib borish texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 20
<i>Mashg'ulot shakli:</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga ajratilgan seminar mashg'uloti.
<i>Mashg'ulot rejasi:</i>	1. Tilning paydo bo'lishi bilan bog'liq nazariyalar. 2. Tilning paydo bo'lishida ijtimoiy farazlar. 3. Tilning paydo bo'lishida biologik farazlar. 4. Tilning paydo bo'lishida tafakkur, mehnat va jamiyatning roli.
<i>Mashg'ulotning maqsadi: Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
• mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi; • mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi; • o'z nuqtai nazariga ega bo'lishni shakllantiradi; • mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi.	amaliy mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi; • kursda o'rganilgan asosiy tushunchalar va atamalarni aytib beradi.
<i>O'qitish usullari</i>	Topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, skotch.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa guruhlarida ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, test savollari.

2. Seminar mashg'ulotining xronologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
I. Kirish bosqichi (10 minut).	1.1. Seminar mashg'ulot mavzusi, maqsadi, rejalari bilan tanishtirib, uni qanday tashkil etish va o'quv faoliyati natijalarini aytib o'tish..	Tinglaydilar.
	1.2. Faollashtirish maqsadida savollar beriladi. Blis-so'rov, savol-javob o'tkaziladi (5-ilova).	Savollarga javob beradi.
II. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1. Ta'lim jarayoni kichik guruhlarda taqdimot orqali o'tkaziladi.	Mustaqil taqdimot qilishadi.
	2.2. Guruhlarda ishlash tashkil qilinadi va unda yagona muammoli savol o'rtaga tashlanadi. Ta'lim jarayoni kichik guruhlarda ishlash orqali amalga oshirilishi tushuntiriladi (6-ilova).	Uchta guruhga bo'linadi.
	2.3. Talabalar 3 guruhga bo'linadi, ekspert varag'i tarqatiladi, bajarish metodikasi tushuntiriladi. Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (7-ilova).	Topshiriqlarni bajaradilar. Tinglaydilar.
	2.4. Har bir guruhning javoblarini ekspert guruhi baholaydi. Har bir ekspert guruhi o'zi ko'rib chiqqan topshiriqlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini ko'rsatib beradi.	Jamoa bo'lib topshiriqlarni bajaradilar, bahs-munozara yuritadilar, qo'shimchalar qiladilar, xulosa chiqaradilar.
	2.5. Topshiriqlar bajarilishining qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tignlaydi	Baholaydilar.
	2.6. Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar tushuntiriladi va izoh beriladi.	Tinglaydi.
	2.7. Natijalar tekshiriladi, muhokama qilinadi.	Baholanadi.
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi (8-ilova).	Eshitadi. Aniqlaydi..
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faolligi tahlil qilinadi va baholanadi.	Tinglaydi.

MAVZU: Tillarning hududiy bo'linishi va tillar o'rtasidagi aloqalar.

Tilning paydo bo'lishi masalasi juda ko'p davrlardan buyon kishilarni qiziqtirib kelgan va bugungi kunda ham bu masala kishilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Mazkur masala doirasida aytilgan fikrlar, erishilgan yutuqlar qanchalik salmoqli bo'lmasin, hozirgi kunga qadar bu borada hali aniq bir to'xtamga kelingani yo'q. Shuni inobatga olgan holda mavzuning yoritilishida inson tilining paydo bo'lishini insonning paydo bo'lishi bilan bog'lab o'rganish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkinligini yodda saqlash lozim. Chunki jonli mavjudotlar ichida so'zlashish imkoniyati faqatgina insonga xosdir. Buni, albatta, tirik mavjudotlarga xos bo'lgan bilish jarayoni bilan bog'lab o'rganish mumkin. Zero, bilish jarayoni ikki bosqichdan iboratdir: hissiy bilish, aqliy bilish. Hissiy bilish jonli mavjudotlarning barchasiga xosdir. Hissiy bilishning eng yuksak ko'rinishi refleks orqali namoyon bo'ladi. Bilish jarayonining ikkinchi bosqichi faqatgina insonga xos bo'lib, aqliy bilish hisoblanadi. U inson tafakkuridan iboratdir.

Yaqin yillargacha insonning paydo bo'lishi odamsimon maymunlarning evolyutsiyasi bilan bog'lab izohlangan. Biroq hozirgi zamon fanining erishgan yutuqlari shuni ko'rsatadiki, odamsimon maymunlar bo'lmagan. Balki ibtidoiy odam turmush tarzi, tashqi qiyofasi, harakati bilan maymunlarga o'xshagan bo'lishi mumkin. Bu masalaga yondashishda yuqoridagi fikrni hisobga olish to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradi. Chunki insonning nutq organlari faqat uning o'zigagina xosdir. Dastlab bu organlarning holati hozirgidek bo'lgan deb aytish mushkul ekanligini ham yodda saqlash lozim. Zero, inson nutq organining takomillashuviga mehnat va jamiyatning roli katta bo'lgan. Shunday ekan, mazkur masala tavsifini berishda ijtimoiy faktorlar (omillar)ga asoslanuvchi farazlarga tayanish orqali tilning paydo bo'lishini izohlashda ijtimoiy faktorlar (omillar) ning rolini alohida ajratib qo'yish maqsadga muvofiq emasligini yodda saqlash mavzu mohiyatini aniq va to'liq o'zlashtirish imkonini berishi shubhasiz.

Keltirilgan fikrimizni oydinlashtiradigan bo'lsak, biologik faktorlarga asoslanib tilning paydo bo'lganligini izohlovchi (tovushga taqlid va undov)

farazlarida ijtimoiy omillar hisoblangan jamiyat va mehnatning, shuningdek, tafakkurning roli hisobga olinmaganligini kuzatamiz.

Inson tilining paydo bo'lishi masalasi bilan bog'liq bo'lgan bu mavzuni to'la o'zlashtirish uchun talaba, albatta, bu borada imo-ishoralarning o'zni qaydarajada ekanligini ham tasavvur etadigan bo'lsa, bu uning fikrini yanada oydinlashtiradi.

Umuman olganda, bu mavzuning yoritilishida professor-o'qituchi ham, talaba ham jamiyat, mehnat va tafakkurning rolini alohida e'tiborga oladigan bo'lsa ko'tilgan natijaga erishishni, ya'ni talabaning bu boradagi tasavvurlarining yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

5-ilova

“Tezkor-so'rov” savollari

1. Inson tilining paydo bo'lishi masalasi bilan bog'liq biologik farazlarni izohlang.
 2. Tilning paydo bo'lishi bilan bog'liq ijtimoiy farazlarni izohlang.
 3. Sanab o'tilgan farazlarga qanday munosabat bildirsa olasiz?
-

6-ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishini bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilishi lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tayziqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

7-ilova

Ekspert varag'i №1

1. Tilning paydo bo'lishida diniy farazlarni izohlang.
2. Tilning paydo bo'lishida tafakkur, mehnat va jamiyatning o'rnini izohlang.

Ekspert varag'i №2

1. F. Engelsning ta'limoti nimani kasb etadi?
2. E. Sepir va B. Uorf nazariyalarini izohlang.

Ekspert varag'i №3

1. Tovushga taqlid nazariyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Bir soatlik muloqot davomida xalqlar imo-ishoralarni qanday qo'llashlari haqida so'zlang.

8-ilova

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Tilning paydo bo'lishida eng asosiy mavqyega ega bo'lgan faktorlar
 - a) taqlid so'zlari
 - b) undov so'zlari
 - v) ijtimoiy kelishuv
 - g) tafakkur, mehnat, jamiyat
 - d) mehnat chaqiriqlari
2. Tilning paydo bo'lishini kimlar ijtimoiy kelishuv farazi bilan bog'laydi?
 - a) V. Gumboldt, A. Poyebnya
 - b) A. Potebnya, Ch. Darvin
 - v) J.J. Russo, Adam Smit
 - g) V. Gumboldt, J.J. Russo
 - d) Ch. Darvin, L. Nuare
3. Imo-ishoralarning inson tilining paydo bo'lishida
 - a) ahamiyati yo'q
 - b) muhim ahamiyatga ega
 - v) qisman ahamiyatga ega
 - g) ba'zi qabilalar tili uchun ahamiyali sanaladi
 - d) yordamchi mavqyega ega

Guruhlarda ishlashni baholash

Guruhlar	Javobning to'liqligi (1,0)	Szemalarda berilganligi (0,4)	Guruh ishtirokchisining faolligi 0,6)	Ballar	Bahosi
1					
2					
3					
4					
5					
6					

Baho mezonlari va ko'rsatkichlari (balda)

Guruhlar	Baho	Yechim mantig'i	Izchilligi, to'liqligi, faolligi	Amaliy ahamiyati	Jami
	Ballar	1	2	2	5
1					
2					
3					

Guruhlar	1	2	3	Umumiy ballar yig'indisi	Baho umumiy ballar yig'indisining ikkiga bo'lingani
1	-				
2		-			
3			-		

Talabani yakka bahosi guruh faoliyatining umumiy bahosiga teng.

Seminaridagi maksimal yakuniy baho – 3 ball

2,2 – 3 – «a'lo»

1,2 - 2 – «yaxshi»

0,5 – 1,1 – «qoniqarli»

0 – 0,5 – «qoniqarsiz»

Kurs bo'yicha baholashda bilish, tushunish, tadbqiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.

Har bir amaliy mashg'ulotda 2 ballgacha olishlari mumkin bo'lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni tushunadilar	Usullarni qo'llay oladilar	Natijalarni tahlil qila oladilar
20 %	20 %	30 %	30 %

3-Mavzu	Nutq tovushlarining tasnifi.
----------------	------------------------------

1. Seminar mashg'ulotini olib borish texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 20
<i>Mashg'ulot shakli:</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga ajratilgan seminar mashg'uloti.
<i>Mashg'ulot rejasi:</i>	1. Akustika va artikulyatsiya. 2. Allofon haqida ma'lumot. 3. Unli va undosh fonemalar. 4. Nutqning fonetik bo'linishi. 5. Supersegment unsurlar.
<i>Mashg'ulotning maqsadi: Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
• mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi; • mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi; • o'z nuqtai nazariga ega bo'lishni shakllantiradi; • mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi.	amaliy mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi; • kursda o'rganilgan asoiy tushunchalar va atamalarni aytib beradi.
<i>O'qitish usullari</i>	Topshiriqlar, amaliy ishlah usuli, bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, skotch.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa guruhlarida ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, test savollari.

2. Seminar mashg'ulotining xronologik xaritasi

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish bosqichi (10 minut).	1.1. Seminar mashg'ulot mavzusi, maqsadi, rejalari bilan tanishtirib, uni qanday tashkil etish va o'quv faoliyati natijalarini aytib o'tish..	Tinglaydilar.
	1.2. Faollashtirish maqsadida savollar beriladi. Blis-so'rov, savol-javob o'tkaziladi (13-ilova).	Savollarga javob beradi.

II. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1. Ta'lim jarayoni kichik guruhlarda taqdimot orqali o'tkaziladi.	Mustaqil taqdimot qilishadi.
	2.2. Guruhlarda ishlash tashkil qilinadi va unda yagona muammoli savol o'rta tashlanadi. Ta'lim jarayoni kichik guruhlarda ishlash orqali amalga oshirilishi tushuntiriladi (14-ilova).	Uchta guruhga bo'linadi.
	2.3. Talabalar 3 guruhga bo'linadi, ekspert varag'i tarqatiladi, bajarish metodikasi tushuntiriladi. Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (15-ilova).	Topshiriqlarni bajaradilar. Tinglaydilar.
	2.4. Har bir guruhning javoblarini ekspert guruhi baholaydi. Har bir ekspert guruhi o'zi ko'rib chiqqan topshiriqlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini ko'rsatib beradi.	Jamoa bo'lib topshiriqlarni bajaradilar, bahs-munozara yuritadilar, qo'shimchalar qiladilar, xulosa chiqaradilar.
	2.5. Topshiriqlar bajarilishining qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tignlaydi	Baholaydilar.
	2.6. Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar tushuntiriladi va izoh beriladi.	Tinglaydi.
	2.7. Natijalar tekshiriladi, muhokama qilinadi.	Baholanadi.
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi (16-ilova).	Eshitadi. Aniqlaydi..
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faolligi tahlil qilinadi va baholanadi.	Tinglaydi.

MAVZU: Nutq tovushlarining tasnifi.

Fonetika tilshunoslik fanining mustaqil bo'limlaridan biri bo'lib, unda tildagi tovushlar sistemasi akustik va artikulatsion jihatdan o'rganiladi. Nutq tovushlari fonetikaning birligi sifatida o'rganilganda fonlar deb yuritiladi. Fon hozirgi zamon tilshunosligida keng tarqalgan atamalardan biri bo'lib, nutqning eng kichik, ma'no anglatmaydigan birligidir. Tovushlarni til birligi sifatida o'rganilganda til tovushlari yoki fonemalar deb ataymiz. Fonetika mavzusining o'rganilishida dastlab fon va fonemani farqlash lozimligiga ahamiyat berish lozim. Chunki bu orqali fonetikaning o'rganish sohasi qayerdan boshlanib, tugallanish nuqtasi qayer ekanligini belgilab olishga erishish mumkin. Bu esa, fonologiyaning o'rganish sohasini belgilab olishda aniq xulosalarga ega bo'lishni ta'minlaydi. Darhaqiqat, fonologiya mavjud darslik va qo'llanmalarda ta'kidlanganidek, fonetikaning eng yuqori pog'onasini taqozo etadi. Bu fonologiya tovushni material nuqtai nazaridan, ya'ni akustik va artikulatsion tomondan emas, balki uning nutqda real qo'llanilganda namoyon bo'ladigan funksional jihatlarini o'rganadi. Ma'lumki, ko'pchilik talabalar fonetika va fonologiya alohida sohalarni taqozo etishini bilsalar-da, ular ko'p o'rinlarda bir-biriga yaqin turuvchi bu ikki sohaning o'rganish ob'yektlarini aniq farqlab berishda qiynaladilar. Shu bois mazkur mavzuning yoritilishida, albatta, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, masala mohiyatini o'rganishga harakat qilishni tavsiya etamiz.

Shu narsa yaxshi ma'lumki, nutq tovushlari tilimizning material qismini, xom ashyosini tashkil qiladi. Tildagi fonemalar o'zidan katta bo'lgan eng kichik birlik, morfemalardan tortib matnning shakllanishigacha ishtirok etadi. Yuqorida aytilganidek, fonetika tovushning akustik va artikulatsion jihatlarini o'rganadi. Buni o'rganishda talaba, albatta, tovushning sifat belgisi va miqdor belgisini bir-biridan imkon qadar farqlashga harakat qilmog'i zarur. Tovushning bu jihatlari uning akustik xususiyatlarini tashkil etadi. Artikulatsiyada ikki jihat, ya'ni artikulatsiya o'rni va artikulatsiya usuli farqlanmog'i kerak. Ana shular bilan bir qatorda nutq tovushlarining tarkibidagi ovoz va shovqin ham hisobga olinishini esda tutish

maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu jihatdan ham tovushlar **jarangli** va **jarangsiz** deb ataluvchi guruhlariga ajratiladi.

Ushbu mavzuda nutq tovushlarining ba'zi hollarda me'yor darajasidan chiqib ketish hollari haqida ham ma'lumot keltirilishi rejalashtirilgan. Mazkur ma'lumotlar orqali fon, fonema, allofon tushunchalari o'zaro farqlanishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, fonema til birligidir. Shu sababli ham fonema nutqdagi nodifferensial o'zgarishlarni taqozo etmaydi. Fonema til birligi sifatida mavhum birlik bo'lib, nutqda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yagona vazifani bajaruvchi barcha fonlarning umumlashgan ko'rinishidir. Allofonlarni to'laligicha nutq hodisasi sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bu o'rinda talaba darslik va ma'ruza matnida keltirilgan misollar tavsifiga e'tibor qaratishi tavsiya etiladi.

Tilning tovush sistemasi va tovushlarning real qo'llanishi haqidagi mavjud ilmiy asoslangan fikrlar bilan tanishar ekanmiz, bu borada tillarda unlilar va undoshlar miqdori son jihatdan bir xil emasligini eslatib o'tish foydadan xoli emas. Zero, jahon tillarining ayrimlarida hammasi bo'lib 11ta tovush mavjud (gavay tilida 5 unli va 6 undosh) bo'lsa, ba'zi tillarda ularning soni 70 tagacha (abxaz tilida 2 unli va 68 undosh) yetadi. Biroq tillarda unli va undoshlar soni miqdor jihatdan turlicha ekanligi tillarning mavqeini yoki fikr ifodalash imkonini belgilovchi omil bo'la olmasligini talaba to'g'ri anglab yetishi juda muhimdir. Chunki unli va undoshlar son jihatdan tilning tovush sistemasini to'liq qoniqtiradi va fikr ifodasini berish uchun yetarli hisoblanadi.

Fonetikaga oid birliklar haqidagi ma'lumotlarni o'rganishda tilning fonetik unsurlari ifoda materialiga ega ekanligi yoki, aksincha, o'z ifoda materialiga ega emasligiga ko'ra o'zaro farqli guruhlariga ajralishiga ham ahamiyat bermoq muhimdir. Unga ko'ra, o'z ifoda materialiga ega bo'lgan unsurlarni **segment unsurlar** deb, o'z ifoda materialiga ega bo'lmagan unsurlarni **supersegment unsurlar** deb ataladi. Yuqorida ko'rib o'tilgan nutq tovushlari segment unsur sanaladi, chunki tovush bu jihatdan o'z ifoda materialiga egadir. Supersegment unsurlar jumlasiga **bo'g'in** va **ohang** kiritilishini yodda tutish darkor. Chunki bu

fonetik unsurlar o'z ifoda materialiga ega emas. Bug'in o'z ifoda materialiga egadek tasavvur etilsa ham, u tovushlar orqali namoyon bo'layotgani isbot talab etmaydi. Urg'u va melodikaga e'tibor qilsak, u ham supersegment unsurdir. Tovush mavjud bo'lmas ekan urg'uni ham, melodikani ham, bo'g'inni ham tasavvur etib bo'lmaydi.

Fonetikaga oid materiallarni o'rganishda nutqning fonetik bo'linishi masalasiga ham alohida to'xtalish lozim, deb hisoblaymiz. Chunki bu borada ham talabalar tomonidan e'tiborga olinishi lozim bo'lgan muhim jihatlar anchagina miqdorni tashkil etadi. Nutq fonetik jihatdan **fraza** (jumla), **takt**, **so'z**, **bo'g'in**, **tovushdan** iborat. Lekin bu o'rinda nutqni real qo'llanish jarayonida o'rganish lozim. Chunki nutqning fonetik bo'linishida so'zlovchining, nutq muhitining alohida o'rni bor.

13-ilova

“Tezkor-so'rov” savollari

1. Fonetika tilshunoslik fanining qanday bo'limi hisoblanadi?
 2. Fonetika va fonologiya haqida ma'lumot bering.
 3. Fonema va allofonlar qanday farqlanadi?
-

14-ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilishi lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tayziqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

15-ilova

Ekspert varag'i №1

1. Fonetik akustika va artikulyatsiyani izohlang.
2. Artikulyatsiyada nimalar farqlanadi?
3. Unlilar tasnifida nimalar e'tiborga olinadi?

Ekspert varag'i №2

1. Unlilarning qanday shakliy turlari mavjud?
2. Undosh tovushlarning tasnifi nimalar bilan bog'liq?
3. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra undoshlarni necha turga bo'lasiz?

Ekspert varag'i №3

1. Hosil bo'lish usuliga ko'ra undoshlarni qanday tasnif qilasiz?
2. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra undoshlarning qanday turlari bor?
3. Segment va supersegment unsurlar qanday farqlanadi?
4. Nutqning fonetik bo'linishini izohlab bering.

16-ilova

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Fonetikaning asosiy predmetini
 - a) tovushlarning akustik xarakteristikasi tashkil etadi
 - b) tovushlarning akustik va artikulyasion xarakteristikalari tashkil etadi
 - v) tovushlarning fonema tarzida asoslanishi tashkil etadi
 - g) tovushlarning artikulyasiyasi o'rniga usuliga ko'ra xarakteristikasi tashkil etadi
 - d) tovushlarning ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra xarakteristikasi tashkil etadi
2. Allofon deganda nimani tushunasiz ?
 - a) fonemaning nutqiy qo'llanishdagi variantini
 - b) sifat o'zgarishlar hosil qiluvchi tovushni
 - v) tovushning nutqda qo'llanilishini
 - g) ikki tovush ifodasini
 - d) fonlarning yig'indisini
3. Unlilar tasnifida nimalar e'tiborga olinadi?
 - a) ovoz va shovqinning ishtiroki
 - b) artikulyasiyasi o'rniga va usuli
 - v) tilning holati va lablarning ishtiroki
 - G) havo oqimi
 - d) tilning gorizontal va vertikal holatlari

4. Unlilar tarkibiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

- a) monoftong va diftonglarga
- b) monoftong, diftong va triftonglarga
- v) diftong va triftonglarga
- g) monoftong va triftonglarga
- d) turlarga bo‘linmaydi

Guruhlarda ishlashni baholash

Guruhlar	Javobning to‘liqligi (1,0)	Szemalarda berilganligi (0,4)	Guruh ishtirokchisining faolligi 0,6)	Ballar	Bahosi
1					
2					
3					
4					
5					
6					

Baho mezonni va ko‘rsatkichlari (balda)

Guruhlar	Baho	Yechim mantig‘i	Izchilligi, to‘liqligi, faolligi	Amaliy ahamiyati	Jami
	Ballar	1	2	2	5
1					
2					
3					

Guruhlar	1	2	3	Umumiy ballar yig‘indisi	Baho umumiy ballar yig‘indisining ikkiga bo‘lingani
1	-				
2		-			
3			-		

Talabaniing yakka bahosi guruh faoliyatining umumiy bahosiga teng.

Seminardagi maksimal yakuniy baho – 3 ball

2,2 – 3 – «a'lo»

1,2 - 2 – «yaxshi»

0,5 – 1,1 – «qoniqarli»

0 – 0,5 – «qoniqarsiz»

Kurs bo‘yicha baholashda bilish, tushunish, tadbiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.

Har bir amaliy mashg'ulotda 2 ballgacha olishlari mumkin bo'lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni tushunadilar	Usullarni qo'llay oladilar	Natijalarni tahlil qila oladilar
20 %	20 %	30 %	30 %

4-Mavzu	Tillarning sintetik va analitik tuzilishi.	
----------------	--	--

1. Seminar mashg'ulotini olib borish texnologiyasi

Vaqt: 2soat	Talabalar soni: 20
<i>Mashg'ulot shakli:</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga ajratilgan seminar mashg'uloti.
<i>Mashg'ulot rejasi:</i>	1. Morf, morfema va allomorf. 2. Leksik va grammatik ma'no. 3. Grammatik kategoriyalar. 4. So'zlarning turkumlarga bo'linishi.
<i>Mashg'ulotning maqsadi: Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	O'quv faoliyati natijalari:
• mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi; • mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi; • o'z nuqtai nazariga ega bo'lishni shakllantiradi; • mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi.	amaliy mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi; • kursda o'rganilgan asoiy tushunchalar va atamalarni aytib beradi.
<i>O'qitish usullari</i>	Topshiriqlar, amaliy ishlah usuli, bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, skotch.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa guruhlarida ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, test savollari.

2. Seminar mashg'ulotining xronologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish bosqichi (10 minut).	1.1. Seminar mashg'ulot mavzusi, maqsadi, rejalari bilan tanishtirib, uni qanday tashkil etish va o'quv faoliyati natijalarini aytib o'tish..	Tinglaydilar.

	1.2. Faollashtirish maqsadida savollar beriladi. Blis-so'rov, savol-javob o'tkaziladi (17-ilova).	Savollarga javob beradi.
II. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1. Ta'lim jarayoni kichik guruhlarda taqdimot orqali o'tkaziladi.	Mustaqil taqdimot qilishadi.
	2.2. Guruhlarda ishlash tashkil qilinadi va unda yagona muammoli savol o'rta tashlanadi. Ta'lim jarayoni kichik guruhlarda ishlash orqali amalga oshirilishi tushuntiriladi (18-ilova).	Uchta guruhga bo'linadi.
	2.3. Talabalar 3 guruhga bo'linadi, ekspert varag'i tarqatiladi, bajarish metodikasi tushuntiriladi. Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (19-ilova).	Topshiriqlarni bajaradilar. Tinglaydilar.
	2.4. Har bir guruhning javoblarini ekspert guruhi baholaydi. Har bir ekspert guruhi o'zi ko'rib chiqqan topshiriqlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini ko'rsatib beradi.	Jamoa bo'lib topshiriqlarni bajaradilar, bahs-munozara yuritadilar, qo'shimchalar qiladilar, xulosa chiqaradilar.
	2.5. Topshiriqlar bajarilishining qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tignlaydi	Baholaydilar.
	2.6. Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar tushuntiriladi va izoh beriladi.	Tinglaydi.
	2.7. Natijalar tekshiriladi, muhokama qilinadi.	Baholanadi.
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi (20-ilova).	Eshitadi. Aniqlaydi..
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faolligi tahlil qilinadi va baholanadi.	Tinglaydi.

MAVZU: Tillarning sintetik va analitik tuzilishi.

Morfologiyani o'rganish tilshunoslikka kirish kursida eng katta mavzulardan biri hisoblanadi. Mashg'ulotlar davomida morfema va uning turlari, morf, allomorf, grammatik shakl va grammatik ma'no, asosiy grammatik kategoriyalar, so'zlarni turkumlarga bo'lishning asosiy tamoyillari singari muhim masalalar o'rganiladi. Mazkur mavzuni o'rganishda eng avvalo, morfema va uning turlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shundan so'ng grammatik forma va grammatik ma'no haqida batafsil ma'lumot berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ana shunday muhim ma'lumotlarni o'zlashtirish morfologiyaning o'rganish sohasidagi asosiy birlik hisoblangan morfemani ilmiy jihatdan to'la mushohada eta olish imkonini beradi. Morfema, morf, allomorfning o'zaro birligi va farqli jihatlari xususida atroflicha fikr yurita olish darajasiga erishgan talabani bo'lajak filologlar uchun eng zarur bo'lgan ma'lumotlardan biri, tilning grammatik vositalarini o'rganishga bimalol tayyor deb hisoblash mumkin. Shundan so'ng, tilning asosiy grammatik vositalari hisoblanuvchi affiks, urg'u, melodika, reduplikatsiya, ichki fleksiya, supplitivizm, yordamchi so'zlar, so'z tartibi haqida o'rganish qiyinchilik tug'dirmaydi. Nomlari sanab o'tilgan grammatik vositalarni mukammal o'rganish nihoyasida, albatta, ularni sintetik va analitik grammatik vositalarga ajratib olish lozim. Buni amalga oshirish orqali talabalar sintetik tillar va analitik tillar haqida tasavvur etishga harakat qilishlari mumkin bo'ladi. Sintetik grammatik vositalar affiksatsiya, ichki fleksiya, supplitiv usul hisoblansa, analitik grammatik vositalar yordamchi so'zlar, so'z tartibi, reduplikatsiya va ohang kabilardir. Ana shu mashg'ulot so'nggida tillardagi grammatik vositalarning ishtirokini hisobga olgan holda talaba o'zi tanish bo'lgan tillarni sintetik yoki analitik tillar sirasiga kirishi haqidagi munosabatni bildirib olish darajasiga erishishi ko'zda tutiladi. Albatta, bu jarayonda mavjud darslik, ma'ruzalar matni va mavzuga doir qo'llanmalardan unumli foydalanish, ulardagi ma'lumotlarni qiyoslab o'rganish tavsiya etiladi.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlarni to'la o'zlashtirgan talaba asosiy grammatik kategoriyalar haqidagi bilimlarni o'rganishga tayyor hisoblanadi. Zotan, grammatik kategoriya tushunchasi grammatik ma'no va grammatik shakl orqali mavjuddir. Demak, grammatik kategoriya umumlashgan grammatik ma'nodir. Albatta, bu o'rinda umumiy grammatik ma'noni, aniqrog'i grammatik kategoriyani tashkil etuvchi ikki yoki undan ortiq bo'lgan xususiy ma'nolar bir-biriga qiyosan olinmog'i shart ekani esda tutilmog'i lozim. Masalan, son kategoriyasini olaylik. Ko'pchilik tillarda u bir-biriga qiyosan olinadigan ikki xususiy ma'nodan iborat: birlik va ko'plik. Ayrim tillarda (jumladan, arab tilida) juftlik ma'nosini ifodalovchi ikkilik ham mavjuddir. Ma'lumki, o'zbek tilida ko'plik **-lar** affiksi orqali beriladi, biroq birlikni ifodalovchi maxsus grammatik ko'rsatkich, affiks, mavjud emas. Ana shunday o'rinda maxsus affiks mavjud bo'lmasa-da, grammatik ma'no (birlik) ifodalanadi. Bunday o'rinlarda nol morfema mavjud hisoblanadi va u aks ettirilishi lozim bo'lgan o'rinlarda Ø belgisi orqali ifodalanadi: kitob Ø – kitob**lar**. Arab tilida bu so'z son kategoriyasiga ko'ra uch ko'rinishga ega: bosh kelishikda: (birlik) **kitabun** (bir kitob) – (ikkilik) **kitabani** (ikki kitob) – (ko'plik) **kutub** (ko'p kitob).

Yuqoridagilarni batafsil o'rganish grammatik kategoriya tushunchasini to'la o'zlashtirish imkonini beradi. Shundan so'ng kelishik, egalik, zamon, rod singari grammatik kategoriyalarni o'rganishga kirishish mumkin. Biroq, ma'ruzalar matni fanning keyingi yutuqlarini ham aks ettirgan holda muammoli ma'ruza shaklida berilgani bois talaba bunday o'rinlarda auditoriyada o'qiladigan ma'ruzalarni ham qunt bilan tinglab borishi zarur. Tilning grammatik kategoriyalarini o'rganishda shunga alohida ahamiyat berish lozimki, bir tilda mavjud bo'lgan muayyan grammatik kategoriya ikkinchi bir tilda bo'lmasligi ham mumkin. Fikrimiz dalili sifatida kelishik kategoriyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hozirgi zamon ingliz tilida ikkita, rus va o'zbek tillarida oltita, eston tilida o'n beshta, venger tilida esa yigirmadan ortiq. Xitoy-tibet tillarida va hozirgi zamon fransuz tilida kelishik kategoriyasi umuman mavjud emas.

Jahon tillarida so'z turkumlarining soni ham turlichadir. So'zlarni turkumlarga ajratishning asosiy mezonlari nimalardan iboratligi haqidagi ma'lumotlarni ham

morfologiya uchun ajratilgan mashg'ulotlarda atroflicha o'rganish nazarda to'tilgan, albatta. Bu o'rinda quyidagilar hisobga olinishi zarur deb hisoblaymiz:

- 1) so'zlarning leksik grammatik ma'nolari;
- 2) har bir so'zning morfologik belgilari;
- 3) so'zlarning gapdagi sintaktik vazifasi;
- 4) so'zlarning distributiv xususiyatlari.

Yuqoridagilardan tashqari, bizningcha, so'zlarni turkumlarga bo'linishi g'arbda ham, sharqda ham ko'p asrlardan buyon o'rganilib kelinayotgan munozarali masala ekanligiga ahamiyat berish va shu bilan bog'liq mavjud ma'lumotlarni o'rganish to'g'ri xulosa chiqarish uchun zamin yaratadi. Mazkur masala qadimgi hind tilshunosligida Panini, qadimgi yunon tilshunosligida Aristotel, Markaziy Osiyolik mutafakkirlardan Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariylar tomonidan o'rganilgani ma'lum. Darslik va qo'llanmalarda keltirilgan ularning fikrlari bilan tanishish masala mohiyati bilan qiziquvchi har bir talaba uchun muhim ma'lumot sifatida tavsiya etiladi.

17-ilova

“Tezkor-so'rov” savollari

1. Morfologiyani tekshiruv ob'ekti nimalardan iborat?
 2. Morfema va allomorflar haqida ma'lumot bering.
 3. Morfemalarning qanday turlari mavjud?
-

18-ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishini bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilishi lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tayziqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

19-ilova

Ekspert varag'i №1

1. Leksik va grammatik ma'nolar qanday farqlanadi?
2. Affiks morfemalarni o'zakka nisbatan joylashishiga qarab necha turga bo'lasiz?
3. Infiks *morfema* qanday tillarda kuzatiladi?

Ekspert varag'i №2

1. Grammatik rod kategoriyasi nima?
2. Grammatik rod kategoriyasi bilan biologik jins o'rtasida bog'liqlik bormi?
3. Tillarda son kategoriyasi qanday ifodalanadi?

Ekspert varag'i №3

1. Kelishik kategoriyasini qanday izohlaysiz?
2. Grammatik zamon kategoriyasi haqida ma'lumot bering.
3. So'zlarni turkumlarga bo'lishda nimalar e'tiborga olinadi?

20-ilova

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Morfemaning qanday asosiy turlari mavjud ?
 - a) grammatik va leksik ma'no beruvchi
 - b) so'z shaklidagi va affiks shaklidagi
 - v) o'zak morfema va affiks morfema
 - g) allomorf va grammatik morfema
 - d) so'zyasovchi va shakl yasovchi
2. Suppletivizm hodisasi nima ?
 - a) ma'lum bir so'zning grammatik formalari o'rtasidagi yaqinlik
 - b) so'z grammatik formalarining turli xil o'zak va negizlardan yasalishi
 - v) grammatik ma'no ifodalashda bir xil so'z formalaridan foydalanish
 - g) affikslarning leksik ma'noga ta'siri
 - d) so'zning grammatik formalari o'rtasidagi tafovut
3. Analitik shakl sintetik shakldan qanday farqlanadi ?

- a) analitik shakl affikslar orqali ifodalanadi, sintetik shakl esa yordamchi soʻzlar bilan
- b) analitik shakl yordamchi feʼllar bilan, sintetik shakl esa affikslar bilan ifodalanadi.
- v) fnflitik shakl koʻmakchi va bogʻlovchi bilan, sintetik shakl esa yordamchi feʼl bilan ifodalanadi
- g) analitik shakl koʻmakchi, bogʻlovchi, predlog, koʻmakchi feʼllar bilan, sintetik shakl esa affikslar bilan ifodalanadi
- d) analitik va sintetik shakllar bir hodisaning ikki xil nomlanishidir
4. Grammatik rod tarixan oʻzgaruvchanmi ?
- a) tarixan oʻzgaruvchan emas
- b) rod maʼosi tarixan oʻzgaruvchandir
- v) mujskoy va jenskiy rodlar tarixan oʻzgaruvchan, oraliq rod oʻzgarmaydi
- g) oraliq rod oʻzgaruvchan, mujskoy va jenskiy rodlar oʻzgarmaydi
- d) faqat jenskiy rod tarixan oʻzgaruvchandir

Guruhlarda ishlashni baholash

Guruhlar	Javobning toʻliqligi (1,0)	Szemalarda berilganligi (0,4)	Guruh ishtirokchisining faolligi 0,6)	Ballar	Bahosi
1					
2					
3					
4					
5					
6					

Baho mezonini va koʻrsatkichlari (balda)

Guruhlar	Baho	Yechim mantigʻi	Izchilligi, toʻliqligi, faolligi	Amaliy ahamiyati	Jami
	Ballar	1	2	2	5
1					
2					
3					

Guruhlar	1	2	3	Umumiy ballar yigʻindisi	Baho umumiy ballar yigʻindisining ikkiga boʻlingani
1	-				
2		-			

3			-		
---	--	--	---	--	--

Talabaning yakka bahosi guruh faoliyatining umumiy bahosiga teng.

Seminardagi maksimal yakuniy baho – 3 ball

2,2 – 3 – «a'lo»

1,2 - 2 – «yaxshi»

0,5 – 1,1 – «qoniqarli»

0 – 0,5 – «qoniqarsiz»

Kurs bo'yicha baholashda bilish, tushunish, tadbiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.

Har bir amaliy mashg'ulotda 2 ballgacha olishlari mumkin bo'lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni tushunadilar	Usullarni qo'llay oladilar	Natijalarni tahlil qila oladilar
20 %	20 %	30 %	30 %

5-Mavzu	Etimologiya.
----------------	--------------

1. Seminar mashg'ulotini olib borish texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 20
<i>Mashg'ulot shakli:</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga ajratilgan seminar mashg'uloti.
<i>Mashg'ulot rejasi:</i>	1. Semasiologiya, leksikografiya, frazeologiya, etimologiya. 2. So'z ma'nosining ko'shirilishi. 3. So'z va tushuncha.
<i>Mashg'ulotning maqsadi: Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
- mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi; - mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi; - o'z nuqtai nazariga ega bo'lishni shakllantiradi; - mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi.	amaliy mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi; kursda o'rganilgan asoiy tushunchalar va atamalarni aytib beradi.
<i>O'qitish usullari</i>	Topshiriqlar, amaliy ishlah usuli, bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, skotch.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa guruhlarida ishlash.

<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, test savollari.

2. Seminar mashg'ulotining xronologik xaritasi

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish bosqichi (10 minut).	1.1. Seminar mashg'ulot mavzusi, maqsadi, rejalari bilan tanishtirib, uni qanday tashkil etish va o'quv faoliyati natijalarini aytib o'tish..	Tinglaydilar.
	1.2. Faollashtirish maqsadida savollar beriladi. Blis-so'rov, savol-javob o'tkaziladi (21-ilova).	Savollarga javob beradi.
II. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1. Ta'lim jarayoni kichik guruhlarda taqdimot orqali o'tkaziladi.	Mustaqil taqdimot qilishadi.
	2.2. Guruhlarda ishlash tashkil qilinadi va unda yagona muammoli savol o'rtaga tashlanadi. Ta'lim jarayoni kichik guruhlarda ishlash orqali amalga oshirilishi tushuntiriladi (22-ilova).	Uchta guruhga bo'linadi.
	2.3. Talabalar 3 guruhga bo'linadi, ekspert varag'i tarqatiladi, bajarish metodikasi tushuntiriladi. Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (23-ilova).	Topshiriqlarni bajaradilar. Tinglaydilar.
	2.4. Har bir guruhning javoblarini ekspert guruhi baholaydi. Har bir ekspert guruhi o'zi ko'rib chiqqan topshiriqlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini ko'rsatib beradi.	Jamoa bo'lib topshiriqlarni bajaradilar, bahs-munozara yuritadilar, qo'shimchalar qiladilar, xulosa chiqaradilar.
	2.5. Topshiriqlar bajarilishining qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tignlaydi	Baholaydilar.
	2.6. Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar tushuntiriladi va izoh beriladi.	Tinglaydi.
	2.7. Natijalar tekshiriladi, muhokama qilinadi.	Baholanadi.

III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1.Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonini orqali rag'batlantiradi (24-ilova).	Eshitadi. Aniqlaydi..
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faolligi tahlil qilinadi va baholanadi.	Tinglaydi.

MAVZU: Etimologiya.

Leksikologiya til fanining eng asosiy bo'limlaridan biri sanaladi. Shu bois ham mazkur sohaga doir ma'lumotlarni o'rganish uchun quyidagi asosiy masalalarga alohida e'tibor qaratishni o'rinli deb hisoblaymiz. Leksikologiyaning o'rganish sohasini aniq belgilab olish, uning bo'limlari va har bir bo'limning o'rganish ob'yektini aniq tasavvur etish, so'zning leksik-semantik xususiyatlarini chuqur o'rganish, lug'aviy va leksik ma'no, so'z, narsa va tushuncha orasidagi munosabatlar ana shular jumlasidandir.

Til fanining har bir bo'limi o'zining asosiy o'rganish birligiga ega. Masalan, fonetika va fonologiyada bunday birlik tovushlar, morfologiyada morfemalar bo'lsa, leksikologiyada asosiy tadqiq etilayotgan birlik so'z hisoblanadi. Shuni aytish lozimki, so'z nafaqat leksikologiyaning, balki tilshunoslikning barcha bo'limlarida muhim o'rganish ob'yektidir. Leksikologiyaning bo'limlari semasiologiya, etimologiya, frazeologiya, onomasiologiya singarilarning barchasi o'z o'rganish sohasiga ega bo'lib, ularning har birining vazifalari o'ziga xos ekanligini talaba birinchi navbatda yaxshi bilmog'i zarur. Buni yaxshi o'zlashtirgan talaba leksikologiyaning o'rganish sohasi va vazifalari nimadan iborat ekanini aniq tasavvur eta oladi. Bundan tashqari, leksikologiyaning sinxronik va diaxronik leksikologiyaga bo'lib o'rganilishi ham mavjud. Bu esa, yuqoridagilardan farqli o'laroq, tilning hozirgi holati va bosib o'tgan tarixiy evolyutsion yo'li jihatidandir. Tilning leksik qatlamini tasnifiy va qiyosiy o'rganish mumkinligi haqida ma'ruzalar matni va darslikda ma'lumot berilgan, ammo buni yuqoridagi bo'limlar bilan bir qatarga qo'yish maqsadga muvofiq emas. Chunki tasnifiy leksikologiyada alohida olingan muayyan bir tilning lug'at boyligini har tomonlama o'rganish nazarda tutilsa, qiyosiy

leksikologiya o'z oldiga ikki yoki undan ortiq til leksikasini qiyoslab o'rganishni maqsad qilib qo'yadi.

So'z tilshunoslikning hamma sohasida birdek o'rganilishi lozim bo'lgan birlik hisoblanishi yaxshi ma'lum. Biroq, so'zni voqelikdagi narsa, belgi, voqea, hodisa, harakatning bevosita belgisi deb tushunish izohtalabdir. Zotan, so'z voqelikdagi narsa, belgi, voqea, hodisa, harakat kabilar haqidagi tushunchani nomlaydi. Boshqacha aytganda, so'zning fizik qiyofasi bilan u anglatayotgan narsaning fizik qiyofasi o'rtasida hech qanday bog'liqlik mavjud emas. Hozirgi tilshunoslikda so'zning ma'nosini **segnifikat** termini bilan, u anglatgan predmet yoki hodisani **denotat** termini bilan nomlaymiz.

So'zga nisbatan qo'llanadigan terminlarga alohida ahamiyat qaratish zarurdir. So'zning qanday o'rinda ekanligini inobatga olib, turli terminlar qo'llaniladi. So'z lug'at boyligining ma'lum bir unsuri sifatida **vokabula**, ma'no ifodalashini nazarda tutib **semantema**, narsaning nomini atagani, tushuncha bildirgani uchun **leksema** deb ataladi. Mazkur terminlar xususida aniq tushunchaga ega bo'lish so'zning qanday o'rinda ekanligini to'liq tasavvur etish imkonini beradi. Bunday terminlarning qo'llanishi so'zning lug'aviy ma'nosini uning leksik ma'nosidan farqlab o'rganish borasidagi jarayonda qo'l keladi. Chunki so'zning lug'aviy ma'nosi bilan uning leksik ma'nosi hamma vaqt ham mos kelavermaydi.

So'zning ma'nosi haqida gapirilganda shunga etibor qaratish lozimki, ma'no va tushuncha o'rtasida muayyan farqli xususiyatlar mavjuddir. Bu haqdagi tasavvurni yanada oydinlashtirish uchun tilimizda mavjud bo'lgan tabu va evfimizmlarga ahamiyat berish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, tushuncha leksik ma'nodan farqli bo'lib, u faqat so'z orqali emas, balki so'z birikmasida ifodalanishi ham mumkin. Leksik ma'noning asosiy turlari **atash**, **ko'rsatish** va **ko'chma** ma'nodan iboratdir. Bu o'rinda ko'chma ma'no metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik asosidagi ma'no ko'chishi sifatida tushunilmog'i lozim. Ko'chma ma'noning bunday ko'rinishi, albatta, frazeologik birliklardagi ma'no ko'chishidan farqlidir.

21-ilova

“Tezkor-so‘rov” savollari

1. Leksikologiyaning tekshiruv ob‘ekti nimalardan iborat?
 2. Leksikologiyaning qanday bo‘limlarini bilasiz?
-

22-ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo‘lmog‘i lozim
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilishi lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo‘yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tayziqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o‘qituvchi ularga yo‘riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo‘lganda ham muloqotda bo‘ling, o‘z fikringizni erkin namoyon eting.

23-ilova

Ekspert varag‘i №1

1. So‘z-signifikat-denotat tushunchalarini izohlang.
 2. Leksik ma‘no deganda qanday manoni tushunasiz?
-

Ekspert varag‘i №2

1. So‘z va tushuncha xususida ma‘lumot bering.
 2. Leksik ma‘noning qanday turlarini bilasiz?
 3. So‘z ma‘nosining ko‘chirilishi qanday hodisalar doirasida ro‘y beradi?
-

Ekspert varag‘i №3

1. Leksik ma‘noning qanday turlarini bilasiz?
 2. So‘z ma‘nosining ko‘chirilishi qanday hodisalar doirasida ro‘y beradi?
-

24-ilova

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Leksikologiyaning qanday bo'limlari mavjud ?
 - a) semasiologiya, etimologiya va leksikografiya
 - b) etimologiya, onomastika, onomasiologiya
 - v) semasiologiya, etimologiya, frazeologiya, leksikografiya, onomastika, onomasiologiya
 - g) frazeologiya, etimologiya, leksikografiya
 - d) leksikografiya, fraziologiya, onomastika

2. Denotat deganda nimani tushunasiz ?
 - a) so'zning ma'nosini
 - b) so'z anglatayotgan hodisa yoki predmetni
 - v) so'z anglatayotgan tushunchani
 - g) so'zning shakliy tuzilishini
 - d) so'zning grammatik shaklini

3. Avstraliyada «So'z va Narsa» nomi bilan atalgan maktabni kim asoslagan
 - a) F.deSossyur, b) Andre Martine v) Sh.Balli, g) Rudolf Mirenger
 - d) G.Glison

4. «Tabu» atamasi nimani anglatadi ?
 - a) aytish man etilgan so'zlarni
 - b) bir tushunchaning ikkinchi tushuncha bilan almashtirilishini
 - v) marosimlarda qo'llanadigan so'zlarni
 - g) sinonimik ma'noli so'zlarni
 - d) qarama-qarshi so'zlarni

Guruhlarda ishlashni baholash

Guruhlar	Javobning to'liqligi (1,0)	Szemalarda berilganligi (0,4)	Guruh ishtirokchisining faolligi 0,6)	Ballar	Bahosi
1					
2					
3					
4					
5					
6					

Baho mezonlari va ko'rsatkichlari (balda)

Guruhlar	Baho	Yechim mantig'i	Izchilligi, to'liqligi, faolligi	Amaliy ahamiyati	Jami
	Ballar	1	2	2	5
1					
2					

3					
----------	--	--	--	--	--

Guruhlar	1	2	3	Umumiy ballar yig'indisi	Baho umumiy ballar yig'indisining ikkiga bo'lingani
1	-				
2		-			
3			-		

Talabaniing yakka bahosi guruh faoliyatining umumiy bahosiga teng.

Seminardagi maksimal yakuniy baho – 3 ball

2,2 – 3 – «a'lo»

1,2 - 2 – «yaxshi»

0,5 – 1,1 – «qoniqarli»

0 – 0,5 – «qoniqarsiz»

Kurs bo'yicha baholashda bilish, tushunish, tadbqiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.

Har bir amaliy mashg'ulotda 2 ballgacha olishlari mumkin bo'lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni tushunadilar	Usullarni qo'llay oladilar	Natijalarni tahlil qila oladilar
20 %	20 %	30 %	30 %

6-Mavzu	Leksikografiya	
----------------	----------------	--

1. Seminar mashg'ulotini olib borish texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 20
<i>Mashg'ulot shakli:</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga ajratilgan seminar mashg'uloti.
<i>Mashg'ulot rejasi:</i>	1. Lug'atlarning turlari haqida 2. Ensiklopedik lug'atlar 3. Filologik lug'atlarning turlari 4. Lug'atshunoslik tarixidan
<i>Masg'ulotning maqsadi: Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	O'quv faoliyati natijalari:
- mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi; - mavzu bo'yicha bilimlarni	amaliy mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi; kursda o'rganilgan asoiy tushunchalar va

chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi; • o'z nuqtai nazariga ega bo'lishni shakllantiradi; • mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi.	atamalarni aytib beradi.
<i>O'qitish usullari</i>	Topshiriqlar, amaliy ishlah usuli, bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, skotch.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa guruhlarida ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, test savollari.

2. Seminar mashg'ulotining xronologik xaritasi

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish bosqichi (10 minut).	1.1. Seminar mashg'ulot mavzusi, maqsadi, rejalari bilan tanishtirib, uni qanday tashkil etish va o'quv faoliyati natijalarini aytib o'tish..	Tinglaydilar.
	1.2. Faollashtirish maqsadida savollar beriladi. Blis-so'rov, savol-javob o'tkaziladi (25-ilova).	Savollarga javob beradi.
II. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1. Ta'lim jarayoni kichik guruhlarda taqdimot orqali o'tkaziladi.	Mustaqil taqdimot qilishadi.
	2.2. Guruhlarda ishlash tashkil qilinadi va unda yagona muammoli savol o'rta tashlanadi. Ta'lim jarayoni kichik guruhlarda ishlash orqali amalga oshirilishi tushuntiriladi (26-ilova).	Uchta guruhga bo'linadi.
	2.3. Talabalar 3 guruhga bo'linadi, ekspert varag'i tarqatiladi, bajarish metodikasi tushuntiriladi. Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (27-ilova).	Topshiriqlarni bajaradilar. Tinglaydilar.
	2.4. Har bir guruhning javoblarini ekspert guruhi baholaydi. Har bir ekspert guruhi o'zi ko'rib chiqqan topshiriqlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini ko'rsatib beradi.	Jamoa bo'lib topshiriqlarni bajaradilar, bahs-munozara yuritadilar, qo'shimchalar qiladilar, xulosa chiqaradilar.

	2.5. Topshiriqlar bajarilishining qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tignlaydi	Baholaydilar.
	2.6. Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar tushuntiriladi va izoh beriladi.	Tinglaydi.
	2.7. Natijalar tekshiriladi, muhokama qilinadi.	Baholanadi.
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi (28-ilova).	Eshitadi. Aniqlaydi..
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faolligi tahlil qilinadi va baholanadi.	Tinglaydi.

Leksikografiya

Tildagi barcha so'zlar, ularning tarixi, izohi, imlosi kabi masalalar lug'atshunoslik (leksikografiya)da o'rganiladi. Lug'atlar ilmiy maqsadlarda tuziladi. Lug'atlarning, dastavval, *ensiklopedik* va *lingvistik* turi farqlanadi.

Ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar ijtimoiy turmushning barcha sohasiga oid so'zlarni qamrab oladi. Ensiklopedik lug'atlarda so'zlar, birikmalar, ma'lum bir voqea-hodisalar izohlanadi. Lingvistik lug'atlarda esa faqat so'zlar beriladi.

Lug'atlar qo'llanish doirasiga ko'ra ikki xil bo'ladi: *umumiy lug'atlar* va *maxsus lug'atlar*. Umumiy lug'atlar barchaga mo'ljallangan bo'lib, ulardan turli soha vakillari foydalanishi mumkin. Masalan: "Imlo lug'ati", "Izohli lug'at", "Ruscha-o'zbekcha lug'at". Maxsus lug'atlar esa ma'lum bir soha vakillari uchun mo'ljallangan bo'ladi: "Sinonimlar lug'ati", "Matematik terminlar lug'ati".

So'zligining bir til yoki bir necha tildan iborat bo'lishiga ko'ra *tarjima lug'atlari* va *bir tilli lug'atlar* farqlanadi.

I. Tarjima lug'atlarida bir tilning lug'aviy birligiga boshqa tildagi mos birlik beriladi. Masalan, "O'zbekcha-ruscha lug'at".

II. Bir tilli lug'atlar (o'z til lug'atlari) ning so'zligi bir tilda bo'ladi. Bir tilli lug'atlarning quyidagi turlari bor.

1. **Izohli lug'at**da lug'aviy birliklarning (so'z yoki iboralarning) ma'nosi izohlanadi. Lug'aviy birlik ko'p ma'noli bo'lsa, uning barcha ma'nolari beriladi va izohlanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 1981 yilda 2 jild holida nashr etilgan bo'lib, oltmish besh mingga yaqin so'z izohlangan.

2.. **Imlo lug'ati** so'zlarning imlo qoidalariga binoan qanday yozilishini qayd etadi. Imlo lug'ati (orfografik lug'at) so'zlarning to'g'ri yozilishini ko'rsatadi. Katta hajmli imlo lug'ati 1976 yilda nashr etilgan, unda 65 ming so'zning to'g'ri yozilishi qayd qilingan. O'quvchilar uchun chiqarilgan maxsus imlo lug'atida 17 ming so'zning to'g'ri yozilishi berilgan.

3. Orfoepik lug'atda so'zlarning adabiy talaffuzi qayd etiladi.

4.Morfem lug'atda so'zlarning morfem tuzilishi, ma'noli qismlari beriladi. Ular lingvistik maqsadlarda tuziladi.

5.Chastotali lug'at so'zlarning qo'llanish miqdori va foizi haqida ma'lumot beradi.

6.Ters (chappa, teskari) lug'atda so'zlar qaysi harf bilan tugashiga qarab joylashtiriladi.

7.O'zlashma so'zlar lug'atida boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar izohlanadi.

8.O'zbek tilining izohli frazeologik lug'atida frazeologik birliklar (iboralar) izohlanadi. Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" 1978 yilda tuzilgan.

9.Sinonimlar lug'atida sinonimlar izohlanadi.

10.Omonimlar lug'atida omonimlar izohlanadi.

11.Antonimlar lug'atida antonimlar (qarama-qarshi ma'noli so'zlar) beriladi.

12.Dialektal lug'atda o'zbek tilining dialekt va shevalariga xos bo'lgan so'zlar qayd etiladi.

13. Terminologik lug'atda terminlar izohlanadi.

14. Etimologik lug'atda so'zlarning kelib chiqishi, shakllanish tarixi yoritiladi. «O'zbek tilining etimologik lug'ati» 2000 yilda prof. Sh. Rahmatullayev tomonidan yaratildi.

"O'zbek tilining izohli etnografik lug'ati", "Qo'shma so'zlar lug'ati" hali yaratilmagan.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Hujjatchilikning paydo bo'lishini izohlab bering.
2. Hujjatshunoslik qaysi xususiyatlari bilan tilshunoslikka aloqador?
3. Stenografik yozuv deganda nimani tushunasiz?
4. Lug'atlarning turlarini izohlab bering.
5. Entsiklopedik lug'at nima?
6. Filologik lug'atlar necha tilli bo'ladi?

Zaruriy adabiyotlar

1. Irisqulov M. Tilshunoslik. – T.,2008.
2. Головин Б.Н. Введение в языкознание. –М., 1977.
3. Кодухов В.И. Введение в языкознание. -М., 1979.
4. Kamolova N. X. Hujjatshunoslik. – T., 2010.

7-MAVZU	Gapning aktual bo‘linishi
----------------	---------------------------

1. Seminar mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi.

<i>O‘quv soati: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 20 ta</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli:</i>	Seminar
<i>Ma’ruza rejasi:</i>	1. Sintaksisning tekshiruv obyekti. 2. Kichik sintaksis haqida. 3. Predikativlik hodisasi. 4. Sintaktik valentlik nazariyasi.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: kichik sintaksis, so‘z birikmasi, predikativlik, so‘z sintaksisi, sintaktik valentlik va aktantlar haqida keng ma’lumot berish hamda talabalarda bilim ko‘nikmalarini shakllantirish.</i>	
<i>Ta’lim metodlari:</i>	namoyish etish, integrasiyalashgan o‘qitish, tezkor savol-javob, aqliy hujum.
<i>Ta’lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
<i>O‘qitish shart-sharoitlari:</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Og‘zaki nazorat, savol-javob, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Mavzu: Gapning aktual bo‘linishi

Ma’lumki, sintaksis grammatikaning ikkinchi bo‘limini tashkil etadi va unda so‘zlarning o‘zaro munosabatlari o‘rganiladi. An’anaga ko‘ra, sintaksisda so‘z birikmalari, sodda va qo‘shma gaplar, gap bo‘laklari muammolari tekshiriladi.

Biroq, shuni ham aytish lozimki, sintaktik muammolar tavsifi bugungi kunda ko‘pchilikni qoniqtirmayapti. Bu sohada yechilmagan va munozarali muammolar ko‘p. Buning asosiy sababi, bizningcha, “til va nutq” dioxotomiyasiga bog‘liq masalalar yaxshi o‘rganilmagani bilan bevosita aloqadordir.

Aytish lozimki, hozirgacha tilshuntoslik fani, asosan, til sistemasini o‘rganish bilan shug‘ullandi. Masalaning ikkinchi tomoni - sistema unsurlarining nutqda real

qo'llanilishi tadqiqi ikkinchi darajali bo'lib keldi. Shu bois hozirgi tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri nutq sintaksisi muammolarini tadqiq etish bo'lib qoldi.

An'anaviy tilshunoslikda sintaksis doirasida so'z birikmalari va gap o'rganildi. Lekin bugungi kunda so'z sintaksisi muammolari ham dolzarb bo'lib turibdi. Unga ko'ra, kichik sintaksis deb atalishi mumkin bo'lgan yangi sohaning asoslanishi talab etilmoqda.

Kichik sintaksisning asosiy vazifasi yasama va qo'shma so'zlar tarkibiy qismlarini, shuningdek, so'z birikmalari shakllanishi masalalarini tadqiq qilishdan iboratdir.

Shu narsa e'tiborga molikki, yasama so'zlarning tarkibiy qismlari, ya'ni morfemalarning o'zaro munosabatlari ham sintaktik qonun-qoidalar asosida ro'y beradi; **ish+chi, til+shunos, tin+ch-lik, учу+тель, лошад+ник** va boshqalar.

Yasama so'zlarda morfemalar munosabati gorizontol chiziq bo'ylab shakllanar ekan, ularning mikrosintagmatik munosabatda ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Bunday munosabatlar doirasida ham ob'ekt-sub'ekt va harakat aloqalarini bemalol kuzatish mumkin. Masalan, **ishchi** so'ziga e'tibor beraylik. Bunda **ish** - ob'ekt, **-chi** sub'ekt o'rnidagi ijrochidir. Ob'ekt va ijrochi o'rtasida harakat mazmuni kuzatiladi. *O'qituvchi* so'zini ham bunga misol keltirish mumkin. Qo'shma so'zlar unsurlari o'rtasida esa ega-kesim, to'ldiruvchi-harakat, aniqlovchi-aniqlanmish munosabatlari ham kuzatiladi: *Xudoyberdi, Keldiyor, otboqar, sohibjamol* va boshqalar.

Ana shulardan kelib chiqib, sintaktik munosabatlarni so'z birikmalari unsurlari o'rtasidagi aloqalardan emas, balki so'z unsurlari munosabatlaridan boshlab o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi grammatikalarimizda so'z birikmalari tavsifi erkin birikmalar matereallariga asoslanadi. Ammo so'z birikmalarining turg'un deb ataluvchi turi na grammatikada, na leksikologiyada va na frazeologiyada o'rganiladi. Vaholonki, turg'un birikmalar komponentlari o'rtasida ham, statik xarakterda bo'lsa-da, sintagmatik munosabatlar mavajuddir. Shuning uchun turg'un birikmalarni to'lig'icha kichik sintaksis tekshiruv ob'ektlari jumlasiga kiritish mumkin.

Erkin so'z birikmalari muammosi ham hozirgacha to'liq hal etilgani yo'q. Bunda quyidagi muammolar izohtalabdir:

2.Erkin so'z birikmalari komponentlarining munosabati xarakteri (ergash bog'lanish va teng bog'lanish).

2.Erkin so'z birikmalarining turlari.

3.Erkin birikmalarning predikativlik hodisasiga munosabati va boshqalar.

Aytish joizki, erkin so'z birikmalari nutqda shakllanadi. Shunipg uchun ham ularni erkin so'z birikmalari deb ataymiz. Biroq hozirgacha erkin birikmalarning nutqdagi shakli emas, balki tildagi sxemasi o'rganilib kelinmoqda. Ayniqsa, fe'lli birikmalar *vazifani bajar*moq, *nasihat qil*moq tarzida olinib tahlil etilmoqda. Ammo bu birikmalar nutqdagi so'z birikmalarini taqozo etmaydi. Nutqda ular **vazifani bajardi** (bajaradi, bajarmoqda) tarzida tug'iladi. Bu esa fe'lli birikmalarning predikativ qurilmalar ekanligidan dalolat beradi. Ularning tildagi sxemasiga asoslanib, so'z birikmalari sof nominativ va nopredikativ ekanligi haqida hukm chiqarish noto'g'ridir.

Sintaktik tadqiqotlarda hali predikativlik tushunchasi ham to'liq izohlangani yo'q. Qariyb barcha darslik va o'quv qo'llanmalarda predikativlik hodisasi faqat gapga xos ekanligi ta'kidlanadi. Bizningcha, bunday xulosa bilan ham qo'shilish qiyin. Chunki til materiallarining tahlili predikativlik hodisasi alohida olingan bir so'z doirasida ham ifodalanishi mumkinligini ko'rsatadi. Masalan, shahar xaritasining ustiga **London** deb yozib qo'yilgan bo'lsa, (А.И.Смирницкий), bu so'z orqali voqelikka munosabat bildirilayotganini inkor etib bo'lmaydi. Demak, bu o'rinda predikativlik hodisasi shakllanmoqda.

Yuqoridagilardan tashqari, bugungi sintaksisda gap doirasida qo'llaniladigan undalma va kirish so'zlar xususida ham ishonarli fikrlar aytilganicha yo'q. Bunday so'zlar gap bo'laklari hisoblanmasligi izohtalabdir. Shu bois tilshunoslik adabiyotlarida ularni avtonom monemalar (А.Мартине), gapning uchinchi darajali bo'laklari (Р.Сайфуллаев) tarzida o'rganish lozimligi xususida aytilgan ba'zi fikr va mulohazalarni ham ko'ramiz.

An'anaviy tilshunoslikda gap sintaksisi, asosan, gap bo'laklari doirasida o'rganib kelinmoqda. Bunda gapning bosh bo'laklari (ega va kesim) va ikkinchi darajali bo'laklar (aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol) tahlil etiladi. Gapning tuzilishiga ko'ra turlari esa sodda va qo'shma gaplar misolida izohlanadi.

Gap bo'laklari haqida shuni aytish mumkinki, bunday bo'linish bugungi tilshunoslik fanining taraqqiyot bosqichida talabga javob bermayapti. Gapning bosh bo'laklarini olaylik. Ega va kesim tushunchalari bizga Aristoteldan meros qolgan **sub'ekt** va **predikat** tushunchalarining kalkalashtirilgan shakllaridir. G'arb tillarida esa sub'ekt va predikat (tushunchalari) terminlarining o'zi qo'llanilmoqda.

Sub'ekt va predikat tushunchalari aslida mantiq kategoriyalaridir. Ularning grammatikada qo'llanilishi talabga javob bera olmayapti. Shuning uchun so'nggi yillarda **aktant**, **sirkonstant**, **agens**, **patsiens** singari bir qator yangi terminlardan foydalanilmoqda.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklarining nomlanishi ham izohtalabdir. Aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol atamaları gapning sintaktik tahlilida qo'llanilayotgan bo'lsa-da, ular gap strukturasini soxta ravishda sxemalashtiradi va grammatik tamoyillarga to'liq asoslanmagan (В.В.Виноградов).

Shuni alohida qayd etish lozimki, tilshunoslik fanining bugungi taraqqiyoti davrida semantik sintaksis muammolari ko'pchilikni qiziqtirmoqda. Semantik siktaksisda ko'proq mantiqiy tushunchalarga asoslaniladi. Bunda **predikat** va uning **argumentlari**, **propozitsiya** va **presuppozitsiya** tushunchalaridan keng foydalaniladi va ular atroflicha izohlanadi.

Argument deganda, predikat bevosita munosabatda bo'ladigan hukmning ijrosida asos vazifasini o'tovchi unsurlarni tushunamiz. Predikat hukmning ijrosini, artument esa bu jarayonning ishtirokchisi vazifasini bajaradi: **Иван дал брату книгу**.

Propozitsiya deganda, predikat ishtirokida shakllanib, valentlik darajalari to'ldirilgan semantik struktura tushuniladi (В.Б.Касевич). **Presuppozitsiya** deganda esa, ma'lum bir sintaktik struktura ifodalayotgan real ma'nodan tashqari, uning ichki (tub) strukturasida anglashiladigan ma'no tushuniladi (Bola uxlamoqda - uyg'oq emas).

G'arb tillarida va rus tilshunosligida ham semantik sintaksis muammolari ancha mukammal ishlangan. O'zbek tilshunosligida esa bu sohada «O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi» deb nomlanuvchi dastlabki asar 1992 yilda nashrdan chiqdi.

Yuqoridagilardan tashqari, struktur sintaksis yo'nalishi ham mavjuddir. Bunda amerikalik tilshunoslar, xususan, N.Xomskiy, fransuz tilshunosi L.Tenyer kabilarning ishlarini alohida qayd etish lozimdir.

Struktur sintaksis muammolari gapning bevosita ishtirokchilari hamda transformatsiya usullari yordamida keng yoritilgan. Biroq L.Tenyerning «Struktur sintaksis asoslari» (M., 1988) deb nomlanuvchi asarida struktur sintaksis muammolari o'ziga xos yo'nalishda izohlanadi. Unda L.Tenyer translitiratsiya usulidan keng foydalanib, gapda so'zlarning o'zaro munosabatini stemmalar orqali tasvirlab beradi.

L.Tenyerning nazariyasi jahon tilshunosligida verbosentrik nazariya deb tan olingan, zotan, o'nda fe'lning sintatik faolligiga alohida ahamiyat beriladi.

L.Tenyer mazkur asarida jahonda birinchilardan bo'lib fe'lning sintaktik valentligi masalasini ilmiy asoslab beradi. Fe'l valentligi *aktantlar* va *sirkonstantlar* qurshovida izohlanadi. Aktant deganda, muallif harakat ijrochilarini, sirkonstant deganda esa, harakat ijrosi amalga oshadigan nutq jarayoni bilan bog'liq holda qo'llanadigan holat bildiruvchi so'zlarni tushunadi.

Aktantlarni L.Tenyer uch turga bo'ladi: 1) birinchi darajali aktantlar (ega vazifasida keluvchi), 2) ikkinchi darajali aktantlar (to'g'ri, ya'ni vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladigan aktantlar), 3) uchinchi darajali aktantlar (vositali to'ldiruvchi vazifasida keluvchi aktantlar).

Sirkonstantlar fe'l valentligi darajasiga ta'siri bo'lmasa-da, harakat ifodasi doirasida ishtirok etuvchi holat bildiruvchi so'zlardir. Bunga holning barcha turlarini kiritish mumkin. Aniqlovchi vazifasida keluvchi so'zlarni L.Tenyer alohida tavsiflaydi va ularni aktantlar doirasida keluvchi so'zlar sirasiga kiritadi.

Aytish lozimki, L.Tenyerning bu nazariyasi bugungi kunda ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlarining vujudga kelishiga metodologik asos bo'lmoqda. Bu nazariya zahirida ayni paytda sintaktik, semantik valentlik nazariyalari yanada takomillashtirilmoqda.

GAPNING AKTUAL BO'LAKLARI

Gapning funksional tahlili usullari so'nggi yillarda tilshunoslikning diqqat markazidagi asosiy masalalardan biri bo'lib qoldi. Bu sohada jahon tilshunosligida ilmiy tadqiqot ishlari keng ko'lamda olib borilmoqda.

Ammo shuni ham qayd qilish lozimki, funksional tahlil bobida tilshunoslar fikrlari mushtarak emas. Ba'zi tilshunoslar funksional tahlil deganda gapning an'anaviy bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linishini tushunsalar, ba'zilar funksional tahlilni gapning aktual bo'laklari bilan bog'laydilar, boshqa birlari esa bu

tahlilni gap komponentlarining tildan nutqqa ko‘chirilishi doirasida izohlaydilar. Quyida gapning aktual bo‘laklari nazariyasiga to‘xtalamiz.

Avvalo, shuni aytish kerakki, bu nazariya dastlab chex olimi V.Metezius tomonidan asoslangan. Keyinchalik shu sohada rus olimlarining ham qator-qator ilmiy ishlari yaratildi (I.P.Raspopov, V.G.Gak, K.G.Krushilnitskaya va boshqalar). O‘zbek olimlaridan A.Sodiqov ham mazkur yo‘nalish bo‘yicha ancha ishar qildi.

Gapning aktual bo‘laklari nazariyasining asosiy mohiyati shundaki, har bir gapda sintaktik strukturadan tashqari, muloqot strukturasi ham bo‘ladi. Muloqot, ya‘ni kommunikativ struktura gap komponentlarining mantiqiy faolligiga asoslanadi. Boshqacha aytganda, har bir gapning boshlanish nuqtasi - asosi (основа высказывания) va undagi xabar ifodasining markazi bo‘ladi (ядро высказывания). Masalan, **Sobir qalam bilan yozdi**.

Mazkur gapda xabarning asosi, albatta, **Sobir** so‘zi orqali ifodalanmoqda. Bu yangilik emas. Xabar yangiligi **qalam** so‘zi bilan berilmoqda. Negaki, **Sobir ruchka bilan, bo‘r bilan emas**, balki **aynan qalam bilan yozganligi** bo‘rttirilmoqda. Biroq, bu o‘zgarmas ifoda emas. Agar tinglovchini Sobirning bekor o‘tirishi emas, balki yozganligi qiziqtiradigan bo‘lsa, bu gapda **yozi** so‘zi xabar markazini tashkil etishi ham mumkin.

Gapning aktual bo‘laklari tahlili, asosan, ikki unsur orqali - **xabarning asosi** va **xabarning (yadrosi) markazi** orqali olib boriladi. Biroq tilshunoslikda bu o‘rinda keyingi paytlarda «tema» va «rema» atamalari keng qo‘llanilmoqda. Tema xabarning so‘zlovchiga ham, tinglovchiga ham avvaldan ma‘lum qismini taqozo etadi. Rema esa xabarning markazini, uning yangiligini taqozo etadi: **Nodir choy ichdi**.

Bu gapda **Nodir** so‘zi tema vazifasida, **choy** so‘zi esa rema vazifasida kelmoqda. Agar gapni **Choy yozda ko‘p ichiladi** tarzida davom ettirsak, **choy** so‘zi endi rema bo‘lolmaydi, chunki u xabar markazidan chetlashadi va tema funksiyasini bajaradi. Bunda nutq muhiti xarakteri bilan bog‘liq holda rema vazifasini **yozi** so‘zi, yoki **ichiladi** so‘zi bajarishi ham mumkin.

Ko‘rinadiki, gapning aktual bo‘laklari beqaror xarakterga ega. Shu bois ular gapning turli bo‘laklari bilan ifodalanaveradi. Bunda, asosan, gapning qaysi bir bo‘lagi mantiqiy urg‘u olishi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi, zotan, mantiqiy urg‘u olayotgan bo‘lak rema vazifasini o‘taydi.

Gapning aktual bulaklarini belgilashda rus tilshunosligida dastlab «данное» va «новое» deb ataluvchi atamalardan foydalanildi. Biroq bugungi kunda rus tilshunosligida ham «tema», «rema» terminlari keng qo‘llanilmoqda.

Gapning aktual bo‘laklarga bo‘linishi, ko‘rib o‘tganimiz singari, mantiqiy yohud semantik tushunchalarga asoslanadi. Shuning uchun uni sintaksis (odatdagi sintaksis) doirasida o‘rganish ancha qiyin. Bizningcha, mazkur nazariya semantik sintaksis muammolari tahliliga mos keladi. Chunki «tema»ni sub‘ekt bilan, «rema» ni esa predikat bilan qiyoslash mantiqqa to‘g‘ri keladi.

Gap komponentlarining funksional tahlilini barqaror unsurlarga asoslangan holda talqin etish maqsadga muvofiqdir, zero, gapning har bir unsuri shu gap doirasida o‘zgarmas funksiya bajaradi. Bundan tashqari, masalaning ikkinchi tomoni ham bo‘lib, unga ko‘ra gapning aktual bo‘laklari nazariyasini yangi nazariya deb ayta

olmaymiz. Chunki xali Aristotel yashagan davrlardayoq bunga monand ilmiy fikrlar mavjud edi. Gapning mantiqiy urg'u oluvchi bo'lagi predikat deb atalishining o'zi ham fikrimiz dalili bo'la oladi. Shuning uchun gapning aktual bo'laklari nazariyasini formal-sintaktik qoidalar doirasida qo'llab bo'lmaydi. Undan, semantik sintaksisda keng foydalanish mumkin, zotan, predikat va rema mushtarak hodisalardir.

Gap komponentlarining funksional tahlili muammosi Praga tilshunoslik maktabining vakillaridan biri taniqli fransuz tilshunosi Andre Martine tomonidan ham ishlangan. Andre Martine o'zining funksional tahlilini til unsurlarining nutqda real qo'llanilishi masalasi bilan uzviy bog'laydi. Uning funksional tahlil nazariyasida asosiy e'tibor til unsurlarining nutqqa ko'chirilishi va aktuallashishiga qaratiladi.

Andre Martine o'z g'oyalarini «Sinxronik tilshunoslik», «Til va funksiya» deb ataluvchi asarlarida asoslaydi. Uning funksional tahlil nazariyasida nutqning eng kichik birligi **«monema»** tavsifi va monemaning turlari atroflicha yoritiladi.

Muallif monema deganda nutqning eng kichik birligini tushunar ekan, u shu asosda gapning shakllanishini mukammal izohlab beradi. Monemaning uch turi: **avtonom** (muxtor) **monema**, **funksional monema** va **qaram monema** haqida to'liq ma'lumot beradi.

Muxtor, ya'ni avtonom monema gapning mustaqil komponentlaridan biri sifatida faol qo'llanadi. Muxtor monemaning bu nom bilan atalishining asosiy sababi uning tildan nutqqa ko'chirilishidir. Bunday monema boshqa unsurlarning yordamiga tayanmagan holda aktuallashuvidan tashqari, o'zi ham gap tarkibida qatnashayotgan biror bir unsurga sintaktik faollik olishida ko'maklasha olmaydi: **Ehtimol, hamma charchagandir. Bugun Sobir ishga kelmadi.**

Bu gaplarda **ehtimol** va **bugun** so'zlari muxtor monema vazifasida kelmoqda. Zero, ularning har ikkalasi ham tildan nutqqa (paradigmatik qatordan sintagmatik qatorga) mustaqil holda ko'chirilmoqda. Bundan tashqari, berilgan gaplarning har ikkalasida ham biror komponentning muxtor monemalar bilan sintagmatik munosabati yo'q. Shuning uchun bu monemalar gap tarkibidan tushirilganda ham, keltirilgan gaplarning sintaktik butunligi o'zgarib qolmaydi.

Muxtor monemalar har bir tilda uning ichki sistemasi qonun-qoidalari asosida belgilanadi. Ular mustaqil so'zlar orqali ham, kirish so'z yoki kirish birikmalar orqali ham, undalma orqali ham ifodalanishi mumkin.

Monemalar ichida **funksional monemalar** muhim ahamiyat kasb etadi. Funksional monema gapning sintagmatik zanjirini yasovchi va uning salmog'ini belgilovchi asosiy vositalar jumlasiga kiradi.

Funksional monema gapning bir yoki bir necha unsuriga sintaktik faollik beradi va ularning tildan nutqqa ko'chirilishida asosiy vosita hisoblanadi. Masalan, **Adolat qishloqdan shaharga keldi.**

Berilgan gapda to'rtta funksional monema qatnashmoqda. Ega kesimga va kesim egaga funksiya berayotgani uchun ularning har ikkisini ham funksional monema deb ataymiz. Bundan tashqari, -dan, -ga affikslari ham funksional monemalardir. Chunki mazkur affikslar ishtirokisiz **qishloq** va **shahar** so'zlari tildan nutqqa ko'chirilmaydi. Ayni paytda -dan, -ga affikslari **qishloq** va **shahar** so'zlarini tildan nutqqa ko'chiribgina qolmay, ularni sintaktik funksiya bilan ham ta'minlamoqda.

Funksional monema avval eslatib o'tilganidek, gapning birdan ortiq unsuriga funksiya berishi ham mumkin: **Salim bilan Sobir masala ishlashdi. Akbar yaxshi o'qigani uchun mukofot oldi.**

Keltirilgan misollarning birinchisida **bilan** ko'makchisi bir yo'la ikki unsurga (Sobir, Salim) funksiya berayotgan bo'lsa, ikkinchi misolda **uchun** ko'makchisi **yaxshi o'qigani** tarzida birikib kelayotgan ikki so'zga funksiya ulashmoqda.

Qaram monema gap tarkibidagi funktsional monemalar orqali funksiya oladi va tildan nutqqa ko'chirilishi ham ularga bog'liq bo'ladi: **Salima darsga keldi.**

Berilgan misolda **dars** so'zi qaram monema vazifasini bajarmoqda. Uning qaram ekanligi gap tarkibidan -ga affiksini olib tashlasak, yanada yaxshiroq seziladi. Demak, **dars** so'zining tildan nutqqa ko'chirilishi ham, funksiya bilan ta'minlanishi ham to'lig'icha -ga affiksiga qaramdir.

Shuni ham aytish kerakki, Martinening nazariyasida masala tavsifining asosiy tamoyillari ko'rsatib berilgan, xolos. Shu bois ba'zi o'rinlarda mustaqil fikrlashga to'g'ri keladi. Bu, ayniqsa, funksional monemalarni o'rganishda ko'proq ko'zga tashlanadi. Chunki funksional monemalarning ba'zi turlari nafaqat alohida olingan mustaqil so'zga, balki mustaqil gapga va hatto qo'shma gapning tarkibiy qismlariga ham funksiya bera oladi. Shuning uchun bunday monemalarni biz **superfunktional monema** deb atamoqdamiz.

Yuqoridagilardan tashqari, tilning ba'zi unsurlari nutqda yarim funksional monema vazifasida qo'llanilishini ham kuzatamiz. Bunga g'arb tillarida artikllar, turkiy tillarda ko'proq egalik qo'shimchalari, nisbat qo'shimchasi kiritilishi mumkin.

Superfunktional monemalar jumlasiga, asosan, qo'shma gaplarning tarkibiy qismlarini o'zaro bog'lovchi vositalarni kiritish mumkin:

3. Bahor kelgach, gullar ochiladi.

4. Sobir keldi va ishlar yurishib ketdi.

Keltirilgan gaplarda **-gach, va** unsurlari superfunktional monemalardir. Chunki ular yordamida qo'shma gaplarning tarkibiy qismlari sintaktik faollik olmoqda. Bundan tashqari, qo'shma gaplarning umumiy sintaktik funksiyalari ham ana shu vositalar bilan bevosita bog'lanmoqda.

Bunday monemalarning sintaktik vazifalarini bir nechta sanash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ularning oddiy funksional monemalardan tubdan farqlanishini ko'rsatadi. Andre Martine nazariyasida funksional monemaning bu jihatlari o'rganilmagan yoki e'tiborga olinmagan.

A.Martine artikl xususida ham biror qat'iyroq fikr aytmaydi. Bizningcha, artiklni yarim funksional monema hisoblash maqsadga muvofiqdir. Uni to'liq funksional monema sanash uchun etarli asos yo'q. Artikl ot bilan «tirik». Ot bo'lmas ekan, u mustaqil faollik ko'rsata olmaydi. Ot birlamchi, artikl esa ikkilamchi xarakterga egadir. Boshqacha aytganda, artikl ot qaysi roddada va sonda bo'lsa, shunga ishora qiladi, xolos. Lekin, ikkinchi tomondan, artikl qo'llanilmasa, otning grammatik shakli to'liq ifodalanmay qoladi. Ana shu jihatdan artiklni yarim funksional monema hisoblash lozim bo'ladi.

O'zbek tilida egalik qo'shimchasi ham, (son) ko'plik qo'shimchasi ham ana shunday xususiyatga egadir.

8-MAVZU	Zamonaviy til oilalari
----------------	------------------------

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 20 ta</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	Seminar
<i>Ma'ruza rejasi:</i>	1.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: til bilan jamiyat, me'yor tushunchasi, til oilalari</i>	
<i>Ta'lim metodlari:</i>	namoyish etish, integrasiyalashgan o'qitish, tezkor savol-javob, aqliy hujum.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari:</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'zini-o'zi nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Mavzu : Zamonaviy til oilalari

Dunyo tillari tasnifi

Tillarni bir-biriga muqoyasa qilib, taqqoslab o'rganish shuni ko'rsatadiki, ba'zi tillardagi so'zlarning ma'nolari, shakllari, grammatik xususiyatlari bir-biridan juda katta farq qiladi. Albatta, bunday tillar bir-biriga yaqin. Qardosh tillar bo'la olmaydi. Ammo ba'zi tillarning tuzilishi, grammatik xususiyatlari, shu tillardagi so'zlarning paydo bo'lish manbai, So'z shakllari va

ma'nolari bir-biriga ancha yaqin bo'ladi. Bunday tillar bir umumiy o'zakli tildan kelib chiqqan bo'lib, **qardosh tillar** deyiladi. Grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo'lgan tillar guruhi **til oilasi** deb ataladi. Chunonchi, o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, ozorbayjon, yoqut, turkman, qoraqalpoq, turk, chuvash tillari kabilar turkiy tillar oilasiga kiradi. Bu qardosh tillardagi o'xshashlik, yaqinlik ularning So'z boyligi, grammatik qurilishi va nutq tovushlarida ifodalanadi.

Shuni ham ko'rsatib o'tish kerakki, qardosh bo'lmagan ba'zi tillarning So'z boyligida alohida so'zlarning ma'no jihatidan o'xshashlik hodisalari uchrashi mumkin. Bunday hodisa bir tilga qarindosh bo'lmagan boshqa bir tildan kirgan so'zlarda uchraydi. **Masalan**, o'zbek tiliga arab tilidan: *oila, maktab, lug'at, kitob* singari, rus tilidan *samovar, mashina, stol, stul, choynak* kabi anchagina so'zlar o'zlashgan. Lekin bunday so'zlar o'zbek tilining arab tili yoki rus tili bilan qardosh til ekanligiga asos bo'lolmaydi, chunki birinchidan, bunday tillarning qarindosh ekanligini isbot qilish uchun faqat so'zning o'zi asos bo'la olmaydi. Ikkinchidan, har bir tilning So'z boyligida boshqa tildan kirgan so'zlar juda ozchilikni tashkil etadi va ularning grammatik xususiyatlari butunlay boshqacha bo'ladi. Uchinchidan, tarixiy taraqqiyot jarayonida turli munosabatlar tufayli boshqa tillardan kirib qolgan bunday tasodifiy so'zlar tillarning tarixini solishtirib, taqqoslab o'rganshida material bo'la olmaydi, chunki bunday tillarning tuzilishi bir-biriga to'g'ri kelmaydi.

Rus, bulg'or, chex, polyak tillari ham bir oiladagi qardosh tillarga qarashli bo'lganligi uchun bu tillarda so'z ma'nolari, grammatik tuzilishlari jihatidan birmuncha o'xshashlik, yaqinlik bor.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, qardosh tillarda So'z o'zaklari grammatik vositalar jihatidan farq qilsa ham, ularning manbai bir bo'lib, ular bir o'zak tildan kelib chiqqan. Biror So'z yoki grammatik vositalardagi tovush o'zgarishlari ma'lum bir fonetik qonuniyat asosida yuz bergan. Bir qardosh tilga, bir tovushga ikkinchi bir qardosh tildagi shunga muvofiq tovush to'g'ri keladi. Masalan, o'zbek tilidagi **g** tovushiga qozoq tilidagi **u (w)** tovushi muvofiq keladi: **bog - bau (baw), tog - tau (taw)**; o'zbek tilidagi **t** tovushiga ozorbayjon tilidagi **d** tovushi muvofiq keladi: **temir-demir, til-dil**; o'zbek tilidagi **y** tovushiga qardosh tillardagi tovushlarning bir-biriga muvofiq kelishi fonetik qonunga asoslangandir hamda qardosh tillardagi so'zlarning ma'nolari va grammatik qurilishlari bilan bog'liq.

Demak, qardosh tillar oilasiga kiradigan tillarda ba'zi tovushlar bir-biridan ozmi-ko'pmi farq qilsa ham, grammatik vositalar, so'zlarning ma'nolari o'zaro yaqin bo'ladi.

Tilning boyligi irqning oq yoki sariq ekanligiga bog'liq emas. Shunday qilib, geneologik tasnif qardosh tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida bir o'zak tilidan tarqalganligini va ularning o'zaro munosabatini, so'z ma'nolari va grammatik shakllarini, nutq tovushlarining bir-biriga yaqinligini, o'xshashligini nazarda tutib, tillarni guruhlariga ajratadi.

Hozirgi vaqtda tarixi o'rganilib, bir-biri bilan qardosh ekanligi aniqlangan tillar oilasi quyidagilardan iborat.

1. **Hind- yevropa tillari oilasi.**

2. ***Xom-som tillari oilasi.***
3. ***Turk tillari oilasi.***
4. ***Ugor-fin tillari oilasi.***
5. ***Kavkaz tillari oilasi.***
6. ***Xitoy-tibet tillari oilasi.***
7. ***Dravid tillari oilasi.***
8. ***Indonezi tillari oilasi kabilar.***

I. ***Hind-evropa tillari oilasiga*** hindiston, eron, slavyan, boltiq, german, roman, kel't, grek (yunon), alban, arman tillari kabi til guruhlarini kiradi.

I. **Hindiston tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *hind tili*. Bu tilda 450 milliondan ortiq kishi so'zlashadi. Hind tili hozirgi Hindiston Respublikasining (poytaxti Yangi Dehli) davlat tili bo'lib, eski hind yozuvi - devonagaridan foydalanadi.

b) *urdu tili*. Bu tilda 180 millioncha kishi so'zlashadi. U hozirgi Pokistonning (poytaxti Islomobod) davlat tili bo'lib, arab yozuvidan foydalanadi. Bundan tashqari Hindiston tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

1. *Bengal tili*. Bu tilda 100 millionga yaqin kishi so'zlashadi.
2. *Maratxi tili*. Bu tilda 40 milliondan oshiq kishi so'zlashadi.
3. *Panjob tili*. Bu tilda 40 millionga yaqin kishi so'zlashadi.
4. *Rajastoni tili*. Bu tilda 20 milliondan ortiq kishi so'zlashadi.
5. *Gujarati tili*. Bu tilda 20 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

Bu tillarda so'zlovchilarning aksariyati Hindistonda yashaydi.

Hind tillari guruhiga lo'li, sindxi tillari, shuningdek, o'lik tillardan sanskrit, pali, prokrit tillari kiradi. Sanskrit tili qadimgi hind mumtoz adabiy tili bo'lib, bu tilda **"Mahabxarata"** ("Bxaratlarning buyuk jangi haqida doston") hamda "Xito padsha" ("Yaxshi nasihat") kabi bir qancha ajoyib epik asarlar yaratilgan. Bizning eramizdan oldingi IV asrda hind olimi Panini o'zining mashhur "Sanskrit grammatikasi" asarini yaratgan.

2. **Eron tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *fors tili*. Bu tilda 30 millionga yaqin kishi so'zlashadi, u Eronning (poytaxti Tehron) davlat tili bo'lib, arab yozuvidan foydalanadi;

b) *pushtu-dari tillari*. Bu tillarda 15 millionga yaqin kishi so'zlashadi. U Afg'onistonning (poytaxti Kobul) davlat tili bo'lib, u arab yozuvidan foydalaniladi;

v) *kurd tili*. 3 milliondan ortiq bo'lgan kurd xalqi Eronda, Irokda, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida va Turkiyada yashaydi;

g) *tojik tili*. Bu til Tojikiston respublikasining (poytaxti Dushanbe) davlat tili bo'lib, bu tilda ikki milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

d) *osetin tili*. Bu til Osetiya respublikasining davlat tili bo'lib, bu tilda 550 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

e) *baluchi tili*. Bu tilda so'zlovchilar Pokistondan va Eronda yashaydi.

Eron tillari guruhiga bulardan tashqari tolisi tili, tog' tili, o'lik tillardan esa qadimgi fors, pahlavi, sug'du, xorazmiy tillari kiradi.

3. **Slavyan tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *rus tili*. Bu til RSFSR ning (poytaxti Moskva) davlat tili bo'lib, bu tilda 150 million kishi so'zlashadi;

b) *ukrain tili*. Bu til Ukraina respublikasining (poytaxti Kiev) davlat tili bo'lib, bu tilda 40 milliondan ko'proq kishi so'zlashadi.

v) *belorus tili*. Bu til Belorussiya respublikasining (poytaxti Minsk) davlat tili bo'lib, bu tilda 10 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

g) *bulg'or tili*. Bu til Bulg'oriya Respublikasining (poytaxti Sofiya) davlat tili bo'lib, bu tilda 9 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

d) *serb-xorvat tillari*. Bu tillar Yugoslaviya Federativ Respublikasining (poytaxti Belgrad) davlat tili bo'lib, bu tilda 10 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

e) *chex tili*. Bu til Chexoslovakiya Respublikasining (poytaxti Praga) davlat tili bo'lib, bu tilda 10 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

j) *slovak tili*. Bu tilda 4 millionga yaqin kishi so'zlashadi. Bu til ham Chexoslovakiya respublikasining davlat tili hisoblanadi. Bu tilda so'zlashuvchilar Slovakiyada (poytaxti Bratislava) yashaydi;

z) *polyak tili*. Bu til Pol'sha Respublikasining (poytaxti Varshava) davlat tili bo'lib, bu tilda 40 milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

Bundan tishqari, kashub, serboluj tillari, o'lik tillardan qadimgi slavyan, polab, pomor tillari ham slavyan tillari guruhiga kiradi.

4. Boltiq tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *litva tili*. Bu til Litva respublikasining (poytaxti Vil'nyus) davlat tili bo'lib, bu tilda 2,2 million kishi so'zlashadi;

b) *latish tili*. Bu til Latviya respublikasining (poytaxti Riga) davlat tili bo'lib, bu tilda 1,5 million kishi so'zlashadi.

O'lik tillardan prus tili ham boltiq tillari guruhiga kiradi.

5. German tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *ingliz tili*. Bu tilda so'zlashuvchilarning soni 400 millionga etadi. Bu tilda so'zlashuvchilar Buyuk Britaniya, Irlandiya, Shimoliy Amerika Shtatlari, Kanada, Janubiy Amerika Ittifoqi va boshqa joylarda yashaydi. Ingliz tili buyuk Britaniya (Poytaxti London), Shimoliy Amerika Qo'shma Shtatlari (poytaxti Vashington), Kanada (poytaxti Ottava) kabi bir qancha mamlakatlarning davlat tilidir;

b) *nemis tili*. Nemis tili Germaniya Federativ Respublikasining (poytaxti Berlin), Avstriya Respublikasining (poytaxti Vena davlat tili bo'lib, bu tilda so'zlashuvchilarning soni 100 milliondan oshadi);

v) *daniya tili*. Bu til Daniyaning (poytaxti Kopengagen) davlat tili bo'lib, bu tilda so'zlashuvchilarning soni 4 millionga yaqindir;

g) *shved tili*. Bu til Shvesiyaning (poytaxti Stokgol'm) davlat tili bo'lib, bu tilda 7 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

d) *norveg tili*. Bu til Norvegiyaning (poytaxti Oslo) davlat tili bo'lib, bu tilda 3,5 million kishi so'zlashadi;

e) *golland tili*. Bu til Gollandiyaning (Niderlandiyaning) (poytaxti Amsterdam) davlat tili bo'lib, bu tilda 13 million kishi so'zlashadi;

j) *island tili*. Bu til Islandiyaning (poytaxti Reykyavik) davlat tili bo'lib, bu tilda 250 ming kishi so'zlashadi.

O'lik tillardan vesgod va ostgot tillari ham german tillari guruhiga kiradi.

6. Roman tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *fransuz tili*. Bu til Fransiyaning (poytaxti Parij) davlat tilib bo'lib, bu tilda 60 million kishi so'zlashadi;

b) *italyan tili*. Bu til Italiyaning (poytaxti Rim) davlat tilib bo'lib, bu tilda 50 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

v) *ispan tili*. Bu til Ispaniyaning (poytaxti Madrid) davlat tilib bo'lib, bu tilda 95 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

g) *portugal tili*. Bu til Portugaliyaning (poytaxti Lissabon) davlat tilib bo'lib, bu tilda 45 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

d) *rumin tili*. Bu til Ruminiya Respublikasining (poytaxti Buxarest) davlat tilib bo'lib, bu tilda 18 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

e) *moldava tili*. Bu til Moldaviya respublikasining (poytaxti Kishinev) davlat tilib bo'lib, bu tilda 2 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

j) *provansal tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 10 milliondan ko'p kishi bo'lib, ular Fransiyaning janubi-sharqida yashaydi;

z) *sardin tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar bir milliondan ortiq bo'lib, ular Italiyaga qarashli Sardiniya orolida yashaydi;

i) *katalan tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar besh milliondan oshiq kishi bo'lib, ular asosan, Ispaniyada yashaydi;

k) *reto-roman tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 550 ming kishi bo'lib, ularning aksariyati Italiyada yashaydi.

O'lik tillardan latin, osk, umbr tillari ham roman tillari guruhiga kiradi.

7. Kelt tillari guruhiga quyidagilar kiradi:

a) *irland tili*. Bu til Irlandiya Respublikasining (poytaxti Dublin) davlat tilib bo'lib, bu tilda 800 ming kishi so'zlashadi;

b) *shotland tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 140 mingdan ko'p kishi bo'lib, ular Angliyada yashaydi;

v) *breton tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar bir milliondan ortiq kishi bo'lib, ular Fransiya qarashli Bretan yarim orolida yashaydi;

d) *uel's (valli) tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar bir milliondan ortiq kishi bo'lib, ular Angliyaning g'arbiy qismida yashaydi.

O'lik tillardan gal va kornoul tillari ham kal't tillari guruhiga kiradi.

8. Grek (yunon) tili guruhiga yangi grek (yangi yunon) tili kiradi:

Bu til Gretsiyaning (poytaxti Afina) davlat tili bo'lib, bu tilda 9 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

O'lik tillardan qadimgi yunon, o'rta yunon yoki Vizantiya tillari ham grek tili guruhiga kiradi.

9. Alban tili guruhiga alban tili kiradi. *Alban tili* Albaniya Xalq Respublikasining (poytaxti Tirana) davlat tilib bo'lib, bu tilda 2 milliondan ortiq kishi so'zlashadi. Alban tilidagi yozuv yodgorliklari XV asrdan beri ma'lumdir.

10. **Arman tili guruhiga** hozirgi zamon arman tili kiradi. Bu til Armanistonning (poytaxti Erevan) davlat tili bo'lib, bu tilda 3 milliondan ko'proq kishi so'zlashadi. O'lik tillardan qadimgi arman tili ham bu guruhga kiradi.

I. Hind-Evropa tillari oilasiga, yuqorida ko'rsatib o'tganlarimizdan tashqari, xett, toxar tillari singari o'li tillar guruhi ham kiradi.

11. **Xom-som tillari oilasi.** Bu tillar oilasi ikki katta guruhga: 1) som tillari guruhiga va 2) xom tillari guruhiga bo'linadi.

1) **Som tillari quruhiga quyidagi tillar kiradi:**

Arab tili. Bu tilda 50 milliondan ortiqroq kishi so'zlashadi. Arab tili Birlashgan Arab Respublikasi (poytaxti Qohira), Iroq respublikasi (poytaxti Bag'dod), Sudan (poytaxti Xartum), Marokash (poytaxti Rabat), Livan (poytaxti Bayrut), Tunis (poytaxti Tunis), Iordaniya (poytaxti Irlandiya), Liviya (poytaxti Tripoli), Jazoir Xalq respublikasi (poytaxti Jazoir), Yaman respublikasi (poytaxti Sana), Suriya arab resupblikasi (poytaxti Damashq) kabi bir qancha arab mamlakatlarining davlat tilidir.

Afrika qit'asida yashovchi yana bir qancha xalqlar arab tilida so'zlashadi. Shuningdek, janubiy arab tili, amxar tili, aysar tili hamda o'lik tillardan asseriya, vavilon, xonaney, qadimgi yahudiy va aramay tillari ham som tillari guruhiga kiradi.

1. **Xom tillari quruhiga:** shilx, tuareg, kabil, amazirt tillari, o'lik tillardan esa liviya, numid, shtul, qadimgi misr tillari va boshqa tillar kiradi. Umuman, xom-som oilasiga kirgan tillar yaxshi tekshirilib o'rganilmagan.

III. Kavkaz tillari oilasi. Kavkaz tillari yana bir qancha guruhlarga, chunonchi, g'arbiy guruhga, veynax guruhiga, Dog'iston guruhiga bo'linadi.

1. **G'arbiy guruhga quyidagi tillar kiradi:**

a) *abxaz tili.* Bu til Abxaziya Respublikasida yashovchilarning xalq tili bo'lib, bu tilda 80 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

b) *abazin tili.* Bu til Cherkas Avtonom Respublikasida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, bu tilda 25 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

v) *adigey tili.* Bu til Adigey Respublikasida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu tilda 80 mingdan ortiq kishi so'zlashadi;

g) *kabardin-cherkes tili.* Bu til Kabarda-Balkar va Cherkas Respublikalarida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, bu tilda 250 mingdan ortiq kishi so'zlashadi.

2. **Veynax guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *chechen tili.* Bu til Chechen respublikasida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, unda 500 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

b) *ingush tili* (bu tilda 100 mingdan ko'proq kishi so'zlashadi, ular Ingush respublikasida yashaydi);

g) *basbi tili.* Bu tilda so'zlashuvchilar Chechen va Ingush Respublikalarida yashaydi.

3. Dog'iston guruhiga Dog'iston respublikasida yashovchi xalqlarning tillari kiradi:

a) *avar tili.* Bu tilda 300 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

b) *dargin tili.* Bu tilda 160 ming kishi so'zlashadi;

v) *lazgin tili.* Bu tilda 230 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

d) *lak tili.* Bu tilda 70 ming kishi so'zlashadi;

e) *tabassaran tili.* Bu tilda 34 ming kishi so'zlashadi.

Bulardan tashqari, nufuzi kam bo'lgan bir qancha tillar ham dog'iston guruhiga kiradi. Bu tillarda so'zlovchilarning aksariyati Dog'iston Avtonom Respublikasida yashaydi.

4. Janubiy quruhqa gruzin tili kiradi. Gruzin tili Gruziya respublikasining (poytaxti Tbilisi) davlat tili bo'lib, bu tilda 2,5 milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

Shuningdek, 110 ming kishi so'zlashadigan chan tili, 290 ming kishi so'zlashadigan migrel tili va 15 ming kishi so'zlashadigan svan tili ham janubiy guruhga kiradi.

IV. Ugor-fin tillari oilasi 2 guruhga: 1) ugor tillari; 2) fin tillari guruhiga bo'linadi.

1. **Ugor tillariga quyidaqilar kiradi:**

a) *venger (mojar) tili*. Bu til Vengriya Respublikasining (poytaxti Budapesht) davlat tili bo'lib, bu tilda 13 milliondan ko'p kishi so'zlashadi;

b) *mansi tili*. Bu til Xanti-Mansi milliy okrugida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, bu tilda 7 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

v) *xanti tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 22 mingdan ko'p bo'lib, ular ham Xanti-Mansi milliy okrugida yashaydilar.

2. Fin tillariga quyidaqilar kiradi:

a) *fin tili*. Bu til Finlandiyaning (poytaxti Xel'sinki) davlat tili bo'lib, bu tilda 4 millionga yaqin kishi so'zlashadi. Bu tilda so'zlovchilarning bir qismi Kareliya Respublikasida yashaydi;

b) *eston tili*. Bu til Estoniya respublikasining (poytaxti Tallin) davlat tili bo'lib, bu tilda bir milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

3. Ming kishi so'zlashadigan veps tili, 15 ming kishi so'zlashadigan iyor tili ham fin tillari guruhiga kiradi. Bu tillarda so'zlashuvchilar Sankt-Peterburg viloyatida yashaydilar;

v) *komi-permyak tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 180 mingga yaqin kishi bo'lib, ular Rossiya Federasiyasining Komi-Permyak milliy okrugida yashaydilar;

g) *komi-ziryan tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 250 mingga yaqin kishi bo'lib, ular Komi Respublikasida yashaydilar;

d) *udmurd tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 580 ming kishi bo'lib, ular Udmurd Respublikasida yashaydilar.

e) *mari tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 500 mingga yaqin kishi bo'lib, ular asosan, Mari Respublikasida yashaydilar.

Bulardan tashqari, erzya va moksha-iyor tillari ham fin tillari guruhiga kiradi.

V. Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi:

a) *ozarbayjon tili*. Bu tilda so'zlashuvchilarning soni 15 milliondan oshadi. Bulardan 9 milliondan ko'prog'i Eronda, 6 milliondan ko'prog'i esa Ozarbayjonda yashaydi. Bu til Ozarbayjon Respublikasining (poytaxti Boku) davlat tilidir;

b) *turk (usmonli turk) tili*. Bu til Turkiyaning (poytaxti Anqara) davlat tili bo'lib, bu tilda 40 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

v) *turkman tili*. Bu til Turkmaniston Respublikasi (poytaxti Ashxobod) davlat tili bo'lib, bu tilda 2 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

g) *o'zbek tili*. Bu til O'zbekiston Respublikasining (poytaxti Toshkent) davlat tili bo'lib, bu tilda 16 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

d) *qozoq tili*. Bu til Qozog‘iston respublikasining (poytaxti Olma-Ota) davlat tili bo‘lib, bu tilda 10 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

e) *qirg‘iz tili*. Bu til Qirg‘iziston Respublikasining (poytaxti Bishkek) davlat tili bo‘lib, bu tilda 1,5 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

j) *tatar (Qozon tatarlari) tili*. Bu til Tatariston Respublikasining asosiy davlat tili bo‘lib, bu tilda so‘zlashuvchilar 6,5 milliondan ortiqdir;

z) *uyg‘ur tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 5 milliondan ortiqroq bo‘lib, ular asosan Xitoy Xalq Respublikasining Sin‘-szan-uyg‘ur avtonom tumanida yashaydilar;

i) *chuvash tili*. Bu til Chuvash Respublikasida yashovchi xalqning tili bo‘lib, bu tilda 1,5 milliondan ko‘proq kishi so‘zlashadi;

k) *boshqird tili*. Bu til Boshqirdiston respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo‘lib, bu tilda 1 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

l) *yoqut tili*. Bu til Yoqutiston respublikasida yashovchi xalqning tili bo‘lib, 300 mingdan ko‘p kishi so‘zlashadi;

m) *qoraqalpoq tili*. Qoraqalpog‘istonda yashovchi xalqlarning tili bo‘lib, bu tilda 200 mingdan ortiq kishi so‘zlashadi;

i) *tuva tili*. Tuva respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo‘lib, bu tilda 150 mingdan ko‘proq kishi so‘zlashadi.

Shuningdek, qumiq tili (310 ming kishi so‘zlashadi), qorachoy tili (100 mingcha kishi so‘zlashadi), balqar tili (50 ming kishi so‘zlashadi), xakas tili (60 ming kishi so‘zlashadi) va yana bir qancha boshqa tillar hamda o‘lik tillardan o‘rxo‘n, pechenet, qipchoq, qadimgi uyg‘ur, bulg‘or va hazar tillari ham turkiy tillar oilasiga kiradi.

VI. Mo‘g‘ul tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *xalxa-mo‘g‘ul tili*. Mo‘g‘uliston Respublikasining (poytaxti Ulan-Bator) davlat tili bo‘lib, bu tilda 3,5 millionga yaqin kishi so‘zlashadi. Bu tilda so‘zlashuvchilarning bir qanchasi Xitoy Xalq Respublikasida (Ichki Mo‘g‘uliston ham Sin‘szanda) yashaydi;

b) *buryat tili*. Burt respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo‘lib, bu tilda 270 mingdan ko‘proq kishi so‘zlashadi;

v) *qalmiq tili*. Qalmiq respublikasida yashovchi xalqlarning tili bo‘lib, bu tilda 105 ko‘proq kishi so‘zlashadi.

VII. Tungus-manjur tillari.

1). Tungus quruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *evenk tili*. Rossiya Federasiyasining Evenk milliy okrugida hamda mamlakatimizning shimoli-sharqiy tumanlarida yashovchi xalqning tili bo‘lib, bu tilda 20 mingga yaqin kishi so‘zlashadi;

b) *even tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 10 mingcha kishi bo‘lib, ular asosan Rossiya Federasiyasining Even, Oxot, Chukotka, Koryak milliy okruglarida yashaydi.

3. Manjur quruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *manjur tili*. Xitoy Xalq Respublikasining Shimoli-Sharqiy qismida yashovchi xalqning tili bo‘lib, bu til hozir o‘lik tillar qatoriga o‘tyapti;

b) *nanay tili*. Rossiya Federasiyasining Quyi Amur milliy okrugida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu tilda 8 ming kishi so'zlashadi.

Udey, ulq, oroch tillari ham manjur guruhidagi tillarga kiradi.

VIII. Xitoy-Tibet tillari oilasiga tay-xitoy va tibet tillari guruhlari kiradi.

1. Tay-xitoy quruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *xitoy tili*. Xitoy Xalq Respublikasining (poytaxti Pekin) davlat tili bo'lib, bu tilda bir milliarddan ko'p kishi so'zlashadi. Xitoy tili bir necha mustaqil dialektlarga bo'linadi. U juda qadimgi (eramizdan ikki yarim ming yil burungi) tillardan biri bo'lib, boy yozuv-yodgorliklariga egadir;

b) *dungan tili*. Bu tilda so'zlashuvchi xalqning soni 3,5 million kishidan ortiq bo'lib, ular asosan, Xitoy Xalq Respublikasida so'zlashadi;

g) *vetnam tili*. Vetnam Xalq demokratik Respublikasining (poytaxti Xanoy) davlat tili bo'lib, bu tilda 30 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

d) *tay (siam) tili*. Tailandning (poytaxti Bangkok) davlat tili bo'lib, bu tilda 46 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

2. *Tibet tillari*. Bu tilda so'zlashuvchilar 4 milliondan ortiq kishi bo'lib, ular asosan, Xitoy Xalq Respublikasining Tibet avtonom tumanida va Hindistonda yashaydi;

b) *birma tili*. Birma Ittifoqining (poytaxti Rangun) davlat tili bo'lib, bu tilda 33 millionga yaqin kishi so'zlashadi. Assam tillari ham tibet tillari guruhiga kiradi.

IX. Dravid tillariga quyidagi tillar kiradi:

a) *tamil tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 3,5 millionga yaqin kishi bo'lib, ular Hindistonning Janubi-sharqida va Seylon orolining shimolida yashaydi;

b) *malayalam tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 13 milliondan ko'proq kishi bo'lib, ular Hindistonning Janubi-g'arbida yashaydi;

v) *kannara tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 14,5 million kishi bo'lib, ular G'arbiy Hindistonda yashaydi;

g) *telugu tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 31 million kishi bo'lib, ular Hindistonning Janubi-sharqida yashaydi;

d) *braxun tili* (260 mingga yaqin kishi so'zlashadi) va boshqa bir qancha kichik tillar dravid tillar oilasiga kiradi.

X. Malay-polineziya tillari. Bu tillarga malay yoki indoneziya tili kiradi. Indoneziya Respublikasining (poytaxti Jakarta) davlat tili. Shuningdek, madura tili, bali tili, yavan tili, tagalog tili, maori tili, samoa tili va uvea tili kabi bir qancha tillar ham shunga kirdi. Bu tillarda so'zlashuvchi kishilar soni hali yaxshi aniqlanmagan. Umuman, malay-polineziya tillarida 90 milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

XI. Avstraliya guruhi tillari. Bu tillar oilasiga juda ko'p kichik tillari kiradi, lekin ular ham yaxshi o'rganilmagan.

XII. Papua tillari. Bu tillarda so'zlashuvchilar Yangi Gvineya orolida yashaydi. Bu tillar ham hali yaxshi o'rganilmagan.

XIII. Sudan tillari. Sudan tillarida so'zlashuvchilar Afrikada yashaydi. Bu tillar bir necha guruhlariga bo'linadi: chunonchi: nil-chad, nil-abissan, nil-ekvator, kardofan, nil-kongo, ubang, shor niger-chad, niger-kamerun, quyi-niger, dagomey, niger-latgal, liberi va senegal gviney guruhlari kabi.

XIV. Bantu tillari. Bu tillarda so‘zlashuvchilar markaziy va Janubiy Afrikada yashaydi. Bu tillar: teke, songo, suaxeln, konde, makua va sotko kabi bir necha guruhlariga bo‘linadi.

XV. Paleoafrika tillari. Bu tillarda so‘zlashuvchilar ham Afrikada yashaydi. Ular ikki guruhga ya’ni bushmen va gottentog tillari guruhiga bo‘linadi.

XVI. Paleoosiyo tillari. Bu tillarda so‘zlashuvchilar Rossiya Federasiyasining Shimoli-Sharqida yashaydi. ***Paleoosiyo tillari ikki guruhga:***

1) *Chukot guruhi* va 2) *Sibir‘ guruhiga* bo‘lindi. Chukot guruhiga chukot tili (1,5 ming kishi so‘zlashadi), koryak tili (7 ming kishi so‘zlashadi), kamchadal tili (2,5 ming kishi so‘zlashadi) kiradi. Sibir guruhiga odul tili (ming kishi so‘zlashadi), nivx tili (4 ming kishi so‘zlashadi), ket tili (2 ming kishi so‘zlashadi) kiradi.

XVII. Eskimos tillari guruhi. Bu tillar guruhiga: eskimos tili (bu tilda so‘zlashuvchilar Chukotka yarim orolida, Vrangel‘ orolida, alyaskaning shimolida, Kanadada. Grenlandiyada yashaydi) va aleut tili (bu tilda so‘zlashuvchilar Komandor va Aleut orollarida yashaydi) kiradi.

XVIII. Amerika hindularining tillari. Amerika hindularining tillari 200 mdan oshiq bo‘lib, ular uch guruhga:

1) *Shimoliy Amerika;* 2) *Markaziy Amerika;* 3) *Janubiy Amerika* guruhlariga bo‘linadi.

XIX. Austr-Osiyo tillari. Bu tillarga: mon-kxmer (6 millionga yaqin kishi so‘zlashadi), bunda (6 milliondan ko‘p kishi so‘zlashadi), malakk, markaziy va janubi-sharqiy tillar guruhi kiradi.

XX. Hech qanday tillar guruhiga kirmagan Uzoq Sharq tillari:

1) *yapon tili.* Yaponiyaning (poytaxti Tokio) davlat tili bo‘lib, bu tilda 100 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

2) *ryukyu tili.* Bu tilda so‘zlashuvchilar Ryu-Kyu orolida yashaydi;

3) *quriya (koreya) tili.* Quriya Xalq Demokratik Respublikasining (poytaxti Pxen‘yan) davlat tili va Janubiy Quriya Respublikasining (poytaxti Seul) davlat tili bo‘lib, bu tilda 60 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

4) *ayn tili.* Bu tilda so‘zlashuvchilar 18 mingga yaqin bo‘lib, ular Yaponiyaning shimolidagi Xokkaydo orolida bulib, ular Hindistonning shimolida, Qorakorum dovonlarida yashaydi.

XXI. Burjaski tili. Bu til ham hech qanday guruhga kirmaydi. Bu tilda so‘zlashuvchilar 30 mingga yaqin kishi bo‘lib, ular Hindistonning shimolida, Qorakorum dovonlarida yashaydi.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, genealogik tasnif har bir tilning kelib chiqishini, tarixiy taraqqiyotini, tillarning o‘zaro munosabatini hozirgi ahvolini va shu kabi qator masalalarni chuqur o‘rganishni talab qiladi. Lekin anchagina tillar bu jihatdan ham chuqur teshirilib o‘rganilmagan. Shuning uchun bu tillarning qaysi tillar bilan qardosh ekanligi, qaysi til oilasiga, qaysi til guruhiga mansub ekanligi ham hali hal qilinmagan.

9-Mavzu	Orfografik tamoyillar	
----------------	-----------------------	--

1. Seminar mashg'ulotini olib borish texnologiyasi

Vaqt: 2soat	Talabalar soni: 20
<i>Mashg'ulot shakli:</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga ajratilgan seminar mashg'uloti.
<i>Mashg'ulot rejasi:</i>	
<i>Mashg'ulotning maqsadi: Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	O'quv faoliyati natijalari:
• mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi; • mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi; • o'z nuqtai nazariga ega bo'lishni shakllantiradi; • mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi.	amaliy mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi; • kursda o'rganilgan asoiy tushunchalar va atamalarni aytib beradi.
<i>O'qitish usullari</i>	Topshiriqlar, amaliy ishlah usuli, bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, skotch.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa guruhlarida ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, test savollari.

2. Seminar mashg'ulotining xronologik xaritasi

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish bosqichi (10 minut).	1.1. Seminar mashg'ulot mavzusi, maqsadi, rejalari bilan tanishtirib, uni qanday tashkil etish va o'quv faoliyati natijalarini aytib o'tish..	Tinglaydilar.
	1.2. Faollashtirish maqsadida savollar beriladi. Blis-so'rov, savol-javob o'tkaziladi	Savollarga javob beradi.
II. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1. Ta'lim jarayoni kichik guruhlarda taqdimot orqali o'tkaziladi.	Mustaqil taqdimot qilishadi.

	2.3 Guruhlarda ishlash tashkil qilinadi va unda yagona muammoli savol o'rtaga tashlanadi. Ta'lim jarayoni kichik guruhlarda ishlash orqali amalga oshirilishi tushuntiriladi.	Uchta guruhga bo'linadi.
	2.3. Talabalar 3 guruhga bo'linadi, ekspert varag'i tarqatiladi, bajarish metodikasi tushuntiriladi. Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi.	Topshiriqlarni bajaradilar. Tinglaydilar.
	2.4. Har bir guruhning javoblarini ekspert guruhi baholaydi. Har bir ekspert guruhi o'zi ko'rib chiqqan topshiriqlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini ko'rsatib beradi.	Jamoa bo'lib topshiriqlarni bajaradilar, bahs-munozara yuritadilar, qo'shimchalar qiladilar, xulosa chiqaradilar.
	2.5. Topshiriqlar bajarilishining qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tignlaydi	Baholaydilar.
	2.6. Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar tushuntiriladi va izoh beriladi.	Tinglaydi.
	2.7. Natijalar tekshiriladi, muhokama qilinadi.	Baholanadi.
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi..
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faolligi tahlil qilinadi va baholanadi.	Tinglaydi.

ORFOGRAFIYA

Orfografiya (yunoncha orthos “to'g'ri”, grapo - “yozaman”) so'zlaridan olingan bo'lib, to'g'ri yozish yoki imlo qoidalari haqidagi bo'lim. Adabiy til ma'lum me'yorlarga ega ekanligi bilan shevalardan ajralib turadi. Orfografik me'yorlar yozma nutqning xususiyatlarini ochib beradi.

Orfografiya so'zlarning, qo'shma so'zlarning yozilishi, bosh harflar imlosi, bo'g'in ko'chirish haqidagi qoidalar tizimidan iborat. Asosiy orfografik qoidalar (imlo qoidalari) quyidagilar:

1. a unlisi urg'usiz bo'g'inlarda i ga yaqin talaffuz etilsa ham a ning o'zi yoziladi: muomala, muhokama.
2. *Aql, rahm, ilm, asr, fikr...* so'zlaridagi yonma-yon kelgan undoshlar orasida bir unli qo'shib talaffuz etilsa ham yozilmaydi.
3. *Taqsim, maqtov, maqsad* so'zlaridagi q tovushi x tarzida talaffuz etilsa ham q ning o'zi yoziladi.
4. O'zak va qo'shimchalar morfologik qoida asosida yoziladi.
5. So'zlarni qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yozishda quyidagilarga amal qilinadi:
 - a) qo'shma so'zlar yaxlit bir ma'noni ifodalasa, qo'shib yoziladi; oshqozon, oybolta, boyo'g'li, gultojixo'roz, tuyaqush; joy nomlarini bildirgan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi; Qoraqamish, Yangiyo'l, Oqtepa, Qizildaryo, Kuyganyor, Buloqboshi; ikkinchi qismi yo-lashgan unlilar bilan boshlangan qo'shma so'zlar ajratib yoziladi; qozon yuvg'ich, er yong'oq.
-qo'shma so'z qismlari bir-birini izohlasa, bunday qo'shma so'zlar ajratib yoziladi: *temir yo'l, jigar rang, tim qora, osma ko'prik*.
- qo'shma fe'llar ajratib yoziladi: *sotib olmoq*.
 - b) juft so'zlar chiziqcha bilan yoziladi: yor-do'st; yaxshi-yomon, erta-kech. Agar juft so'zlar orasida-u,-yu yuklamalari qo'llansa, yuklama birinchi so'zga chiziqcha orqali qo'shiladi; *er-u osmon, yaxshi-yu yomon, erta-yu kech*.
Takroriy so'zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: katta-katta.
6. Bo'g'in ko'chirish qoidalari.
 - a) bir unlidan iborat bo'g'in birinchi yo'lda qoldirilmaydi yoki o'zi alohida keyingi yo'lga o'tkazilmaydi: *u-ka* emas: *uka*; *mudofa-a* emas: *mudofaa*.
 - b) ng harfi bir tovushni ifodalagan o'rinlarda (so'zlarda) ajratilmaydi: *ko'-ngil, si-ngil, ing-ramoq, zang-lamoq*;
 - v) ' belgisi o'zidan oldingi bo'g'in tarkibida qoladi: *ma'-no, ta'-lim, san'-at*.
 - g) *IIV, 1991 yil, XX asr* kabi qisqartma so'zlar yoki ko'p xonali sonlar ikkinchi yo'lga ko'chirilmaydi.
 - d) rus tili orqali o'zlashgan so'zlar o'sha til qoidalariga amal qilgan holda bo'g'in asosida ko'chiriladi; in-gliz, kon-gress, trans-port, shtan-ga.
7. *gijda, mujda, ajdar* kabi arab va fors tilidan o'zlashgan so'zlarda j harfi *jurnal* so'zidagi kabi sirg'aluvchi tovush ifodasi uchun yoziladi.
8. *Qing'ir, qo'ng'ir, qorong'i, to'ng'ich...* so'zlarida ng ga o'xshash talaffuz etilsa ham n yoziladi.
9. *isi-q-issiq, achi-q-achchiq* so'zlarining yasaliş jarayonida undosh takrorlanishi kuzatiladi.
10. So'z qismlari imlosi. So'zning asl ma'nosini anglatgan qism o'zak deyiladi. O'zak so'zning asl ma'nosini anglatib, qismlarga ajratilmaydi: gulchi: gul-o'zak. O'zakka yasovchi qo'shimchalar qo'shish bilan hosil bo'lgan yangi so'z negiz deyiladi. Qo'shimchalar asosan morfologik yozuv qoidasi asosida yoziladi.
O'zak negizida -u(-yu) tovushlari bo'lgan so'zlardan ot yasalganda -im qo'shimchasi -um tarzida aytiladi va yoziladi: tuzum, unum, uyum-uyum.
11. Bosh harflar imlosi:
 - a) atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi: Naima, Yangiyo'l.
 - b) hurmat ma'nosida qo'llangan Siz va O'zingiz olmoshlari bosh harfda yoziladi.
 - v) bayramlar va tarixiy kunni ifodalagan birikmalarning birinchi so'zi: 8 Mart, To'qqizinchi may;
 - g) Oliy tashkilotlar va faxriy unvonlarning har bir so'zi bosh harfda yoziladi: O'zbekiston Oliy Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlis, O'zbekiston Qahramoni.
 - d) Orden va medal nomlari bosh harf bilan, *orden* va *medal* so'zlari kichik harfda yoziladi: "Mustaqillik" ordeni, "Do'stlik ordeni, "Shuhrat" medali.

e) atab qo'yilgan tashkilot, gazeta va jurnal, badiiy asar nomlari birikma holida bo'lsa, birinchi so'zi bosh harf bilan yoziladi hamda birikma (yoki so'z qo'shilmasi) qo'shtirnoqqa olinadi: "Yo'lduzli tunlar" romani, "Farhod va Shirin" dostoni.

j) birikmaning ikkinchi (yoki uchinchi) so'zlari atoqli ot bo'lsa, bosh harfda beriladi: *Markaziy Farg'ona, Katta Andijon kanali*.

z) umumiylik, tur, belgi kabi ma'nolarni ifodalagan ayrim atoqli otlar kichik harf bilan yoziladi: *Faxrimizsiz, aziz farhodlar! Anjumanda beshita o'zbekistonlik ishtirok etdi*.

i) so'zlarning birinchi harflaridan tuzilgan qisqartma otlar bosh harfda yoziladi: MDH, AQSh, BMT.

TILDAGI TARIXIY -FONETIK O'ZGARISHLAR VA FONETIK-FONOLOGIK QONUNIYATLAR

Til taraqqiyoti va rivoji ma'lum qonuniyatlar asosida yuzaga keladi. Til murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, undagi birliklar barcha jihatdan uzviy bog'langan. Ushbu birliklarga aloqador qonuniyatlar ham o'zaro bog'liq hisoblanadi. Tildagi tarixiy fonetik o'zgarishlar ma'lum tarixiy fonetik qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Fonetik – fonologik o'zgarishlar tilning ichki qonuniyatlari bilan bog'liq hodisadir. Tildagi tarixiy- fonetik o'zgarishlarni o'rganuvchi qiyosiy-tarixiy tilshunoslik sohasi qiyosiy-tarixiy fonetikadir. Qardosh tillardagi (slavyan, german, roman tillari, turkiy tillar) tarixiy fonetik o'zgarishlar natijasida so'zlardagi etimologik va geneologik, ya'ni kelib chiqish jihatdan o'xshashlik va farqli tomonlarini qiyosiy –fonetika aniqlab beradi. Qardosh va qardosh bo'lmagan tillardagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni tahlil qilish natijasida tipologik, qiyosiy –tipologik fonetika, fonologiya sohalari shakllandi.

Til taraqqiyotidagi fonetik o'zgarishlarni tahlil etuvchi fonetik-fonologik qonuniyatlar quyidagilar:

1. Umumiy fonetik qonuniyatlar barcha tillarga xos umumiy holdagi tartib va qoidalarni tilning boshqa qonuniyatlari bilan bog'liqlikda aks ettiradi. Masalan, singarmonizm (tovushlarning uyg'unlashuvi) turkiy tillarga xos umumiy fonetik qonuniyatdir.

2. Xususiy fonetik qonuniyatlar muayyan til uchun xos bo'lgan qonuniyatlarni ifodalaydi. Masalan, turkiy tillarga mansub o'zbek tilining keyingi taraqqiyotidagi ichki o'zgarishlar hamda yondosh tillar ta'sirida yuzaga kelgan hodisalar shu tilning o'ziga xos rivojlanish omillari bilan bog'liqdir.

Fonetik qonuniyatlar davriy nuqtai nazardan ikkiga bo'linadi.

1) tarixiy fonetik qonuniyatlar tillar yoki muayyan bir tilning tarixiy taraqqiyotida yuzaga kelgan tarixiy-fonologik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Til tarixining tarixiy tovush o'zgarishlarini o'rganuvchi bo'limi tarixiy fonetika va fonologiya deb yuritiladi.

2) davriy fonetik qonuniyatlar muayyan til doirasida hozirgi davrda sodir bo'layotgan fonetik o'zgarishlarni izohlaydi.

Tarixiy-fonetik va fonologik o'zgarishlar turli murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Fonetik va fonologik o'zgarishlar natijasida tildagi fonemalar soni kamayishi yoki ko'payishi mumkin. Bunda ikki hodisa ro'y beradi.

1. Ikki fonemaning yaxlit bir fonema sifatida birlashishi konvergensiya deyiladi. O'zbek tili tarixida bo'lgan til oldi va til orqa, qisqa va cho'ziq fonemalar keyinchalik birlashib, o'rta cho'ziqlikka ega bo'lgan 6 ta unli fonemani hosil qilgan.

2. Bir fonemaning ikki mustaqil fonemaga ajralishi divergensiya deyiladi. Masalan, qadimgi turkiy tilda bitta a fonemasi keyinchalik ikki fonemaga ajralgan: a va o.

Fonetik qonuniyatlarga tovushlarning kombinator va pozitsion o'zgarishlari ham kiradi.

Umuman, fonetik qonuniyatlarni boshqa yondosh hodisalar ta'sirida o'rganish tilshunoslik fani uchun ilmiy qiymatga ega.

GRAFIKA

Grafika(yunoncha”chizuv”,”yozma”) yozuv va uning turlari haqidagi bo’lim.

Harf asosiy grafik vositadir. Har bir nutq tovushi uchun olingan shartli shakl harf deyiladi. Yozuvda ishlatiladigan va qat’iy tartibda joylashtirilgan harflar yig’indisi alifbo deyiladi.

Hozirgi o’zbek tilida (rus grafikasi asosidagi o’zbek yozuvida) 33 harf 2 belgi bo’lib, shulardan 6 tasi unli (a,i,e, u,o’,o) 4 tasi yo-lashgan unli, 23 tasi undosh harf. O’zbek tilida 25 ta undosh tovush bo’lib, 23 ta harf bilan ifodalanadi.(ikki tovush yozma ifodasiga ega emas: j-juma,jurnal; ng-tong, senga).

x va h undoshlari alohida fonemalardir.

i bilan boshlanuvchi so’zlarning birinchi bo’g’inida x yoziladi: ix-tiyor, ix-cham, ix-los, ix-tisoslik; qolgan bo’g’inlarida kelsa h yoziladi: il-hom, i-ho-ta, is-loh;

e bilan boshlanuvchi so’zlar tarkibida asosan h yoziladi: ehson, ehtirom, ehrom, ehtiyot, ehtiyoj.

x va h ayrim so’zlarda ma’no farqlashga xizmat qiladi: xol (dog’)-hol (ahvol); xam (egik)-ham (yuklama); shox (daraxt shoxi)-shoh (podshoh); rux (metall)- ruh (arvoh);

Ayrim so’zlarda yonma-yon kelgan ikkita bir xil undoshdan biri tushirilsa, so’z xato hisoblanmaydi, faqat so’z ma’nosi o’zgaradi; *qattiq-qatiq; silla-sila; tilla-tila; mashshoq-mashoq; cho’qqi-cho’qi; ushshoq-ushoq;*

Siyla, biyron, ziyrak so’zlarida y undoshi tushirilganda so’z xato hisoblanmaydi, ma’no o’zgaradi: sila, biron, zirak.

‘ belgisi.

‘ belgisi tovush ifodalamaydi:

a) ‘ belgisi unli tovushdan keyin kelsa, unlini cho’ziqroq talaffuz etish uchun xizmat qiladi: ma’no, ma’rifat, ta’limot.

b) ‘ belgisi undoshdan keyin kelsa, keyingi bo’g’inni ajratish uchun xizmat qiladi: mas’ud, mas’ul, jur’at, sun’iy.

‘ belgisi ma’no farqlash uchun ham xizmat qiladi: *sher (hayvon)-she’r (ijod mahsuli); qala (ish harakat)-qal’a (qarorgoh); tana (vujud)- ta’na (minnat); nasha (o’simlik)- nash’a (zavq); sanat (fe’l)-san’at (ot); surat (tasvir)-sur’at (tezlik); tarif (toifa)- ta’rif (sifatlash);*

Hozirda ikki xil yozuvdan foydalanilmoqda. O’zbek xalqi VII asrlargacha runik, uyg’ur, so’g’d, moniy, braxma yozuvlaridan foydalangan. XV asrda arab yozuvi bilan bir qatorda uyg’ur yozuvi qo’llangan. VIII asrda 1929 yilgacha arab yozuvi; 1929-1940 yillarda lotin yozuvi; 1940 yildan hozirga qadar kirill yozuvidagi rus alifbosidan foydalanilmoqda.

Lotin yozuviga o’tish to’g’risidagi qaror 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilindi. 1993 yil 2 sentyabrdagi qarorga muvofiq lotin alifbosi 31 ta harf va bitta tutuq belgisi (‘apostrof) dan iborat deb belgilandi. Keyinchalik, 1995 yil 6-7 may qaroriga muvofiq bu alifboga o’zgartirishlar kiritildi. Unga ko’ra alifbo 26 ta harf va 3 ta harf birikmasidan (Ch, Sh, Hg) iborat (jami: 29 ta harf) deb belgilandi. Lotin alifbosiga o’tish dastlab 2000 yilgacha bo’lgan muddatda belgilandi. O’zgartirish haqidagi qarorga asosan 2005 yilgacha, deb uzaytirildi.

Lotin alifbosi

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg	Hh	Ii	Jj
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Kk	Ll	Mm	Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
10	11	12	13	14	15	16	17	18
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz	O’o’	G’g’	Shsh
19	20	21	22	23	24	25	26	27
Chch	NGng							
28	29							

Lotin yozuvi asosidagi “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” 1995 yil 24 avgustda qabul qilindi. Undagi asosiy qoidalar quyidagilar:

1. Undoshlar (ayrim) so‘z o‘rtasi va oxirida qo‘shaloq kelishi mumkin; grammatika, metall, kilogramm. Qo‘shimcha qo‘yilganda biri tushadi: metalni.
2. Ayrim so‘zlarda I, II, III shaxs egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda y (u) tovushi qo‘shib aytiladi va yoziladi: parvouim, mavqeying obro‘yimiz, mavzuyingiz, parvoyi. Xudo, mavzu, dohiy so‘zlari III shaxsda *xudosi, mavzusi, dohiysi* tarzida yoziladi. Orzu so‘zi: *orzum, orzung, orzusi* tarzida bo‘ladi.
3. g, g’ bilan tugagan so‘zga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilganda quyidagicha yozish saqlanadi: barg-ga-bargga: cho‘g’-ga-cho‘g’ga: bog’-ga-bog’ga.
4. Qo‘shimcha qisqartma otlarga qo‘shib yoziladi: O‘zMUning. Yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: O‘zR FA
5. Birikmadan yuzaga kelgan qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: so‘zboshi, mingboshi
6. Juft so‘zlar orasida -u,-yu yuklamalari bog‘lovchi vazifasida kelsa, yuklama chiziqcha bilan yoziladi: do‘st-u dushman, yer-u osmon.
7. Yuzma-yuz, rang-barang (yuzma-yuz, rang-barang) tarzidagi so‘zlar ham chiziqcha bilan yoziladi.
8. Kirill alifbosida 3 yuklama (-mi, -oq, -gina) qo‘shib, qolgani ajratib yozilar edi. Lotin yozuvida esa 4 yuklama (-mi, -oq, -gina, -ov) qo‘shib, qolgani ajratib yoziladi.
9. Arabcha raqamlardan keyin tartibni bildiruvchi chiziqcha qo‘yiladi: 60-yillar: 1999- yilning 1-sentabri
10. Qo‘shma fe‘llar doimo ajratib yoziladi: sotib ol, tasdiq qil.
11. Yildan yilga, kundan kunga tipidagi so‘zlarda chiziqcha qo‘yilmaydi (kirill alifbosida qo‘yiladi: kundan-kunga, yildan-yilga). ko‘pdan ko‘p, yangidan yangi: (ko‘pdan ko‘p, yangidan yangi)
12. *Birato‘la, birvarakayiga, biroq, birmuncha, buyon* so‘zlari qo‘shib yoziladi
13. Joy nomlarida atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harfda yoziladi: shimoliy Kavkaz.
14. Xalqaro tashkilotlar, davlatlar, oliy tashkilotlar, mansab (oliy)lar tarkibidagi har bir so‘z bosh harf bilan yoziladi: O‘zbekiston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti.
15. Ba‘zi atoqli otlarning faqat birinchi so‘zi bosh harf bilan yoziladi: O‘zbekiston Milliy tiklanish partiyasi, Fanlar akademiyasi.
16. ”She‘rning har bir misrasi bosh harf bilan boshlanadi” , degan qoida lotin alifbosidagi imlo qoidalariga kiritilmagan.
17. Tartib raqami qavsda berilsa (1) 2) a) b)), jumla kichik harfdagi so‘z bilan boshlanadi.
18. Inisiallar, “Boing- 767”, “5- A sinf” kabi birikmalar bo‘g‘in ko‘chirishda bir satrda yoziladi (bo‘g‘inga ajratilmaydi).
19. s undoshi so‘z boshida, so‘z oxirida, old qo‘shimchadan keyin, undoshdan keyin kelsa S yoziladi: sirk, shpris, antisiklon, kvars, konsert; s undoshi unidan keyin kelsa ts yoziladi: militsiya, litsey.
20. Rus tili orqali o‘zlashgan ayrim so‘zlarning yozilishi quyidagicha: oktabr, sentabr, budjet, lustra, flaga, dirijor, schotchik, uchoy, aluminiy, bo‘ks, molekular, yubilar.
21. ь belgisi yozilmaydi: palto, albom, yanvar; -o, -i dan oldin kelsa u yoziladi: батальон- batalyon, Ильин-ilyin.
22. ‘ belgisi o‘rinda asosan ’_(tutuq belgisi, apostrof) qo‘yiladi: ma‘no, da‘vo, san‘at. ‘ (tutuq belgisi) unidan keyin kelsa, shu unlini cho‘ziqroq talaffuz etishga, ta’kidlashga xizmat qiladi: ma‘rifat, na‘matak. ‘(tutuq belgisi) undoshdan so‘ng kelsa, o‘zidan keyingi bo‘g‘inni ajratishga xizmat qiladi: sur‘at, mas‘uliyat, mas‘ud, san‘at.

‘(tutuq belgisi) S va hni Sh harf birikmasidan farqlash uchun ham ishlatiladi: as’hov, Is’hoq.

Rus tilidan va rus tili orqali o’zlashgan so’zlarda ‘ belgisi yozilmaydi: razyezd, podyezd (raz’ezd, pod’ezd).

23. Ruscha h harfi o’rniga o’zbek kirill alifbosida sh yoki shch harflari yozilar edi, o’zbek lotin alifbosida sh yoziladi (faqat meshshan so’zida ikkita sh yoziladi): obshina, yamshik.

1989 yil 21 oktyabrda o’zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. 1995 yil dekabrda bu qonun qayta ko’rib, uning yangi tahriri tasdiqlandi.

Kirill alifbosi asosidagi o’zbek alfavitiga o’zbek tiliga xos bo’lgan 4 ta harf (tovush) qo’shilgan: o’, q, g’, h. Bu tovushlar lotin alifbosida ham o’z ifodasini topgan.

GRAFIKA VA ORFOGRAFIYA

O’bek tili alifbosidagi ba’zi tovushlar turli grafik formulalarga ega. Masalan, T harfining bosma shakli bilan yozma shakllari orasida ancha farq bor.

Garchi fonografik yozuv hozirgi vaqtda keng tarqalgan bo’lsa ham, kundalik hayotda yozuvning boshqa turlari ham uchrab turadi, chunki har bir turning o’ziga xos afzalligi bor. Masalan, piktografik yozuv odatda reklama ehtiyojlari uchun qo’llaniladi.

Ideogrammalar ko’cha harakatini ta’minlashda, matematika (1,6,10), kimyoda (H₂O) keng qo’llaniladi.

Piktogramma va logogrammalarning hozirgi vaqtda ko’plab qo’llanilishiga sabab, ularning tushunchalarni aniq, qisqa va tejimli ifodalashidir. Masalan, 12+29=41 deb so’zlar bilan yozsak, bizga ancha vaqt va masofa kerak bo’ladi.

Orfografiya so’zi ikkita grekcha so’zdan tashkil topgan, ya’ni **orthos** to’g’ri va **grapho** yozaman. Demak, orfografiya so’zining ma’nosi **to’g’ri yozishdir**. Shu sababli orfografiyaning asosiy vazifasi alifboning yozuvdagi qo’llanish qoidalari, so’zlarning yozilishi va bo’g’in ko’chirishdir.

Tilshunoslik fanida harflarni ishlatishning bir necha usuli mavjud. Ular quyidagilar: **fonetik, fonematik, an’anaviy, morfologik va simvolik**.

Fonetik prinsip. Bunga asosan talaffuzda qanday tovush eshitilsa, shunga mos keladigan harf yozilishi lozim: *qorin-qornim, burun- burnim*. Bunda tovush tushishi kuzatiladi.

Fonematik prinsip. Bunga asosan tovushlar qanday talaffuz qilinishidan qat’iy nazar, bir xil yozilishini talab qiladi. Masalan, *olib ketdidi* **b** harfi **p** deb talaffuz qilinadi. Lekin **b** yozilishi shart.

An’anaviy prinsipda so’zlar ularda mavjud, hozirgi vaqtda talaffuz qilinadigan tovushlarga asoslanib yozilmay, balki tarixda qanday yozilgan bo’lsa, hozir ham shunday yoziladi.

Morfologik va simvolik prinsiplar so’zlarning yozilishida grammatika va leksikaning manfaatlarini nazarda tutadi.

10-Mavzu	Til va nutq. Til va tafakkur.
-----------------	-------------------------------

1. Seminar mashg’ulotini olib borish texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 20
<i>Mashg’ulot shakli:</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga ajratilgan seminar mashg’uloti.

<i>Mashg'ulot rejası:</i>	1. Til va tafakkurning bog'liqligi. 2. Jamiyatning tilga ta'siri. 3. Tilning ijtimoiy fyksiyasi.
<i>Masg'ulotning maqsadi: Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
• mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi; • mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi; • o'z nuqtai nazariga ega bo'lishni shakllantiradi; • mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi.	amaliy mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib,tayyorgarlik ko'radi; • kursda o'rganilgan asoiy tushunchalar va atamalarni aytib beradi.
<i>O'qitish usullari</i>	Topshiriqlar,amaliy ishlah usuli, bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar,skotch.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa guruhlarida ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, test savollari.

2. Seminar mashg'ulotining xronologik xaritasi

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I.Kirish bosqichi (10 minut).	1.1. Seminar mashg'ulot mavzusi, maqsadi, rejalari bilan tanishtirib, uni qanday tashkil etish va o'quv faoliyati natijalarini aytib o'tish..	Tinglaydilar.
	1.2. Faollashtirish maqsadida savollar beriladi. Blis-so'rov, savol-javob o'tkaziladi	Savollarga javob beradi.
II. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1. Ta'lim jarayoni kichik guruhlarda taqdimot orqali o'tkaziladi.	Mustaqil taqdimot qilishadi.
	2.4 Guruhlarda ishlash tashkil qilinadi va unda yagona muammoli savol o'rtağa tashlanadi. Ta'lim jarayoni kichik guruhlarda ishlash orqali amalga oshirilishi tushuntiriladi.	Uchta guruhga bo'linadi.

	2.3. Talabalar 3 guruhga bo'linadi, ekspert varag'i tarqatiladi, bajarish metodikasi tushuntiriladi. Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi.	Topshiriqlarni bajaradilar. Tinglaydilar.
	2.4. Har bir guruhning javoblarini ekspert guruhi baholaydi. Har bir ekspert guruhi o'zi ko'rib chiqqan topshiriqlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini ko'rsatib beradi.	Jamoa bo'lib topshiriqlarni bajaradilar, bahs-munozara yuritadilar, qo'shimchalar qiladilar, xulosa chiqaradilar.
	2.5. Topshiriqlar bajarilishining qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tignlaydi	Baholaydilar.
	2.6. Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar tushuntiriladi va izoh beriladi.	Tinglaydi.
	2.7. Natijalar tekshiriladi, muhokama qilinadi.	Baholanadi.
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonlari orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi..
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faolligi tahlil qilinadi va baholanadi.	Tinglaydi.

MAVZU: Til va nutq. Til va tafakkur.

Yozuv insoniyat tomonidan tildan keyin qo'lga kiritilgan eng katta kashfiyotlardan biridir. Zero, yozuv insoniyat hayotida asrlar mobaynida zamon va makonning to'siqlarini yengib o'tishda tengsiz xizmat qilib kelmoqda. Uning bu imkoniyatlarini aniq tasavvur etish uchun ajdodlardan avlodlarga meros qilib qoldirilgan yozma manbalarni eslashning o'zi kifoyadir. Yozuvning taraqqiy etgan, sayqal topib mukammallashtirilgan shakllaridan foydalanayotgan hozirgi zamon kishisi ham uning tarixi, yozuvning qadimiy turlari, yozuvning tarqalishi singari ma'lumotlarni o'rganishi bu haqdagi tasavvurlarni kengaytiribgina qolmay, balki katta ilmiy nazariy ma'lumotlarni to'plash uchun ham asos bo'ladi. Fandagi

ma'lumotlarga va dastlabki yozuv turlari haqidagi materiallarga diqqat qilsak, yozuvdagi shakllar tabiatdagi, borliqdagi turli narsa va predmetlarni tasvirlash bilan bog'lanadi. Shu boisdan ham dastlabki yozuv **piktografiya**ga asoslanadi. Piktografiya esa, «*chizilgan*», «*yozaman*» degan ma'nolarni ifodalaydi. Yozuvning qadimiy turlaridan biri piktografik yozuv deb nomlanishi ham ana shundan dalolat beradi. Asrlar osha yozuv ham taraqqiy etdi va dastlab ma'lumotni nisbatan mavhumroq ifodalagan yozuv turlari keyinchalik inson fikrini to'liq va mukammal yoritish xususiyatlariga ham ega bo'lib boraverdi. Fikrimiz dalili sifatida darslik va ma'ruzalar matnida keltirilgan yozuvning **piktografik, idiografik, ieroglifik va fonografik** turlarini eslashning o'zi kifoyadir. Hozirgi davrda ko'pgina xalqlar fonografik yozuvning turli ko'rinishlaridan foydalanadilar. Bu yozuv dastlabki bosqichlarda bo'ginlarga asoslanuvchi **sillabik yozuv** deb nomlanuvchi ko'rinishga ega bo'lgan. Uning taraqqiyoti tovushga teng belgilardan iborat takomillashgan yozuv shakllarini keltirib chiqargan. Mazkur mavzuni o'rganishda talaba yozuvning rivojlanish bosqichlarini aniq tasavvur etish uchun ularda ma'lumot ifodasining mavhumlikdan aniqlikka, murakkablikdan soddalikka va bir necha gapga teng belgilarni qo'llashdan tovushga teng belgilarni qo'llashga erishuvini har tomonlama mushohada etmog'i lozim.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda yana shuni ham inobatga olish lozimki, yozuvning nomlari keltirilgan turlaridan tashqari, maxsus yozuv turlari ham qo'llaniladi. Yozuvning bunday turlaridan **stenografik** yozuv va **transkripsiya**ni aytish mumkin. Maxsus yozuv turlari asosiy yozuvga yordamchi vosita sifatida qo'llaniladi. Stenografik yozuvdan majlis bayonlarini tez va to'liq aks ettirish maqsadida stenografistlar tomonidan foydalanilsa, transkripsiya so'zlarning talaffuzini aniq ko'rsatib berishda qo'llaniladi. Demak, yozuvning maxsus turlari ma'lum sohalarda mavjud ehtiyojlar tug'ilganda tor doirada qo'llanadi. Ma'ruzada va qo'shimcha adabiyotlarda mavjud Markaziy Osiyo xalqlarining yozuvi tarixi bilan ham tanishish talabalar uchun tavsiya etiladi. Bu adabiyotlarda ular Markaziy Osiyoda ham yozuv jahon xalqlari yozuvi tarixi bilan bog'liq holda rivojlanganligini

va bu maskanlarda yozuvning qanday turlari keng tarqalganligi bilan bog‘liq muhim ma’lumotlarga ega bo‘lishlari mumkin.

TIL VA TAFAKKUR

Til va tafakkur bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Ayrim olimlarning fikrlariga ko‘ra, ular biri boshqasidan aniq farqlanmaydigan sinkritik hodisalar sifatida tasavvur etiladi. Albatta, til bilan tafakkurning o‘zaro munosabati tilshunoslikda ham, falsafada ham eng muhim murakkab muammolardan biridir. Shu bois mazkur mavzuni o‘rganishga qaratilgan mashg‘ulotlarda talabalar bu muammolarning fanda anchagina o‘rganilganligini, ular o‘zaro dialektik bog‘liq bo‘lgani holda, har biri faqat o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatlariga ko‘ra farqlanishini ham e’tibor markazida tutmog‘i muhim. Tafakkur insonning bilish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, sezgilar orqali bilishdan farqlidir. Zero, u ana shu sababdan ham bilish jarayonining yuqori bosqichi hisoblanadi. Demak, aqliy bilish va sezgilarga tayanuvchi hissiy bilish keskin farqlanadi. Tafakkurning muhim xususiyati sifatida uning til bilan bog‘langanligini aytish mumkin. Chunki tilni tafakkursiz yoki, aksincha, tafakkurni tilsiz tasavvur etish qiyin. Biroq shunday bo‘lsa-da, til va tafakkurning har biri o‘z ichki tuzilishiga va birliklariga ega. Masalan, leksema, so‘z-shakl, so‘z birikmasi va gap singarilar bevosita tilga (nutqqa) tegishli birliklar hisoblansa, tushuncha, fikr, hukm va xulosa singarilar tafakkur bilan uzviy bog‘liq birliklar hisoblanadi. Aytish joizki, til birliklari ifodalovchi, tafakkur birliklari ifodalanuvchi xususiyatlarga egadir. Til milliy xususiyatga ega, tafakkur esa umuminsoniy xususiyati bilan undan farqlanadi. Tafakkur shakllari va qonun-qoidalari barcha millatlarda bir xildir.

Yuqoridagilardan tashqari shuni ham aytish lozimki, til birliklari bilan tafakkur birliklarini tenglashtirib bo‘lmasligi haqida ma’ruzalar matnida keltirilgan misollarga alohida e’tibor qaratishni tavsiya etamiz. Chunki, mazkur masala doirasida aniq tasavvur hosil etish uchun so‘z bilan tushuncha aynan bir-biriga mos kelavermasligi haqida bilish muhimdir. Mustaqil so‘zlarni taqozo etuvchi so‘zlar tushuncha ifodalay olsa-da, biroq yordamchi so‘zlarni taqozo etuvchi til birliklari

soʻz hisoblansa ham, tushuncha ifodalay olmaydi. Gapni muhokama, xulosa singari tafakkur birliklari bilan tenglashtirib boʻlmasligini talaba chuqur oʻzlashtirish uchun gapning barcha turlarini voqea-hodisaning mavjudligi, yoʻqligi, rostligi, yolgʻonligi kabi jihatlaridan tashqari, soʻroq, buyruq mazmunidagi gaplarning borligiga ham eʼtibor qaratish zarur. Zero, mantiq qonuniyatlari bunday xususiyatlarga tayanmasligi maʼlum.

SOTSIOLINGVISTIKA

Sotsiolingvistika tilshunoslik fanining alohida bir boʻlimidir. Bunda til va jamiyat oʻrtasidagi aloqaning sabab va mohiyati lingvistik nuqtai nazardan oʻrganiladi. Mazkur jarayonda ijtimoiy omillarning tilga taʼsiri, ularning til strukturasida qanday aks etishi singarilarni tadqiq etish nazarda tutiladi. Til va jamiyat uzviy aloqada boʻlib, ularning birini boshqasiz tasavvur etib boʻlmaydi. Til jamiyatda yashaydi. Jamiyat taraqqiyoti esa, maʼlum maʼnoda tilga tayanadi. Til ham jamiyat bilan aloqada rivojlanadi. Shunday boʻlmas ekan, u oʻzining jamiyatdagi kommunikativlik funksiyasini batamom yoʻqotadi va oʻlik tilga aylanadi.

Til ijtimoiy hodisadir. Shu bois uning oʻrni ijtimoiy hodisalar doirasida belgilanadi. Biroq tilning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan umumiy va farqli jihatlar mavjud.

Tilning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan umumiyligi jamiyatning tilsiz taraqqiy eta olmasligida koʻrinadi. U orqali jamiyat tarixiy taraqqiyoti davomida erishgan barcha maʼnaviy va madaniy boyliklari avloddan-avlodga etkazib beriladi.

Tilning tarixiy taraqqiyotida mavjud oʻziga xos qonuniyatlari hamda vazifasi boshqa ijtimoiy hodisalardan farqli ekanligini koʻrsatib beradi. Buni aniq tasavvur etish uchun esa, tilni jamiyatning huquqiy, diniy, siyosiy qarashlari bilan qiyoslash muhim hisoblanadi. Tilning jamiyatdagi vazifasi uning kishilar oʻrtasida aloqa quroli ekanligidir. Bu esa, tilning ijtimoiyligini yanada aniqroq tasavvur etish imkonini beradi. Sotsiolingvistikaning tilni oʻrganish jarayonida unga yondashuvi aynan ana shu bilan bogʻlanadi. Chunki bunda tilning ekstralingvistik hodisalar bilan bogʻliqligi yoki tilning ijtimoiylik tabiati nazarda tutiladi. Bu holat tilning rivojlanishida ustuvor

ahamiyat kasb etadi. Til sathlari har biri o'z birliklariga va o'ziga xos kategoriyalariga, qonuniyatlariga ega ekanligi bilan bir-biridan farqlanadi. Shunday bo'lsa-da, til sathlari bir-biri bilan uzviy bog'liqlikka ega bo'lib, aniq bir qonuniyat asosida yaxlitlashgan sistemani tashkil etadi.

Til jamiyatdan tashqarida rivojlanmaydi. Uning funksional jihatlari, albatta, jamiyat bilan bog'liq holda bo'ladi. Demak, tildagi barcha o'zgarishlar ijtimoiy hodisa tufayli yuzaga keladi. Shunday ekan, sotsiolingvistikaning asosiy va umumnazariy muammosi tilni ijtimoiy hodisa sifatida tekshirish, uning tilshunoslikdagi o'rni va rolini belgilashdan iboratdir.

29-ilova

“Tezkor-so‘rov” savollari

1. Til va tafakkurni qanday izohlaysiz?
 2. Tafakkur sezgidan, idrok va tasavvurdan qanday jihatlariga ko'ra farqlanadi?
 3. Til va tafakkurni F.de Sossyur qanday tushunadi?
 4. Jamiyat a'zolarining siyosiy, huquqiy qarashlari tilning real qo'llanishiga ta'sir etadimi ?
-

30-ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilishi lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tayziqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

31-ilova

Ekspert varag'i №1

1. Til bilan nutq o'rtasida qanday qarama-qarshiliklar bor?
2. Tilning umumiyligi va nutqning xususligini qanday tushunasiz?
3. Dastlabki yozuvlar haqida ma'lumot bering.

Ekspert varag'i №2

1. Piktografik yozuv nima?
2. Ideografik va ieroglifik yozuvlar qanday farqlanadi?
3. Fonografik yozuv nima?

Ekspert varag'i №3

1. Maxsus yozuvlar haqida ma'lumot bering.
2. O'rta Osiyo xalqlari yozuvlari tarixini izohlab bering.
3. Til bilan jamiyat o'rtasida qanday bog'liqlik bor ?
4. Til ijtimoiy hodisalarning boshqa turlaridan nimalarga ko'ra farq qiladi ?

32-ilova

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Piktografik yozua
a) ideogrammalarga asoslanadi b) logogrammalarga asoslanadi v) iyerogliflarga asoslanadi g) piktogrammalarga asoslanadi d) fonogrammalarga asoslanadi
2. Yozuvning qaysi turi yunoncha «muqaddas yozuv» degan ma'noni anglatadi ?
a) piktografik b) ideografik v) logografik g) fonografik d) iyeroglifik
3. O'rta Osiyo xalqlari eramizdan avvalgi IV-VI asrlarda yozuvning qaysi turidan foydalanishgan?
a) Mix yozuvidan b) Oromiy yozuvidan v) Urxun- Enasoy yozuvidan g) uyg'ur yozuvidan d) arab yozuvidan
4. Bilishning yuqori bosqichi –
a) tasavvur b) idrok v) xissiy bilish g) tafakkur d) sezgi
5. Tafakkur formalari
a) tilshunoslikda o'rganiladi b) mantiqda o'rganiladi v) falsafada o'rganiladi g) mantiq va tilshunoslikda o'rganiladi d) tilshunoslik va falsafada o'rganiladi

Guruhlarda ishlashni baholash

Guruhlar	Javobning to'liqligi (1,0)	Szemalarda berilganligi (0,4)	Guruh ishtirokchisining faolligi 0,6)	Ballar	Bahosi
1					
2					
3					
4					
5					
6					

Baho mezonlari va ko'rsatkichlari (balda)

Guruhlar	Baho	Yechim mantig'i	Izchilligi, to'liqligi, faolligi	Amaliy ahamiyati	Jami
	Ballar	1	2	2	5
1					
2					
3					

Guruhlar	1	2	3	Umumiy ballar yig'indisi	Baho umumiy ballar yig'indisining ikkiga bo'lingani
1	-				
2		-			
3			-		

Talabaning yakka bahosi guruh faoliyatining umumiy bahosiga teng.

Seminardagi maksimal yakuniy baho – 3 ball

2,2 – 3 – «a'lo»

1,2 - 2 – «yaxshi»

0,5 – 1,1 – «qoniqarli»

0 – 0,5 – «qoniqarsiz»

Kurs bo'yicha baholashda bilish, tushunish, tadbiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholash olish mezonlariga asoslaniladi.

Har bir amaliy mashg'ulotda 2 ballgacha olishlari mumkin bo'lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni tushunadilar	Usullarni qo'llay oladilar	Natijalarni tahlil qila oladilar
20 %	20 %	30 %	30 %

«TILSHUNOSLIK» fanidan test savollari

1.«Tilshunoslik» fani nimalarni o‘rganadi?

- a) tilning nazariy fonetikasi va leksikologiyasiga oid qoidalarni
- b) morfologiya va sintaksisga tegishli muammolarni
- v) tilshunoslikda qo‘llanadigan lisoniy tahlil usullarini
- g) tillarning geneologik tasnifini
- d)til haqidagi dastlabki ma’lumotlarni,tilshunoslikning tarkibiy qismlarini,ilmiy terminlarni,tilning paydo bo‘lishi kabi muammolarni

2.Mikro va makrolingvistikalarda nimalar o‘rganiladi?

- a) mikrolingvistika fonema, morfema singari tilning kichik birliklarini, makrolingvistika matn tahlilini
- b) mikrolingvistika tilning fonetik tuzilishini, makrolingvistika tilning grammatik qurilishini
- v) mikrolingvistika tilning ichki sistemasini, makrolingvistika nutqning qonun-qoidalarini
- g) mikrolingvistika tilning ichki tuzilishini, makrolingvistika tilning umumiy muammolarini
- d) mikrolingvistika ichki til birliklari, makrolingvistika tilning katta

birliklarini

3.Til sistemasi

- a) belgilar yig‘indisidan tashkil topadi
- b) fonemalar va morfemalar muammosini taqozo etadi
- v) so‘z va qo‘shma so‘zlar munosabatidan tashkil topadi
- g) so‘z birikmasi va gap munosabatini taqozo etadi
- d) til bilan nutq birliklaridan iborat bo‘ladi

4.Tilning qanday birliklari belgi sanaladi?

- a) soʻz va qoʻshma soʻz
- b) fonema va morfema
- v) soʻz va gap
- g) morfema va soʻz
- d) soʻz birikmasi va sintagma

5. Tilning paydo boʻlishida eng asosiy mavqyega ega boʻlgan faktorlar

- a) taqlid soʻzlari
- b) undov soʻzlari
- v) ijtimoiy kelishuv
- g) tafakkur, mehnat, jamiyat
- d) mehnat chaqiriqlari

6. Tilning paydo boʻlishini kimlar ijtimoiy kelishuv farazi bilan bogʻlaydi?

- a) V.Gumboldt, A.Poyebnya
- b) A. Potebnya, Ch. Darwin
- v) J.J. Russo, Adam Smit
- g) V. Gumboldt, J.J.Russo
- d) Ch.Darvin, L. Nuare

7. Imo-ishoralarning inson tilining paydo boʻlishida

- a) ahamiyati yoʻq
- b) muhim ahamiyatga ega
- v) qisman ahamiyatga ega
- g) baʼzi qabilalar tili uchun ahamiyali sanaladi
- d) yordamchi mavqyega ega

8. Til voqyelikni ham oʻzgartira oluvchi inson ruhiyatining mahsuli ekanligi xususidagi xato fikr kimlarga tegishli?

- a) V.Lomonosov, A. Peshkovskiy, Panini
- b) Bxartxari, Amara, Platon
- v) V.Gumboldt, E.Sepir, B. Uorf
- g) M.Qoshgʻariy, M.Zamaxshariy
- d) F.de Sossyur, Boduen de Kurtene

9. Qadimgi Hindistonda tilshunoslikning vujudga kelishi

- a) buddizm bilan bogʻliq
- b) Veda dini bilan bogʻliq
- v) Panini va uning grammatikasi bilan bogʻliq
- g) Varrachuti Katyaina va Bxartxari asarlari bilan aloqador
- d) yuqoridagilarning birortasi bilan ham bogʻliq emas

10. Paninining hind tili me'yori grammatikasida sanskritning grammatik qurilishiga oid

- a) 300 dan ortiq sutrlar beriladi
- b) 250 dan ortiq qoidalar keltiriladi
- v) 400 dan ortiq qoidalar berilib, ular sutrlar deb ataladi
- g) qoidalar yoki sutrlar soni aniq emas
- d) asarda sutrlar emas, balki 400 dan ortiq formulalar beriladi

11. Qadimgi yunon tilshunosligi necha bosqichga bo'lib o'rganiladi?

- a) uch bosqichga – Iskandariya davri, til muammolarifaylasuflar tomonidan o'rganilgan davr va grammatika mustaqil fan sifatida o'rganilgan davr
- b) ikki bosqichga – til muammolari faylasuflar tomonidan o'rganilgan davr va grammatika mustaqil fan sifatida o'rganilgan davr
- v) bir bosqichga – til muammolari faylasuflar tomonidan o'rganilgan davr
- g) to'rt bosqichga – Iskandariya davri, til muammolari faylasuflar tomonidan o'rganilgan davr, grammatika mustaqil fan sifatida o'rganilgan davr, yunon adabiy tili asoslangan davr
- d) bosqichlarga bo'lib o'rganilmaydi

12. «Poetika» va «Ritorika» asarlari kim tomonidan yozilgan?

- a) Aritotel
- b) Platon
- v) Sukrot
- g) Demokrit
- d) Geraklit

13. «Ali Kitob» kimning qalamiga mansub va u qanday qismlardan tashkil topgan?

- a) Abul Osvad asari, tadjvid, sarf qismlaridan tashkil topgan
- b) Al Firuzobodiy asari, tadjvid va nahvga oid qismlardan tashkil topgan
- v) Sog'aniy asari, sarf va nahvga oid qismlardan tashkil topgan
- g) Sibaveyx asari, tadjvid, sarf va nahvga oid qismlardan tashkil topgan
- d) Zamaxshariy asari, tadjvid va sarfga oid qismlardan tashkil topgan

14. «Muqaddamat ul adab», «Asoa ul balog'a» asarlarini kim yozgan?

- a) Ibn Sino b) Al Javhar v) Zamaxshariy g) Sibaveyx
- d) Halil al-Faraxidiy

15. Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida so'zlar necha turkumga bo'linadi?

- a) to'rt) isa, fe'l, ravish, sifat)
- b) uch) ism, fe'l, yordamchi so'zlar)
- v) ikki) ism va fe'l)

- g) besh) ism, fe'l, sifat, son, ravish)
- d) turkumlarga bo'linmaydi

16. Alisher Navoiyning qaysi asarida turkiy til imkoniyatlari keng yoritiladi?

- a) «Mezonul avzon»
- b) «Mufradot»
- v) «Majolisun nafois»
- g) «Lison- ut tayr»
- d) «Muhokomat – ul lug'atayn»

17. Fonetikaning asosiy predmetini

- a) tovushlarning akustik xarakteristikasi tashkil etadi
- b) tovushlarning akustik va artikulyasion xarakteristikalari tashkil etadi
- v) tovushlarning fonema tarzida asoslanishi tashkil etadi
- g) tovushlarning artikulyasiyasi o'rni va usuliga ko'ra xarakteristikasi tashkil etadi
- d) tovushlarning ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra xarakteristikasi tashkil etadi

18. Qadimgi Hindistonda tilshunoslikning vujudga kelishi

- a) buddizm bilan bog'liq
- b) Veda dini bilan bog'liq
- v) Panini va uning grammatikasi bilan bog'liq
- g) Varraruchi Katyaina va Bxartxari asarlari bilan bog'liq
- d) yuqoridagilarning birortasi ham bog'liq emas

19. Allofon deganda nimani tushunasiz ?

- a) fonemaning nutqiy qo'llanishdagi variantini
- b) sifat o'zgarishlar hosil qiluvchi tovushni
- v) tovushning nutqda qo'llanilishini
- g) ikki tovush ifodasini
- d) fonlarning yig'indisini

20. Unlilar tasnifida nimalar e'tiborga olinadi?

- a) ovoz va shovqinning ishtiroki
- b) artikulyasiyasi o'ri va usuli
- v) tilning holati va lablarning ishtiroki
- G) havo oqimi
- d) tilning gorizontal va vertikal holatlari

21. Unlilar tarkibiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

- a) monoftong va diftonglarga
- b) monoftong, diftong va triftonglarga
- v) diftong va triftonglarga
- g) monoftong va triftonglarga

d) turlarga bo‘linmaydi

22. O‘zbek tilidagi undoshlar hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

- a) lab va bo‘g‘iz undoshlariga
- b) bo‘g‘iz va til undoshlariga
- v) til oldi, til orqa, til o‘rta va chuqur til orqa undoshlariga
- g) lab, til va bo‘g‘iz undoshlariga
- d) lab va til undoshlariga

23. Sonor tovushlar qanday belgiga ega bo‘ladi ?

- a) faqat shovqindan iborat bo‘ladi
- b) faqat ovozdan iborat
- v) ovoz va shovqin miqdori teng bo‘ladi
- g) ovozdan shovqin miqdori ko‘p bo‘ladi
- d) shovqin juda kam sezilib, ovoz miqdori ko‘p bo‘ladi

24. Supersegment unsurlar nima ?

- a) ifoda material bo‘lmagan fonetik unsurlar
- b) ifoda material mavjud unsurlar
- v) bo‘g‘in va intonasiya
- g) urg‘u va bo‘g‘in
- d) intonasiya va urg‘u

25. Qanday hodisalarning progressiv turlari mavjud ?

- a) dissimilyasiya va metateza b) assimilyasiya va akkomodasiya
- v) gaplogiya va diereza g) epenteza va metateza
- d) reduksiya va assimilyasiya

26. Morfemaning qanday asosiy turlari mavjud ?

- a) grammatik va leksik ma‘no beruvchi
- b) so‘z shaklidagi va affiks shaklidagi
- v) o‘zak morfema va affiks morfema
- g) allomorf va grammatik morfema
- d) so‘z yasovchi va shakl yasovchi

27. Suppletivizm hodisasi nima ?

- a) ma‘lum bir so‘zning grammatik formalari o‘rtasidagi yaqinlik
- b) so‘z grammatik formalarining turli xil o‘zak va negizlardan yasalishi
- v) grammatik ma‘no ifodalashda bir xil so‘z formalaridan foydalanish
- g) affikslarning leksik ma‘noga ta‘siri
- d) so‘zning grammatik formalari o‘rtasidagi tafovut

28. Analitik shakl sintetik shakldan qanday farqlanadi ?

- a) analitik shakl affikslar orqali ifodalanadi, sintetik shakl esa yordamchi so‘zlar bilan

- b) analitik shakl yordamchi fe'llar bilan, sintetik shakl esa affikslar bilan ifodalanadi.
 - v) fnflitik shakl ko'makchi va bog'lovchi bilan, sintetik shakl esa yordamchi fe'l bilan ifodalanadi
 - g) analitik shakl ko'makchi, bog'lovchi, predlog, ko'makchi fe'llar bilan, sintetik shakl esa affikslar bilan ifodalanadi
 - d) analitik va sintetik shakllar bir hodisaning ikki xil nomlanishidir
29. Grammatik rod tarixan o'zgaruvchanmi ?
- a) tarixan o'zgaruvchan emas
 - b) rod ma'osi tarixan o'zgaruvchandir
 - v) mujskoy va jenskiy rodlar tarixan o'zgaruvchan, oraliq rod o'zgarmaydi
 - g) oraliq rod o'zgaruvchan, mujskoy va jenskiy rodlar o'zgarmaydi
 - d) faqat jenskiy rod tarixan o'zgaruvchandir
30. Son kategoriyasi ingliz tilida
- a) sifat va fe'llarga taalluqli
 - b) faqat otga taalluqli
 - v) faqat sifatga taalluqli
 - g) faqat fe'lga taalluqli
 - d) ot va olmoshlarga taalluqli
31. Kelishiklar sonining 20 dan ortiq bo'lishi qaysi tilga xos ?
- a) o'zbek tiliga
 - b) rus tiliga
 - v) ingliz tiliga
 - g) venger tiliga
 - d) eston tiliga
32. So'zlarning turkumlarga bo'linishida nimalar e'tiborga olinadi ?
- a) leksik- grammatik ma'nolar va morfem tuzilish
 - b) leksik-grammatik ma'no, morfologik belgi, sintaktik vazifa, distributiv xususiyat
 - v) distributiv xususiyat, morfologik belgi va sintaktik vazifa
 - g) leksik-grammatik ma'no, sintaktik vazifa
 - d) morfem tuzilish, grammatik ma'no, morfologik belgi
33. Leksikologiyaning qanday bo'limlari mavjud ?
- a) semasiologiya, etimologiya va leksikografiya
 - b) etimologiya, onomastika, onomasiologiya
 - v) semasiologiya, etimologiya, frazeologiya, leksikografiya, onomastika, onomasiologiya
 - g) frazeologiya, etimologiya, leksikografiya
 - d) leksikografiya, fraziologiya, onomastika

34. Denotat deganda nimani tushunasiz ?
- a) soʻzning maʼnosini
 - b) soʻz anglatayotgan hodisa yoki predmetni
 - v) soʻz anglatayotgan tushunchani
 - g) soʻzning shakliy tuzilishini
 - d) soʻzning grammatik shaklini
35. Avstraliyada «Soʻz va Narsa» nomi bilan atalgan maktabni kim asoslagan
- a) F.deSossyur, b) Andre Martine v) Sh.Balli, g) Rudolf Mirenger
 - d) G.Glison
36. «Tabu» atamasi nimani anglatadi ?
- a) aytish man etilgan soʻzlarni
 - b) bir tushunchaning ikkinchi tushuncha bilan almashtirilishini
 - v) marosimlarda qoʻllanadigan soʻzlarni
 - g) sinonimik maʼnoli soʻzlarni
 - d) qarama-qarshi soʻzlarni
37. Metonimiya xodisasi nima taqozo etadi ?
- a) predmetlarning tashqi belgilariga asoslangan maʼno koʻchishini
 - b) predmet maʼnosining vasifasiga koʻra koʻchishini
 - v) ikki predmetning doimiy ravishda birgalikda qoʻllanishiga asoslangan maʼno koʻchishini
 - g) maʼnoning butun va qismga asoslanib koʻchishini
 - d) predmetlar oʻrtasidagi ichki oʻxshashlikka asoslangan maʼno koʻchishini
38. Sinekdoxa xodisasida soʻz maʼnosining koʻchishi nimaga asoslanadi ?
- a) predmetlar oʻrtasidagi tashqi bergilarning oʻxshashligiga
 - b) predmetlar bajaradigan vazifalarning mushtarakligiga
 - v) predmetlarning mudom yonma-yon qoʻllanishiga
 - g) butun va qism tushunchalariga
 - d) predmetlar grammatik maʼnolarining bir xilligiga
39. Kichik sintaksisning tekshiruv obyekti qaysi javobda toʻgʻri berilgan ?
- a) gap va uning turlari b) erkin soʻz birikmalari v) turgʻun gap birikmalari g) morfema va uning turlari d) yasama soʻzlar, turgʻun soʻz birikmalarida morfemalararo mikrosintagmatik munosabatlar
40. Predikativlik xodisasining ifoda obyektlari qaysi javobda toʻgʻri berilgan ?
- a) soʻz, soʻz birikmasi va gap b) gap va uning turlari v) soʻz birikmasi va qoʻshma soʻzlar g) soʻz va gap d) sintagma, erkin soʻz birikmalari va gap
41. Presuppozisiya nimani anglatadi ?
- a) predikat ishtirokida shakllangan semantik strukturani

- b) predikat va argumentlar munosabatini
 - v) predikat va aktaklar munosabatini
 - g) ma'lum sintatik struktura ifodalayotgan real ma'nodan tashqari uning ichki strukturasida anglashiladigan ma'noni
 - d) ma'lum sintaktik struktura orqali anglashiladigan sinonimik ma'nolarni
42. L.Tenyerning sintaktik valentlik nazariyasi qanday atamalar orqali izohlanadi ?
- a) predikat, aktant, harakat b) aktant, sirkonstant, harakat v) sirkonstant, harakat, predikat g) harakat, aktant va uning turlari d) aktant va sirkonstant
43. Gapning aktual bo'laklari nazariyasini kim ilmiy asoslagan ?
- a) V.Matezius b) Sh.Balli v) N. Trubeskoy g) L. Blumfild d) V.Gumboldt
44. Monemaning qanday turlari mavjud ?
- a) funksional, yarim funksional, qaram
 - b) qaram, avtonom, superfunksional
 - v) funksional, superfunksional, avtonom, qaram va yarim funksional
 - g) avtonom, qaram, funksional
 - d) monema turlarga bo'linmaydi
45. Piktografik yozua
- a) ideogrammalarga asoslanadi b) logogrammalarga asoslanadi v) iyerogliflarga asoslanadi g) piktogrammalarga asoslanadi d) fonogrammalarga asoslanadi
46. Yozuvning qaysi turi yunoncha «muqaddas yozuv» degan ma'noni anglatadi ?
- a) piktografik b) ideografik v) logografik g) fonografik d) iyeroglifik
47. O'rta Osiyo xalqlari eramizdan avvalgi IV-VI asrlarda yozuvning qaysi turidan foydalanishgan?
- a) Mix yozuvidan b) Oromiy yozuvidan v) Urxun- Enasoy yozuvidan g) uyg'ur yozuvidan d) arab yozuvidan
48. Bilishning yuqori bosqichi –
- a) tasavvur b) idrok v) xissiy bilish g) tafakkur d) sezgi
49. Tafakkur formalari
- a) tilshunoslikda o'rganiladi b) mantiqda o'rganiladi v) falsafada o'rganiladi g) mantiq va tilshunoslikda o'rganiladi d) tilshunoslik va falsafada o'rganiladi

50. «Kishi miyasining til bilan bogʻliq boʻlgan butun faoliyatini tafakkur deb bilish lozim» . Ushbu soʻzlar kimning qalamiga mansub?

a) V. Vinogradov b) L. Tenyer v) Aristotel g) A. Fitrat d) B. Ardentov

51. «Til va nutq» dixotomiyasi kim tomonidan ilmiy asoslangan ?

a) B. de Kurtene b) A. Potebnya v) V. Gumboldt g) F. de Sossyur

d) A. Seshe

52. Tilning har bir belgisi qanday jihatlarga ega boʻlishi shart ?

a) ohang va tovush sistemasiga b) ifodalovchi va ifodalanuvchi tomonlariga

v) tildagi va nutqdagi oʻrinlariga g) paradigmatic va syntagmatic sifatlariga

d) semiologik va fonologik xususiyatlariga

53. Til

a) shaxsda yashaydi b) oʻz sistemasida doirasida yashaydi v) jamiyatda yashaydi g) nutqda yashaydi d) belgilar sathida yashaydi

54. Qaysi javob toʻgʻri ?

a) til bilan nutq mushtarak hodisalardir b) til bilan nutq qarama-qarshi hodisalardir v) til bilan nutq oʻzviy bogʻliq hodisalardir

g) til bilan nutq qarama-qarshi va shu bilan birga uzviy bogʻliq hodisalardir

d) til bilan nutq biri ikkinchisini talab qiluvchi lisoniy hodisalardir

55. Tilning paydo boʻlishi muammosini

a) faqat tilshunoslar oʻrganadi b) faylasuflar va tilshunoslar oʻrganadi v) tilshunoslar, tarixchilar, faylasuflar, zoopsixologlar, biologlar, etnografiya mutaxassislari oʻrganadilar

g) fiziklar, tilshunoslar, faylasuflar va xatto matematiklar ham oʻrganadilar d) psixologlar, tilshunoslar, matematiklar, antropologlar va fiziklar oʻrganadilar

56. Xalqlarda imo-ishoralardan foydalanishning bir soatlik darajasi qaysi javobda toʻgʻri berilgan ?

a) meksikaliklar 160, fransuzlar 140, italyaliklar 120, finlandiyaliklar 10 marta

b) meksikaliklar 200, fransuzlar 180, italyaliklar 140, finlandiyaliklar 20 marta

v) meksikaliklar 120, fransuzlar 80, italiyaliklar 40, finlar 6

g) meksikaliklar 80, fransuzlar 60, italiyaliklar 80, finlar 50

d) meksikaliklar 180, fransuzlar 120, ital.80, finlar 1

57. Dastlab ikki til imo-ishoralar tili va nutq tovushlari tili boʻlganligi kim tomonidan aytilgan ?

a) V. Vundt b) L. Nuare v) A. Potebnya g) Aristotel d) V. Gumboldt

58. Qadimgi Hindistonda tilshunoslik bobida erishilgan yutuqlarga Ovro'pada XIX asrdagina erishilganligini kim ta'kidlagan ?

- a) F.de Sossyur b) L.Blumfild v) V. Matezius g) V.Tomsen d) A.Martine

59. Qadimgi Hindistonda Amara tomonidan qanday lug'at tuzilgan ?

- a) sanskritning qisqacha izohli lug'ati
b) diniy adabiyotlardagi qiyin so'zlarning izohli lug'ati
v) omonimlar lug'ati g) sinonimlar lug'ati d) Panini asarlarida berilgan so'zlarning qisqacha izohli lug'ati

60. «Kratil» asarini kim yozgan ?

- a) A. Diskol b) Demokrit v) Geraklit g) Platon d) Sukrot

61. Iskandariya tilshunoslik maktabi vakillari yunon adabiy tili taraqqiyoti fonetik jihatdan necha unli va necha undoshga bog'liq ekanligini asoslab berganlar ?

- a) 6 unli, 25 undosh b)) 7 unli, 21 undosh v) 5 unli, 25 undosh
g) 7 unli, 17 undosh d) 8 unli, 18 undosh

62. Qadimgi Xitoyda dastlab qanday asar vujudga kelgan ?

- a) Guanya) lug'atshunoslikka oid) b) Fanya) shevashunoslikka oid
v) Erya) lug'atshunoslik va odob-oxloqqa oid g) Xitoy tili fonetikasi
d) Xitoy tili me'yoriy grammatikasi

63. O'rta Osiyolik olimlardan qaysi biri arab tili fonetikasini yozgan ?

- a) Forobiy b) M. Qoshg'ariy v) Beruniy g) Ibn Sino d) Zamaxshariy

64. 60 jildlik arabcha lug'atni kim yozgan ?

- a) Al Firuzobodiy b) Soganiy v) Sibaveyx g) Abul Osvad d) M. Qoshg'ariy

65. Arabistonda tilshunoslikning shakllanishi nima bilan bog'liq ?

- a) jahon tillari taraqqiyoti bilan b) arabcha matnlarning filologik tahlili bilan
v) Islom dini bilan g) Qur'onning vujudga kelishi bilan
d) arab lahjalarining tahlili bilan

66. 40 ming so'zli lug'at qaysi arab olimi tomonidan tuzilgan ?

- a) Al Gevari b) Al Firuzobodiy v) Al Javhar g) Abul Osvad d) Sibaveyx

67. Arab tilshunosligining o'ta taraqqiy etgan davri

- a) V-VII asrlar b) VII-VIII asrlar v) VIII-X asrlar g) VIII asr d) XIX asr

68. «Devonu lug'otit turk»da turkiycha so'zlar necha harf yordamida bitilgan ?

- a) 5 ta asosiy, 14 ta qo'shimcha b) 7 ta asosiy 18 ta qo'shimcha v) 9 ta asosiy, 26 ta qo'shimcha
g) 10 ta asosiy, 15 ta qo'shimcha d) 8 ta asosiy, 17 ta qo'shimcha

69. Zamaxshariyning «Mukaddimat-ul adab» asari qanday qismlardan tashkil topgan ?

- a) ot, fe'l, yordamchi so'zlar, otlarning turlanishi, fe'llarning tuslanishi
- b) otlarning turlanishi, fe'llarning tuslanishi, sifat va yordamchi so'zlar
- v) otlarning turlanishi, fe'llarning tuslanishi, sifat va fe'l darajalari
- g) fe'l, fe'llarning tuslanishi, sifat darajalari
- d) qismlarga bo'linmagan

70. Arab tilshunosligida qachon turg'unlik davri boshlandi ?

- a) VI –asrdan keyin b) VII asrdan keyin v) VIII asrdan keyin
- g) IX asrdan keyin d) turg'unlik davri bo'lmagan

71. Alisher Navoiyning qaysi asarida turkiycha so'z yasalishi muammosi yoritilgan ?

- a) «Lison-ut tayr» b) «Nazmul javohir» v) «Muxokamat –ullug'atayn»
- g) «Mezonul avzon» d) «Mufradot»

72. Fonetik akustikada nimalar o'rganiladi ?

- a) nutq tovushlarining hosil bo'lish o'rni
- b) nutq tovushlarining hosil bo'lish usuli
- v) nutq tovushlarining jarangli va jarangsiz aytilishi
- g) nutq tovushlarining eshitilishi sifati
- d) nutq tovushlarining eshitilishi pastligi, balandligi kuchi, qisqa yoki cho'ziqligi, tembri

73. Tovushning chiziqligi darajasi qanday o'lchanadi?

- a) eshitilishiga qarab b) tebranish davom etgan vaqtga qarab
- v) aytilishiga qarab g) ovozning chuziqligiga qarab d) o'lchab bo'lmaydi

74. Fonologiyaning vasifasi nimadan iborat?

- a) fonemalarning talaffuzini o'rganishdan
- b) fonemalar variantlarini o'rganishdan
- v) fonemalarning eshitilishini o'rganishdan
- g) fonemalarning sifatini o'rganishdan
- d) fonemalarning funksional qiymatini o'rganishdan

75. «Vokalizm» termini nimani taqozo etadi ?

- a) undoshlar majmuasini b) unlilar majmuasini v) sonor tovushlarni
- g) jarangli tovushlarni d) jarangsiz tovushlarni

76. Segmentasiya nima ?

- a) nutqning jumla va taktlarga bo'linishi

- b) nutqning takt va soʻzlarga boʻlinishi
- v) soʻzning boʻgʻinlarga boʻlinishi
- g) nutqni katta va kichik boʻlaklarga boʻlish
- d) boʻgʻinni tovushlarga boʻlish

77. Urgʻu sifat jihatdan qanday turlarga boʻlinadi ?

- a) soʻz va maʼno urgʻulariga b) leksik va dinamik urgʻularga
- v) dinamik, musiqaviy va miqdor urgʻulariga g) tonik, emfatik urgʻularga
- d) turlarga boʻlimaydi

78. Takt nima ?

- a) nutqning ikki katta pauzasi oraligʻidagi ohang butunligi
- b) jumlaning ikki qisqa pauzasi oraligʻidagi ohang butunligi
- v) jumlaning maʼnoli parchalari
- g) jumla parchalarining mustaqil urgʻu olishi
- d) nutqning kichik boʻlagi

79. Assimilyasiya hodisasida

- a) soʻz tarkibidagi tovushlar oʻrinlari almashadi
- b) soʻzdagi oʻxshash tovushlar nooʻxshash tovushlarga aylanadi
- v) soʻzdan biror tovush tushib qoladi
- g) soʻzdagi tovushlar soni ortadi
- d) tovushlar biri ikkinchisiga taʼsir etib, tovush oʻzgarishi roʻy beradi

80. Gaplologiya hodisasida

- a) soʻz boʻgʻinlarining birining talaffuzida tushib qolishi roʻy beradi
- b) soʻzda tovushlar soni orttiriladi v) tovushlar oʻrni almashadi
- g) nooʻxshash tovushlar oʻxshash tovushlarga aylanadi d) fonetik oʻzgarish roʻy bermaydi

81. Ingliz tilida

- a) tovushlar soni harflar sonidan deyarli 3 marta kam
- b) tovushlar va harflar soni teng
- v) tovushlar soni harflar sonidan ikki martr koʻp
- g) tovushlar soni harflar sonidan ikki marta kam
- d) harflar soni tovushlar sonidan 3 marta kam

82. Oʻzak morfemaning qanday turlari mavjud ?

- a) soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartiruvchi
- b) grammtik shakl yasovchi va grammatik maʼno yasovchi
- v) leksik maʼno anglatuvchi va grammatik maʼno anglatuvchi
- g) leksik maʼno oʻzgartiruvchi va grammatik maʼno oʻzgartiruvchi
- d) oʻzak morfemalar turlarga boʻlinmaydi

83. Soʻz yasovchi affiks morfema leksik maʼnoga

- a) qisman ta'sir qiladi b) ta'sir etmaydi v) ta'sir etishi va etmasligi ham mumkin g) ta'sir etib, uni to'liq o'zgartiradi d) aloqasizdir

84. Morfema nima ?

- a) tilning mustaqil ma'no anglatolmaydigan eng kichik birligidir
b) qismlarga bo'linmaydigan, mustaqil holda yo leksik yoki grammatik ma'no anglatoladigan tilning eng kichik birligidir
v) tilning qismlarga bo'linmaydigan, mustaqil ma'no anglatishi va anglatmasligi mumkin bo'lgan eng kichik birligidir
g) tilning qismlarga parchalanadigan va mustaqil holda ma'no anglatmaydigan eng kichik birligidir
d) morfema nutq birligi sanaladi

85. O'zbek tilida so'z o'zgartiruvchi affiks morfemalar jumlasiga

- a) otning egalik va kelishik qo'shimchalari, fe'ning shaxs-son qo'shimchalari kiradi
b) otning ko'chaytirish shaklini, fe'ning zamon shakllarini yasovchi qo'shimchalar kiradi
v) otning ko'plik shaklini yasovchi, fe'ning nisbat kategoriyasini yasovchi qo'shimchalar kiradi
g) mavxum otlarni va fe'ning mayl shakllarini yasovchi qo'shimchalar kiradi
d) fe'ning funksional shakllarini yasovchi qo'shimchalar kiradi

86. Affiks morfemalar o'zakka nisbatan joylashishiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi :

- a) so'z yasovchi, shakl yasovchi b) shakl yasovchi, so'z o'zgartiruvchi
v) so'z o'zgartiruvchi, so'z yasovchi g) infiksal, prefiksal, postfiksal
d) infiksal, postfiksal

87. Leksik ma'no

- a) voqyelikdagi narsa va predmetlarning nomlarini taqozo etadi
b) voqyelikdagi narsa va predmet, voqyea-hodisalar nomlarini yoki ular haqidagi tushunchani taqozo etadi
v) ish-harakati ma'nosini anglatadi
g) turdosh otlar haqidagi tushunchani anglatadi
d) atoqli va turdosh otlarning nomlarini anglatadi

88. Reduksiya qanday ma'no ifodalaydi ?

- a) leksik ma'no b) lug'aviy ma'no v) grammatik ma'no g) leksik va grammatik ma'no d) ma'no ifodalamaydi

89. Grammatik ma'no ifodalovchi sintetik vositalar jumlasiga qanday unsurlar kiradi ?

a) reduplikasiya b) yordamchi soʻzlar v) ohang va soʻz tartibi g) ichki fleksiya, suppletiv usul d) sintetik vosita orqali grammatik maʼno ifodalanmaydi

90. Qaysi tilda sifatning son kategoriyasi yoʻq ?

a) nemis tilida b) rus tilida v) ingliz tilida g) fransuz tilida
d) oʻzbek tilida

91. Koʻrsatilgan tillarning qaysi birida otning koʻpligi ichki fleksiya yordamida ifodalanadi ?

a) oʻzbek tilida b) ispan tilida v) eston tilida g) arab tilida
d) venger tilida

92. Olmoshning koʻplik shakli suppletiv usul bilan

a) hind-ovroʻpa tillarida ifodalanadi b) kavkaz tillarida ifodalanadi
v) fin-ugor tillarida g) xitoy-tibet tillarida d) olmoshning koʻpligi suppletiv usul bilan ifodalanmaydi

93. Men universitetda oʻqiyman gapida feʼl qaysi zamonda qoʻllangan ?

a) kelasi zamonda b) hozirgi zamonda v) oʻtgan zamonda g) kelasi zamon
gumon feʼli d) kelasi zamon maqsad feʼli

94. Soʻzlarning distributiv xususiyatlari deganda nimani tushunasiz ?

a) soʻzlarning bir-biri bilan moslashishini b) soʻzlarning gapdagi tartibini v)
suzlarning oʻzaro munosabati qurshovini g) soʻzlarning sintatik
munosabatini d) soʻzlarning bitishuv aloqasini

95. Narsa va predmetlarga nom berish jarayonini

a) etimologiya oʻrganadi b) onomasiologiya oʻrganadi v) onomastika
oʻrganadi g) antroponimika oʻrganadi d) toponimika oʻrganadi

96. Lugʻat maqolasi nima ?

a) lugʻatlarning kirish qismidagi matn b) lugʻatlarning oxirida beriladigan
matn v) qomusiy lugʻatlarda soʻzlarga beriladigan izox
g) izohli lugʻatlarda beriladigan soʻzlar tavsifi
d) har bir lugʻatda beriladigan soʻzlar izohi

97. «Lugʻat sitta alsina» nomli 6 tilli lugʻatni kim tuzgan ?

a) A.Navoiy b) Zamaxshariy v) Abul Osvad g) I. Ibrat
d) bunday lugʻat yoʻq

98. Ters lugʻatlardan kimlar foydalanadi ?

a) hamma b) filologlar v) ilmiy xodimlar g) lugʻatshunoslar
d) tarixchilar

99. Soʻz bilan denotat va signifikat qanday bogʻlanish mavjud ?
a) soʻz ular bilan bogʻlanmaydi b) soʻz denotat bilan emas, balki signifikat bilan bogʻlanadi v) soʻz faqat denotat bilan bogʻlanadi g) soʻz, denotat , signifikat uzviy bogʻlanadi d) soʻz denotat va signifikat bilan nisbiy bogʻlanadi
100. Frazologik iboralar lugʻati lugʻatlarning qanday turiga kiradi ?
a) qomusiy b) tarjima v) izohli g) ters d) oʻzi alohida turni tashkil etadi
101. Bir soʻz bir necha leksik maʼno ifodalashi mumkinmi ?
a) mumkin b) mumkin emas v) har bir soʻz yagona leksik maʼnoga ega boʻladi
g) qoʻshma soʻzlar bunday xususiyatga ega d) juft soʻzlar bir necha leksik maʼnoli boʻladi
102. Bir tushuncha bir necha soʻz bilan ifodalanishi mumkinmi ?
a) bir tushuncha ikkidan ortiq soʻz bilan ifodalanmaydi
b) mumkin v) bir tushuncha bir soʻz bilan ifodalanadi
g) bir tushuncha birdan ortiq soʻz bilan ifodalanmaydi
d) bir tushunchaning bir necha soʻz bilan ifodalanishi faqat nutqda yuz berishi mumkin
103. Soʻz maʼnosining koʻchirilishi qanday hodisalar doirasida yuz beradi ?
a) assimilyasiya b) metateza v) metafora, metonimiya, sinekdoxa
g) gaplogiya, diereza d) reduplikasiya, epenteza
104. Diereza hodisasida
a) soʻz tarkibiga yangi tovush qoʻshiladi b) talaffuzda soʻz tarkibidan bugun tushiriladi v) soʻz tarkibidagi baʼzi tovushlarning oʻrinlari almashadi
g) soʻz tarkibidagi oʻxshash tovushlar nooʻxshash tovushlarga aylanadi
d) soʻz tarkibidagi tovush tushadi
105. Soʻzning leksik maʼnosi
a) faqat konkret boʻladi b) abstrakt boʻlishi ham mumkin v) yakka maʼnoni taqozo etadi g) konkret, yakka, abstrakt va umumlashgan boʻlishi mumkin
d) umumlashgan boʻladi
106. Soʻz xususidagi qaysi javob toʻgʻri ?
a) soʻz predmetning belgisidir b) soʻz predmet haqidagi tushunchaning belgisidir v) soʻz biror hodisaning belgisidir g) soʻz predmetning ham, tushunchaning ham belgisidir d) barcha javoblar notoʻgʻri

107. Evfimizm hodisasida nima ro'y beradi ?

- a) bir tushuncha ikkinchisi bilan almashadi b) bir tushuncha ikki tushunchaning ma'nodoshi bo'ladi v) ma'lum tushunchani anglatgan so'z o'rniga shu ma'noda boshqa tushuncha qo'llanadi g) ma'lum bir so'zning aytilishi man etiladi d) so'z o'yini ro'y beradi

108. Leksik ma'noning qanday turlari mavjud ?

- a) atash b) ko'rsatish v) ko'rsatish va ko'chma ma'nolar g) atash, ko'rsatish va ko'chma ma'nolar d) turlarga bo'linmaydi

109. Funksiyadoshlik hodisasida

- a) ma'no predmetlar tashqi belgilarining o'xshashligiga asosan ko'chadi b) ma'no predmetlarning doimiy ravishda birga qo'llanishiga asosan ko'chadi v) butun va qism tushunchalariga asosan ko'chadi g) ma'no predmetlar bajaradigan vazifalarga asosan ko'chadi d) so'z ma'nosi ko'chirilmaydi

110. Quyidagi misol qanday hodisani taqozo etadi ? Shahar uyquda

- a) metonomiyani b) sinekdoxani v) vazifadoshlikni g) metaforani d) hych qanday hodisani taqozo etmaydi

111. So'z doirasida qanday mikrosintagmatik aloqa bo'lishi mumkin ?

- a) so'z bo'g'inlari aloqasi b) so'z shakli va ma'nosining aloqasi v) tovush va bo'g'inlar aloqasi g) so'zdagi morfemalar aloqasi d) bir so'z tarkibidagi mikrosintagmatik aloqa bo'lmaydi

112. Mustaqil so'zda predikativlik ifodasi mavjud bo'la olishini qaysi tilshunos asoslagan ?

- a) V.Vinogradov b) L. Tenyer v) G. Abduraxmonov g) A.Xojiyev d) A. Smirniskiy

113. Predikativlik nima ?

- a) so'zning voqyelikka munosabati b) kesimlilik v) subyekt va predikat munosabati g) til va nutq birliklarining voqyelikka munosabati d) fikrning voqyelikka munosabati

114. So'z birikmasi komponentlari

- a) faqat ergash bog'lanishli bo'ladi b) teng bog'lanishli bo'ladi v) ergash va teng bog'lanishli bo'ladi g) fe'lli birikmada ergash, otli birikmada ergash va teng bog'lanishli bo'lishi mumkin d) fe''lli birikmada teng, otli birikmada ergash bog'lanishli bo'ladi

115. Turg'un so'z birikmalari komponentlari o'rtasida qanday munosabat mavjud bo'ladi ?

- a) erkin sintagmatik munosabat b) dinamik harakterdagi munosabat
- v) tobelanish munosabati g) statik harakterdagi sintagmatik munosabat
- d) turg'un so'z birikma komponentlarga bo'linmaydi

116. Undalma va kirish so'zlar

- a) gap bo'lagi vazifasida kelolmaydi b) gapning uchinchi darajali bo'laklari vazifasida keladi v) gapning ikkinchi darajali bo'lagi vazifasida keladi g) gapning bosh bo'laklari vazifasida keladi
- d) gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari vazifasida keladi

117. «Aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol terminlari gapning sintaktik tahlilida qo'llanayotgan bo'lsa-da, ular gap strukturasi soxta ravishda sxemalashtiradi». Ushbu fikr kimning qalamiga mansub ?

- a) B. De Kurtene b) A.N. Kononov v) A.M.Peshkovskiy g) A.Nurmonov
- d) V.Vinogradov

118. Predikat va argument haqida aytilgan qaysi fikr to'g'ri ?

- a) predikat hukmning ijrosini, argument bu jarayonning ishtirokchisini taqozo etadi b) predikat kesimni, argument kesim doirasida kelgan holni taqozo etadi v) predikat propozitsiyaning asosiy unsurini, argument esa yordamchi unsurini taqozo etadi g) predikat mantiqiy etgani, argument harakat ijrochisini taqozo etadi d) predikat grammatik kesimni, argument aniqlovchini taqozo etadi

119. Quyida ismlari berilayotgan olimlardan qaysi biri strukturalizm vakili sanaladi ?

- a) A.G'ulomov b) N.Maxmudov v) N.Xomskiy g) U.L.Cheyf d) V.Gumboldt

120. L. Tenyer qaysi lisoniy nazariyasi bilan jahonga mashhur ?

- a) aktantlar nazariyasi b) sirkonstantlar nazariyasi v) valentlik nazariyasi
- g) fe'l markazli nazariyasi d) ot markazli nazariyasi

121. Ikkinchi darajali aktant an'anaviy tilshunoslikda qanday tushuncha bilan mushtarak ma'noli ?

- a) ega bilan b) kesim bilan v) hol bilan g) vositasiz to'ldiruvchi bilan
- d) vositali to'ldiruvchi bilan

122. I. Raspopov va V.G.Gak gapning aktual bo'laklarini qanday nomlaydilar ?

- a) tema va rema b) subyekt va predikat v) ega va kesim g) xabarning asosi va xabarning yadrosi d) dannoye va novoye

123. Gapning aktual bo'laklari nazariyasi

- a) Moskva tilshunoslik maktabida ilmiy asoslandi
- b) Kozon tilshunoslik maktabida ilmiy asoslandi

- v) Praga tilshunoslik maktabida ilmiy asoalandi
 - g) Kopengagen tilshunoslik maktabida ilmiy asoslandi
 - d) Tilshunoslik maktablari bilan aloqasi yo‘q
124. Gapning aktual bo‘laklari nazariyasi bobida o‘zbek tilshunoslaridan kim barakali tadqiqot ishlari qilgan ?
- a) A.Hojiyev b) M.Asqarova v) N.Mahmudov g) A.Sodiqov d) A.Nurmonov
125. Tema va rema bir gap doirasida
- a) barqaror bo‘ladi b) beqaror bo‘ladi v) tema barqaror, rema beqaror bo‘ladi g) rema barqaror, tema beqaror bo‘ladi d) ularning barqaror yoki beqarorligi so‘zlovchiga bog‘liq
126. Praga tilshunoslik maktabining vakili A.Martinening nazariyasi
- a) fuksional tahlil deb ataladi b) semantik-sintaktik tahlil deb ataladi v) sintaktik tahlil deb ataladi g) mantiqiy tahlil deb ataladi d) semantik tahlil deb ataladi
127. A.Martine nazariyasida qanday tushuncha ustuvor qiymatga ega ?
- a) sintagma b) monema v) fonema g) morfema d) so‘z
128. Monemaning qaysi biri o‘z-o‘zicha sintaktik faol bo‘la oladi ?
- a) qaram monema b) funksional monema v) avtonom monema g) superfunksional monema d) yarim funksional monema
129. Funksional monema
- a) gapning biror bo‘lagiga sintaktik faollik beradi
 - b) gapning umumiy sathiga sintaktik faollik beradi
 - v) gapning egasi tarkibiga sintaktik faollik beradi
 - g) gapning kesimi tarkibiga funksional faollik beradi
 - d) gapning bir yoki bir necha unsuriga funksional faollik beradi
- 130 Superfunksional monema qo‘shma gaplarda nimalar orqali ifodalanadi?
- a) qo‘shma gap tarkibiy qismlaridan biri orqali
 - b) qo‘shma gap tarkibiy qismlarining birinchi unsurlaridan biri orqali
 - v) bog‘lovchi yoki uning vazifasida kelgan unsurlar orqali
 - g) qo‘shma gap qismlarining ikkinchisi unsurlaridan biri orqali
 - d) superfunksional monema qo‘shma gapda ko‘zatilmaydi
131. Piktogramma nima ?
- a) biror xabar ifodasini beruvchi surat
 - b) bir necha xabar ifodasini beruvchi surat

- v) mustaqil soʻz maʼnosiga teng chizma
 - g) soʻz birikmasi maʼnosiga teng surat
 - d) bunday atama yoʻq
132. Ideografik yozuv ideogrammalari
- a) bir gapning maʼnosini taqozo etadi
 - b) soʻz birikmasi maʼnosini taqozo etadi
 - v) soʻz maʼnosini taqozo etadi g) qoʻshma soʻz maʼnosini taqozo etadi
 - d) morfema maʼnosini taqozo etadi
133. Fonogramma nima ?
- a) soʻzga teng belgi b) harfga teng belgi v) soʻz birikmasiga teng belgi
 - g) gapga teng belgi d) morfemaga teng belgi
134. Fonografik yozuv dastlab qayerda tarqalgan ?
- a) Hindiston va Mesepotomiyada b) Arabistonda v) Oʻrta Osiyoda
 - g) Xitoyda d) Yunonistonda
135. Fonografik yozuvni ruslar qaysi xalqdan oʻzlashtirganlar ?
- a) yunonlardan b) bulgʻorlardan v) hindlardan g) arablardan
 - d) serblardan
136. Sillabik yozuvni qanday tushunasiz ?
- a) boʻgʻinlarga asoslangan yozuv b) soʻzlarga asoslangan yozuv v)
 - qoʻshma soʻzlarga asoslangan yozuv g) harflarga asoalangan yozuv d)
 - tovushlarga asoslangan yozuv
137. Sugʻd yozuvining vatani qayer ?
- a) Arabiston b) Pajikent va Samarqand v) Eron g) Yunoniston
 - d) Hindiston
138. Oʻrta Osiyoda arab yozuvi bilan bir paytda X-XV asrlarda yana qanday yozuv ishlatilgan ?
- a) Oromiy b) Urxun-Enasoy v) uygʻur g) sugʻd d)Xorazm
139. Oʻzbek tilida tovushlar soni nechta ?
- a) oʻttiz beshta b) oʻttiz uchta v) oʻttiz ikkita g) oʻttiz bitta d) oʻttizta
140. Nemis tilidagi acht)sakkiz), Acht) diqqat), lesen soʻzlari qanday tamoyil asosida yoziladi ?
- a) tarixiy b) fonetik v) differensiyalash g) grafik d) morfologik
141. Hissiy bilish
- a) insonga xos b) parrandalarga xos v) hashorotlarga xos g) hayvonlarga
 - xos d) jonli mavjudotlarning barchasiga xos

142. Javoblarning qaysi biri tafakkur xususida ?
a) voqyelikni aniq aks ettiradi b) voqyelikni umumiy tarzda aks ettiradi v) narsa va predmetlar o'rtasidagi vaqtinchalik munosabatni aks ettiradi g) biror narsani bilish uchun tushunchaga asoslanmaydi d) tildan ayri yashaydi
143. Til tafakkurni
a) mavhumlashtiradi b) konkretlashtiradi v) hissiy bilishdan ajratadi g) sezgilar bilan uzviy bog'laydi d) hajman toraytiradi
144. Tafakkurning tarkibiy qismlari
a) tushuncha, narsa b) tushuncha, muhokama, munozara v) tushuncha, muhokama, xulosa g) tushuncha, munozara d) tushuncha, narsa, muhokama
145. Nutqning tarkibiy qismlari
a) fon, morf, so'z, gap, matn b) tovush, so'z, so'z birikmasi, gap, matn v) fon, morf, so'z, gap, so'z birikmalari g) morf, so'z, gap, matn d) nutqni tarkibiy qismlarga bulib bo'lmaydi
146. Tafakkur muhokamasini gap bilan tenglashtirish mumkinmi ?
a) tenglashtirsa bo'ladi b) tenglashtirib bo'lmaydi v) ma'lum nutqiy sharoitda tenglashtirish mumkin g) so'roq gap shaklida tenglashishi mumkin d) buyruq gap shaklida tenglashishi mumkin
147. «Tilni qog'oz varag'iga qiyoslash mumkin : fikr uning yuza qismi bo'lsa, tovush orqa tomonidir». Mazkur fikr muallifi kim ?
a) B.de Kurtene b) V.Gumboldt v) F.de Sossyur g) Forobiy d) Beruniy
148. Til va tafakkur birligida
a) nutq e'tiborga olinmaydi b) nutq til bilan yaxlit hodisa sifatida tasavvur etiladi v) faqat til nazarda tutiladi g) faqat nutq nazarda tutiladi d) tafakkurning nutq bilan aloqasi yo'q
149. Qaysi tilda burun faol nutq organlari qatoriga kiradi ?
a) xitoy tilida b) ispan tilida v) ingliz tilida g) fransuz tilida d) o'zbek tilida
150. Qaysi qatorda analitik tillar berilmoqda ?
a) rus, nemis b) o'zbek, uyg'ur v) ispan, turkman g) nemis, tojik d) ingliz, fransuz

GLOSSARIY

(tayanch iboralar to'plami)

Ayrim tilshunoslik terminlari

Abbreviatura (ital) -qisqartma so'zlar.

Abstrakt ot (lot.) -mavhum ot.

Abzas (nem) -xat boshi.

Adabiy til-umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum me'yurga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. Adabiy tilning ikki shakli bor: 1) yuzma shakli. 2) og'zaki shakli.

Affiks (lot.) -qo'shimcha.

-affiks bir necha variantga ega bo'lishi mumkin

-affiks bir vaqtda ham shaxs, zamon va sonni ko'rsatishi mumkin.

Agglyutinasiya (lot. agglutinare–yopishtirmoq). 1. So'z yasash yoki shakl yasash asosi o'zgarmagan holda yangi so'z yoki so'z shakli hosil bo'lishi). Bunda har bir affiks ma'lum bir ma'no, vazifa bilan qatnashadi. Mas, turkiy tillarda jumladan, o'zbek tilida yasama so'zlar va so'z shakllari asosga ma'lum izchillik bilan affikslar qo'shish orqali hosil qilinadi va bu affikslarning har biri o'z ma'nosi bilan qatnashadi: ter-im-chi-lar-imiz-ga. 2. Ikki so'z (asos)ning bir so'zga, bir so'z shakliga aylanishidan iborat morfologik jarayon. Mas, echkini emar>echki emar > echkemar.

Agglyutinatív Tillar. So'z yasashi va shakl yasashi agglyutinasiya yu'li bilan bo'ladigan tillar. Mas, turkiy tillar, fin-ugor tillari.

Alfavit - alifbo (yunon alifbosidagi birinchi ikki harfning nomi: alpha va beta).

Amaliy tilshunoslik. Tilshunoslikning lingvistik masalalarni (mas, mashina tarjimai) hal etishni hisobga olgan holda amaliy yu'l bilan o'rganuvchi sohalari (eksperimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika kabi).

Amorf tillar (yun. amorphos– shaklsiz, shaklga ega bo'lmagan). Affikslarga ega bo'lmagan, so'zlar orasidagi grammatik aloqalar bitishuv yu'li bilan yoki yordamchi so'zlar vositasida ifodalanadigan tillar. Mas, xitoy tili.

An'anaviy tilshunoslik. Tilshunoslikdagi faqat til qismlari va tuzilishining ichki munosabatlarini, bog'liqliklarini yoritish bilan birga til va tafakkurning o'zaro munosabati, tilning jamiyat bilan, shu tilda so'zlashuvchi jamoa bilan aloqasi kabi masalalarni o'rganishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yu'nalishlar. Bu yu'nalishlarga strukturalizm o'zini qarama-qarshi qo'yadi.

Antonim (yun.) -o'zaro zid, qarama-qarshi ma'noli til birliklari.

Antroposentrik usul - matnda til egasi so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etishning usullaridan biri.

Argo (frans.) -yasama til. Biror ijtimoiy guruh, toifa (masalan, talabalar, sportchilar, o'g'rilar) ning o'ziga xos, boshqalar tushunmaydigan lug'aviy birliklardan iborat yasama tili.

Arxaizm (yun.) -ma'lum davr uchun eskirgan, iste'moldan chiqqan boshlagan til birligi (so'z, frazeologizm va b.).

Areal (lot. arealis<area – maydon, makon). Fonetik, leksik, grammatik hodisalarning tarqalish doirasi.

Areal lingvistika. 1. Tilshunoslikning lingvistik areallarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi sohasi. 2. Tilshunoslikda lingvistik areallarni o'rganishga alohida e'tibor beruvchi yu'nalish.

Assimilyatsiya – qator kelgan nutq tovushlarining bir-biriga ta'sir qilib o'ziga moslashtirishidir. Progressiv assimilyatsiya - aytdi-aytti, yurakga-yurakka. Regressiv assimilyatsiya – yigitcha-yigichcha, tuzsiz-tussiz.

Avtor gapi - muallif gapi.

-bir affiks bir necha ma'noni beradi

Bog'lama fe'l bo'lmagan so'zni fe'lga xos ma'no va vazifaga moslovchi yurdamchi fe'l.

Bog'lanishli xususiyat - inson nutqining matn sifatidagi asosiy xususiyatlaridan biri.

Dialekt (yun.) -umumxalq tilining ma'lum bir hududda qo'llanadigan ko'rinishi.

Dialog (yun.) - suhbatdoshlarning bevosita bir-biriga qaratilgan nutqi.

Dissimilatsiya – ikki o‘xshash tovushning o‘rin almashinuvi. Progressiv dissimilyatsiya: birorta-bironta. Regressiv dissimilyatsiya – ittifoq-intifoq

Distribusiya (lot. distributio–ajratish, tarqatish). Biror til birligining nutqda boshqa til birliklari qurshovida ishlatila olish o‘rinlari. Distribusiyaning quyidagi turlari bor: 1) qo‘shimcha distribusiya

Distributiv metod. Struktural lingvistikada til unsurlarini muayyan tilga xos qonun-qoidalar asosida bo‘lish metodi.

Derivat - matn tarkibidagi har bir shakllanishning oxirgi natijasi.

Deskriptiv lingvistika (ingl. deskriptive – tasviriy). Hozirgi tilshunoslikda amerika strukturalizmi deb nomlanuvchi yu‘nalish. Bu yu‘nalish til tuzilishi shakliy unsurlarini distributiv metod asosida o‘rganadi.

Deyktik (ishora qilish) funksiyasi – matn tarkibida olmoshlarning har qanday semantik turi bajaridagan vazifa.

Ekspperimental fonetika – nutq tovushlari artikulyatsiyasidagi havo tebranishi, tebranish miqdori sarflangan vaqt, oberton qanday yuzaga chiqishi kabilar ma‘lum texnik apparatlar vositasida aniqlanadi va shu asosda fonetik qonuniyatlar bo‘g‘in, urg‘u, intonatsion xususiyatlar aniqlanadi.

Ekstralingvistik omillar (lot. extra – tashqi fran. linguistique – tilga xos) –

Ekstralingvistika. Tilshunoslikning etnik, ijtimoiy-tarixiy, jug‘rofiy va boshqa omillarni tilning taraqqiyoti va vazifasi bilai bog‘liq hodisalar sifatida o‘rganuvchi sohasi.

Esperanto. 1887 yilda varshavalik vrach L. L. Zamengof tomonidan yaratilgan, leksikasi esa keng tarqalgan evropa tillari uchun umumiy bo‘lgan, so‘z yasalihi va grammatik qurilishi agglyutinasiya prinsipiga asoslangan xalqaro sun‘iy til.

Etnolingvistika. Makrolingvistikaning til bilan xalq o‘rtasidagi munosabatlarni, tilning faoliyati va taraqqiyotida lingvistik va etnik omillarning o‘zaro ta‘sirini o‘rganuvchi bo‘limi.

Flektiv tillar –o‘zak morfema va affiksali morfema chegarasini ajratish qiyin bo‘lgan tillar. Unga xos belgilar:

Fonematik transkripsiya – Grammatika kitoblarida misollarning morfologik strukturasini ko‘rsatish uchun ko‘proq ishlatiladi, chunki bunday hollarda so‘z talaffuzidan ko‘ra so‘z tarkibi ahamiyatlidir; mazkur transkripsiya asosan fonemalarni qanday o‘rinda ishlatilgan bo‘lishidan qat‘i nazar, doim bir xil belgi bilan ko‘rsatishdir.

Fonetik transkripsiya – talaffuzni aniq ifodalashga xizmat qiladi va xorijiy tillar lug‘atida keng qo‘llaniladi. Har bir talaffuz qilingan tovushni aks ettirish fonetik transkripsiyaning asosiy vazifasidir. Transkripsiya har qanday alfavitga asoslangan bo‘lishi mumkin. Ba‘zi maxsus tovushlarni belgilash uchun esa diakritik belgilardan, boshqa alifbelardan qo‘shimcha belgilar olishdan, mavjud belgilarni teskari yuzish yu‘lidan foydalaniladi. Fonetik transkripsiya chet tilini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Fonetika – tilshunoslikning nutq tovushlari, ularning hosil bo‘lishi, tiplari, tovushlar o‘zgarishi, bo‘g‘inlar, ularning tuzilishi tiplari, strukturali; urg‘u, urg‘u tiplari va intonatsiya haqidagi tarmog‘idir.

Fraza – nutqning yagona intonatsiyaga ega o‘zaro to‘la pauza bilan ajraluvchi qismi.

Freym - matn tarkibida namoyon bo‘ladigan andozali voqelik holatini aks ettiruvchi axborot strukturali.

Grafika (yun.) - nutq tovushlarini yuzib ifodalash vositalarining muayyan tuzilishi.

Grammatik ma‘no - so‘zning shakliy qismi grammatik shakli ifodalaydigan ma‘no.

Grammatika (yun.) -tilshunoslikning so‘z shakllari (shakl yasalihi) , so‘z birikmalarining turlari, gap turlari (tilning grammatik qurilishi) haqidagi bo‘limi.

Ido. 1907 yilda fransuz Lui de Bofron tomonidan esperantoning varianti sifatida yaratilgan xalqaro sun‘iy til.

Intralingvistika. Tilshunoslikning til ichki tizimini, uning birliklari va kategoriyalarini, til yaruslari va ularning tuzilishini nolisoniy omillarga murojaat qilmay o‘rganuvchi sohasi. Qiyos.

Ekstralingvistika. Komparativistika. Intralingvistikaning asosiy bo'limlari fonologiya, leksiko-lo-giya va grammatikadir.

Interlingva (lot. inter– ora–lingua– til). 1903 yilda Juzeppe Peano tomonidan taqdim etilgan xalqaro yordamchi til.

Interlingvistika. Tilshunoslikning xalqaro aloqa-aralashuv vositalari sifatida turli yordamchi tillarni yaratish va ulardan foydalanish jarayonini o'rganuvchi bo'limi.

Jargon (fr.) - biror guruh vakillarining o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida o'zgacha ma'noda qo'llaydigan so'z va iboralar.

Kognitiv tahlil – matnni bilim olish va saqlash, uni amalda qo'llash va uzatish manbai, va nihoyat, uni shakllantiruvchi til tizimi mtfatida o'rganishning usullaridan biri.

Komparativistika (lot. somparativis – qiyosiy)–q. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik.

Konsept - matn tarkibida tafakkur birligi sifatida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotgan hodisa.

Leksema (yun.) - tilning lug'at tarkibiga xos birlik; til qurilishining lug'aviy ma'no anglatuvchi birligi.

Leksik ma'no- so'zning material qismi (leksema) bildiradigan ma'no; lug'aviy ma'no.

Lingvistik geografiya. Tilshunoslikning har bir alohida til hodisalarining hududiy tarqalishini o'rganuvchi bo'limi. Bu sohaning o'rganish ob'ekti dialekt(lar) hisoblanadi.

Lingvistik xarita. Til hodisalarining tarqalish hududi aks ettirilgan xarita.

Lingvistik xaritalashtirish. Til hodisalarining tarqalish hududini xaritada belgilash, tarqalishini xaritaga tushirish.

Lingvistika - tilshunoslik.

Leksik takror - matn tarkibida uning komponentlarini o'zaro bog'lash vositalaridan biri.

Matn - funksional jihatdan tugallangan nutq birligi. (A.A.Leont'ev).

Matn - har tomonlama mukammal holatga keltirilgan yozma nutq mahsuli (I.R.Gal'perin).

Matn - tilning mazmuniy jihatdan tugallangan eng yuqori ideal kommunikativ birligi. (K.Kojevnikova).

Matn - tugallangan, yozma ko'rinishda voqelangan, sarlavha va turli leksik, grammatik, mantiqiy, uslubiy munosabatlar asosida bog'dangan gapdan yuqori birliklardan tarkib topgan hamda ma'lum bir muloqot maqsadi, pragmatik rejaga ega bo'lgan nutqiy ijod mahsuli. (I.R.Gal'perin. Tekst kak ob'ekt lingvisticheskogo issledovaniya).

Matn - ham inson nutqiy faoliyatining mahsuli, ham nutqiy faoliyat natijasi (K.Gauzenblaz)

Matn - har bir supersintaktik butunlik o'z bog'lanishi, rivoji va tugallanmasiga ega bo'lgan miniatyura holidagi hikoya (L.M.Lyapon).

Matn - ichki bog'lanishli bo'lgan, muloqot maqsadida mazmunan o'zaro birikkan gaplardan tashkil topgan nutqning har qanday parchasi. (R.Bart).

Matn bog'lovchilari - matn tarkibida qo'llaniladagin *birinchidan, ikkinchidan, xullas, demak* kabi so'zlar.

Matnda inson omili - har qanday matn ortida turuvchi lisoniy tizimlarni egallagan muayyan shaxs (YU.N.Karaulov)

Matnning global mazmuni - o'quvchi ongida matn qismlarining qayta tiklanadigan mazmun turi.

Millatlararo aloqa tili. Bir davlat (mamlakat) doirasida turli millat vakillari tomonidan aloqa vositasi sifatida foydalaniladigan, millatlararo aloqa vositasi xizmatini o'taydigan til.

Milliy til. Millat bo'lib shakllangan jamoaning umumiy tili.

Morfema (yun.) - tilning ma'noli, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan eng kichik birligi. Morfema ikki xil bo'ladi: 1) o'zak (so'z) morfema; 2) affiksial morfema (qo'shimcha morfema).

Morfemika - morfemalarning mohiyati, tuzilishi, turlari haqidagi bo'lim, ta'limot.

Morfologiya (yun.) -grammatik ma'no so'z shakllari, so'z turkumlari haqidagi grammatik ta'limot.

Murakkab sintaktik butunlik - Ikki va undan ortiq gaplarning o'zaro semantik va sintaktik jihatdan bog'lanishidan tashkil topgan butunlik.

Mentalingvistika (lot. mens, mentis – ong, tafak-kur+lingvistika). Tilshunoslikning til bilan tafakkurning aloqasini va shunga bog'liq masalalarni o'rganuvchi bo'limi.

Monema - nutqda (matnda) til birliklarining sintaktik jihatdan faollashadigan eng kichik birligi (A.Martine).

Naturalistik oqim. Tilni tabiiy organizm sifatida qarovchi lingvistik oqim.

Naturalistlar. Xalqaro yordamchi tilni tabiiy milliy tillar asosida yaratish zarur deb qarovchi oqim.

Neologizm (yun.) - yangi so'z, iboralar. Neologizmlar – taraqqiyotni jadallashtirishga aloqador tushunchalarni belgilash maqsadida yaratilgan yangi, hali o'zlashib ketmagan so'zlardir.

Numerativ-hisob so'zlari.

Nutq tovushi – o'pkadan kelayutgan havoning nutq organiga urilishidan hosil bo'lgan tebranish.

-o'zak va negiz, negiz va grammatik affikslar o'rtasidagi chegarani belgilash qiyinchilik tug'diradi.

-o'zak va negizga affikslar qo'shilganda tovushlar almashinuvi kuzatilishi mumkin.

Olinma so'z - o'zlashma so'z.

Paralingvistika. Tilshunoslikning o'zaro aloqa-aralashuvda imo-ishora, mimika, nutq vaziyati kabi omillarni o'rganuvchi sohasi.

Pleonazm - matnda qo'llaniladigan ortiqcha so'zlar.

Psixolingvistika. Tilshunoslikning faoliyatini nutq akti mazmuni bilan so'zlovchining maqsad-niyati orasidagi aloqadorlik nuqtai nazaridan o'rganuvchi sohasi. Psixologiya bilan lingvistikaning sintezi sifatida yuzaga kelgan bu soha nutqni idrok etish, tilni egallash kabi masalalarni o'rganadi.

Period - Ma'lum bir mazmun munosabati ifodalangan, ohangda tugallik bo'lgan, gap qurilmalari o'ziga xos belgiga ega bo'lgan murakkab sostavli gaplar.

Qiyosiy-tarixiy metod. Nisbatan keyingi vaqtlardagi yozma manbalar va jonli til faktlarini qiyoslab o'rganish asosida ana shu jonli til va yozma manbalarda uchramaydigan (qayd etilmagan) qadimgi til faktlarini tiklashdan iborat lingvistik metod.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik. Tilshunoslikning qarindosh tillarni qiyosiy-tarixiy metod asosida o'rganuvchi bo'limi.

Qiyosiy fonetika – qarindosh tillar uchun umumiy hodisa va qonuniyatlarning holati, qo'llanish miqdorlari, o'ziga xosligi qiyos qilinadi.

Singarmonizm – unli tovushlarning moslashuvi, ohangdoshligi, uyg'unligi demakdir. Bu hodisa faqat turkiy tillarda uchraydi.

Sintagmatik qator - matn sifatida reallashgan bog'lanishli nutq komponentlarining o'zaro sintaktik munosabatlari voqelanadigan markaz.

Sintetik tillar (yun. synthetikos--biriktirilgan, qo'shilgan). Grammatik ma'nolar (gapda so'zlarning o'zaro munosabati) shakl yasovchi affikslar vositasida ifodalanadigan tillar. Mas, rus va nemis tillari sintetik tillar jumlasidandir.

Struktural lingvistika. 1. ayn. Strukturalizm. 2. Tilshunoslikning o'z tekshirish predmetini til tizimidagi ichki munosabatlar va aloqalar bilan chegaralovchi, til va tafakkurning o'zaro munosabati, tilning jamiyat bilan aloqasi kabi masalalarni chetlab o'tuvchi sohasi.

Strukturalizm (log. structura – tuzilish, qurilish). Tilshunoslikda til komponentlarining ichki munosabatlarini, o'zaro bog'liqligini, tilning tuzilish tomonini yoritish asosiy maqsad qilib qo'yilgan yu'nalish. Strukturalizmning asosii yu'nalishlari quyidagilar: 1) Praga lingvistik maktabi 2) Amerika strukturalizmi; 3) Kopengagen maktabi; 4) London lingvistik maktabi.

Strukturaviy markaz - matn orqali ifodalangan voqealarning tafakkurdagi idroki shaklini aks ettiruvchi konseptning ssenariy tuzilishini qoliplashtirishda bajarilayotgan harakat.

Supersintaktik butunlik - matn tarkibidagi grammatik jihatdan to'liq shakllangan nisbiy mustaqil gaplarning semantik jihatdan birikuvidan tashkil topgan sintaktik qurilmalar.

Sosiolingvistika (lot. soci(etas) – jamiyat+lingvistika). Tilshunoslikning tilning ijtimoiy yashashi va ijtimoiy taraqqiyot sharoitlarini o'rganuvchi sohasi.

Tarixiy fonetika – nutq tovushlari taraqqiyoti o'zgarishi bilan bog'langan hodisalar, qonuniyatlar beriladi. Tilga xos fonetik jarayunlar tarixiy yudgorliklar orqali yuritiladi.

Tavsifiy fonetika – nutq tovushlari, ularning xususiyati va xarakteri qayd etiladi. Fonetikaning sillabika, akustika, intonatsiya, tovush o'zlgarishi va uning qonuniyatlari haqida ma'lumot beriladigan sohasi.

Tillar oilasi. Uzaro o'xshashliklari kelib chiqish asosining umumiyligi bilan izohlanadigan tillar guruhi (til shoxobchasi): Turkiy tillar oilasi.

Tillarning genealogik tasnifi. Tillarning shajaraviy tasnifi.

Tillarning qarindoshligi. Tillarning bir asos tildan kelib chiqqanligi va ularning fonetik, leksik va grammatik qurilishida bir asos tildan kelib chiqqanligini ko'rsatuvchi umumiylik, izchil mosliklarning mavjudligi.

Tipologiya (yun. typos – iz, shakl, namuna+logos– ta'limot). 1. Tilshunoslikning tillarni tipologik tasnif qilish prinsipi va usullarini o'rganuvchi bo'limi. 2. Til birliklarini biron umumiy belgisi asosida tasnif qilish.

Transkriptsiya – tovush va harf orasida nomutanosiblik bor bo'lgan tillarda ushbu yuzuv muhim ahamiyat kasb etadi, undan o'qish-o'qitish ishlarida keng foydalaniladi.

Triftonglar – tarkibi uch tovushdan iborat. Masalan: [av. .]

Tub struktura - matnda katta sintaktik strukturaning vujudga kelishi uchun poydevor (asos) vazifasini bajaruvchi semantik struktura.

Umumiy tilshunoslik. Tilshunoslikning, xususiyl til-shunoslikdan farqli holda, tilni umuman insonga xos hodisa sifatida o'rganuvchi bo'limi. Umumiy tilshunoslikning asosiy vazifasi dunyo tillariga xos eng umumiy belgi-xususiyatlarni aniqlash va yoritishdir.

Ustpredikativlik - murakkab sintaktik qurilma ko'rinishidagi matn teng yoki bog'lanishli komponentlar munosabatining qaysi birini taqozo etishidan qat'iy nazar unda mavjud asosiy xususiyat belgisi.

Vulgarizm (lot.) - dag'al so'z.

Oksyumaron - *Ne'mat Aminov adabiyotda, hayotda vijdon qo'ng'irog'ini chalib ketdi, desak mubolag'a bo'lmaydi...* (O'zAS, 14.07.2006).

Olmosh - matn tarkibida uning komponentlarini o'zaro bog'lash vositalaridan biri.

Xususiyl tilshunoslik. Ayrim bir til haqidagi fan. Mas, rusistika – rus tili haqidagi fan.

MUNDARIJA

1. Kirish.....	2
2. Namunaviy o‘quv dasturi.....	3
3. Sillabus.....	10
5. Ma’ruza matni va dars ishlanmasi (mashg‘ulotning 80 minutlik xronologik xaritasi bilan).....	27
6. Seminar mashg‘ulotlari ishlanmasi.....	133
7. Testlar.....	201
8. Glossarey.....	227